

Qo`ziyev Umidjon

O`ZBEK ADABIYOTI TARIXI
1-qism
(uslubiy qo`llanma)

Namangan – 2016

Mazkur uslubiy qo'llanma universitetlarning 5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi) yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda “O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti” fani bo'yicha ma'ruba mashg'ulotlari uchun tavsiya etilgan mavzular, reja, nazorat uchun savol va topshiriqlar, foydalanimishga tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati jamlangan. O'quv-uslubiy qo'llanmadagi mavzular Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015-yilda oliy o'quv yurtlari uchun tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturiga muvofiq tartiblangan. Ma'ruzalar uchun oliy o'quv yurtlariga mo'ljallangan N.Mallayev, R.Vohidov, H.Eshonqulov, B.To'xliyev kabi yetakchi mutaxassislarining turli kitoblari asos qilib olingan. Zaruriy o'rnlarda internet ma'lumotlari ham kiritilgan.

Mas'ul muharrir:

M.Sulaymonov, *filologiya fanlari nomzodi, NamDU dotsenti*

Taqrizchilar:

F.Karimova, *filologiya fanlari nomzodi, NamDU dotsenti*

K.Abdullayev, *pedagogika fanlari nomzodi, NamDU qoshidagi 2-akademik litsey direktori*

Musahihih:

G'.Xolmatov

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma NamDU o'quv-uslubiy kengashining *2016-yil 11-maydagi 8-sonli yig'ilishi* qarori bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

ADABIY TASAVVUR VA BADIY TAFAKKURNING SHAKLLANISH DAVRI. ISLOMGA QADAR YARATILGAN ADABIYOT (ENG QADIMGI DAVRLARDAN X ASRGACHA)

Reja:

1. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalasi
2. Turonzamin qadimgi madaniy markazlardan biri sifatida.
3. Qadimgi davrlardan eramizning VIII asrigacha Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar madaniyati, yozuvi va san'ati.
4. Qadimgi shumer madaniyati va turkiy qavmlar tarixi.
5. "Bilgamish" dostonining turkiy xalqlar eposiga munosabati. Eng qadimgi og'zaki adabiy yodgorliklar.
6. Qahramonlik eposi.

Tayanch so'z va iboralar: *so'z san'ati, adabiyot, davrlashtirish, epos, "Bilgamish", Alp Er To'nga, shumer adabiyoti, akkad, Atilla, qahramonlik eposi, Alpomish, Afrosiyob*

O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalasi. Ayrim mutaxassislar adabiyot tarixi bosqichlarini podsholarning, sulolalarning hukmdorlik davri bilan, boshqalari esa yirik tarixiy voqealar bilan bog'lashadi. Ba'zi olimlarimiz, jumladan, prof. N.Mallayev o'zbek adabiyoti tarixini, bir tomonidan, jamiyatning umumiylara taraqqiyot qonunlari, o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi taraqqiyoti, ikkinchi tomonidan, adabiyot tarixi taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari: badiiy adabiyotning ijtimoiy mohiyati, vazifasining o'sib borishi, adabiy tur va janrlarning shakllanishi, taraqqiy etishi hamda so'z san'atining boshqa jihatlari takomiliga xos xususiyatlarni ko'zda tutib bosqichlarga ajratish kerakligini ko'rsatib o'tishgan. Professor **N.Mallayev**ning oliv o'quv yurti talabalari uchun chiqqargan darsligida o'zbek adabiyoti tarixi quyidagi bosqichlarga bo'lingan:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.
2. X-XI asrlar adabiyoti.
3. XI asr va XIV asr boshlaridagi adabiyot.
4. XIV asr o'rtalaridan XVII asrgacha bo'lgan adabiyot.
5. XVII asrdan XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan adabiyot.
6. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot.

Prof. **B.To'xliyev** o'zbek adabiyoti tarixini quyidagicha davrlashtirishni tavsiya etadi:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar «Avesto», «Alpomish» va b.
2. Ilk o'rta asrlar adabiyoti «Kultegin» bitiklari va b.
3. O'rta asrlar adabiyoti IX-XVI asrlar:
4. Temuriylar davri adabiyoti.
5. Alisher Navoiy va uning davri adabiyoti.

6. XVII-XIX asrlar adabiyoti.

7. XX asr adabiyoti¹.

Boshqa manbalarda:

1. Adabiy tasavvur va badiiy tafakkurning shakllanish davri

2. Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renessansi).

3. Mumtoz didaktik badiiy ijod, dostonchilik va qissachilikning vujudga kelish davri (XI-XIII asrlar)

4. Tasavvufiy talqinlar va badiiy tafakkurning yuksalish davri.

5. Adabiy muhitlarning shakllanishi va rivojlanishi davri. XVII –XIX

6. Yangicha ma’rifatparvarlik adabiyoti

7. Milliy uyg’onish davri

8. Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri (1917-1929)

Prof. **R.Vohidov** va **H.Eshonqulov** quyidagi variantdagi tasnifni ma’qul ko’radilar:

1. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XIX asr o’rtalarigacha)

2. Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti (XIX asr II yarmidan XX asr 20-yillarigacha)

3. Yangi o’zbek adabiyoti (1930-yildan hozirgacha)

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar Markaziy Osyo hududida qadimdan yashagan o’zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlarning adabiy yodgorliklaridir. Keyingi taraqqiyot bosqichlaridagi adabiyot esa bevosita o’zbek xalqi tomonidan yaratilgan adabiyotdir.

O’zbek xalqi ma’naviy madaniyatining katta va ajralmas bir qismi o’zbek adabiyotidir.

O’zbek adabiyoti tarixi o’zbek xalqining qadim zamonlardan boshlab hozirgi kunga qadar yaratgan badiiy adabiyotini o’z ichiga oladi. Adabiyotshunoslikda o’zbek adabiyoti tarixi ikki nom asosida tilga olinadi:

1. O’zbek mumtoz adabiyoti. Bunda eng qadimgi davrlardan boshlab, XX asr boshlarigacha bo’lgan davr nazarga olinadi.

2. Hozirgi zamon o’zbek adabiyoti yoki XX-XXI asrlar o’zbek adabiyoti.

Turonzamin qadimgi madaniy markazlardan biri sifatida. Markaziy Osyo xalqlari juda qadim zamonlardan yozuvdan foydalaniб kelishgan. Avesto yozuvi, oromiy yozuvi hududimizda foydalilanigan eng qadimgi xat turlaridan ekanligi tasdiqlangan. Mutaxassislar o’rxun yozuvi I asrda vujudga kelganligini ta’kidlashadi. Markaziy Osiyoda ilm-fan taraqqiyoti manbalari bizga qadar yetib kelmagan bo’lsa ham “Devonu lug’ot it-turk”, “Qutadg’u bilig” asarlaridagi faktlar ajodolarimiz falakiyot sohasida ham ulkan yutuqlarga erishganligini isbotlaydi. Beruniy “Osor ul-boqiya” asarida qadimgi Xorazmda nihoyatda aniq taqvim yaratilganligi, ilm-fan o’ta taraqqiy etganligini yozadi.

¹ To’xliyev B. O’zbek adabiyoti. Darslik. 9-sinf. - T., 2000. 13-bet.

1932-yilda Termiz yaqinidagi Ayrитомдан toshga ishlangan uch cholg'uchi ayol surati topildi. Tuproqqa'l'a saroyidagi III asrga mansub devor suratlari ham Turonda madaniyat taraqqiyoti darajasini ko`rsatib turibdi. Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038)ning "Yatimat ad-dahr" asari Qohira nusxasi 1801 sahifadan iborat bo`lib, Mavarounnahr va Xurosonda arab tilida ijod etgan shoir va adiblar 4-qismga kiritilgan. Ularning umumiy soni 124 ta bo`lib, 48 tasi bevosita Buxoro farzandlari hisoblanadi. Afsuski, yurtimizga kirgan har bir bosqinchi o`z hukmronligini o`rnatisht uchun oldingi sivilizatsiya qo`lga kiritgan yutuqlarni tag-tugi bilan yo`q qilgan. Turkiy xalqlar og`zaki ijodi bilan miloddan avvalgi 2800-yillarda yashagan Bilgamishxon (Gilgamesh) va uning sharafiga sopol lavhalarda bitilgan dostonlar davrining ma'lum jihatdan o`xhashlik tomonlari bor. O`tgan asrning 40-yillarda ingliz arxeologи Leyard Ossuriya poytaxti Nineviya xarobalarini o`rgana boshladи. Tekshirish natijasida Ossuriya podshosi Ashshurbanipal saroyi qoldiqlaridan mixxat belgilari bilan qoplangan 20 ming sopol kitobga ega bo`lgan kutubxona qo`lga kiritildi.

Midiyalik va bobillik johillar tomonidan yondirilgan kutubxonalar xazinasida qadimgi ajdodlarimiz yaratgan adabiy yodgorliklar borligini tan olish g`oyat faxrlanarlidir. Bu sopol kitoblar eramizdan oldingi 2000-yillarda so`zlashuvdan qolgan shumer (sumer) tilida bitilgan deb hisoblanadi. Amerikalik shumershunos S.N.Kramerning isbotlashicha, shumeriylar yaratgan adabiy suujetlar va ilmiy kashfiyotlarni boshqa xalqlar, jumladan, bobilliklar o`zlashtirganlar. Shumeriylar Mesopotamiyada – Dajla va Frot (turkiylar buni O`kuz deb atashgan) daryosi oralig`ida yashashgan.

Yunon tarixchisi Xores Mitilenskiy Tanais (Sirdaryo) daryosi naryog`idagi xalqlarda ibodatxonalar, qasrlar va xususiy uylarning devorlariga turli tasvirlash urf bo`lib, mahalliy xalqlar orasida shuhrat qozongan epik asarlarning sujeti asosiy manba vazifasini o`tagan². Uning motivlari XIV-XVI asr miniyatyrachiligi, og`zaki va yozma adabiyotiga ta'sir qilgan.

Ashshurbanipal kutubxonasidan topilgan sopol kitoblar orasidan ikki daryo oralig`i - Mesopotamiyaning ulug` tarixiy-affsonaviy qahramoni Bilgamish haqidagi she`rlar turkumi ham uchraydi. Bu she`rlarni keyinchalik akkadlar o`zlashtirib olishgan va o`z tillarida 12 qismdan iborat tugal doston yaratishgan. Shumer tilidagi sopol kitoblar topilgunga qadar bu doston akkadlarning adabiy merosi sifatida mashhur bo`lgan. Zotan, doston ijodkorlari shumerlardan yetib kelgan adabiy parchalarni ma'lum bir tizimga solishgan, qahramonlarning asl nomlarini o`z tillari va urf-odatlariga moslab o`zlashtirishgan, qo`shimcha voqealar kiritishgan. Akkadlar dostoni «Gilgamish» deb atalgan. Qadimshunoslar bu asarning mukammaligini asos qilishib, ko`proq akkad shakllariga murojaat etishgan. Chunonchi, shumer va akkadshunos I.M.Dyakonov ham dostonni rus tiliga akkadchadan tarjima qilgan.

² Рахимов А. Шарқда уйғониш харакати // ЎТА, №5, 1991, 4-бет

Shumer tilidagi sopol hujjatlar doston qahramoni tarixiy shaxs bo'lganligini ko'rsatadi. I.M.Dyakonovning ma'lumot berishicha, miloddan avvalgi XXVII asr yozuvlarida Bilgames yoki Belgemes shaklidagi shumer xudolarining nomlari uchraydi. 2800-2700 yillarda esa Unug shahrining kohini va qo'shin boshlig'i Bilgamish (yoki Bilgames) bo'lgan. Bu shaharning nomi qadimgi yahudiy tilida Erex, akkadlarda Uruk, yunonlarda Orxoy, hozirda esa Varka nomi bilan yuritiladi. Arxeologlar Unug shahri tarixda bo'lgan va qalın devorlar bilan ko'tarilganligini isbotlashgan.

«Bilgamish» dostonining turkiy xalqlar eposiga munosabati. «Bilgamish» dostonining shumer tilida saqlangan syujeti bilan akkad nusxasi syujeti o'rtasida farq bor. Masalan, shumer tilidagi nusxada birinchi qo'shiq «Bilgamish va Akka» deb nomlangan. Unda Bilgamish hukmronlik qilgan shahar Kish shahrining hukmdori Akkaga bo'ysungan. Bilgamish o'z do'sti Enkidu, xalq yig'ini va oqsoqollari maslahati bilan Akkad zulmidan qutulish uchun kurashga otlanadi. Jang Bilgamishning g'alabasi bilan tugaydi. Akkadlar yaratgan dostonda shumeriyalar qo'shig'ida aks etgan tasvir berilmagan. Akkad dostonining syujetida Bilgamish bir muncha zulmkor shoh sifatida ko'rsatilgan. Bilgamish erkaklarni shahar devorlarini qurishga majbur etib, xotin-qizlarni o'z haramiga olib boradigan hukmdorga aylangan. Bilgamish do'sti Enkidu bilan bir qancha qahramonliklar ko'rsatadi. Masalan, Kedr o'rmonida yashovchi pahlavon Xumbaboni kurashda halok etadi. Bilgamishning pahlavonligiga qoyil qolgan ma'buda Ishtar (shumerlarda Innin) unga sevgi izhor etadi. Bilgamishdan rad javobini oladi. Ishtar bundan g'azablanadi va otasidan yordam so'raydi. Otasi xudo Anu unga qarshi samoviy ho'kizni yuboradi. U shunchalik bahaybatli ediki, Frot daryosining suvini bir simirishda ichib qo'yadi³. Dami bilan yerni yoradi. Bilgamish Enkidu bilan birgalikda samoviy ho'kizni o'ldiradi.

Bilgamish xudolarga bas kelaolmasligini anglab yetadi. Shu sababli u o'lmaslik – boqiy yashash sirini axtarib kemada Okeandan suzib o'tadi va O'tnapishtim yashayotgan orolga yetib keladi. Uning maslahati bilan dengiz tubiga tushib, qari odamlarni yashartiradigan sehrli o'tni olib chiqadi. Lekin qarshisida ilon paydo bo'lib, o'tni olib qochadi.

«Bilgamish»ning mantiqiy hukmi kuchli pahlavonlar ham abadiy yashay olmaydi, xudoga itoat et, hamma ish uning roziligi bilan bo'ladi, degan g'oya asosida qurilgan.

Shumer afsonalarida hayot daraxti – "Xuluppu" haqida so'z ketadi. Uning uchida Anzur qushi qo'nib turar, o'rtasida Lilit ismli pari yashar, ildizlari ustida esa ilon o'rmalab yurar ekan⁴.

Dostonning turkiylar bilan yaqinlik tomoni. Qadimshunoslar «Bilgamish» yaratilgan shumer tilini biror til oilasiga kiritish qiyin, deb

³ M.Koshg'ariy turkiylarning o'g'uz qabilasi Frot daryosini Oko'z – Ho'kiz nomi bilan ataganligini yozadi. Qurang: I, 91-bet

⁴ Мифы народов мира. Т.1. – Москва, 1992. С.400.

hisoblaydilar. Shu sababli ham bu tilni ba'zan turkiylar, ba'zan hindlarning qadimgi mund tiliga taqqoslashlar bo'lgan. Kuzatishlar dostonning turkiylar bilan aloqador tomonlari ham borligini ko'rsatadi.

1. «Bilgamish» yaratilgan tilni qadimshunoslar o'lik til deb hisoblashadi. Shumer tili miloddan avvalgi 4 minginchi yillikning oxirlaridan birinchi ming yilliklarga amalda bo'lgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, shumerlar miloddan avvalgi ikki minginchi yillikning birinchi yarmida akkadlar, keyinchalik Bobil davlati tarkibiga qo'shilgan. Natijada, ularning tili bu xalqlar tili bilan chatishib ketgan.

Shumer xalqining ijtimoiy-siyosiy tarixi nuqtayi nazaridan bu fikrlar to`g'ri. Lekin uch ming yil davomida fan, madaniyat, adabiyot, din va turli xil davlat hujjatlari yaratilgan tilning tarix sahnasiga kirib kelishi va yo'qolib ketishimi ertaklardagi voqealardek tushunish ajablanarlidir. Uch ming yil davomida yaratilgan madaniyatni hozirgi davrda yashayotgan aniq bir xalqning ota-bobolari nomi bilan bog'lash jahonda ulug' sanalgan biror xalqning madaniyatini kamsitmaydi. Shumer tilining grammatik va leksik tarkibi turkiy tilga mos tushishini aytishga uringan olimlarni ikkinchi guruhlari faraziya, deb tanqid qilishdi. Masalan, F. Xommel birinchilardan bo'lib, shumer tilini turkiy tilga nisbat bergan. Bizning zamonomizga kelib qozoq shoiri O'ljas Sulaymonov bu tilni ural-oltoy tillari oilasiga kiritishga harakat qilgan. Polyak olimi Ya. Braun tibet, M. Serotelli gruzin tillari oilasiga mansub deb hisoblaydi. Shumershunos I. M. Dyakonov esa bu fikrlarni faraz deb tushunadi va ularning taqqoslarini inkor etadi. O'ni kelganda aytish kerakki, bu olim Olmaotadan 50 kilometr uzoqlikda Issiq daryosi bo'yidagi qo'rg'onдан topilgan yozuvni ko'pgina turkiyshunoslar sak turklariga nisbat berganida va o'qib asoslashganida ham tan olishni istamagan edi.

Masalan, shumer tilida ama – ona. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, qaysidir o'lkalardan turkiylar mamlakatiga ko'chib kelgan tubutliklar onani uma deb atashadi. Turkiy qavmlarning ayollardan tashkil topgan jangovor guruhi Ama – zonkadir. Ada – otadir. Bu so'z turkiylar uchun tushunarli. Kisikil- qiz, ayol. Qadimgi turkiylarda bu ma'no kis, kishi so'zlarini orqali ifodalangan. Shumerlarga xos «s» va «sh»ning almashinuvni e'tiborga olinsa, uning turkiycha bilan yaqinligi bor. Bizning tilimizdagi egar so'zi shumerlarning eger – bel orqani ifodelaydigan so'ziga yaqin turadi. Kusa – kursidir. Turkiylarning «r» harfini aytolmaydigan (masalan, kursi – kussi, mardon – maddon, to'rt – to't kabi) lahjalari mavjud. Shumerlarda ug' – xalq, ken – kengash ma'nosini beradi. Ug'ken – xalq yig'ilib kengashadigan joy. Demak, ken – kengash, ayni paytda turli joylardan keladigan xalqlarning to'planib, maslahat o'tkazadigan markazi ma'nosini ham anglatadi. Bu, albatta, turkiylarda ken (kent) shahar (Toshkent kabi) mazmuniga ham mosdir.

Shumer va turkiy tillar o'rtaсидаги yaqinlikni qiyosan o'rganish ishiga O'ljas Sulaymanov birinchilardan bo'lib kirishgan, shumer tilidagi oltmishdan ortiq so'zning hozirgi turkiy tillarda qo'llanilishi hamda bu tillardagi so'zlar bilan o'zakdosh ekanligini isbotlagan edi. Olim shumer atamasining ma'nos

haqida ham fikr yuritar ekan, bu so`zni «sub – yer», «sibir», «yer — sub» so`zlar bilan o`zakdosh deb tushunadi hamda yer-suv mazmunini beradi, degan farazga keladi. Chindan ham turkiylarga xos tovush o`zgarish hodisalari («sh» — «s», «m» — «b») shumerni «sub — yer» deb o`qishga imkon beradi.

Badiiy asarni ma'lum bir xalq adabiyotiga nisbat berish uchun faqat tilni asos qilib olish yetarli emas. Bunday muammoli masalalar tug'ilganida badiiy asarda aks etgan diniy e'tiqodlar, qabila yoki xalqlarning urf-odatlari, obrazlarning xarakteri va qahramonligi so`nggi asrlardagi qaysi xalqning turmushida saqlanganligi nuqtayi nazaridan ham yondashish kerak. «Bilgamish» dostonini turkiy xalqlar adabiy merosiga nisbat berishga sabab unda ko'pgina qadimiylik belgilari saqlanib qolganidir.

Turkiy qabilalarning eng qadimgi qavmi gumer hisoblanadi. Bu qavm o`zlarini Nuh to'fonidan so`ng dunyoda paydo bo`lgan birinchi xalqlardan deb tushunishgan. Qadimshunoslar turkiylarning kimmer qabilasini gumer qavmining nomi sifatida e'tirof etishadi. Antik yunon va ossuriy tarixchilarining kitoblarida kimmerlar haqida boy ma'lumotlar berilgan. Tarixiy asarlarda bu turkiy qabilaning nomi gimmer, kimmer shaklida, shumer esa ba'zan sumer shaklida ham yozilgan. Shumer va kimmer nomlarida mantiqan bog'lanish hamda ohangdorlik bor. Qolaversa, gumerlar ham shumerlardek dunyodagi eng qadimgi qabilalardan biridir.

2. Antik davr yunon va ossuriy tilida yaratilgan tarixiy kitoblarda kimmeriy larning vatani Shimolda – Qrim atroflarida deb ko`rsatilgan.

«Injil»da ko`rsatilgan gumerning o`g'illaridan biri Ashkanoz. Bu qavm tarixda skiflar nomi bilan yuritiladi. Gumerning yana bir o`g'li Tugarma deb atalgan. Undan Mesopotamiyada yashagan xalqlar tarqalishgan. Demak, kimmer va skiflar Kichik Osiyo mamlakatlariga tez-tez hujum qilishi hamda o`z hukmronligini o`tkazishga urinishining mantiqiy zamini mayjud. Axir, Ossuriya shohi Ashshurbanipal o`z kutubxonasida shumeriy larning sopol kitoblarini bekorga saqlamagan. Skif-kimmerlar hukmdori Prototeyga ossuriylar shohi tinchlik ittifoqini mustahkamlash uchun o`z qizini xotinlikka bergen edi. Shu kundan boshlab Prototey ossuriylarning shohi sifatida ham tan olingen. Yoki I.M.Dyakonov Midiya tarixiga bagishlangan kitobida skiflar sarkardasi Madi ham Ashshurbanipalning kuyovi bo`lganligini qayd etadi. Midiya shohi Kiaksar Madini o`ldirib, Ossuriya kutubxonasini yoqib yuborishga tashkilotchilik qilishida katta mantiq bor. Kiaksar Ossuriya kutubxonasida kimmeriy va skiflar madaniyati, tarixi va adabiyoti bitilgan xazina borligini sezgan bo`lishi kerak.

Shumer va qadimgi mesopotamiyaliklar turkiylar bilan yaqinligini asoslovchi yana bir necha dalillarni keltirish mumkin. Chuvashlar turkiylarning qadimgi qavmlaridan biridir. Chuvashiya jumhuriyatida Shumeriya deb ataluvchi shahar mayjud. X asrda yashagan arab tarixchisi ibn Havqal ma'lumot berishicha, Samarcand atrofida mesopotamiyalik – iroqliklarning qishloqlari bo`lgan. Ular o`zlarini doimiy yashaydigan xalq sifatida ko`rsatishgan. Aytish kerakki, Shumer viloyati hozir janubiy Mesopotamiya –

Iroqda. Arab tarixchilari iroqliklarning Jizzax, Toshkent atroflarida ham qishloqlari bo'lganini yozishadi. Iroqliklarning Urgutdag'i qishlog'i Vazkerd, Jizzaxdagisi Vinkerd, Toshkent atrofdagisi Binkent deb atalgan. Arxeolog V.L.Vyatkin mesopotamiyaliklarning Urgutdag'i manzili bo'yab kuzatish ishlari olib borib, ular yashagan joyni Qing'ir qishlog'ida deb ko'rsatadi. Qing'irni kimmer, gimmer, qimberning o'zgargan shakli deb hisoblash mumkin. 1920-yilda akademik V.V.Bartold Urgut tog'larining Gulbog' soyidagi qoyada Suriya tilidagi yozuvlarni ham ko'rgan. Ajabmaski, arablarga Markaziy Osiyo shaharlari yashay boshlagan va o'zini iroqlik deb hisoblagan xalqlar shumerlar avlodidan bo'lishsa.

Shumeriyalar tarixi haqidagi izlanishlar Urgut nomining yangicha talqinini ham beradi. Bu esa qadimgi mesopotamiyaliklarning Urgutda yashaganligidan yana bir dalildir. Miloddan avvalgi uch minginch yillarning o'rtalarida akkad va shumer davlatlari birlashtirilgan. Akkad davlati taxminan 120 yil yashagan. Miloddan avvalgi 2200-yilda Sharq tomondan kelgan tog'lik gutiylar deb nomlangan urushqoq xalqlar akkadlar hukumatini ag'darishgan. Bunday qahramonlikka shumerlarning Lagash shahri aholisi katta yordam bergen. XXII asrغا kelib, Ur sulolesidan bo'lgan qavm ulardan hokimiyatni qaytarib oladi va gutiylar bilan lagashliklar mamlakatdan quvib chiqariladi. Bu o'rinda yana bir farazni ham eslatib o'tish kerak. Ko'pchilik shumershunoslar shumerlar Mesopotamiyaga tog'lik o'lkalardan, ehtimol Eron va Markaziy Osiyodan kelib qolishgan, degan fikrni ham olg'a surishadi.

3. Shumer shahar-davlatiga asos solgan xonlardan biri Bilgamishdir. Uning hokimi Bilgamish Kish hokimi ustidan g'alaba qozonib, afsonaviy qahramonga aylanadi. Bilgamish akkad tilidagi eposda Gilgamish deb nomlangan. Uni Bilgamish deb nomlash to'g'ridir. Bu turkiy tilga yaqinlashtirish maqsadida emas, albatta, «Bilgamish» so'zining o'zagi turkiycha «bilmoq» ma'nosini ifodalaydi. Dostonning mazmuni ham asar qahramonining nomiga «bilih» so'zi asos bo'lganligini isbotlaydi. Dostonda Gilgamishga berilgan ta'riflar qahramon chindan bilgувчи – Bilgamish ekanligiga shubha tug'dirmaydi.

4. Doston qahramonining asl ismi Bilgadir. Mish esa o'sha davrdagi bobil, xett, ossuriy xalqi o'rtasida taniqli kishilar va afsonaviy qahramonlarga nisbatan keng qo'llanilgan bir belgi. Mish ko'proq turli janglarda g'olib kelgan, umuman, bahodir, pahlavon kishilarning nomidan keyin ishlatilgan. Mish turkiy xalqlar o'rtasida yaratilgan ayrim qahramonlik eposlarida, masalan, «Alpomish», «Kuntug'mish» dostonlarida yoki Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida o'z qadimiyligini to'la saqlagan (O'gdilmish, O'zg'urmish). Bizning milodimizda ham turk xoqonlari orasida Bilga va mish nomi bilan atalganlari bor. Masalan, VII-VIII asrlarda yashagan turk xoqonlaridan birining nomi Bilgadir. U 732-yilda vafot etgan va turkiylar mamlakatida 20 yil xoqonlik qilgan. Yoki Oltin O'rda xoni To'xtamish nomida shunday belgi mavjud.

5. Doston qahramonining nomi Bilgamish hamda Bilgamiş shaklida qo'llanilgan. «s» va «sh» tovushlarining almashinuvi turkiy xalqlar tilida saqlangan. Masalan, qirg'izlarning «Manas» eposi «Manash» deb ham yuritilgan. «s» va «sh» almashinuvi, xususan, hozirgi qozoq tilida keng ishlatalidagin hodisadir.

6. «Bilgamish» dostonida xudolar obrazi yaratilgan. Bilgamish madad so'raydigan Quyosh xudosining nomi O'tu. Bilgamish o'rmonga jo'nash oldidan osmonga qo'llarini cho'zib, unga iltijo qiladi:

*O'tu, men toqqa ketyapman, sen mening yordamchim bo'l!
Toqqa kedr kesmoqqa boryapman, sen mening yordamchim bo'l!*

Dostonning akkad nusxasida Quyosh xudosi Shamash nomi bilan berilgan. O'tuning turkiy tilga yaqin tomonlari bor. Birinchidan, O'tu ma'lum ma'noda o'tni, issiqlikni, haroratni anglatadi. Quyosh shunday xususiyatga ega. Ikkinchidan, turkiylar islom diniga qadar ko'kka, osmon jismlariga sig'ingan paytar ham bo'lgan. Ya'ni, Ko'k tangri turkiylarning muqaddas dinidir yoki massagetlarning yagona xudosi quyoshdir. Shu sababli Quyosh turkiylar uchun muqaddasdir. Eng qadimgi davrlardan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarigacha Quyosh turkiy xalqlarning adabiyotida (so'nggi davr adabiyotlarida ham) yaxshilik, ezzgulikning muqaddas obrazi sifatida ko'rindi.

Ko'kni ulug'lash, ko'kni Tangri deb tushunish barcha turkiy xalqlarga xos xususiyatdir. Masalan, qadimgi buryat va mo'g'ul mifologiyasida ham boqiy Ko'k osmon – Xuge Munxen tengri insonni qo'riqlaydigan kuch sifatida tasvirlangan. Bu esa shumer mifologiyasidagi osmon xudosi An, Oy xudosi Nannar va boshqa sayyoralar to'g'risida berilgan tasvirlarga mushtarakdir.

«Bilgamish» dostonida va shumer mifologiyasida O'tnapishtim obrazi uchraydi. Rivoyat qilishlaricha, dunyoni to'fon bosganida faqat diyonatlari O'tnapishtimdan boshqa odamlar halok bo'ladi. U xudo Enkining maslahati asosida hamma joyi bekitilgan quti yasab, oilasi va xizmatkorlari bilan omon qoladi (bu rivoyat turkiylarning ulug' otasi Nuhning kemasi ham eslatadi)⁵. Dunyoda bir kishi ham sog'-salomat qolmagan to'fondan jon saqlash baloqazolardan toblanish belgisidir. Bunday odamlarga nisbatan hozirda ham «o'tta yonmas», «olovda pishgan» iboralari qo'llaniladi. O'tna pishdim nomi o'zbek tilidagi «o'tda pishmoq»ning ma'nosiga yaqin anglashiladiki, bu qahramon harakatiga mos tushadi.

Etana haqidagi dostonning asosiy voqeasi insonning burgutga minib uchishidir. Qushlar yordamida osmonga parvoz etish voqealari qadimgi turkiy eposlarda, jumladan, «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlarda, «Semurg» afsonasida yoki Nosiriddin Rabg'uziyning «Qissai Rabg'uziy» asarida tasvirlangan.

⁵ Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atayn: Yofasnikи тавориҳ ахли Абутурк битирлар, Xito mulkiga yibordi...

Shumer xalqi jahon antik adabiyotining birinchi asoschisidir. Bu xalqdan bizga qadar ko'plab lirik she'rlar, masallar, xudolar sha'niga bitilgan qasidalar yetib kelgan.

Shunday qilib, shumer adabiyoti tilini, asarlarida aks etgan diniy ta'limot, urf-oatlarni keyingi asrlarda yashagan turkiy xalqlarga o'xshashlik tomonlar bor deb hisoblash mumkin.

QADIMGI TURKIYLAR VA YUNON ADABIYOTI

Homerning «Iliada» asarida tasvirlangan yana bir muhim dalil turkiylarning maishiy turmush tarzi bilan bog'liq. Skif, massaget qabilalari, Herodot yozganidek, chovachilik bilan shug'ullanib, sutli ovqatlar bilan turmush kechirishgan. Yunon mifologiyasiga ko'ra, Troya shahrini Zevsning o'g'li Dardanning evarasi Il qudrig'anligi haqidagi shunday afsona mayjud:

«Kunlardan bir kuni Il Frigiyada pahlavonlar musobaqasiga qatnashib, hamma qahramonlarni birma-bir yengadi. Ushbu muvaffaqiyati evaziga Frigiya shohi Ilga ellik nafar yigit va ellik nafar navnihol qiz tortiq qiladi. Bundan tashqari, shoh unga bir targ'il sigir ham beradi-da, Ilga shu sigir ketidan ergashib ketaverishni va u to'xtagan yerda shahar tiklashni amr etadi. Frigiya shohining aytishicha, sohibkaromat kohin, o'shal shahar ulkan shon-shavkatga muyassar bo'lg'ay, deb bashorat qilganmish. Il shoh buyurganidek, ish ko'rdi. U sigir ketidan ketaverdi. Il ham mana shu tepalikni manzil aylab, u yerda shahar tiklay boshladi. Shu shaharga, shoh Il sha'niga Ilion (Troya) deb ot qo'ydilar».

Troya-yunon urushidagi yunon bahodirlaridan biri Itaka shohi Odisseydir. Mana uch ming yildirki, Odissey yunonlarning sevimli qahramoni. Lekin «Iliada»da asar ijodkorining butun mehri troyaliklar tomonida bo'lganidek, «Odisseya»da bu ruh yanada bo'rtib ko'rindi. «Odisseya»ning turkiylarning antik qatlamga mansub asarlari bilan juda o'xshash tomonlari bor. Bunday yaqinlikni «Alpomish» va «Qo'rqt ota kitobi» eposlari misolida ko'ramiz⁶.

«Alpomish» va «Odissey» dostonlari o'rtasidagi yaqinlik syujet hamda badiiy tasvir vositalarida ko'rindi.

«Odisseya» 24 qo'shiqdan iborat. Asarning teng yarmi – 13 dan 24 gacha bo'lgan qo'shiqlar syujeti, hatto qahramonlar taqdiri «Alpomish»ga hamohangdir. Jangga ketgan Odissey va Alpomish uzoq vaqt vataniga qaytib kelmaydi. Alpomish yetti yil Qalmoq elida zindonda yotadi, Odissey urushdan so'ng yana o'n yil dengiz to'poni natijasida sarson-sargardonlikda yuradi. Har ikki dostondagi yaqinlikning bosh o'zagi ko'p yillar yurtidan uzoqda yashagan qahramonlarning o'z xotinlari to'yiga yetib kelishidir. (Barchin va Penelopa)

⁶ 2014-yilda koreys olimasi U.Yong o'zbek xalq eposi "Alpomish" hamda koreys xalq eposi "Jumong"ning mushtarak xususiyatlari borasida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Yigit uylanganidan so`ng jang, sayohat va boshqa tasodifiy voqealar sababli yosh xotinini tashlab ketib qolishi, xotini eri o`lganligi to`g`risida yolg'on xabarni eshitib, xushtoriga tegishga rozi bo`lishi, to`y belgilangan kuni erining yetib kelishi voqeasi jahon xalqlarining ko`pgina epos va ertaklarida o`z aksini topgan. Chunonchi, o`rta asrlar jahon xalq og`zaki ijodida yaratilgan fransuzlarning Ulug' Karl haqidagi epopeyasida, inglizlarning «Shoh Gorn» dostonida, ruslarning «Dobrinya va Alyosha», «Churila va David Popovich» blinasida yigitlarning o`z xotinlari to`yiga yetib kelishi tasvirlari mavjud. V.M.Jirmunskiyning «Alpomish» tadqiqiga bag`ishlangan maqolasida bu mavzu keng o`rganilgan. Shuningdek, «Alpomish» va «Odissey»da qahramonlarning keksa otasi (Boybo'ri va Laert), balog`atga yetmagan o`g`illari (Yodgor va Telemax), sodiq qul cho`ponlari (Qultoy va Evmiy)lar ham asar syujetidagi yaqinliklarni ko`rsatuvchi omillardandir.

Fors-tojik adabiyoti va afrosiyob haqidagi afgonalar turkumi. Miloddan avvalgi VII asrlarda skif-kimmerlar xoqoni Madi Kichik Osiyo mamlakatlariga, jumladan, Midiya (Eron)ga qo`shin tortishi hamda ahmoniyalar shohi Kayxisrav bilan jang qilishi fors-tojik adabiyotida alohida mavzu hisoblanadi. Lekin bu mavzudagi asarlarda tarixiylik tamoyili asos qilib olingen emas. Faqat tarixiy haqiqatning umumiy yo`nalishi — tarixda turkiy va eroniy shohlar o`rtasida urush hamda nizolar tez-tez bo`lib turganligi voqeasi badiiy syujetga aylandi. Bu turkumdagи asarlarning qahramoni Afrosiyobdir. Afrosiyob skiflar qahramoni Madining to`la darajadagi tarixiy obrazi bo`lmay, balki turkiy xalqlar og`zaki ijodidagi Alp Er To`nganining Eronda tarqalgan ismidir. Qadimgi kitoblarda Afrosiyobning nomi va nasl-nasabi shunday ta`riflangan: «Franhrasyan» («Avesto»), «Frasyak» («Bundaxishn»), «Frasiyab Fashan o`g`li, Rustam o`g`li, Turk o`g`li» (at-Tabariy), «Frasiyab Bashang o`g`li, Inat o`g`li, Rishman o`g`li, Turk o`g`li» (al-Beruniy), «Afrasiyab Ashk o`g`li, Rustam o`g`li, Turk o`g`li» (ibn Xaldun).

Afrosiyobni Turon mamlakatining pahlavoni, xoqoni sifatida tasvirlagan birinchi yozma yodgorlik «Avesto»dir. Shundan so`ng uning obrazi fors-tojik adabiyotidagi o`nlab og`zaki va yozma asarlarda ko`rina boshladi. Afsuski, Mahmud Koshg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asaridagi marsiyani e`tiborga olmaganda, u haqda turkiy adabiyotda yirik adabiy syujet mavjud emas. Fors-tojik adabiyoti Afrosiyob haqidagi adabiy syujetlarni saqlashi bilan turkiy xalqlar ijodiga xos yodgorlikni ham bizning davrlargacha yetkazib keldi. Boshqa tomondan, qadimgi dariy, fors-tojik, arab tillarida bitilgan Afrosiyob haqidagi rivoyat va qissalar Markaziy Osiyoda yashayotgan xalqlarning badiiy tafakkuri mahsulidir. Shu jihatdan qaraganda, qadimgi turkiy adabiyotning yirik vakili Yusuf Xos Hojib quyidagi misralarni bitganida haq edi:

*Tajiklar ayur ani Afrasiyab,
Bu Afrasiyab tutti ellar talab...
Tajiklar bitigda bitimish muni,
Bitigda yo`q ersa kim o`qg`ay ani...*

Mazmuni:

*Tojiklar uni Afrosiyob deb ataydilar,
Bu Afrosiyob ellarni o'z tasarrufiga olib tutdi.
Tojiklar uni kitobida yozib qoldirganlar,
Kitobda bo'lmasa, uni kim ham bilardi ...*

Fors-tojik adabiyotida Afrosiyob obrazi rang-barang xususiyatlar bilan gavdalantirilgan.Uning badiiy obrazini mukammal tasavvur etish uchun rivoyat va afsonalarning matnini tikelash turkiy adabiyotning ham qadimgi davrlarini o`rganishda amaliy ahamiyatga ega.

Birinchi afsona:

Eron va Turon chegarasining belgilanishi. Afrosiyob Eron shohi Manuchehrga bir necha marta zarba berdi. Manuchehr Zolni Afrosiyobni Jayhunning narigi tomonlariga quvib yuborish uchun jangga yubordi. Lekin Afrosiyob ko`p sonli qo`shini bilan Tabaristonga kelib, Manuchehrni tiz cho`ktirdi. Som va Zol jangda qatnashmagan edi. Nihoyat, ular sulh tuzishga ahd qildilar. Orsh Amul qal`asidan turib kamonda o`q uzdi. Uning o`qi Akab-Mazdavavran (Seraxs va Marvning o`rtasi)ga kelib tushadi. Eron va Turonning chegarasi shu joydan belgilanadi («Mujmil at -tavarix al-qasas», Tehron, 1335-1956).

Turkiy xalqlarning badiiy ijodi moziyning juda qadim qatlamlariga tutashadi. Eramizdan oldingi davrlardayoq yunon tarixchilari ajodolarimiz orasida mavjud bo`lgan og`zaki ijod namunalari: ertak, rivoyat va afsonalar haqida ayrim ma`lumotlarni yozib qoldirishgan. Shuningdek, eramizdan oldingi Xitoy tarixchilari ham turkiylarning o`ziga xos qo`shtiq va dostonlari bo`lganini manbalarda qayd etishgan.

Miflar (yun. *so`z,rivoyat*) — asotirlar Yer va osmon jismlari (kosmogoniya), ezgulik va yovuzlik kuchlarining to`qnashuvlari, yer yuzida odamning paydo bo`lishi, ayrim tarixiy, diniy shaxslar va geografik nomlar bilan bog`liqidir. Qahramonlarga g`ayriodatiy sifatlar «yuklanadi». Afsonalarda esa faqat samoviy hodisalar emas, balki yarim hayotiy, yarim xayoliy voqealar ham tasvirlanadi. Rivoyatlar esa tarixga yanada yaqin turadi. Afsonalar, asosan, muayyan voqeа-hodisa haqidagi ayrim ma`lumotlarni berish bilan kifoyalanadi. Ularda shu voqeа va ishtirokchilarning tasviri asosiy o`rin tutmaydi.

“Avesto”, shuningdek, “Bundaxishn”da yaxshilik (yorug`lik – Ahura Mazda, Hurmuz) va yomonlik (zulmat – Angra Manyu, Ahriman) olami doimo kurashda ekanligi aytildi. 3000 yil ular o`zaro bexabar yashganlar. Ikkinchи uch ming yillik bir-biridan xabar topib o`zaro jangga tayyorgarlik davr bo`lsa, 3-davr kurash davri deb ishonilgan. 4-davr yaxshilikning g`alabasi bilan tugashi bashorat qilinadi. Yaxshilik kuchlari tomonida Mitra, Anaxita (“pok”, “toza” - Ardvı Suraning yana bir nomi – yer, suv, unumdoorlik homiysi), Kayumars, Gershasp, Elikbek, Jamshid kabilar turganligi aytildi.

Jamshid (Yima) haqidagi afsonada u 700 yil hukmronlik qilganligi, bu davrda Ahriman zulmi to`xtatilgani aytildi. U elga farovonlik keltiradi.

Navro`z bayrami Jamshid nomi bilan bog`liq. Afsona oxirida Jamshid zolim hukmdorga aylanadi.

Kayumars Yer yuzidagi 1-odam sifatida tasvirlanadi. Uning yarmi odam, yarmi ho`kiz shaklida bo`lib, Ahriman va uning malaylari bilan kurashda benihoya toliqadi va bir lahzaga mudraydi. Bu vaqtida u dev va ajinalar tomonidan mahv etilgan edi. Bu bilan yovuzlikka qarshi kurashda bir lahma ham hushyorlikni yo`qotmaslik lozim degan g`oya yotadi. Rivoyatda aytishicha, Ahura Mazda jasadning odam qismidan erkak va ayolni, ho`kiz qismidan esa 55 xil don, 12 xil o`simlik, sigir va ho`kiz yaratadi. Sigir va ho`kizdan esa 272 xil hayvon zoti tarqaladi.

Gershasp haqidagi afsona uning ulkan ajdar bilan jangi voqeasiga bag`ishlangan.

1902-yilda Koshg`arda “Chistoni Elikbek” yodgorligi matni kashf etildi. U VIII-IX asrlarga mansub bo`lib, Elikbekning yovuz Rakshoshga qarshi jangga otlanishi, jinlar bilan olishuvi haqida. Asar A.Fitratning “O`zbek adabiyoti namunalari” kitobidan ham o`rin olgan.

Xubbi (Farg`onada Erxubbi) Xorazm mifologiyasida suv ma`budi sifatida gavdalanadi. U Faridun va Jamshiddan oldin yashagan bo`lib, gavda xususiyatlari, hayoti “Qisasi Rabg`uziy”dagi Avj ibn Unuq rivoyatini esga soladi. Faqat Xubbi afsonasi Amudaryo bilan bog`liq.

Afsonalarning mavzu doirasi ham o`ziga xosdir. Ular, asosan, diniy, muayyan joy bilan bog`liq (toponimik) hamda tarixiy-qahramonlik mavzusida bo`lishi mumkin.

Turkiy adabiyotdagi afsonalarning dastlabki yozib olinishi Mahmud Koshg`ariy nomi bilan bog`liq. U o`zining «Devon-u lug`otit-turk» («Turkiy so`zlar devoni») kitobida xalq og`zaki ijodining boshqa namunalari qatorida bir necha afsonalarni ham keltirgan. Bu afsonalar Mahmud Koshg`ariy kitobida «sav» deb nomlangan. Mahmud Koshg`ariy «Oltin qon» nomli tog` haqidagi afsonani XI asrdayozib olgan. Mana o`sha afsona: «Zulqarnayn Chinga kelib yetganda turklar xoni urushish uchun yosh yigitlardan iborat bir guruh askarni yo`lladi. Vazir shohga aytди: «Siz butunlay yoshlarni chiqardingiz, aslida katta yoshh, urush ishlarida tajribasi bor odamlarni yuborish kerak edi», — deganda «o`ga» so`zini tajribali? katta yoshli kishilar ma`nosida qo`lladi. Shunda shoh «to`g`ri» dedi va katta yoshli kishilarni yo`lladi. Ular kechasi Zulqarnaynning ilg`or askarlariga hujum qildilar va yengdilar. Turk askarlardan biri Zulqarnayn askaridan birini qilich bilan urib kindigigacha ikkiga ajratib yubordi. O`lgan askarning belbob`ida oltin hamyon bor edi. Hamyonga qilich tegib kesildi. Undagi qonga bo`yalgan oltinlar yerga sochildi. Ertasi ertalab turk askarları qonga bo`yalgan oltinlarni ko`rib, bir-birlariga «Bu nima?» - deyishar va «Oltin qon» — «qonli oltin» deb aytishar edi. Bu joydagи katta tog` shu ism bilan ataldi. Uyg`urlar yaqinidagi bu tog` atrofida ko`pgina sahroyi turklar yashar edilar».

«Oltin yoruq» qadimgi sanskrit tilida yaratilgan asar bo`lib, X asrda Beshbaliqda yashagan Singqu Seli Tutung uni xitoycha variantidan turkiy tilga

tarjima qilgan. Kitobning sanskritcha nomi «Suvarnanrabhasa» (oltin jilo)dir. Turkiyicha tarjimada esa to'liq nomi «Altun o'nglug' yaruq yaltriklig' qonda ko'trulmush nom eligi» – oltin rangli nur toblanadigan hammadan buyuk bo'lgan kitob tojdori)dir. «Oltin yoruq» budda diniga oid sutra – muqaddas kitoblardan biri hisoblanadi.

«Oltin yoruq»ning bir necha qo'lyozma nusxalari ma'lum. Uning 1687-yilda ko'chirilgan nusxasi boshqalariga nisbatan mukammal bo'lib, u hozirda Peterburgdagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar bo'limida saqlanadi. Qo'lyozmani rus olimi S.Y.Malov 1909–1911-yillarda Sharqiy Turkiston va Xansu (Gan-Su)da safarda bo'lganida uyg'urlar yashaydigan Vungshigu qishlog' idan qo'lga kiritgan. «Oltin yoruq»ni S.Y. Malov 1913–1917-yillarda V.V.Radlov bilan hamkorlikda nashr ettirda. V.V.Radlov kitobning bir qismini nemis tiliga tarjima qildi. Tarjima 1930-yilda S.Ye.Malov so'z boshisi bilan chop etilgan. S.Y.Malov «Памятники древнетюркской писменности» (M.-L., 1951) kitobida «Oltin yoruq»dan ikki parcha – «Hukmdor Kyu-Tov haqida afsona» hamda «Tegin va Bars haqida afsona»ning transkripsiya va ruscha tarjimasini beradi. «Tegin va Bars haqida afsona» «Oltin yoruq»ning 604–627 sahifalarida berilgan. O'zbek olimlari G'.Abdurahmonov va A.Rustamovlarning «Qadimgi turkiy til» (1982) kitobining 607–617 sahifalarida afsona mazmuni bayon etilgan. Asarning to'liq tarjimasi Nasimxon Rahmonov tomonidan amalga oshirilgan.

«Oltin yoruq» uyg'ur yozuvida bitilgan yirik tarjima asaridir. V-X asrlarda turkiy tilda uyg'ur yozuvi bilan yana bir necha yirik adabiy yodgorliklar yaratilgan. G'.Abdurahmonov va A.Rustamovlar «Qadimgi turkiy til» kitobida «Xuastuanift» («Monaviyarning tavbanomasi»), «Shahzodalar Qalyanamqara va Papamqara haqida qissa»; «Sekiz yukmak», «Atavaka devi haqida afsona», «Budda afsonalaridan parchalar» yodgorliklari haqida ham ma'lumotlar berishadi.

Sanskrit adabiyoti qadimgi hind adabiyotining tarkibiy qismi hisoblanadi. Jahan adabiyotning «Mahabharata», «Ramayana», «Panchatandra» («Kalila va Dimna»), «To'ning yetmish hikoyasi» kabi nodir asarlari sanskrit tilida yaratilgan. Sanskrit adabiyotining namunalari X asrdayoq Markaziy Osiyoda sevib o'qilgan va tarjima qilingan. Abu Rayhon Beruniy «Kalila va Dimna»ning tarjimalari haqida fikr yuritgan. «Oltin yoruq» turkiy tilga o'girilishining ikki asosi mavjud. Birinchisi, adabiy hayot talab-taqozosи hisoblansa, ikkinchisi, bu asarda budda dinining ta'lomi o'z mantiqiy ifodasini topganligidir. Chunki, «Oltin yoruq» turkiy tilga tarjima qilinganga qadar budda ta'lomi turkiy xalqlar o'rtasiga ham yetib kelgan va unga amal qiluvchilar mavjud edi.

«Oltin yoruq» tarjima asar bo'lsa-da, kuchli his-hayajon, ehtiros bilan o'qiladi. Undagi lirizm ruhining balandligi asar asli she'riy yo'lda yaratilganidan dalolat beradi. Shiningdek, «Oltin yoruq» diniy asar hisoblansa-da, unda real hayot manzaralari inson vujudini larzaga solarli darajada

tasvirlangan. O'z farzandidan judo bo'lgan ota – ulug' elig va ona – malika kechinmalari asarning estetik kuchini oshirishga xizmat qilgan.

Turli-tuman tarixiy ma'lumotlarga tayanib turib, O'rta Osiyoni eposlar beshigi deb nomlash mumkin. Eramizgacha bo'lgan V asrda yashagan Herodot o'zining "Tarix" kitobida To'maris bilan bog'liq voqealar tafsilotini keltirgan. Herodot bu afsonaning qisqacha bayonini keltirgan, xolos. Unda eramizdan oldingi oltinchi asrda Eron shohi Kirning massagetlar (masog'utlar) ustiga tajovuzi hamda To'maris boshchiligidagi turkiy qabilalarning Vatan uchun mardonavor kurashi aks etgan. To'maris bizga qadar yetib kelgan afsonalar orasidagi eng qadimgi aylol tasviridir. Atoqli olima Fozila Sulaymonova yunonlar To'maris deb atagan bu qahramonni Tumor deb nomladi⁷. Bu fikrda jon bor. O'zbek xalq og'zaki ijodiga mansub «Oysuluv» dostonida «To'maris»ning o'ziga xos aks-sadolari mavjud.

Qadimgi Rim tarixchisi Poliyen esa Shiroq haqidagi afsona mazmunini yozib qoldirgan. Yozuvchi Mirkarim Osim yuqoridagi manbalardan foydalanib "To'maris" va "Shiroq" hikoyalarini yozgan, bu hikoyalar adibning "Karvon yo'llarida" kitobiga kiritilgan.

Eramizdan oldingi V asr oxiri, IV asr boshlarida yashagan Ktesiy (430—354-y.) ham yana bir rivoyatni yozib qoldirgan. Uning ma'lumotlari tarixchi Apellodor (eramizdan oldingi 1 asr) ning «Tarixiy kutubxonasi» asari orqali yetib kelgan. Bayondan ko'rinishicha, «Zarina va Straingiya» rivoyatining mazmuni «To'maris» rivoyatiga yaqin keladi. Bu rivoyatdagi asosiy mavzu qahramonlik va sevgi-muhabbatdir. Zarina aslida shak qabilasi hukmdorlaridan biri bo'lgan. Qahramonlik, jur'at va jasoratda, mardlik, donishmandlik, ishbilarmonlikda u boshqalarga namuna qilib ko'rsatilgan.

Yana bir afsona Zoriadr va Odatida nomlari bilan bog'liq. U yerda ham asosiy voqealar qahramonlik va ishq-muhabbat voqeasi asosida rivojlanadi. Bu afsonani eramizdan avvalgi IV asrda yashagan tarixchi Xores Mitilenskiy yozib qoldirgan. Biroq ularning qanday usulda, she'riy yoki nasriy shaklda yaratilgani haqida hech qanday ishoralar yo'q.

Yuqoridagi afsonalar tarixan sodir bo'lgan voqealarga tayangan holda yaratilgan. Ularda sak (shak) va massaget qabilalarining tashqi dushman bilan shafqatsiz urushlari aks etgan. Bunda xalqning hamda alohida shaxslarning qahramonligi, ularning umumiyligi dashmanga qarshi mardonavor kurashlari o'z ifodasini topgan.

Bu asarlarda Vatanga muhabbat tuyg'usi ulug'lanadi. Ularning tarixiy-ma'rifiy ahamiyati shundadir. Zero, biz ayni shu rivoyat va afsonalar tufayli ajdodlarimiz ko'rsatgan buyuk qahramonliklar haqidagi tarixni bilib olamiz. Bunday tarix ko'ngilda iftixon tuyg'ularini uyg'otadi. Boshqa folklor namunalari singari bu afsona va rivoyatlar ham xalq ijodidir. Ular ijrosiga ko'ra

⁷ Сулаймонова Ф. Шарқ ва Farrell. – Тошкент: Фан, 1997

ham farqlanadi. Ertakni ertakchilar, dostonlarni baxshilar ijro etganlari holda afsona va rivoyat istalgan kishi tomonidan aytilishi mumkin.

Qadimgi nasriy asarlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular hozirgi nasrdan an'analaridan birmuncha farq qiladi. O'rxun-Enasoy bitiklarida voqealarning atroflicha tasviri ko'zga tashlanmaydi. Ular sujetning o'ziga xos shakliga ega. Voqeа qahramonlari orasidagi ziddiyatli ruhiy kechinmalar ravshan namoyon bo`lmaydi. Ularda tasvirdan ko'ra bayon yetakchilik qiladi. Bu narsa ularga og'zaki ijod, ayniqsa, afsona, ertaklarning ta'siri kuchli bo`lganligini ko`rsatadi. Kultegin, To`nyuquq, Bilga xoqon singari qahramonlar tasvirida bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qahramonlar ichki olami, ularning ruhiy dunyosi tasviri hali ancha sodda tarzda namoyon bo`ladi. Bu mavjud an'analar hamda ijodiy tajribalarning o'sha davrlardagi holati bilan izohlanadi.

Qadimgi nasrning o'ziga xos namunalari qatorida «Oltin yoruq»ni eslatish mumkin. Uning muallifi Singqu Seli Tutungdir. Asar X asrda Beshbaliqning o'rni hozirgi Sharqiy Turkistondadir.

Turkiy adabiyotdagi she'riyat ildizlari ham juda qadim zamonalarga ulanadi. Bizga qadar yetib kelgan qadimiy namunalar orasida Moniy va Buddha muhitida yaratilgan she'riy parchalar ham bor.

Eski manbalarda bizga qadar ayrim adabiy istiloh (atama)lar ham saqlanib qolgan. Masalan: qo'shug' atamasi Mahmud Koshg'ariy asarida qayd etilgan. U bu so'zni «qo'shiq», «qasida», «she'r» deb izohlaydi. Yusuf Xos Hojib (XI asr) ham bu atamani qo'llaydi:

Bu turkcha qo 'shiqlar tuzattim senga,
O'qurda unutma, duo qil menga.

«Takshut» atamasi buddaga topingan turkiylarda «she'r», «nazm», «bayt», «manzuma» ma'nolarida qo'llangan.

«Ir» (yir) g'azal, maqom, kuy o'rnida qo'llangan. Eski o'zbek tilida ham bu so'z iste'molda bo'lган:

Turkona ir irlag'uncha oning
Kuydirdi meni yalay-bulosi. (Sakkokiy)

Qadimda qo'llangan atamalardan yana biri «kug»dir. U kuy, she'r vazni ma'nosida keladi. «Devon-u lug'otit-turk»da uning «she'r» ma'nosi ham bor.

Masal atamasini ilk bor Yusuf Xos Hojibda kuzatamiz⁸.

Qadimgi davrlarda yashab ijod etgan ayrim adiblarning nomlari hozirga qadar saqlanib qolgan. Bizga qadar Aprinchur Tegin, Kul Tarxon, Singku Seli Tutung, Pratyaya-Shiri, Asig Tutung, Chusuya tutung, Kalim Keysi, Chuchu, Yo'llug' Teginlarning nomlari yetib kelgan. Bulardan Aprinchur Teginning she'rlari Turfon matnlari orasida mavjud bo'lib, u moniylik dini g'oyalarini ifodalaydi. Ularning biri 12 misradan iborat bo'lib, to'rtliklar shaklidadir.

⁸ Тўйчиев У. Алишер Навоий назмидаги банд тартиботи ва шеър навлари // ЎТА, №4, 1991, 22-бет; Холматов Ш. Ўрта Осиё халклари адабиётларида масал жанри (жанр тарихи, назарияси ва эволюцияси) – Самарқанд, 1989, 145-146-бетлар.

Tasvirlarda badiiy vositalarning xilma-xil shakllaridan mahorat bilan foydalanilgan. So'zlarning ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi, ramziy ifodalar kuchliroq mavqe tuta boshlaydi. Eng ko'p qo'llanadigan tasviriy vositalar qatorida sifatlash, o'xshatish, mubolag'a, jonlantirishni ko'rish mumkin. Shuningdek, ritmik hamda nutqiy parallelizmlar ham ancha salmoqli o'rnatadi. Qofiyalarda fe'l so'z turkumiga oid so'zlar ko'proq uchraydi

Bu rivoyat va she'rlarningning qadim ajdodlar davridan bugungi kungacha yetib kelishi ularda ezzulik tantanasi, vatanparvarlik tuyg'usining tarannumi bilan bog'liq. Bu afsona va rivoyatlar hozirgi avlodni, ayniqsa, yoshlarmizni qahramonlik, yurtsevarlik, mardonavorlik, halollik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ularning tarbiyaviy ahamiyati ham ana shunda.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbek adabiyotining tarixiy ildizlari qachondan boshlanadi?
2. Sharq tamaddunida turkiy xalqlar o'rni haqida fikringiz qanday?
3. Nima uchun turkiy xalqlar haqidagi ma'lumotlar ko'proq xorijidagi manbalardan topiladi deb o'ylaysiz?
4. O'zbek adabiyotini davrlashtirib bering. Bu haqdagi qarashlarga izoh bering.
5. "Bilgamish" dostoni haqida gapirib bering.
6. Turkiy xalqlar haqida fors manbalarida qanday ma'lumotlar berilgan?
7. Mif va afsonalarning o'ziga xos xususiyatlarni aytинг.
8. To'maris va Shiroq haqidagi afsonalarning og'izma-og'iz o'tib kelishi ularning qanday xususiyatlari bilan bog'liq deb o'ylaysiz?
9. Туркий халқ эпосларида мотивлар ва воқеалардаги эзшаш жихатларни бошқа халқлар эпосларига солишитириб кўринг ("Махабҳарата", "Одиссея", "Илиада", "Жумӯнг")

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Т., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1976, 1-kitob.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqulov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Avesto. O'zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.)-T.:2001.
7. Abu Rayhon Beruniy. Al-osorul-boqiya an-al qarunul-holiya.-T.:1969
8. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. — Т.: 1966.
9. Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. – Т.: Faфур Ғулом, 2011. 736 б.
10. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. — Т.: 1971
11. Homidov H. «Avesto» fayzlar. — Т.: 2001
12. Rahmonov N. «Avesto»ning paydo bo'lishi. — «O'zbekiston ovozi» gaz., 2001, 26 may.
13. Rahmonov N. «Avesto»: Zamin, vatan demakdir. — «O'zbekiston ovozi» gaz., 2001, 25 sentyabr.
14. Abdurahmonov G', Rustamov A. Qadimgi turkiy til. -Toshkent: O'qituvchi, 1982. 168 b.
15. Rahmon N. Turk xoqonligi. -Toshkent: «Fan», 1993. -144 b.
16. Sodiqov K. Ajdodlarimiz bitigi.-Toshkent: «Fan», 1990. 30 b.

17. Rahmon N. Oltun Yoruq. (tarjima) - ЎТА, 1994-2007-yil sonlari
18. Эргашев А. Ёзувчи нияти ва фольклор//ЎТА, №3,1993. – 17-24-бетлар.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – келажакка, маънавиятга эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Жўраев М., Йитлёнг О. Қадимги шомон мифологияси ва эпик мотивлар генезиси // Ilm sarchashmlari,2013, №8. – 45-51-б.
3. Алшимбеков А. Эзгуликка чорловчи “Олтун ёргу”//Ўзбекистон АС, 2013, 24 май.
4. Оеункунг. “Алломиш” ва “Жумўнг” достонларида ёй тортиш мотиви//ЎТА, №1,2013. – 64-67-бетлар.
5. Ингёнг О. Корейс халқининг алп қаҳрамони // Жаҳон адабиёти, №12, 2011. 138-140-б.
6. Бегматов Э., Тиллаева М. “Авесто” ономастикаси ва лисоний меросийлик муаммолари // ЎТА, №1, 2007. – 19-24-бетлар.
7. Имомов К. Пари образининг мифо-эпик талқини // ЎТА, №3, 2007. 36-39-бетлар.
8. Жабборова М. “Авесто”да Жамшид сиймоси // ЎТА, №3, 2014. 60-63-бетлар.
9. Жўраев М., Инкёнг О. Бахши ижроилиги анъанасининг тарихий асослари//ЎТА, №5, 2013. 24-33-бетлар.
10. Жабборова М. “Кисса Жамшид”да Баҳром образи // ЎТА, №6, 2013. 75-78-бетлар.
11. Улуков Н. “Авесто”да нутқ одоби ва маданияти масалалари// ТАТ, №2, 2012. 89-91-б.
12. Сулаймонов М., Кўзиев У. Шарқ ва Ғарб эпик адабиётининг муштарак хусусиятлари//Ўзбек ва шарқ халқлари адабиётида эпик анъана: миллый талкин масалалари. Халқаро илмий анжуман материаллари. 2014 йил 19-20 май. – Тошкент, 2014. – 178-181-бетлар.
13. Алимухамедов Р. Қадимги турк-моний эпик шеърияти: матн талқини ва жанр хусусиятлари//Ўзбек ва шарқ халқлари адабиётида эпик анъана: миллый талкин масалалари. Халқаро илмий анжуман материаллари. 2014 йил 19-20 май. – Тошкент, 2014. – 41-43-бетлар.


YOZMA YODGORLIKlar. "AVESTO" KITOBI

Reja:

1. Qadimgi yodgorliklarning yozuv xususiyatlari. Iyeroglifik va piktografik yozuvar. Mixxatlar va runik yozuvdag'i ilk manbalar.
2. «Avesto» (*er.av.VII asr*) - zardushtiylikning muqaddas kitobi. Zardusht. «Avesto» qadimgi mif va afsonalar majmui sifatida. «Avesto»ning tarkibiy tuzilishi. Asosiy qism va Zandlar. «Avesto»ning ilmiy-tarixiy qimmati.
3. «Avesto»ning o'rganilishi tarixidan. «Avesto» adabiy manba sifatida. Asardagi yetakchi qahramonlar va timsollar.
4. «Avesto»ning badiiy xususiyatlarga doir.

Tayanch iboralar: “Avesto”, iyeroglifik yozuv, mixxatlar, runik yozuv, Yasna, Yasht, Gohlar, Vendidot, Videvdat, Visprad, Zend, Xorda Avesto, Zardusht, Spitama, Surush, yaxshilik va yomonlik, Jamshid, Kayumars, “Oltun Yoruq”

Qadimgi yodgorliklarning yozuv xususiyatlari. Ieroglifik va piktografik yozuvar. Mixxatlar va runik yozuvdag'i ilk manbalar. Qadim zamonlarda odamlar yaratgan ko'pdan ko'p narsalardan bugun ham kundalik turmushimizda foydalanib kelmoqdamiz. Bu mehnat qurollari, sopol buyumlar, g'ildirak, sopol suvquvvurlari, gazlamalar, yozuv va hokazolardir. Qadimgi zamon mualliflari yozib qoldirgan asarlar hali-hanuz kishilarga bilim va tarbiya beryapti.



1-rasm. Mixxat yozuvi namunasi

Olimlar Yer yuzida qachonlardir ro'y bergen voqealarni qaytadan tiklash uchun ancha-muncha kuch-g'ayrat sarflashdi. Ular qadimgi shaharlarni topishdi va qazishmalar o'tkazishdi, charmga, sopolga, papirusga, shuningdek, tangalarda bitilgan sirli yozuvlarni o'qishdi. Qadimgi bitiklarni o'rganish bilan tarixning **epigrafika**, tangalarni tadqiq etish bilan esa **numizmatika** degan maxsus sohalari shug'ullanadi.

Eng qadimgi shaharlar va davlatlar tashkil topishi davrini olimlar sivilizatsiya yoki tamaddun deb ataydilar. Dastlabki sivilizatsiyalar tarixi Qadimgi Sharqda, so'ngra Yunonistondagi Krit orolida boshlangan edi. Qadimgi sivilizatsiyalar jahoning ko'pgina o'lkkalarida kabi, O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida ham vujudga keldi. Sivilizatsiyalar haqida ma'lumot beruvchi asosiy manbalardan biri esa yozuv hisoblanadi.

Qadimgi misrliklar yozuvi insoniyatning ilk yozuvlaridan biri edi. Avvaliga har bir so'z rasm ko'rinishida yozilgan. Yozuvdan olqish, duoyibadlar va marosimlarda ijro etiladigan duolar, afsunlarni yozib borishda foydalanishgan, shuning uchun ham uni "*muqaddas*" yoki o'z tushunchalarida ma'budlar kalomi deb nomlashgan.

Qadimgi yunonlar ularni "*iyeroglisflar*" deyishgan ("*toshga chekilgan muqaddas bitiklar*" ma'nosini anglatadi). Yozuvar maqbaralar devorlariga va o'z tushunchalaridagi ma'budlar haykallariga chekib yozilgan. Misrliklar alifbosи 750 iyeroglifdan iborat bo'lgan. Har bir so'z o'zida bir qancha ramzlar va timsollarni ifoda etgan. Iyeroglisflarni o'rganish qiyin ish bo'lib, savod chiqarish ko'pchilikka nasib etavermagan. Iyeroglisflarni qamish qilqalam bilan papirusga, ya'ni papirus o'simligi moyasidan ishlangan qog'ozga yozishgan.

Mil. avv. 4- mingyillikda shumerlar eng qadimgi yozuv - mixxatni ixtiro qilishgan. Shumerlar uchi o'tkirlangan tayoqchalar bilan loytaxtalarga yozishgan. Xitoyliklar bundan ikki ming besh yuz yil muqaddam shoyidan yozuv quroli sifatida qog'oz o'rnida foydalana boshladilar.

Miloddan avvalgi VIII asrda Yunonistonda Finikiya alifbosiga asoslangan yangi yozuv vujudga keldi. Alifbo 24 ta harfdan iborat bo'lgan. Ular orasida unli harflar ham bo'lgan. Bungacha bo'lgan yozuvlarda faqat undoshlargina aks etib, unlilar o'quvchi tomonidan ijodiy ravishda qo'yib o'qilgan.

Korazm hududidan O'rta Osiyo bo'yicha eng qadimgi yozuvar topilgan. Bular *Oybo'yirqal'a* (milod- dan avvalgi V—IV asrlar) yodgorligidan xum sirtiga o'yib bitilgan yozuv va Qo'yqirilganqal'adan (miloddan avvalgi IV—III asrlar) topilgan ayrim mahalliy yozuvlardir.

Davlatlarning o'zaro madaniy aloqalari natijasida O'rta Osiyoda qadimgi oromiy yozuvi keng tarqaladi.

Bu yozuv G'arbiy Osiyoda vujudga kelib, alifboga asoslangani tufayli o'zlashtirish ancha oson edi. Qadimgi Termiz yodgorliklarini o'rganish natijasida oromiy yozuvi asosidagi kushon-baqtriya alifbosidagi yozuv namunalari topilgan. Kushon mamlakatida yana bir xil yozuv - kushon shaklli yozuvi mavjud bo'lgan, bunda harflar burchakli, to'rtburchak va aylana shaklida bo'lgan. Kushon podsholigi davrida qo'llangan yozuvlar *Surxko'tal* (Afgo'nistonidagi Qunduz shahri yaqinida) yodgorligida topilgan yunon alifbosidagi Kushon bitiklarida uchraydi.

"Piramidalar matnlari" va "Marhumlar kitobi" kabi qadimiylar matnlari misrliklar tarixi haqida, "Bibliya" — yahudiylar, "Rigveda" — hindlar, "Avesto" esa O'rta Osiyo xalqlari tarixidan hikoya qiladi.

«Avesto» (er.av.VII asr) - zardushtiylikning muqaddas kitobi.


«Avesto» kitobi o'zbek, umuman, O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma'naviy madaniyatlarini o'rganishda muhim va yagona manba hisoblanadi. "Bu nodir kitob bundan 30 asr

muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir"⁹

Avesto, Ovasto (parfiyoncha: apastak — matn; ko'pincha "Zend-Avesto", ya'ni "tafsir qilingan matn" deb ataladi) — zardushtiylikning muqaddas kitoblari to'plami. Ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra, «Avesto» O'rta Osiyoda, xususan, Xorazmda mil. av. 1-ming yillikning 1-yarmida vujudga kelgan. «Avesto»da keltirilgan geografik ma'lumotlar ham buni tasdiqlaydi. Masalan, xudo yaratgan o'lkalar sanab o'tilar ekan, boyligi va ko'rkamligi jihatidan qadimgi Xorazm, Gava (Sug'd), Marg'iyona (Marv), Baqtriya (Balx) birinchi bo'lib tilga olinadi, Orol dengizi (Vorukasha yoxud Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) tavsiflanadi. «Avesto»da tilga olingan joy nomlari (Varaxsha, Vaxsh)dan kelib chiqib, uning Amudaryo sohillarida yaratilgani aniqlangan. Shu asosda uning vatani Xorazmdir degan qarash mavjud. Chunonchi, bu dinning muqaddas kitobi — «Avesto»da Ahuramazda yaratgan 16 mamlakatdan 9 tasining nomi Janubi-g'arbiy va Markaziy Osiyodagi viloyat va shaharlardir. Shulardan 2 tasi afsonaviy bo'lsa, qolgan 5 tasi Hindiston, Ozarbayjon va Armaniston hududlariga to'g'ri keladi.

«Avesto» eramizdan oldingi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan. Uning qadimgi qismlari miloddan avvalgi 2000-1000 yillarga taalluqli, deb qaraladi. «Avesto»ning bizga qadar yetib kelgan nuxsalarida Eron shohi Kayxisrav va Turon shohi Franhrasyan (Afrosiyob, Alp Er To'nga) o'rtasidagi munosabatlar o'z ifodasini topgan. Bunday tarixiy vogelik miloddan avvalgi 620—yillarga to'g'ri keladi «Avesto» oromiy va pahlaviy yozuvlari asosida yaratilgan maxsus alifboda dastlab to'qqiz ho'kiz terisiga yozilgan.

Ilk nuxsalar asosida sosoniyalar (mil. avv. 7-3 asr) davrida 21 kitob holida yig'ilgan, bizga qadar ularning chorak qismi yetib kelgan. Tiklangan matnga «Zand» nomi bilan sharhlar bitilgan. Unda keltirilgan ma'lumotlarning eng qadimgi qismlari mil. av. 2-ming yillik oxiri — 1-ming yillik boshiga oid bo'lib, og'zaki tarzda avloddan avlodga o'tib kelgan. Keyingi asrlarda «Avesto» tarkibiga turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar va h.k. qo'shilib borgan. «Avesto»ni Zardusht diniy asar sifatida bir tizimga solgan. Bu xususda Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida shunday yozadi: «Podshoh Doro ibn Doro xazinasida «Avesto»ning o'n ikki ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar



2-rasm. So'g'd yozuvi namunasi

⁹ Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. - T., 1998, 39-40-b.

otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o`ldirgan vaqtida uni yondirib yubordi. Shuning uchun o`sha vaqtdan beri «Avesto»ning beshdan uch qismi yo`qolib ketdi. «Avesto» o`ttiz nask edi. Ma`jusiyalar qo`lida o`n ikki nask chamasi qolgan». Sosoniylar kitobni Persepolda saqlaganlar. «Avesto» 21 nask (qism)dan iborat bo`lgan. «Avesto» hajmi katta kitob bo`lganligi sababli dindorlar kundalik faoliyatida foydalanish uchun uning ixchamlashtirilgan shakli — "Kichik «Avesto»" (Xurdak «Avesto») yaratilgan. «Avesto»ning qisqargan shakli «Zand Avesto» deb ham nomlangan. U pahlaviy, sanskrit (qadimgi hind) tiliga tarjima qilingan va sharhlar bitilgan. U bir necha marta Yevropa tillariga, jumladan, rus tiliga ham ag`darilgan. Arshakiylardan Vologes I davri (51—78)da qayta kitob qilingan, lekin u saqlanmagan. «Avesto» eramizning III asrida – sosoniylar podshosi Shopur I davrida kitob holiga keltirilgan. IX asrda fors tilida yozilgan “Denkard – din amallari” ensiklopedik asarida “Avesto”ning 21 kitobi to`liq ifodalangan.

“Avesto”ning tarkibi tuzilishi.

«Avesto» to`rt qismidan iborat:

1. Yasna («Diniy marosimlar»)da ibodat va qurbanlik qo`schiqlari, xudolar madhiyasi hamda diniy marosimlar tavsifi berilgan. 2-kitob. U 72 bobdan iborat bo`lib, 17 bobi got (goh)lar – madhiyalar deb atalgan. Gohlarda Axura Mazda haqidagi xabar, Zardushtga oid ma`lumotlar jamlangan. Unda ibodat va qurbanlik yo`sinlari keltirilgan. Boshqa narsalar bilan birga suv va olovga duolar ham uchraydi.

2. Yasht (ma`no jihatdan Yasnaga yaqin - "alqov") 22 qo`schiqdan iborat. Qo`schiqlarda zardushtiylik xudolari va ma`budalari madh etilgan. «Avesto»ning eng qadimiq qismlaridan bo`lib, nomlanmagan xalq eposi deyish mumkin. 4-kitob. Unda ilohning sifatlari va zardushtiylikning asosiy qarashlari aks etgan tanni pok tutish, yomon devlardan himoyalanish usullari, duo va qarg`ishlar mavjud.

3. Visparad («Barcha ilohlar haqidagi kitob»). Ibodat qo`schiqlari berilgan. Jami 24 bob.

4. Vendidot («Yovuz ruhlarga qarshi qonunlar majmuasi»). Ahuramazda bilan Zardushtning savol-javobi tarzida bitilgan. Jami 22 bob. Vendidot «Avesto»ning 1-kitobi hisoblanadi. U Ahuramazdaning dunyoni yaratishi tavsifi bilan boshlanib, so`ngra bu ilohga sig`inuvchi 16 mamlakat ta`riflanadi. Bu kitobning 2-3-qismlari insoniyat tarixi va Yima sivilizatsiyasi haqida ketadi. Vendidotning keying qismlari axloqiy, ma`naviy, fuqaroviylar, diniy mazmunda bo`lib qonunni eslatadi. Nopoklik va undan qutulish yo`llari ko`rsatiladi. Ikki bob it haqida. Itni o`ldirish insonni o`ldirishdan og`ir gunoh hisoblangan.

5. Kichik Avesto. Quyosh, Oy, Ardisura, Varxra (Varaxran) kabi xudo va ma`budalar madh etilgan ibodat qo`schiqlari beriladi. Beshinchgi kitob (pahlaviy tilida) “Bundaxish” deb ham atilib, unda moddalarining borlig`i, qiyomat va savol-javob aks etadi. Bu qismda yerda najotkor soshyanta paydo bo`lishi, u Zardushtning o`g`li yoki izdoshi bo`lishi, bu bola bokira qizdan tug`ilishi, Ahrimanni yengishi, Ahuramazdani tasdiqlashi bayon etilgan.

«Avesto» adabiy manba sifatida. “Avesto”ning badiiy xususiyatlariga doir.

Mutaxassislar faqat Yashtlar Zardusht qalamiga mansub ekanligini, qolgan qismlari keyin qo’shilgan ekanligini ta’kidlaydilar. “Avesto”dagi kichik qismlar alohida duolardan iborat bo’lib, uni «Xorda Avesto» deb ham atashadi. Avestoshunoslarning aniq ma’lumotlariga qaraganda, yodgorlikning bizga qadar yetib kelgan qismi 8 million 300 ming so’zdan iborat.

Hozirgacha «Avesto»ning ikki varianti mavjud. Birinchisi faqat «Avesto»ning o’zidan iborat. Ikkinchisi esa pahlaviy tilidagi sharhli tarjimadan tashkil topgan bo’lib, u bir necha qismlarga ajratilgan. Kitobning bizga ma’lum bo’lgan eng qadimgi nusxasi 1324-yilda ko’chirilgan bo’lib, Kopengagenda saqlanadi.

“Avesto”da Yakka xudo sifatida ulug’lanuvchi Ahura Mazda “Yuksak daholi hukmdor” ma’nosini anglatgan. Ulardan birida Mitra haqida quyidagicha dostonlar yaratilgan: Mitra qo’sh otli aravasida, musallah holda goh el –yurtni balo-qazolardan asrar va vatanparvarlik ko’rsatar, va hammani xursand etar edi. Asqar Mahkamning tarjimasidan keltirib o’tamiz:

*Epchilardan epchilroq Mitra,
Ahl saxl ichida mumtoz,
Dovyuraklar ichida sherdir,
Jasurlardan jasoratliroq.
Yashnatadilar, gurkiratadilar,
To’kinlar yaratguchidir.
Ko’rkam hayot ayladi in’om
Haqiqatga hokimlikni ham.*

Rizoiy, Bahromiy, Meri Boyslar 1 million she’rning hammasi zardushtning qalamiga mansub deyishsa, boshqa tadqiqotchilar esa, qadimiy ijod mevasi, degan fikrni ilgari surishgan.

Hammamizga ma’lumki, hozir ham Hindistonning Mumbay va Gujarat viloyatlarida yashaydigan aholi bu dinga e’tiqod qiladilar. Ular “Avesto”ning bir qismini saqlab kelmoqdalar. Zardushtiylik dini haqida ingliz olimi Dj. Buger, fransuz olimi A.Dyupperon juda qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Masalan, A.Dyupperon 1755-yilda Hindistonga ilmiy safar qilib, u yerdagi zardushtiy qavmi orasida 3 yil yashagan, ularning ibodatlari, urf-odatlarini yaxshi o’rgangan va keyinchlik «Avesto»ni fransuz tiliga tarjima qilgan. 3 jildlik tarjima 1771-yilda nashr etilgan. «Avesto»ning bu nusxasi 27 jilddan iborat bo’lib, asarning yettidan bir qismidir.

«Avesto» qadimgi mif va afsonalar majmui sifatida. Asardagi yetakchi qahramonlar va timsollar.

Olimlarimizning fikricha, «Avesto» G’arbiy Yevropa, Eron va Hindiston tillari orqali bizga yetib kelgani uchun undagi nomlar, terminlar aksariyat hollarda asliga to’g’ri kelmaydi. «Avesto»dagi turkona jihatlar kam

qolgan. «Avesto»da osmon jismlarida ilohiylik belgilarining ko`rsatilishi turkiy xalqlarning diniy e`tiqodlariga yaqin turadi. Jumladan, quyosh xudosi Mitra haqidagi tasavvurlar shunday xususiyatga ega. «Avesto»da qadimgi turkiy qavmlar va ularning hukmdorlari, qahramonlarining badiiy tasvirlari ham ifodasini topgan. Unda turkiylar tur nomi bilan beriladi. Turkiy va forsiy xalqlar adabiyotida Afrosiyob, Siyovush, Kayxisrav haqida yaratilgan turkum rivoyat va afsonalarning dastlabki namunalari «Avesto»da uchraydi.

“Avesto”ga ko`ra, olam ikki asosning, ikki ibtidoning, ya`ni yorug’lik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning to`xtovsiz kurashidan iborat¹⁰. Bu kurash abadiy davom etadi. Yaxshilikni ifodalovchi kuchlar osmonda, yomonlikni ifodalovchi kuchlar yer ostida joylashgan, yer sathi esa kurash maydonidir. Hayotdagि turfa o`zgarishlar qaysi kuchning g`alaba qilishiga bog`liq. Inson ham tana va ruhning, axloq esa yaxshi va yomon xulqning o`zarо kurashidan iborat. Bu dinning ta’limotiga ko`ra, xudo Ahuramazda «Oliy ibtido»dir. U hamma mavjudotni yaratuvchi va boshqaruvchi Oliy ruh. Uning na xotini, na farzandlari bor. Ahuramazdaning 6 nafar eng yaqin yordamchisi bo`lgan. Bular: Vohu Manah (ezgu fikr) poda va chorvani boshqargan; Asha Vahishta (yuksak haqiqat) olovni boshqargan; Xshatra Varya (munosib qudrat, hokimiyat) ma’danlarni boshqargan; Siyenta Armati (muqaddas itoat) erni boshqargan; Xarvatat (salomatlik) suvlarni boshqargan; Amyeryetat (mangulik) o’simliklar dunyosini boshqargan.

“Avesto” ta’limotiga ko`ra, birinchi inson Gavomard (forscha: ho`kiz-odam; Qayumars) bo`lib, undan insoniyat tarqalgan. Zardushtiylik ta’limotida Odam Ato haqidagi fikrlar o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. U Iyim nomi bilan atalgan bu dinda. Insoniyat Iyim podsho bo`lgan davrlarda baxt-saodat makonida kasallik va o`lim ko`rmay yashagan. Iyim odamlarni, hayvon va qushlarni parvarishlagan, Yer yuzida qizil shu`lali olovni ko`paytirgan va 900 yil umr ko`rgan. Ahuramazda Iyimga oltin nayza bilan oltin qamchi sovg`a qilgan. Yer odamlar yashashi uchun torlik qilib qolganida, Iyim nayzani yerga suqib, xudodan uni kengaytirishni so`ragan va bunga erishgan. Iyim qanchalik jasorat ko`rsatmasin, u o`z imkoniyatlariga ortiqcha baho beradi, mag`rurlanib ketadi va xudo man etgan ne`mat — qoramol go`shtini yeb qo`yadi. Oqibatda u xudoning qarg`ishiga uchraydi, endi odamzot abadiylikdan mahrum bo`ladi. Endi odamzot tiriklik tavshishlariga, ya`ni yeb-ichish zaruriyatiga, kasallik va o`limga yuzma-yuz bo`ladi (Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvilishi). Aximan Ahuramazda tanidan ajralib chiqib, yovuzliklar yaratishga tutinadi. Quyidagi ma’lumotlar esa Nuh alayhissalom qissasini yodga soladi: Ahuramazda Iyimga muzlik davri kelayotganining xabarini bergen va bu ofatning oldini olishni aytgan. Iyim maxsus uy qurib, hamma hayvon va o’simliklarning eng yaxshi zoti hamda navidan bir juftdan saqlab qolgan. Endi

¹⁰ Shu o’rinda Jaloliddin Rumiydan bir hikmat keltiramiz: Ma’jusiyalar olamning asosi ikki narsadan iborat deydilar. Biz bunga yo’q deymiz. Chunki yorug’lik bo`lmasa zulmat bo`lmaydi. Zulmat yorug’lik borligining belgisidir.

odamzot hayotining birinchi davri tugab, ikkinchi davri boshlanadi. Uchinchi davrda Ahuramazda g'alaba qilib, ezgulik sultanati barqaror bo'ladi, o'lganlar tiriladi. To`rtinchi uch mingyillikda Zardusht tug'iladi. U uch farzand ko'radi. Ulardan harbiylar, ruhoniylar va dehqonlar paydo bo'lib ko'payadilar. (Budda dini g'oyalarini eslang: kastalar) Qattiq jang va yong'indan so'ng Zardushtning avlodidan bo'lgan Saosyant dunyoni qaytadan tiklaydi.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, odam o`lganidan so'ng, uning joni 3 kun davomida tanada turadi, 4-kuni o'z mahrami — go'zal qiz qiyofasidagi farishta yo'lboshchiligida narigi dunyodagi «Chinvot» (qil ko`pri) degan ko`priдан o'tishi kerak. Ezgu ishlar qilgan odamlar uchun bu ko`pri kengaygan holda turadi, ular undan bemalol o'tib, jonlari abadiy rohat-farogatda ketadi va oxiratda, o'liklar tirladigan kunda o'z tanalariga kirishni kutib yotadilar, yovuz ishlar bilan shug'ullanganlarga esa «Chinvot» ko`prigi qilday torayadi va ular jahannam azoblariga mahkum bo'ladilar. Yaxshilar yana o'z tanalarida yashashni davom ettiradilar. Bu din g'oyalariga ko'ra, odamlar dunyoga har 3 ming yilda qaytib turadilar.

Dunyoni azaliy ezgulik bag'riga qaytarishning birdan-bir yo'li esa pok hayot; halol mehnat; yaratuvchanlik; yovuzlikni qalbdan chiqarib tashlash; iymonli-e'tiqodli bo'lish; miskinlarga yordam berish; yaxshi niyat va yaxshi so'zdir. «Avesto»ning axloqiy-falsafiy mohiyati "ezgu fikr", "ezgu so'z" va "ezgu amal" kabi muqaddas uchlik (axloqiy triada)da o'z ifodasini topadi. Zardushtylarning ibodat oldidan aytildigan niyati, so'zлari shu 3 ibora bilan boshlanadi.

"Avesto"da Vorukasha dengizi o'rtasida o'sadigan Xoma daraxti haqida ham so'z ketadi. Afsonaviy qush saena Merug'a hayot daraxtiga in solgan. Qush uchib ketganda daraxt yashnab shoxlaydi, qush uchib kelganda esa shoxlar sinib urug'lar yerga to'kiladi va atrofga yoyiladi.

Zardusht. Zaradushta – pahlaviycha *ushtra – tuya, zarat – sariq, ya'ni tuyachi qariya – tuyachilar avlod* (*sariq tuya egasi*) ma'nosini anglatadi. Diniy rivoyatlarga qaraganda, Zardusht (miloddan avvalgi 589—512 yillar) Navro'z kunlarining birida kohinlar boshchiligida muqaddas ichimlik bo'lgan «Xaoma» tayyorlashga kirishgan. Erta tong pallasida u daryodan suv olish uchun qirg'oqqa tushgan. Suv olib bo`lgach, poklanayotgan Zardushtning ko`ziga qirg'oqda turgan porloq xilqat - «Voxumana» ko`rinadi va uning sehrli nuriga ergashadi. Nihoyat, u ezgu va ulug' xudo Ahuramazda huzuriga boradi. Ahuramazda o'zining butun borliqni yaratgan xudo ekanı haqidagi xabarni bildirish uchun odamlar orasidan Zardushtni tanlaganini aytadi. Shu kundan boshlab Zardusht Ahuramazda dinining payg'ambariga aylanadi. Endi u o'z qavmlari orasida yangi dinni targ'ib eta boshlaydi. Buning uchun u «Gatlar» (gohlar - Xatlar) deb atalgan, qo'shiq qilib aytishga mo'ljallangan she'rлar yaratadi.

40 yoshida Zardusht avvalgi ko`pxudochilik diniy tasavvurlariga hamda tabiat hodisalariga sig'mish e'tiqodlariga qarshi chiqib, yakkaxudolikka asoslangan kitobiy din - Zardushtiylik dinini yaratgan.

Ayni paytda, Zardusht yashagan zamon ibtidoiy munosabatlar o`rnini sinfiy jamiyat, qadimiy davlatchilik asoslari egallayotgan, biroq, mahalliy-qabilaviy dinlar jamiyat taraqqiyotining bu yangi bosqichiga to`sinqlik qiluvchi kuchga aylanib qolgan davr edi.

Spitama Zaradushtra ta`lim-tarbiya masalalariga ham katta ahamiyat bergen holda bunday deydi: "Tarbiya hayotning eng muhim tirdagi (tayanchi) bo`lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o`qishni va so`ngra esa yozishni o`rganish bilan eng yuksak pog`onaga ko`tarilsin". "Avesto"da bolalarni o`qitish va tarbiyalash qoidalari esa quyidagi tartibda tavsiya etilgan: a) diniy va axloqiy tarbiya; b) jismoniy tarbiya; v) o`qish va yozishga o`rgatish. Bolalarga diniy tarbiya berish, asosan, 7 yoshdan boshlangan. O`g`il bolalar 7 yoshga yetganda, ularga maxsus "muqaddas ko`ylak" kiydirish marosimi o`tkazish rasm bo`lgan. O`g`il bolalar bunday marosim paytda muallim bilan bir qatorda quyoshga qarab turishgan. Ana shunday marosim o`tkazilayotgan chog`ida bolalar muallimiga qo`shilib "Avesto"dan ezgulik va yaxshilik ma`budasiga madadkor kuchlarni ulug`lovchi duolarni aytishgan.

«Avesto»ning o`rganilishi tarixidan. O`zbekistonda «Avesto»ni o`rganish qadimdan boshlangan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ja`far Tabariy, Abu Bakr Narshaxiy asarlarida «Avesto» ta`limotiga va unda tilga olingan timsollarga murojaat mavjud.

«Avesto» insoniyat sivilizatsiya tarixining ilk sahifalarini tashkil etgani uchun jahon olimlarining e`tiborini tortgan. U haqda F.Nitsshe, F.Shipigel, A.Mayllet, V. Bartold, E. Bertels, Yan Ripka, O.Makovelskiy, I.Braginskiy v.b. xorijiy olimlarning tadqiqotlari mavjud. 1826-yilda daniyalik tilshunos Rasmus Kristian Rask (1787-1832) qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschilaridan biri sifatida Avesto tilining qadimiyligini asoslab, uning Hindistonning qadimiy tili sanskrit bilan qarindosh ekanligini asoslab berdi (Oranskiy EFK 70 bet).

O`zbekiston hukumatining tashabbusi bilan YUNESKO Bosh konferensiysi 30-sessiyasi "Avesto" yaratilganining 2700 yilligini dunyo miqyosida nishonlash haqida qaror qabul qildi (1999-y. noyabr). "Avesto"ning jahon madaniyati va dinlar tarixida tutgan o`rnini hisobga olgan holda hamda yuqoridaq qarordan kelib chiqib, 2000-yil 29-martda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror bilan "Avesto"ning 2700 yilligini nishonlash tadbirlarini belgiladi. Unga ko`ra 2001-yilda O`zbekistonda "O`zbekiston – "Avesto" vatani: o`tmish, bugun, kelajak" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya va tantanali bayram tadbirlari o`tkaziladi. «Avesto» vatani Xorazmda bog` barpo qilindi, asarning o`zbek tilidagi tarjimalari chop etildi, u haqda yangi tadqiqotlar yuzaga chiqdi. Asar Mirsodiq Is`hoqov, Asqar Mahkam (prof. T. Mahmudov so`zboshisi bilan) tomonidan o`zbek tiliga tarjima qilindi. Bu nodir ilmiy asarlarning qo`lyozma va bosma nusxalari O`R FA Shi jamg`armasida saqlanadi. Hozirgi o`zbek olimlari A.Qayumov, H. Homidov, M. Is`hoqov, N. Rahmonov v.b.ning ilmiy tadqiqot va maqolalari

e'tiborli. Avesto» o'zbek ilm-fanida, xususan, N.Mallayev, F.Sulaymonova, B.To'xliyev, T.Mahmudov, N.Norqulovlarning tadqiqotlarida tahlil etilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. "Avesto" haqida gapirib bering.
2. Qadimgi yodgorliklarning yozuv xususiyatlari haqida gapirib bering.
3. Ieroglifik va piktografik yozuvlar haqida ma'lumot bering.
4. Zardusht shaxsi haqida nima bilasiz?
5. . Mixxatlar va runiy yozuvdagi ilk manbalar haqida gapirib bering.
6. «Avesto»dagi qadimgi mif va afsonalardan misollar keltiring.
7. "Avesto"ning tarkibiy tuzilishini ayтиб bering.
8. «Avesto»ning ilmiy-tarixiy qimmati nimalardan iborat?
9. «Avesto»ning jahon ilmida o'r ganilishi haqida gapiring.
10. Asarning O'zbekistonda o'r ganilishi qaysi olimlar xizmati bilan bog'liq?
11. Asardagi yetakchi qahramonlar va timsollar haqida gapiring.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Avesto. O'zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.)-T.:2001.
2. «Avesto»dan (tarj. M. Ishoqov). O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1999, # 2-4
3. Авесто: тарихий-адабий ёдгорлик / Н.Жўраев; таржимон А.Махкам. – Т., 2015. 732 б.
4. Qayumov. Qadimiyat obidalari. — Т.: 1971
5. Homidov H. «Avesto» fayzlari. — Т.: 2001
6. Rahmonov N. «Avesto»ning paydo bo'lishi. // «O'zbekiston ovozi» gaz., 2001, 26 may.
7. N. Rahmonov. «Avesto»: Zamin, vatan demakdir. // «O'zbekiston ovozi» gaz., 2001, 25 sentyabr.
8. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Т., 2006.
9. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи– Т., 1981.
10. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
11. Mahmudov M. Komil inson – ajdodlar orzusi. Adabiy-falsafiy o'ylar. – Т.: Yozuvchi, 2002.
12. Эргашев А. Ёзувчи нияти ва фольклор//ЎТА, №3,1993. 17-24-бетлар.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Имомов К. Ўзбек фольклорида Хумо куши // ЎТА, №5, 2011. – 21-26-бетлар.

O`RXUN-ENASOY OBIDALARI

Reja:

1. O`rxun-Enasoy obidalari (VI-VIII asrlar) adabiy manba sifatida.
2. Yodgorliklarning yaratilish tarixi va tarqalish o`rni. Ularning kashf etilishiga oid ma'lumotlar.
3. Bilga xoqon yodgorligida Vatan daxlsizligi uchun kurashning aks etganligi. Kul Tegin yodgorligi.
4. O`rxun-Enasoy toshbitiklari adabiy manba sifatida. Toshbitiklarning til xususiyatlari, adabiy qimmati.
5. O`rxun-Enasoy yodgorliklarining janr xususiyatlari: tarixiy-qahramonlik dostonlari, qo'shiq va yig'i janrlari. Toshbitiklar va turkiy xalqlar og'zaki ijodi o'rtasidagi munosabat. O`rxun-Enasoy yodgorliklarida mifologik tasavvurlar.
6. To'nyuquq bitigi. Unda shaxs va millat erki.
7. Irq bitigi (Ta'birnomasi) adabiy manba sifatida.

Tayanch iboralar: *toshbitik, ko'k turklar, o`rxun yozuvi, To`nyuquq, V.Yadrinsev, V.Tomsen, A.Juvayniy, Bo'min, Istami, Eltarish, Irq bitigi, dulbarchin, runik yozuv, alliteratsiya, so'z takrori.*

O`rxun-Enasoy yodgorliklari tarixiy manba sifatida. O`rxun-Enasoy yodgorliklarining topilishi va o'rganilishi XVIII asrdan boshlanadi. Rus xizmatchisi Remezov bu haqda dastlabki xabarni beradi. Shved zobiti Iogann Strallenberg, olim Messershmidt yodgorliklarni Yevropa ilm ahliga ilk marta taqdim qilgan edilar. XIX asrning birinchi choragida Grigoriy Spasskiyning "Сибирский вестник" jurnalida mazkur yodgorliklar haqidagi maqolasining chop etilishi va lotin tiliga tarjima qilinishi yodgorliklarga bo`lgan qiziqishni yanada orttirdi. 1889-yilda N.M. Yadrinsev Kul Tigin va Bilga xoqon bitiktoshlarini fan ahliga havola qildi. Dastlab, O`rxun, Selenga va To`li daryolari atrofidan — Shimoliy Mo`g'ulistonidan toshga bitilgan obidalar topildi. Ular O`rxun yodgorliklari nomini oldi. Enasoy (Yenisey) daryosi qirg'oqlarida topilgan yodgorliklar Enasoy nomi bilan ataladi.

Bir necha yil davomida dunyo bu toshbitiklarning mazmunidan voqif bo`la olmadidi. Shu sababli u Yevropada "runik" (sirli) yozuvlar deb nom oldi. Ularni 1893-yildagina o'qishga muvaffaq bo`ldilar. Bu ishni uddalagan olim daniyalik Vilhelm Tomson bo`ldi. Bir yildan so'ng esa V. Radlov tomonidan nashr qilinib, dunyoga ma'lum etildi. Aslida, bu yodgorliklarni fanda mutlaqo noma'lum deb bo`lmas edi. U haqidagi ma'lumotlar 1260-yillayoq Juvayniyning "Tarixi jahonkushoy" asarida qayd etilgandi. 1575- yilda O`rxun bo'yiga sayohat qilgan rumin sayyohi Nikolas Melesko va 1721- yilda Enasoy bo'yida bo`lgan olmon D. Messershmidt ham bu yodgorliklar haqida xabar bergan edilar. Lekin ular XVIII asrning 80-yillaridagina dunyo e'tiboriga tushdi. Rus olimlaridan V. Radlov, S. Malov, I. Stebleva, S.G.Klyashtorniy,

turk tadqiqotchilaridan T.Tekin, M. Erg'in, Najib Osim, H. O'rxun, o'zbek olimlaridan A. Rustamov, G'.Abdurahmonov, N. Rahmonovlar o'rganishgan. Yodgorliklar hozirgi o'zbek tiliga bir necha marotaba o'girilgan. A.P.Qayumov «Qadimiyat obidalari» kitobida, G'.Abdurahmonov va A. Rustamovlar «Qadimgi turkiy til» kitoblarida mazkur yodgorliklardan namunalar keltirishgan.

O'rxun-Enasoy yodgorliklari turkiy xalqlarga, xususan, VI-VIII asrlarda Oltoydan Amudaryo bo'yalarigacha saltanat qurban ko'kturklar davriga mansub ekan. Tariximizda ko'kturklar xoqonligi davri alohida o'rinn egallaydi. Ular o'zlarini ko'k, ya'ni osmon farzandi deb bilganlar. Xoqonlik ikki davrni boshidan kechirdi. Birinchi Turk xoqonligining davomiyligi 535—630- yillarga to'g'ri keladi. Ikkinci Turk xoqonligi davri esa VIII asrning 20—30-yillarida kechdi. Ko'kturk xoqonligining boshida Bo'min xoqon va Istami xoqonlar turganlar. Bo'min xoqon 552- yilda vafot etgan. Ikkinci Turk xoqonligining asoschisi Eltarish xoqon edi. Xoqonlik, aytiganidek, VIII asrning 30-yillarida yemirildi. O'rxun-Enasoy bo'yalarida topilgan toshbitiklar ikkinchi davr Turk xoqonligining so'nggi vakillari bo'lgan To'nyuquq, Kultegin, Bilga xoqon qabrlariga yozdirilgan yodgorliklar ekan.

Yodgorliklarning yaratilish tarixi va tarqalish o'rni. Bu xil bitiklar faqat O'rxun va Enasoy bo'yidagina emas, ko'kturklar hukmronlik qilgan ulkan hududning deyarli hamma joyida uchraydi. Oltoy atrofi, Talas vodiysi, Kavkaz, Volga, Dunay bo'yalarida ham bu xil yodgorliklar bo'lib, ular bugungi kungacha topilib keladi. Chunonchi, XX asrning 60-70- yillarida Qozog'iston hududida bir qator namunalari topilib e'lon qilindi. V.V. Radlov, V. Tomsen va S. Malov kabilar bu yodgorliklarni qirg'iz tiliga mansub deb uqtiradilar. Shuningdek, ularning doirasi qabr toshlari bilangina cheklanib qolmagan. Turli-tuman idishlar, uy-xo'jalik ashyolariga bitilgan namunalar ham uchramoqda. Nihoyat, ularning adadi bиргина Enasoy bo'yida topilgan yodgorliklar salkam 250 nafardir. Dunyo bo'yicha 700ga yaqin namunasi fanga ma'lum. Olimlar Ko'kturk yozuvlarini tahlil qilar ekanlar, uning orsfografik va leksik jihatdan yaxshi rivojlanganligini ko'rib, bu yozuv egasi bo'lgan xalqning davlatchilik tarixi ancha qadimroqdan boshlanishini ta'kidlaydilar. O'rxun bo'yida ko'kturklardan so'ng hukmronlik qilgan uyg'ular bu tildan VIII asrning 2-yarmida ham foydalanganlar¹¹.

Yodgorliklarning faqat uchtasi haqida ma'lumot beramiz.

To'nyuquq bitiktoshi. Bitiktosh 1897- yilda Ulanbator shahri yaqinida topilgan bo'lib, bir-biriga qaratib qo'yilgan ikki to'rt qirrali tosh ustundan iborat. Tosh ustunlarining biri 170, ikkinchisi 260 sm balandlikda. Yozuv 62 satrni tashkil etadi. Bitik Eltarishning maslahatchisi va sarkardasi To'nyuquqqa

¹¹ Cakan V. Chagatai Turkish and and his affect to Central Asian Culture/ Osaka University Knowledge Archive, 2011. P.144.

bag'ishlab, uning tirikligida 712-716 - yillarda yozilgan. Bu toshbitik er-xotin Yelizaveta va Dmitriy Klemenslar tomonidan topilgan.

Kultegin bitiktoshi. Kultegin bitiktoshi mazkur yodgorliklar orasida ham hajman, ham mazmunan eng salmoqlisidir. Bitik katta marmar toshga o'yib yozilgan. Toshning balandligi 3 metr 15 santimetr, qalinligi 41 santimetr, tub qismi 1 metr 24 santimetr. Marmar taxtaning tepa qismi o'rtasida besh burchakli lavha o'rnatilgan. Lavhada arxar surati aks etgan xoqonlik tamg'asi naqshlangan. Matnning hajmi 66 sm. Tosh bitik Kultegin qabriga qo'yilgan. Kultegin turk xoqoni Eltarish xoqonning kichik o'g'li bo'lib, 685-yilda tug'ilgan, keyinchalik akasi Bilga xoqonning sarkardasi bo'lgan. Kultegin Mutaxassislarning fikricha, kul—ulug', dovruqli ma'nolarini beradi, tegin(tikin) esa sarkardalik unvonidir. Kultegin 731- yilning 27- fevralida 47 yoshda vafot etadi. Atrofdagi el-ulusdan, uzoq-yaqin davlatlar, mamlakatlardan kelib ta'ziya bildiradilar. Bugungi O'rta Osiyo (o'sha paytlardagi Sug'd, Barchakar, Buqaraq)dah Nang sangun, O'g'ul tarxon qatnashganliklari ma'lum. Bitiktosh Bilga xoqon buyrug'i bilan jiyani Yo'llug' tegin tomonidan yigirma kun davomida yozib tugatilgan. Asosiy voqealar, his-tuyg'u va kechinmalar Bilga xoqon tilidan ifodalangan.

Bilga xoqon bitiktoshi. Bu bitiktosh ham Kultegin yodgorligi singari O'rxun daryosi bo'yida Shimoliy Mo'g'ulistonning Ko'kshin-O'rxun rayoni hududida joylashgan. Har ikki bitiktosh orasi bir chaqirim atrofida. Bitiktoshning bo'y 3 metr 45 santimetr. Eni 1 metr 72 santimetr, qalinligi 72 santimetr. Bizga shikastlangan holda etib kelgan. Ag'darilib, uch bo'lakka bo'lingan va yozuvlarning ayrim joyi sezilarli zararlangan.

Bitiktosh Eltarish xoqonning katta o'g'li Bilga xoqon – Mo'gilyon sharafiga o'rnatilgan. Bilga—dono, donishmand degan ma'noni bildiradi. Chamasi, bu nom uning ham bosh farzand ekanligiga, ham u idora etgan saltanatning ulug'ligiga ishora edi. Bilga xoqon 684-yilda tug'ilgan, 18 yil xoqonlik qilgan, 734-yilda yaqin qarindoshlarining biri tomonidan zaharlab o'ldirilgan. Bitiktosh shu yili o'rnatilgan. Uning muallifi ham Yo'llug' tegindir.

Bitiktoshlarning adabiy-badiiy qimmati. Har uch yodgorlik, avvalo, qabr toshidir. Shu sababdan unda bag'ishlov egasi bo'lgan shaxslarning qilgan ishlari, jumladan turkiy xalqlarni birlashtirish, ichki va tashqi dushmanlarga qarshi kurashdagi buyuk xizmatlariga alohida e'tibor beriladi. Tabiiyki, har uchalasida ham dabdabali motam ruhi, yo'qotish iztirobi sezilib turadi. Shundan bo'lsa kerak, tadqiqotchilardan I.Stebleva ushbu tosh bitiklarni „qabriston poeziyasi" deb atagan edi. Ushbu tosh bitiklar, birinchi navbatda, 6-8-asrlarda Markaziy Osiyo hududlarida yuz bergen shiddatli tarixiy voqealarning aniq taqdirlar misolidagi badiiy ifodasıdir. „Oldinga — kunchiqarga, o'ngga — kunyurarga, orqaga — kunbotarga, chapga - tun o'rtasi (shimol)gacha bo'lgan yerdagi xalqlar hammasi menga qaraydi. Shuncha xalqni yig'dim. U endi yovuz emas. Turk xoqoni O'tukan Yishda tursa, elda tashvish yo'q. Shimolga — Shantung cho'ligacha lashkar tortdim, dengizga biroz yetmadim, Janubda To'quz arsan qabilasigacha lashkar

tortdim, Tibetga biroz yetmadim. G'arbda Sirdaryoni kechib o'tib, Temir darvozagacha lashkar tortdim. Shimolga — Er Bayirqu yerigacha lashkar tortdim, shuncha joygacha yurish qildim", - deb yozilgan „Kultegin bitiktoshi"da.

Urushlar va yurishlar tinimsiz, jang-u jadallar shafqatsiz edi. Ushbu hol bitiktoshda quyidagicha ifodasini topgan: „*Hammasi bo'lib yigirma besh marta lashkar tortdik, o'n uch marta jang qildik. Davlati borni davlatsizlantirdik, xoqoni borni xoqonsizlantirdik, tizzasi borni cho'kkalatdik, boshi borni ta'zim ettirdik*". Bitiktoshlarda qirgiz, uyg'ur, tatar, o'g'iz, to`qqiz o`g'iz, sug'd, qarluq kabi ko`plab el-elatlar, qabila-urug' nomlari uchraydi.

Masalaning dahshatli va iztirobli tomoni shundaki, yuqorida tilga olingan jang-u jadallar ko`pincha mana shu turkiy qabilalar orasida kechadi. O`zaro kelishmovchiliklar, mansab va sultanat talashlari, do'stni dushmanga, qardoshni begonaga aylantiradi. Oxir-oqibat turk millati daraxtning tepasiga chiqib tanasini arralayotgan afandidek o'z poyiga o`zi bolta urib boraveradi. Turkiy xalq va elatlar tarixidagi bu davr haqida Chingiz Aytmatov shunday yozadi: "Bu vaqtida dushmanni oxirigacha qirgan, molini olgan kishi eng mard va aqlli kishi hisoblanardi..." "Kultegin bitiktoshi"da quyidagi iztirobli satrlarga duch kelamiz: "*Turk o'g'uz beklari, ey xalq, eshitin! Tepadan osmon bosmagan bo'lsa, pastda yer yorilmagan bo'lsa, ey turk xalqi, davlatingni, hukumatingni kim buzdi?*"

Toshbitiklar, ayniqsa, so`nggi ikkitasi shuni ko`rsatadiki, uning muallifi Yo'llug' tegin katta badiiy salohiyatga ega bo`lgan: so`zlar salmoqli, ifoda ravon, manzaralar ta'sirchan tasvirlangan. Har ikki bitiktosh matni o`zining qat'iy mazmuniy va mantiqiy qurilishiga ega. Jumladan, "Kultegin" bitigi xoqoning o'z xalqiga, beklariga xitobi bilan boshlanadi. So`ng o`zini tanishtiradi, qilgan xizmatlaridan so`zlaydi. Oldindagi xavflardan yurt ahlini ogoh qiladi. Uning soddaligidan, ishonuvchanligidan xavotirini yashirmaydi, xalq boshiga tushgan balo-ofatlarning sababini shundan ko`radi. Chunonchi, u shunday deydi: "*Ey turk xalqi, g'oyat ishonuvchansan. Samimiyydan-nosamimiyyni ajratmaysan. O'shandayliging uchun tarbiyat qilgan xoqoningning so'zini olmayin har qayerga ketding, u yerlarda butunlay g'oyib bo'lding, nom-nishonsiz ketding... Turkning endigi xalqi, beklari! Uy, dunyogagina qaraydigan, ko`ziga faqat mol-mulk ko`rinadigan beklar, sizlar gumrohsizlar!*"

Yo'llug' tegin Kulteginning g'alabalarga burkangan shonli hayotini baland pardalarda tarannum etadi. Uning jangdag'i shiddatidan hayajonga tushib yozadi: „*Kultegin yayov otilib hujum qildi. O'ng Tutuq yo'lboshchisining yaroqli qo'lini tutdi... U lashkarni o'shanda yo'q qildik. Yigirma bir yoshida Chacha Sangunga urush qildik. Eng avval Tadqan Churning bo'z otini minib hujum qildi, u ot o'shanda o'ldi. Ikkinci bor Ishbara Yamtarning bo'z otini minib hujum qildi, u ot o'shanda o'ldi. Uchinchi bor Egan Silig bekning to'riq otini minib, hujum qildi, u ot o'shanda o'ldi. Yarog'iga, yopinchig'iga yuzdan ortiq o'q bilan urdi. Badaniga, boshiga bitta tegmadi*".

Bunday xususiyatlar faqat Yo'lluqtigin qalamiga xos deyish to'g'ri emas. To`nyuquq bitktoshida ham ta'sirchan jang manzaralari tasviri yo'q emas. Masalan: „Men dono To`nyuquq: Oltin yishni oshib keldik, Irtish daryosini kechib keldik. Jangchilarning kelgani qahramon, deganlar. Dushman sezmay qoldi. Tangri, Umay, muqaddas yer-suv dushmanni bosib bergan ko'rindi. Nega chekinamiz, dushmanni ko'b deb? Nega qo'rqamiz, o'zimizni oz deb? Qani bosaylik, hujum qilaylik, dedim. Hujum qildik, dushmanni tor-mor qildik. Ikkinchini kun keldi. Urushdik. Ularning qo'shini biznikidan ortiq edi. Tangri yorlaqagani uchun, dushman ko'p deb biz qo'rqedik, jang qildik".

«To`nyuquq» bitiktoshi qahramoni esa ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonining maslahatchisi va sarkardasi bo'lgan.

To`nyuquq «Turk Bilga xoqon davlatida bu bitikni yozdirdim» deydi. Bilga xoqon Eltarish xoqonning o'g'li edi.

Bitiktoshdagi voqealar To`nyuquq tilidan hikova qilinadi: «Men — Dono To`nyuquq eruman. Tabg'ach davlatida tarbiyalandim. Turk xalqi Tabg'ach davlatiga bo'y sunar edi...»

So'ng turkiylarning o'z erkini qo'ldan berib qo'yish-larining sababi aytildi: «Turk xalqi boshboshdoqlikka, o'zibo'larchilikka, beparvolikka yo'l qo'ydi... o'zining xoni bilan birga bo'lmadi».

Mustamlaka azobi, o'zga xalqlar yetkazgan zulm yozma yodgorlikda qisqa va lo`nda, ammo nihoyatda ta'sirchan tarzda ifodalanadi:

«...Tabg'achga taslim bo'lganligi uchun Tangri o'l degan shekilli, turk xalqi o'ldi, yo'q bo'ldi, tugadi. Turk Sir xalqi yerida birorta ham urug' qolmadidi».

Ana shunday musibat xalqning birlashmog'ini, yakdillik bilan harakat qilmog'ini taqozo etar edi. Yodgorlikda To`nvnquq xalq yetakchisi. dono maslahatchisi, kuchli va botir sarkarda sifatida namoyon bo'ladi.

U yetti yuz kishini birlashtirib, «shad» degan unvon oladi. Bu turk xoqonligidagi eng oliy darajadagi unvonlardan biri edi.

To`nyuquq Bo`gu Tarxon hamda Eltarish xoqonlar bilan birga mamlakat mustaqilligi, el-yurt farovonligi, yurt osoyishtaligi, chegaralar daxlsizligi uchun tinimsiz kurash olib bordi. U bu kurashlarning oldingi safida edi. Ammo dushmanlar ham tinch o'tirmadi.. Ular kuchlarni birlashtirish payiga tushishdi.

To`nyuquq bahodir va jasoratlari shaxsgina emas, ayni paytda o'z atrofidagilarning mustahkam jipsligini ta'minlaydigan, yagona maqsad yo'lida xalqni birlashtirishning uddasidan chiqadigan rahnamo sifatida ham namoyon bo'ladi. U odamlarning ko'nglidan kechayotgan o'ylarni nozik darajada his etadi. Shu bilan birga, ularning qalblariga ta'sir etish yo'llarini ham yaxshi biladi. Shunga ko'ra, u Vatan va yurt taqdirini, xalqining kelajagini o'z qardoshlariga buyuk xavotir bilan yetkazganida oz sonli qo'shini harakatga keladi. Natijada ko'p sonli dushman tor-mor bo'ladi.

To`nyuquq buyuk vatanparvar shaxs timsolidir. Uning o'z vatani, xoqoni, qo'shini, xalqi bilan faxrlanishi, ularning borligidan o'zini baxтиyor sezishi yodgorlik matniga puxta singdirilgan.

Hatto dushmanning «xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi donishmand ekan» degan bahosida ham shu ruh mavjud. To`nyuquqning xotirjamligi esa «xalqning tomog'i to`q edi» jumlesi orqali ifodalangan.

Dushmanning turkiylar ustiga hujum uyuşdırış haqidagi yovuz niyatini eshitgan To`nyuquq «tun uxlagim kelmadi, kunduz o`tirgim kelmadi» deb nido qiladi. Bu o'rinda uning o'z taqdirini xalq va yurt taqdiri bilan yahlit holda tasavvur qilishini yaqqol ko`ramiz.

To`nyuquq mamaviyatidagi eng asosiy nuqta shunday ifodalananadi: «Bu turk xalqiga qurolli dushmani keltirmadim, yalovli otni yogurtirmadim».

To`nyuquq obidasi vatan haqidagi madhiyadir. U voqeiy yoki badiiy asar bo`lishiga qaramay, unda hayot haqiqati, tarixiy haqiqat o`z aksini topgan.

Turkiy qabila va elatlarning o`zaro talashib-tortishishlari ham, tashqi dushman bilan bo`lgan ayovsiz kurashlar ham aslida tarixiy haqiqatdir.

Eltarish, Bo`g'u, Bilga xoqonlar ham tarixiy shaxslardir. Asarda tilga olingen ko`plab qabila, urug'lar tarixda mavjud bo`lgan, ularning bir qismi hozir ham alohida xalqlar va millatlar tarkibida yashab kelmoqda.

Yodgorlikda murojaat, undov, chaqiriq yetakchilik qiladi. To`nyuquq tabiatida tushkunlik, ikkilanish mutlaqo ko`rinmaydi. Uning harakatlarida, so`zlarida o`ziga hamda butun xalqiga buyuk ishonch balqib turadi. Xuddi shu holat uning g`alabalariga assosiy omil bo`ladi.

«To`nyuquq» bitiktoshi — kompozitsjion jihatdan yetuk asar. Unda o`ziga xos boshianma, voqealar rivoji, xotima mavjud. Shu kompozitsiyaning o`zida ham katta badiiyilik bor. Bu maqsad to`laligicha amalga oshgan.

Mazkur toshbitiklar, aslida, she'r bilan yozilgan. Mutaxassislar mazkur bitiklar badiiyatini yuqori baholaydilar va uning mumtoz she'riyatimizning shakllanishi va rivojida alohida o`rni borligini ta'kidlaydilar. Yodgorlikning til xususiyatlari e'tiborga loyiq. Asar tilidagi ko`plab so`zlar hozirgi o`zbek tilida aynan qo`llanadi. Bir qism so`zlarda ozgina tovush o`zgarishlari yuzaga kelgan, yana bir toifa so`zlar esa bugun iste'moldan chiqib ketgan.

Yolgordikda o`rni-o`rni bilan so`zlarning ko`chma ma'nolarda qo`llanishi seziladi. Shuningdek, majoz, matal, maqollardan foydalanish kuchli: „Tabg`ach, O`g'uz, Xitoy - bu uchovi qamal qilsa, qamalda qolajakmiz. Unda vujudining ich-u tashini, mol-u jonimi topshirgan kishiday bo`lamiz. Yupqa yig'in tor-mor qilishga oson emish, ingichka yig'in uzishga oson emish. Yupqa qalin bo`lsa, tor-mor qiladigan bahodir emish, ingichka yo`g'on bo`lsa, uzadigan bahodir emish".

Asarda oltinga „sariq", kumushga „oq", tuyaga „egri" singari epitetlar qo`llangan. Undagi asosiy tasvir vositasi alliteratsiyadir. Alliteratsiya - tovushlar uyg'unligi, asosan, bir xil tovushlarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdorlikdir. Unda unli va undosh tovushlar takrorlanishi mumkin.

O`ngra qitaynyig' O'lurtachi terman,

Bani O'g'uzug' O'lurtachi - o`q terman.

O`rxun-Enasoy yodgorliklarida so`z takrori ham ko`p uchraydi:

*Tabg'ach qag'an yag'imiz erti,
O'n o'q qag'ani yag'imiz erti.*

Asardagi o'ziga xos tasvir usullaridan yana bin voqeа-hodisalarga muayyan yondashish, munosabatning ifodalanishidir. Ko`pincha, bir necha voqeа-hodisalar yoki ular bilan bog'liq detallar ketma-ket sanaladi: "Turk budun o`lti, alqinti, yo`q bo`ldi". Bu yerdagi ketma-ket sanoq voqeа zamiridagi dahshatli musibatni, kuchli fojiani juda yorqin namoyon etadi. Yoki: „Tabg'ach, bardanayin teg. Qitayn, o`ngdalayin teg. Ban yirdantayin tegayin". (Tabg'ach, oldindan hujum qil! Xitoy, o`ngdan hujum qil! Men chapdan hujum qilay!) Bu - o`g'uzlar orasidan kelgan kuzatuvchi nutqidan parcha. Bu yerdagi sanoq dushman tomonidan solinayotgan tahdid va xavf-xatarni bevosita his etish imkonini beradi.

O`rxun-Enasoy obidalarining asosiy qismi turkiy xoqonliklar tarixining badiiy solnomasidir. Bitikda «Kultegin» va «To`nyuquq» obidalariga xos bo`lgan an'ana - qahramonlik va vatanparvarlik g`oyasini ulug'lash asosiy o'rinn tutadi. Yodgorliklarda inson shaxsi va ayniqsa, uning erki bilan bog'liq masalalar teran badiiy tahlil qilingan.

Bitikdagi voqealar Bilga xoqonning yoshiga bog'liq holda davriy izchillikda ifodalangan. Qahramon o'n yetti, o'n sakkiz, yigirma ikki, yigirma olti, yigirma yetti, o'ttiz, o'ttiz bir, o'ttiz uch, o'ttiz to'rt, qirq yoshidagi voqealarни eslatadi. Aslida bu voqealar butun boshli bir xalq — turkiylar tarixidagi nihoyatda jiddiy burilishlar haqida hikoya qiladi.

Voqealar Bilga xoqonning o'n yetti yoshida tang'ut tarafga lashkar tortishi bilan boshlanadi. Mana g'alaba ifodasi: «Tang'ut xalqini yengdim, o`g'lini, bor narsasini, yilqisini, mol-mulkini oldim».

Bu Bilga xoqonning dastlabki g'alabasi edi. Matn mavzusi harbiy sohaga aloqador. Shuning uchun asosiy fikr davlat, qo'shin, harbiy salohiyat ustida boradi.

Yodgorlikda turli-tuman joy, qabila nomlari tilga olingan. Bular matnga haqqoniylig, rostgo'ylik ruhini singdirib turadi, so'zlovchining fikrlarini dalillaydi. Matnda olti chub sug'dak xalqi, tabg'ach, basmil, idiqut, chik xalqi, qirg'iz, qorluq, to'qqiz o'g'uz, turk tatabi - turgash kabi qabila va urug'lar nomlari; Bo'luchi, Beshbaliq, Tamg'uduk bosh, To`g'u baliq, Antarg'u, Chush, Azganti kadaz, Mag'i Qo'rg'on. Idar bosh, Ko`gman yish, So'nga yish, Oltin yish singari joy nomlari; Kam, Irtish, Tug'la (To'li) singari daryo nomlari uchraydi.

Bular aslida tarixan mavjud nomlardir. Ana shu holat yodgorlikni tarixiy uslubda yaratilgan asarlar sirasiga kiritish mumkinligiga dalolat beradi.

Asarda alohida badiiy tafsilotlarni qatorlashtirish, muallif nutqida sanoq ohangi yetakchilik qiladi, Masalan, qabila nomlari (basmil, idiqut), muqaddas tushunchalar (tangri, muqaddas yer-suv, otam xoqon ruhi), qarindoshlik atamalari (bolasini, bekasini), kishi tanasining a'zolari (sochini, qulog'ini, yonog'ini kesdi) va boshqalar.

Bilga xoqon obidasida ham parallelizmlar, qiyoslashlar asosiy o'rinni tutadi.

«Yigirma ikki yoshimda Tabg'ach tomon lashkar tortdim. Chacha sangunning sakkiz tumanlik qo'shini bilan urushdim. Qo'shinini o'lardim». (Qadim Yaponiyada ham So'g'un – syogun - samuray, bahodirlik unvoni)

«Yigirma olti yoshimda chik xalqi qirg'iz bilan dushman bo'ldi. Kam daryosini kechib o'tib, qirg'iz tomon lashkar tortdim. Urpanda jang qildim. Qo'shinini tor-mor qildim. Az xalqini taslim etdim».

«Yigirma yetti yoshimda yana qirg'iz tomonga lashkar tortdim. Nayza botimi qorni yorib, Ko'gman (Sayan) yishga ko'tarilib, qirg'iz xalqini uyquda bosdim. Xoqoni bilan Sunga yishda jang qildim. Xoqonini o'lardim. Davlatini o'shanda oldim...»

Uchta parcha matnda ketma-ket kelgan. Ular yigirma ikki, yigirma olti hamda yigirma yetti yosh bilan bog'liq.

Ulardagi voqealar tizimini guruhlash mumkin: a) qahramonning muayyan yoshi; b) voqeasodir bo'lgan joy; d) voqeaneing mohiyati; c) natija.

So`zlar takrori yodgorlikdagi asosiy tasvir vositalaridan biridir:

Men o'n to 'qqiz yil shad bo'lib turdim, o'n to 'qqiz yil xoqon bo'lib turdim, Davlatni tutib turdim.

Shu misolimizda o'n yettita so'z ishtirot etgan bo'lsa, ulardan olitasigina bir martadan qo'llangan, xolos. Ammo so`zlar takrori matnda g'alizlik tug'dirmagan, aksincha, muallif fikrining ta'kidlanishiga, alohida urg'u bilan ko'rinishiga yordam bergen. Bularning barchasi yodgorliklarning juda katta ma'rifiy hamda badiiy-estetik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi.

O'rxun-Enasoy obidalari, bir tomondan, xalqimiz hayotining VI—VIII asrlardagi murakkab tarixini hayajonli va ta'sirchan lavhalarda bizga yetkazib qoldirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular millatning birligi va butunligini saqlash, uni o'zaro ahillikka da'vat etish vositasi bo'lgan. Mazkur obidalarning ma'rifiy va adabiy qimmatini shular belgilaydi.

Runik yozuvdagi yodgorliklar faqat toshga bitilgan emas, ularning qog'ozga, turli buyumlarga yozilgan namunalari ham bor. Masalan, "Irq bitigi" («Ta'birnomasi») qog'ozda yozilgan. Uni venger olimi A. Steyn Sharqiy Turkistondagi Dunuxa manzilidan topgan (1907-yil).

Runik yozuvlari Talas vodiysidan ham topilgan. U hozirgi Avliyoota va Taroz shahri yaqinida bo'lgan qoyalardagi yozuvlardir.

Shuningdek, kumush ko'zachalarga yozilgan runiy yozuvlar Sibir o'lkasidan ham topilgan. Ermitaj (Sankt-Peterburg) muzeyida saqlanayotgan 2 ta ko'zacha shu haqda ma'lumot beradi. Minusinsk muzeyida esa teriga yozilgan runiy bitiklar mavjud. Oyna, qayish to'qasi, qog'ozga yozilgan boshqa runiy yozuvlar ham ko'p. Turfon (Sharqiy Turkiston)dan Le Kok tomonidan topilgan runiy yozuvlar orasida eski fors tilidagi bitiklar ham mavjud.

Vena (Avstriya) muzeyida saqlanayotgan oltin idish-tovoqlarda ham runiy yozuvidagi yodgorliklar bo'lib, ular bajanaq (pecheneg) tilida yozilgan.

Yog'ochga yozilgan run bitiklari namunalari Ermitajda saqlanadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Toshga bitilgan bitiklarning O'rxun-Enasoy obidalari nomini olishiga sabab nima?
2. Ular qachon topilgan?
3. Ularni o'rganish bilan shug'ullangan olimlar nomini bilasizmi?
4. Yodgorliklar qanday mavzularda yaratilgan?
5. To'nyuquq siyosiga tavsif berish uchun tayyorlaning. U qanday obraz?
6. To'nyuquqning buyuk shaxsga xos xislatlarini ko'rsatuvchi matn parchalarini belgilang.
7. To'nyuquqning kuyinchakligi, o'z o'y-fikrini boshqalarga xavotir bilan yetkaza olishi matnda qay tarzda ifodalangan?
8. To'nyuquqning o'z vatani, qo'shini, xalqi bilan faxrlanishi — iftixori matnda qaysi so'zlar bilan tasvirlangan?
9. «Xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi donishmand ekan» degan baho kimlarga nisbatan qo'llangan? Uning dushmanga nisbatan qo'llanishida qanday ma'no bor?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G., Rustamov A. Қадимги туркий тил. – Т., 1982.
2. Rahmonov N. Turk xokonligi. – Т.,
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Т., 2006.
4. Mallayev N. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
5. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
6. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
7. Orzulov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Ўринбоев Б. Тўнюқук битиктоши. – Тошкент, 1999.
2. Ўринбоев Б. Қадимги туркий битиклар – Тошкент, 2001.
3. Умаров Э.А. Орхонские памятники, принципы определение – слог или согласный//Преподавание яз. и лит.2013, №6.С.33-35.
4. Умаров Э.А. Способы передачи долгих А;; И;; У;; Ў;; в Орхонские памятниках //Преподавание яз. и лит.2013, №7.С.36-38.
5. Содиков К. Билга Тўнюқук битиги [Проф.К.Содиковнинг Мўгулистанга сафари чогида зиёрат килган ёдгорлик мажмууси ҳакида]//Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2012,13-январь
6. Умаров Э. Туркийшуносликдаги бир хато хусусида (туркий товушларни ифодалаш учун Томсен томонидан белгиланган руналар мазкур тил товушлари системасини ёритиб беролмаслги ҳакида)//ТАТ, 2013,№2, - 36-38-б.
7. Келимужианг Шабиер. Кул тигин ёдгорлигининг хитойча матни // Шарқ машъали, 2012, №2,25-28-б.
8. Содиков К. Қадимги туркий битигларда кечган сўзларни тушуниш ва матн интерпретацияси масаласи//Шарқшунослик, 2012, №2. – 3-7-б.
9. Умаров Э.А. Не бука “бык”, а абуўка “медведь”[О памятнике древнетюркской письменности]// Преподавание яз. и лит. 2013, №2. С.40-41.
10. Умаров Э. Урхун ёдгорликларида унлилар//ТАТ, 2013, №5. – 31-32-б.
11. Мадвалиев А., Мусаев А., Кўчкоров Т. Бозорбой Ўринбоев (“Фанимиз заҳматкашлари” рукнидан) // ЎТА, №4, 2016. 118-121-бетлар.

ISLOM MADANIYATINING SHAKLLANISHI VA MUSULMON INTIBOHI (RENESSANSI). ARAB VA FORS TILLARIDAGI ADABIYOT

Reja:

1. Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renessansi).
2. Somoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar va qoraxoniylar davrida islomiy madaniyat. Hadis to`plash an'anasi va unda turkistonlik buyuk muhaddislarning roli. Imom Buxoriy va at-Termiziy. «Al-jome'u-s-sahih» va «Shamoyili Muhammadiyya» asarlari. IX-X asrlarda arab tilining madaniy hayotga faol aralashuvni.
3. Arab va fors tillaridagi adabiyot. Turkiy xalqlarning arab va fors tillarida ijod etishi. Markaziy Osiyo buyuk allomalar vatani: Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlariada adabiyot masalalari.
4. Badiiy asarlar va tazkirachilik. Abu Mansur as-Solibiy va uning «Yatimatu-t-dahr» asari. Chag'oniyon adabiyot muhitini.

Tayanch so`z va iboralar: *Musulmon intibohi, Adam Mets, Islom dini, payg'ambar, Qur'oni Karim, hadis, muhaddis, hikmat, saj', Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Forobi, Beruniy, urzuza, tariqat, aruz, sabab, vataf, fosila, rukn, poetologiya.*

Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renessansi).

Musulmon intibohi (renessansi) tushunchasini dastlab fanga sharqshunos olim Adam Mets kiritgan bo`lib, rning "Musulmanskaya Renessans" asari O'rta Sharq uyg'onish davrining tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy va falsafiy asoslariga bag'ishlangandir. Asarda islom dini va uning shu dindagi xalqlar va dunyo madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi sinchiklab o`rganib chiqiladi. N.I.Konrad Sharq uyg'onish davri chegaralarini IX-XIII asrlar, V.M.Jirmunskiy XV asr deb belgilaydi. V.Abdullayev va B.Valixo'jayevlar esa X-XV asrlarni nazarda tutadilar. A.Rahimov IX-XVI asrni Uyg'onish davri deb olishni ma'qul ko'radi¹².

VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida imon, tinchlik, ahillik va xayrixohlik g'oyalariiga tayangan islom dini paydo bo`lib, qisqa muddatda keng yoyildi. Bu dinning yoyuvchisi muqaddas Makkadagi quraysh qabilasidan bo`lgan Muhammad ibn Abdulloh (570—632) edi. Uning payg'ambar sifatidagi faoliyati 610-yildan boshlandi. U bir vaqtlar Hazrati Odam sig'ingan, Ibrohim alayhissalom iymon keltirgan islom dinini yangiladi. Unga yangi ruh,

¹² Рахимов А. Шарқда уйғониш харакати // ЎТА, №5, 1991, 8-бет

yangi mazmun berdi. Ayniqsa, 622- yilda Muhammad alayhissalom o'z tarafдорлари bilan Makkadan Madinaga hijrat etgandan keyin adolatli bu г'оялар katta kuch-qudrat kasb etdi. Hijrat musulmonlarning hijriy yilini boshlab berdi. 630- yilda Makka musulmonlarning ustunligini tan oldi. Muhammad alayhissalom rasululloh — Allohnинг elchisi sifatida e'tirof etildi.

Payg'амбаримиз vafot etganlaridan so'ng haq dinni qabul qilganlar yagona xalifalikka birlashdilar. Uni boshqaruvchi kishi esa „xalifatu rasululloh" (Alloh elchisining о'rnbosari) deb atala boshlandi. Xalifalik hududlari qisqa vaqt ichida Ispaniyadan buyuk Xitoy devorigacha yoyildi. Muhammad alayhissalomdan so'ng xalifalikni Abu Bakr (632-634), Umar (634-644), Usmon (644-656), Ali (656-661) boshqardilar.

Milodning VII asri oxiri VIII asri boshlarida qadim Turkistonga islom dini kirib kela boshladi. Arablar O'rtta Osiyoga siyosiy va harbiy yo'l bilan kirib keldilar. Bunga qarshi o'z vaqtida Gurek, Divashtich, Sharik, Muqanna qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Arablar Turkistonda shu vaqtgacha mavjud bo'lgan madaniyat va ilm-fan ildizlarni qo'porib tashladilar. Biroq, shu bilan birga, insonni komillikketa yetaklovchi Islom dinini olib kirdilar. Turkiy xalqlarning ko'pchiligi musulmonchilikni qabul qildilar. Bu hodisa ajdodlarimizning ijtimoiy-siyosiy hayotidagina emas, madaniy va ma'naviy hayotida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Somoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar va qoraxoniylar davrida islomiy madaniyat.

Juda katta hududda islom xalifaligining maydonga kelishi islomiy madaniyatning gullab-yashnashiga keng yo'l ochdi. To`rt yilda Bag'dod shahri qurilib, xalifalikning poytaxtiga aylantirildi. O'ziga xos Fanlar akademiyasi bo'lgan „Baytul-hikma" („Donishmandlar uyi") va zamonasining eng boy kutubxonasi tashkil topdi. Rasadxona qurildi. Xalifalik doirasidagi ilm-fan vakillari poytaxtga jalb qilindi. Xalifalikdagi ikkinchi ilmiy-madaniy markaz Damashq (Shom) edi. Ma'lumotlarga ko'ra qaysi joy aholisi 32 hunarni bilsa, bu joyga shahar maqomi berilgan. Maktab-madrasa ta'limi yo'lga qo'yildi. Nafis qog'oz ishlab chiqarish, xattotlik rivojlandi, kitob savdosi avj oldi. Bu o'zgarish birgina poytaxt emas, xalifalikka qarashli barcha joylarga xos edi. Masalan, Buxoroda ibn Sino zamonida kitob bozori bo'lgani ma'lum. Ispaniyaning Andalusiyasidagi madrasalar esa Ovrupo universitetlari uchun o'mnak vazifasini bajardi. Shu sababli islom madaniyatini deyilganida, birgina arab madaniyati ko'zda tutilmaydi. Uning maydonga kelishida islom olamidagi barcha millatlar ishtirok etdilar. Islom madaniyatini shakllantirishda turkiy xalqlarning xizmatlari benihoya buyuk bo'ldi.

Zamonning eng muhim xususiyatlaridan biri arab tilining Ispaniyadan Koshg'arga qadar bo'lgan ulkan mintaqada yagona ilmiy tilga aylanishi bo'ldi. Bir vaqtlar qadim antik madaniyat tarraqqiyoti uchun lotin tili qanday vazifani bajargan bo'lsa, arab tili ham bir denga mansub xilma-xil elatlarni bir-birlariga yaqinlashtirishda shunday xizmat qildi. Turkistonda islomning yoyilishi o'lka ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotida muhim bosqich yasadi. Davlat va

jamiyat islom qonunlari asosida yashashga o'tdi. Undagi tenglik, ozodlik, ilm va ma'rifat, xushaxloqlik g'oyalari Turkiston turmushiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Ayni paytda turkistonliklar ham islom ravnaqiga juda katta hissa qo'shdilar. Imom Buxoriydan Mahmud Zamaxshariygacha bo'lgan allomalar islomning chinakam jahoniy dingga aylanishida buyuk xizmat ko'rsatdilar. Har bir mahalla o'z masjidiga, har bir masjid esa o'z mакtabiga ega bo'ldi. Shaharlarda madrasalar paydo bo'ldi. Ilk madrasalar 8-9-asrlarda faoliyat ko'rsata boshladi. Alloho ilm bilan tanish mumkinligi musulmonlarni fan asoslarini egallashga undadi. Shuning uchun ham bu yillar Turkistonda ilm-u fanning shiddat bilan rivojlangan davri bo'ldi. Garchi, arablar kelishining dastlabki davrida Turkiston mustaqillikdan mahrum etilgan bo'lsa-da, ma'naviy-ma'rifiy jihaddan buyuk bir uyg'onish davriga kirdi.

Islomning asosida Qur'oni karim yotadi. U Alloh tarafidan Muhammad payg'ambarga nozil qilingan ilohiy kitobdir. Kitobni payg'ambarning kotibi Zayd ibn Sobit (r.a) qog'ozga tushirgan. Xalifa Abu Bakr (r.a) davrida u yaxlit holga keltirildi. Hazrat Usmon (r.a) davrida qayta ko'chirilib, qiyomiga yetkazilgan bu kitob „Mus'haf” (o'rama qog'oz) deb atala boshlandi. Xalifa Usmon (r.a) undan o'zi uchun bir nusxa ko'chirtiradi. Qur'oni karim 114 suradan iborat. Har sura oyatlarga bo'lingan. Har bir suraning alohida nomi bor Masalan, 1-sura «Fotiha», 2-sura «Baqara», 3-sura «Oli mron», 4-sura «Niso» va hokazo. Suralardagi oyatlar miqdori turlicha: «Baqara» surasi 286, «Val-asr» surasi 3 oyatdan iborat.

Amir Temurning Arabistonga qilgan yurishlaridan birida Usmon (r.a) avlodlari qo'lida meros saqlanib qolgan bu kitob Samarqandga keltiriladi. Rossiya 1868-yilda Samarqandni bosib olganida, u Peterburgga olib ketildi. „Hazrati Usmon mus'hafi” nomi bilan mashhur ushbu obida 1923-yilda Toshkentga qaytariladi. Hozirda bu nodir ilohiy kitob O'zbekiston musulmonlari diniy idorasi kutubxonasida saqlanmoqda.

Qur'onning 751 o'rniда „ilm” so'zi tilga olingen. Asrlar davomida davlat va huquq ishlarida, jamoat axloqini belgilashda Qur'on oyatlari qonun darajasida keladi. U ma'lum darajada badiiy asar ham edi. Undagi ohangdorlik, ko'p oyatlarning saj' (qofiyali nasr) bilan, ba'zilarining aruzda nozil etilgani shunday deyishga asos beradi. Qur'on ma'nolarining o'zbek tiliga izohli tarjimasini 1992-yilda Alouddin Mansur amalga oshirgan, 2001-yilda Abdulaziz Mansur tomonidan ikkinchi bor o'zbekchaga o'girildi.

Islom adabiyotida Qur'on asosida ko'plab asarlar yaratilgani bejiz emas. Bu o'rinda Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Nosiruddin Rabg'uziyning ijodlarini eslash joiz.

Islom dinida Qur'ondan keyingi o'rinni hadis egallaydi. Payg'ambarimizning hayotlari va diniy-axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan rivoyat hadisdir. Tarixiy-badiiy asarlarda, falsafa va hikmatda hadislardan keng foydalanilgan. Mualliflar biror fakt va hodisani dalillash yoki o'z fikrlarini isbot etish maqsadida unga murojaat qilganlar. Ularning sharhlariga bag'ishlangan ixcham she'riy asarlar esa sonsiz-sanoqsizdir.

Payg'ambarimiz so`zlari va hollari bilan bog'liq ko`plab hadislar hozirgacha ijodkorlarimiz uchun ilhom manbayi, ma'naviy suyanchiq vazifasini o'tab keladi.

Hadis toplash an'anasi va unda turkistonlik buyuk muhaddislarning roli. Imom Buxoriy va at-Termiziy. «Al-jome'u-s-sahih».

Hadislarning ma'lum bir qismi rasulullohning hayotlik paytlarida yozib olingan bo`lsa-da, bir yerga jamlangan emas edi. Dastlabki hadislarning hammasi „sahih” (to`g'ri) sanaladi va ularga amal qilinadi, ya'ni shar'iy huquqqa egadirlar. Hadislar asosan hijriy uchinchi asrda ko`plab yig'ildi. Ilmi hadis bilan shug'ullanish avj oldi. Uning „musnad”, „sahih”, „sunan” degan yo'nalishlari paydo bo`ldi. Bu uch yo'nalishning eng ishonchli va eng mo'tabari „sahih” bo`lib, uming asoschisi buyuk vatandoshimiz **Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy** edi. U 810- yil 21-iyulda Buxoroda dunyoga keldi. Otasi Ismoil zamonasining yetuk muhaddis (hadis yig'uvchi)laridan bo`lib, erta vafot etib ketadi. Onasi esa davrining taqvodor, oqila ayollaridan edi. Muhammad o'n bir yoshlaridan boshlab muhaddislar orasida o`z zehni va zakosi bilan tilga tushadi. 16 yoshida Makkaga borib haj ibodatini ado etadi. Shahar mashoyixlarining ilmiy yig'inlarida qatnashadi. 827- yilda Madinaga boradi. Ilmiy anjumanlarda ishtirok etadi. Dastlabki asari „At-tarix al-kabir” („Buyuk tarix”)ning qoralamasini tugatadi. Madinadan Basraga, undan Kufaga, nihoyat Bag'dodga boradi. Umri oxirida Buxoroda yashaydi va Xartang qishlog'ida vafot etadi. Imom Buxoriy o`z hayoti davomida yigirmaga yaqin asar yozgan. Ular orasida eng mashhuri „Jome' as-sahih” nomli to`rt qismdan iborat hadislar to`plamidir. Zamondoshlari uning favqulodda zehn va xotiraga ega bo`lganini qayd qiladilar. U minglab hadislarni yod bilgan. Shunchaki yod bilish emas, ularning aytilish shart-sharoiti, guvohliklarigacha xotirasida saqlagan. Shu tufayli hadislarning „sahih” (rost)idan „nosahih” (yolg'on)ini ajratishda tengi bo`lmagan. Mutaxassislар „Jome' as-sahih” to`plamiga kirgan 7397 hadis olim yod bilgan 600 ming hadisdan tanlab olinganligini qayd etadilar. Mazkur kitob islom olamida Qur'onдан keyingi mavqega egadir. Asar XX asrning 90- yillarida o'zbek tiliga tarjima qilinib, to`rt jildda nashr etilgan.

IX-X asrlarda arab tilining madaniy hayotga faol aralashuvi. Arab va fors tillaridagi adabiyot. Turkiy xalqlarning arab va fors tillarida ijod etishi.

X-XII asrlarda badiiy adabiyot rivojlanib, xalq og'zaki ijodining xilmashil janrlari vujudga keldi. Somoniylar davrida arb tili birmuncha o`z mavqeyini yo'qotgan bo`lsa-da, Xuroson va Movarounnahrdagi aksariyat adiblar arab tilida ijod qilganlar. Bu haqda nishopurlik mashhur olim Abu Mansur as-Saolibiy asarlaridan bilib olishimiz mumkin.

VIII-IX asrda ijod qilgan Abu Hafs So`g'diy, Abulabbos Marvaziy, Hanzala Bodg'iziy, Muhammad Vasif, Firuz Mashriqiylar dariy (fors) tilining adabiy til darajasiga ko`tarilishiga hissa qo'shdilar. 855/65 – 940/42 yillarda yashab ijod qilgan Rudakiy dariy adabiy tili va adabiyotining asoschisi

hisoblanadi. “Odam ush-shuaro” deb ta’riflangan mazkur adib Panjakentda tug’ilgan. Samarqand madrasalaridan birida tahlil olayotgan vaqtida somoniy hukmdorlar nazariga tushgan. Qolgan umri Buxoroda kechadi. U haqida tug’ma ko’r, boshqa manbalarda keyinchalik ko’zi ko’r qilingan deb yozishadi. Uning ijodiy merosidan g’azal, ruboiy, qasida va didaktik dostonlar o’rin olgan. Rudakiyning “Qarilikdan shikoyat”, “Modari may” qasidaları, “Bo’yi jo’yi Mo’liyon” madhiyasi, bir necha ruboilari saqlanib qolgan. “Kalila va Dimna” asari 12 ming baytdan ortiqroq ekanligi aytildi, 1000 misrasi yetib kelgan.

Markaziy Osiyo buyuk allomalar vatani: Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida adabiyot masalalari.

Qomusiy olimlar. Islomning birlashtiruvchilik kuchi, ijodiy qudrati, shaxs erki va tashabbuskorligiga yo’l ochganligi, yer yuzining salkam yarmida tinchlik barqarorligi hamda musulmon dunyosi bitta ilmiy tilga egaligi bu davrda fanning tezkorlik bilan rivojlanishiga asos bo’ldi. Islomiy e’tiqod turk xalqida yashirinib yotgan intellektual imkoniyatlarni ochib yubordi va xalqimiz Ilk Uyg’onish davriga kirdi. Turkiy xalqlarning uyg’oq tafakkuri bu davrda jahon ilmi taraqqiyotiga o’nlab qomusiy olimlarni yetkazib berdi. Qomusiy olimlar ilmning bir necha sohasida birvarakayiga ulkan kashfiyotlar qilgan kishilardir.

Al-Xorazmiy (780-850) - buyuk matematik. To’la ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso bo’lib, uning yoshlik yillari Xivada o’tgan. Keyinchalik Bag’donna olim sifatida shakllanib, dunyoga tanilgan. Muso al-Xorazmiy zamonasigacha bo’lgan tabiiy fanlarni, ayniqsa, matematikani jiddiy o’rganib, bir qator kitoblar yaratadi va Bag’doddagi „Baytul-hikma”ning dovrulqi allomalaridan biriga aylanadi. Olimning matematikaga doir „Al-jabr va-1 muqobala” kitobidagi „Al-jabr” so’zi bugungi algebra faniga asos bo’ldi, „algoritm”, „logarifm” istohlari esa olimning taxallusi - „Al-Xorazmiy”dan olingandir. Uning ikkinchi muhim asari „Hisob al-hind”dir. Mazkur asar hozirda butun dunyo foydalanayotgan o’nik tizimining kashf qilinishida buyuk rol o’ynadi. Al-Xorazmiy buyuk astronom ham bo’lib, uning „Kitobi surat al-ard” („Yerning surati haqidagi kitob”)i juda mashhur. Al-Xorazmiy yer meridianini o’lchashda ishtirok etgan olim edi.

Ahmad Farg’oniy (797—865) – astronom, geograf, matematik, trigonometriyaning asoschilaridan biri bo’lib, Bag’dod va Damashq yaqinida rasadxonalar qudirib, ilmiy kuzatishlar olib borgan. Quyosh tutilishini oldindan hisoblab bergan, yerning dumaloqligini ilmiy jihatdan isbot qilgan, meridian uzunligini aniqlagan olim hisoblanadi. Nil daryosining oqimini o’lchaydigan „miqyos al-jadid” nomli asbob yasagan. Olimning „Javomi’ ilm an-nujum val-harakot as-samoviya” („Yulduzlar ilmi va samoviy harakatlar haqida to’plam”) nomli asari XII asrda lotin tiliga, XIII asrda boshqa Yevropa tillariga tarjima qilingan. Shundan boshlab, u Yevropada „Al-Fraganus” nomi bilan shuhrat topdi. Ushbu asar Yevropa universitetlarida ko’p asrlar davomida „Astronomiya asoslari” nomi bilan darslik sifatida o’qitildi. XV asrda (1493)

toshbosmada nashr etilib, jahon astronomiya ilmi rivojiga katta ta'sir ko'rsatib keldi.

Oydagi kraterlardan biriga uning nomi berilgan. 1998-yilda O'zbekistonda buyuk olim tug'ilganining 1200 yilligi nishonlandi. Olimning yurti — Farg'ona viloyatidagi Quva shahrida unga mahobatli haykal o'rnatildi.

Abu Nasr Forobi (873—950). Hozirgi Janubiy Qozog'iston viloyatining hozirgi Temurlang shaharchasida tug'ilgan. U tug'ilgan paytlarda bu maskan Forob deb atalgan. Chingiz qo'shini bosib kelgan XIII asrda uning nomi O'tror edi. 1405- yilning kech qishida Sohibqiron Amir Temur shu yerda vafot etgan. Abu Nasrning yoshlik yillari shu shaharda kechdi. So'ng u Toshkent, Buxoro, Samarqandda tahsil oldi. Balog'at va kamolot yillarini Bag'dod va Damashqda kechirdi. Ko'proq ijtimoiy-falsafiy fanlar bilan shug'ullangan. Qadim yunon falsafasini chuqur o'rgangan. Chiqishda „Arastuyi soniy" (Ikkinchি Aristotel), „Muallimi soniy" (Ikkinchি muallim) nomlari bilan shuhrat topgan.

Olimning yetmishdan ortiq tilni bilganligini naql qiladilar. Musiqa bilan shug'ullangan. Qonun nomli soz yasaganligi haqida rivoyatlar bor. Mutafakkir ijodiy umri davomida bir yuz oltmishdan ortiq asar yozgan. Musiqa haqidagi kitobi „Kitob ul-musiqa al-kabir" („Musiqa haqida katta kitob") deb nomlanadi. Arastu (Aristotel), Aflatun (Platon), Uqlidus (Yevklid), Batlimus (Ptolomey) asarlariga ko'plab sharhlar yozgan. „Fozil shahar kishilari" haqidagi falsafiy asari buyuk olimning komil inson va mukammal jamiyat haqidagi dardli o'ylaridan iboratdir". Forobi asarlari Turkistondagi ilk Uyg'onish qaror topishida muhim o'rinn tutgan.

Abu Rayhon Beruniy (973—1048) Ko'hna Xorazmning Kat shahrida tug'ilgan („Berun" — tashqari, chet degani). Shunga qaraganda, olim Katga shahar atrofidagi qishloqlarning biridan kelib qolgan. 152 asar yozganligi ma'lum. Shundan yigirma sakkiztasigina bizga qadar yetib kelgan. Yer ilmi asoschilaridan hisoblanadi. Beruniy dunyoda birinchi bo'lib globus yasagan olim sifatida mashhurdir. Algebra, geometriya, trigonometriya, geografiya, astronomiya kabi fanlarda ko'plab kashfiyotlar qilgan. Qadim yunolarning dunyo qurilishi haqidagi — yer markaz, boshqa planetalar uning atrofida aylanadi, deguvchi geosentristik nazariyasini inkor qiladi. Beruniy olamning markazi quyosh, boshqa sayyoralar uning atrofida aylanadi deguvchi geliosentristik qarashni ilgari suradi. Zamonaliviy fan olimning qarashlari to'g'ri ekanligini isbotladi. Yer aylanasi uzunligini o'lchashda yangi usul kashf etilishi, Hind va Atlantika okeanlarining janubda bir-biriga qo'shilishi haqidagi bashorat, Amerika qit'asini mavjudligi haqidagi farazlar bevosita Beruniy nomi bilan bog'liq. U til va adabiyotning ham ulkan bilimdoni edi. O'z asarlarida mashhur yunon shoiri Homerning „Iliadasi" dan misollar keltiradi. Dunyo she'riyatining uch buyuk vazni: metrika(yunon) shloka (hind) va aruz (arab)ni o'zaro qiyoslab, ular orasida o'xshashliklar topadi.

Beruniy olimlarni o'z atrofiga jamlab, Xorazm hukmdori shoh "Ma'mun akademiyasi" ga asos soldi. Ibn Sinoni Buxorodan chaqirib olib, u bilan ilmiy

suhbatlar qildi. 1017- yilda Mahmud G'aznaviy Xorazmni zabit etadi va buyuk olimni o'z yurti G'aznaga olib ketadi. G'aznaviy qo'l ostida olim mashhur "Hindiston" asarini yozadi. Qabri G'aznadadir.

Beruniyning badiiy adabiyotning nazariy masalalariga bag'ishlangan "Fazl ahlining she'rda aytilgan fikrlarini bayon qilish kitobi", "Tanlangan asarlar va she'rilar kitobi" kabi asarları ma'lum. Shuningdek, buyuk qomusiy olim "Hindiston", "al-Javohir", "Kitobu-s-saydana" asarlarida ham san'at va adabiyot muammolarining ayrim qirralariga ochiqlik kiritgan.

Allomaning "Hindiston" (to'la nomi "Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi") asarida hind she'r ilmiga maxsus bob (13-bob) ajratilib, unda asar hind tili grammatikasi va fonetikasi qoidalaringin she'r ilmida aks etishi muammolari o'rganilgan¹³. Bunday ilmiy mulohazalar qatorida ushbu bobga tegishli sakkizta kitob haqida ma'lumot berilgan. Ular «Aindra» (Indra tuzgan), «Chandra» (Buddaning suhbatdoshlaridan Chandra ishlagan), «Shokata» (Shokatoyana qabilasi tomonidan tuzilgan), «Ponini» (tuzuvchining ismi bo'yicha), «Kotantra» (Sharvavarman tuzgan), «Shashidevavritti» (Shashideva tuzgan), «Durgavivritti» (muallif ismi bilan yuritilgan) va «Shish'yahi-tovritti» (Ugrabxo'ti tuzgan). Beruniyning bu asari nafaqat hind she'r tuzilishi, balki hind-ovro'pa tillaridagi fonetik hodisalarini ham tavsiflab beradi va arab aruzini tushunishga ham yordam beradi.

Buyuk alloma badiiy asarlar ham yaratgan bo'lib, ular arab tilida yozilgan 37 baytli bir qasida va 3-4 she'riy parchalardan iborat. Bu ijod namunalardan misollar keltirgan tazkiranavis Yoqut Hamaviy «Majma'u-l-udabo» («Adiblar to'plami») asarida alloma ijodiga baho berib va ular baland saviyada bo'lmasa ham Beruniy qalamiga mansubligi bilan tahsinga loyiq, deb hisoblaydi¹⁴.

Qasidada alloma Abulfath Bustiyni madh etish bilan birga adolat, saxiylik va ilm-fan haqida zamonasining hukmdorlari bilan qilgan suhbatlari ham aks etgan. Beruniyi madh etib yozgan Abu Hasanga shunday javobi (mazmuni) bor:

*Ey shoир, sen odob bilan mening oldimga kelib,
Meni madh etmoqchi bo`ласан, lekin men dashnom eshitishga
ko`nikkanman...*

*Dashnom va maqtov, ey Abu Hasan, mening nazdimda barobardir,
Xuddi sening hazil-u jiddiyliging men uchun barobar bo`lgani kabi.
Ayf et, ota-onamning gunohlaridan o't, ularni tinch qo'y,
Bu ishing bilan sen bamisoli shishani toshga urganday (ovora)
bo`ласан.*

¹³ Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.: Фан, 1965. - Б.114-124.

¹⁴ Карапов Н. Беруний ва бадиий ижод. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2005. 4-сон. –Б.4.

Qasidaning yakuniy qismida muxoliflariga bo`lgan munosabatini aytish bilan o`zi haqida shunday ma'lumot beradi: «Ular (muxoliflar) fan oldida tiz cho`kmadilar. Va ilmiy munozaralarda qatnashmadilar. Hech kim (ilmida) men kabi turlicha masalalar ustida to`xtalgan emas. Mabodo meni bilmoqchi ekansan, Sharqda men haqimda hindlardan, G'arbda mening tortgan qiyinchiliklarimni bilganlardan so`ra».

Prof. N.Komilovning «Beruniy va badiiy ijod» maqolasida allomaning she'riy asarlarini tahlil qilarkan, undan Yoqt Hamaviy tazkirasiga kirgan quyidagi to`rtliklarni misol (mazmuni) keltiradi:

*Mehnatsiz shuhrat qozongan odam
Osoyishtalik, farovonlik soyasida yashaydi.
Yaxshi kiyinadi, rohatda (kun ko'radi),
Lekin ulug'lik kiyimida, u hamisha yalang'ochdir.*

*Sen mendan uzoqlashding va mening hayotim
avvallari yaxshi o`igan bo`lsa, endi qayg'uli bo`ladi.
Sening maktubing g'am-alamdan, har qanday duodan ko`ra
Meni ming marta yaxshiroq davolaydi.*

N.Komilov M.Salening «Beruniy she'rni ermak uchun yozardi»¹⁵ degan fikrini rad etib yozadi: «Beruniy arab she'riyatining turli shakllarida, mavzu jihatidan rang-barang va manzur bo`larli darajada qalam tebratganini ko`rsatadi»¹⁶.

Beruniy adabiy merosi tarkibida adabiy-nazariy qarashlar va o`ziga zamondosh bo`lgan shoirlar ijodiga munosabat etakchilik qiladi. «Al-Javohir» asari qimmatbaho toshlar va ma'danlar tasnifiga bag'ishlangan. Unda ayrim la'l va ma'danlar haqida ma'lumot berarkan, u haqda adiblarning fikrlarini ham keltiradi. Masalan, «Lu'lu» bobining «Gavhar va uning nomlarining adiblar tomonidan ta'riflanishi» faslida adabiyot masalalariga to`xtaladi. SHoir qo'llagan badiiy san'atlarning o'sha tasvirdagi narsa yoki hodisaga mos kelishkelmasligini sharhlarkan, bir shoirning (mazmuni)

Mening qalbim nozik qomatli, beli niholiday harakatlanuvchi jononga qaratilgan, U qiz husn-u jamolda dengiz qirg'oqqa uloqtirgan gavhardek baytidagi tashbeh haqida «Lekin bu o`xshatish ma'no jihatidan to`g'ri emas, chunki gavhar qirg'oqqa uning chig'anog'i o'lgandan keyingina uloqtiriladi. Bunday holda esa gavhar yemirilish va o`zgarishlardan buzilgan bo`ladi» deb yozadi. Shoirning tashbehi haqida ma'danshunos allomagina bunday nozik kuzatish qilish mumkin.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) - to`la nomi Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Sino. Botishda Avitsenna nomi bilan shuhrat topgan. Ibn Sino

¹⁵ Салье М. А. Абу Райхон Беруний. – Т.: 1960. – Б. 79.

¹⁶ Карапнг: Комилов Н. Беруний ва бадиий ижод. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2005. 4-сон. – Б.5.

jahon ilm-fanining barmoq bilan sanaladigan dohiyalaridan edi. Uning tibbiyotga doir kitoblari Yevropa universitetlarida 600 yildan ko'proq vaqt davomida asosiy darslik vazifasini bajarib kelgan. Hatto „Meditina" atamasi „Madadi Sino" birikmasidan kelib chiqqan, degan fikr bor. Otasi Abdulloh asli balxlik turk bo'lgan. Somoniy hukmdor Nuh ibn Mansur zamonida poytaxt bo'lgan Buxoroga kelib, Afshona qishlog'ilik Sitorabonusi degan qizga uylangan. Ibn Sino shulardan tug'ilgan farzanddir. U tug'ilgan qishloq hozir Isfana deb ataladi. O'rta asrlarda o'zini tug'ilgan yoki tug'ilajak farzandlaridan birining otasi deb tanitish rasm bo'lgan. Buni „kunya" deganlar. Alining otasi nia'nosini bildiradigan "Abu Ali" birikmasi olimning kuniyasidir. Uning Ali ismli o'g'li bo'lganligi haqida biror ma'lumot yo'q.

Besh yoshga to'lar-to'imas Buxoroga ko'chib kelgan bo'lajak olim maktab-madrasa tahsilini shu yerda oldi. U 9-10 yoshlarida Qur'oni yod oldi. 16 yoshida shoh Nuh ibn Mansurni davolab, shuhratga burkanadi. 18 yoshida o'zigacha yaratilgan barcha bilimlarni egallab oldi. 20 yoshlarida zamonasining eng buyuk olimi Abu Rayhon Beruniy bilan yozishmalar qildi. Xorazm Ma'mun akademiyasiga borib, mashhur olimlar bilan bahslar qildi. Yetti yil (1005—1012) Xorazmda bo'lib, taqdir taqozosi bilan olis Sharq mamlakatlariga ketishga majbur bo'ldi. Qabri Hamadondadir.

Ibn Sino umri davomida 280 dan ortiq asar yozgan. Shundan 160 tasi bizga qadar yetib kelgan. Ular xilma-xil sohada: falsafa, mantiq, riyoziyot, tibbiyot, adabiyot, tabiatshunoslik, musiqa, ilohiyot, axloq va h.k. Ibn Sino qoldirgan ilmiy merosning salmoqli qismini uning tibbiyotga doir asarlari egallaydi. Ulardan eng mashhuri „Al-Qonun fi-t-tibb" („Tib qonunlari") kitobidir. Olti asr davomida darslik vazifasini bajarib kelgan ushbu asar o'rta asr tibbiyot fanining qomusidir. Besh kitobdan iborat bo'lgan ushbu asarda tibbiyotning bir qator nazariy va amaliy masalalari hal qilingan edi. Masalan, Pasterdan 800 yil avval ayrim kasalliklarning ko'zga ko'rinmas jonivorlar (mikroblar) orqali yuqishini aytadi. Diagnostika va dorishunoslikda uning xizmatlari mislsizdir. Uning tibbiyotga doir o'nga vaqin asari she'riy yo'lda yozilgan. She'ning ohangi, go'zal tashbehlari, ta'sirchan ifoda murakkab fikrning oson yetkazilishiga yordam bergan. Ibn Sinoning tibbiyotga doir „Qonun"dan keyingi o'rinda turuvchi eng muhim asari „Al-Manzuma fi-t-tibb" („Tibda nazmiy asar")dir. Uni „Tibbiy doston", „Urjuza" ham deydilar. „Urjuza" degani asarning aruz vaznida, rajaz bahrida yozilganligini anglatadi.

Olimning tabiiy fanlar haqidagi eng mashhur asari „Kitob ush-shifo"dir. Kitob yigirma qismidan iborat. Ibn Sino musiqa oidi beshta kitob yozgan edi. Buyuk olim adabiy-nazariy ijod bilan ham shug'ullangan. Adabiyotshunos sifatida „Fann ash-she'r" („She'r ilmi") degan asar yozib qoldirgan. Unda Aristotelning „Poetika"si va Abu Nasr Forobiyning „Shoirlar san'ati qonunlari" va „She'r kitobi" asarlari ta'siri sezildi. Shuningdek, uning „Kitob ush-shifo"ga kirgan asarlarida ham musiqa va she'ning bir-biriga ta'siri, jumladan, vazn va

ritm masalalari, she'riy janrlar tilga olinadi. Forobiy va Ibn Sino **nav** terminini janr ma'nosida qo'llaganlar¹⁷. Aruz vazni atroflicha tahlil qilinadi. „She'r ilmi“ asari sakkiz bobdan iborat bo'lib, dastlabki faslda she'r haqida umumiyl nazariy tushuncha beriladi. Yunon va arab she'ri muqoyosa etiladi. Ulardagi mavzumundarija, ritm va ohang, janrlar masalasi atroflicha tahlil etiladi. Jumladan, yunon adapbiyotidagi tragediya janriga keng to'xtaydi. Uning fikricha, she'rni she'r qiladigan narsa tashbeh - o'xshatishdir, she'r uch xil yo'l bilan yuzaga keladi: lahn - garmoniya, kalom - so'z va vazn. Shu uch holat o'zaro mos kelgandagina, she'r tug'iladi. She'r oniy, kutilmagan holat mahsulidir.

Ibn Sino yuksak badiiy salohiyat egasi ham edi. U she'riyatning juda ko'p janrlarida (doston, qasida, g'azal, ruboii, fard kabi) ijod etdi. Ham forscha, ham arabcha yozdi. U tojik xalq to'rtliklari asosida fors tilida ruboii janrini boshlab bergen. U ishqiy mavzuda ham, ijtimoiy-falsafiy mavzuda ham go'zal she'rlar bitgan shoirdir. Uning she'rlarida inson aqlining qudrati va maftunkor tabiat munosabatlari ajib bir tarzda uyg'unlik topadi. Masalan, ruboilyaridan ikkita namuna ko'ramiz:

*Qaro yer qa'ridan to avji Zuhal—
Koinot mushkulin barin qildim hal.
Ko'p mushkul tugunni angladim, yechdim,
Yechilmay qolgani birgina ajal.*

*Meni kofir etmak emasdur oson,
Hammadan mahkamroq mendagi imon.
Yuz yilda bir kelur men kabi inson,
Demak bu dunyoda yo'q bir musulmon.*

Ibn Sino „Salomon va Ibsol“, „Yusuf va Zulayho“, „Hayy ibn Yaqzon“ kabi axloqiy qissalar va „Risolat at-tayr“ nomli falsafiy asarlar muallifidir.

Abu Nasr Forobiyning vatandoshi **al-Javhariy** (944-1008 “Aruz al-vurqatly” asari bilan yurtimizdan chiqqan dastlabki aruzshunoslardan hisoblanadi. U Xalil ibn Ahmad nazariyasiga ancha o'zgarishlar kiritdi. Jumladan:

- a. Asl ruknlar soni 7 ta deb beriladi (Xalil ibn Ahmadda 8 ta);
- b. Vaznlar 12 ta (Xalil ibn Ahmadda 15 ta);
- c. Mutadorik bahrini yangi kiritadi;
- d. Aruzni tushunishda zarur axborot bermasligi hiobga olib doiralar tizimidan voz kechadi;

¹⁷ Тўйчиев У. Алишер Навоий назмидаги банд тартиботи ва шеър навлари // ЎТА, №4, 1991, 20-бет

e. Aruz nazariyasidan sari', munsarih, muqtazab va mujtass vaznlarini chiqarib yuboradi, chunki sari' basitning, munsarih va muqtazab rajazning, mujtass esa xafifning bir turi ekanligini ta'kidlaydi.

Abu Abdulloh Xorazmiy X asrda yozgan "Mafotih ul-ulum" nomli asarida fanlar tasnifi berilib, jumladan aruz, adabiyot haqida qimmatli fikrlar uchraydi¹⁸. Olim poetologiyaga oid mavjud fikrlarni umumlashtiradi va o'ziga xos "etalon" yaratma olgan.

Mahmud Zamaxshariy "Al-Qustos ul-mustaqqim fi ilmal-aruz" ("Aruz ilmining mustahkam tarozilari") asarida o'z davrida yaratilgan she'rlarning vazn xususiyatlarini tadqiq qiladi. U aruzning eng kichik unsurlari – sabab, vataf, fosilaga o'zgartirish kiritad, solim va furu' vaznlarga batatsil to'xtaladi.

Yusuf Sakkokiying (vaf. taxm.1228) "Miftoh ul-ulum" asari Sharq mumtoz poetikasi asoslariga bag'ishlangan bo'lib, I.Yu.Krachkovskiy fikriga ko'ra, bu asar aruz an'analari bo'yicha yagona ta'lim tizimini yaratib berdi, bu sohada qabul qilingan "standart" rolini o'ynay boshladi. Risolada ilmiy mavzvu besh qismda tavsiflangan: ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi bade', ilmi maoniy va ilmi bayon [8].

Badiiy asarlar va tazkirachilik. Abu Mansur as-Saolibiy va uning «Yatimatu-t-dahr» asari.

Olimning 34 ta asari mavjud bo'lgan deb hisoblashadi [1.57]. Ayrim manbalarda 50 ta, yana 84 ta ilmiy asar sanaladi [7.5] Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038)ning "Yatimat ad-dahr" asari 995-1000-yillarda yozib tugallanib, 1020-yilda qayta ishlangan. Asarning Qohira nusxasi 1801 sahifadan iborat bo'lib, Movarounnahr va Xurosonda arab tilida ijod etgan shoir va adiblar 4-qismga kiritilgan. Bu qismga asli nishopurlik bo'lib, Movarounnahrga kelib qolgan shoirlar ham kiritilgan. Shoirlarning umumiyligi soni 124 ta bo'lib, 48 tasi bevosita Buxoro, 7 tasi Xorazm farzandlari hisoblanadi. Jumladan, Abu Tayyib Mus'abiy qo'li – chaqmoq, qalami – sayyora, xati – mevali bog'ga, notiqligi – Utorduga qiyoslanib maqtaladi. U yaxshi fazilatlari tufayli vazirlilik lavozimiga o'tirib, keyinchalik mansab tufayli vafot etadi. Uning arabcha 13 bayt, forscha 14 bayt she'ri yetib kelgan. Tazkirada qasida, vASF, hajv, marsiya, masnaviy, g'azal, urjuza janrlariga oid asarlar keltirilgan. Tazkiraning to'ldirilgan nusxasi 1017-yil tugatilgan, biroq olim izlanishlarni to'xtatmagan. Asarga kiritilgan shoirlar haqida yangi ma'lumotlar to'plab, "Tatimmat al-yatima" (Yatimaga qo'shimcha) nomli asar yozgan. Muallif qayd etganidek, ushbu qo'shimchasiz "Yatimat ad-dahr" mukammal hisoblanmas edi. Undagi she'rlarning ko'pi shoirlarning shaxsan o'z tilidan yozib olingan.

Chag'onyon adabiy muhiti. Qadimgi Baqtriya (e.a. IX-VIII asrlar) zaminida paydo bo'lgan Toxariston (V-VIII) hududlari VI asrga kelib kengaydi, uning tarkibiga hozirgi Surxondaryo zaminidagi Da-mi (Termez) va

¹⁸ Bu haqda qarang: Нурмонов А. ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Маънавият, 2001.

CHi-o-yan-na (Chag'oniyon) viloyatlari qo'shildi. Dastlab Toxariston yerlariga sosoniyalar (III-V), xioniy hamda eftaliylar (V) kirib keldi.

Chag'oniyon atamasi yozma manbalarda VI asrdan boshlab uchraydi. Ilk bor xitoy sayyohi Syuan Szyan 630-yillarda uning Termizdan ikki marta kichik shahar bo'lganini va Qabodiyon bilan teng ekanini yozgan¹⁹. Yilnomachi ad-Dinovariy (vaf.952) «Kitobu-l-axbor»da sosoniy Xusrav I Anushervon (531-579) Eftalit davlatiga qarashli Toxariston, Kobuliston va Chag'oniyonni (571) bosib oldi... Nihoyat, X asrdan e'tiboran Muhtojiyalar sulolasiga ustivor bo'ldi. Unga Amio al-Muhtoj asos solgan, so'nggi vakili Faxru-d-Davla (1010-1018) gacha davom etgan.

Istaxriyning «Kitobu-l-masolik va-l-mamolik» («Mamlakatlar masalalari kitobi, 933) asarida yozishicha, bu davrda Chag'oniyon hududi Termizdan ikki marta katta bo'lgan. Tarixchilar Yoqt Hamaviy (1179-1229) «Mo'jamu-l-buldon», Hofiz Abro` (1362-1431) «Hududu-l-olam» asarlarida Sag'oniyon nomi bilan tilga olingen. X-XII asrlarda uning hududi g'arbdagi Boysun va Darband, shimolda Hisor va Dushanbe, janubda Jarqo'rg'on va sharqda Bobotog'ga qadar davom etgan. Surxon daryosi Chag'onrud deb yuritilgan.

Chag'oniyonda X-XII asrlarda o'ziga xos adabiy muhit ham shakllangan bo'lib, bu shahar bir qator shoirlar uchun ilm beshigi bo'lganligi ma'lum. Chag'oniyon shoirlari faqatgina o'z davrida, o'z yurtida adabiy muhit yaratibgina qolmay, balki somoniylar va g'aznaviyalar sulolasiga adabiy muhitiga ham o'z ta'sirini o'tkazdilar. Daqiqiy ijodi Firdavsiy va Adib Sobir Termiziyy (1078-1147), Amir Muazziy (1049-?)ga o'z ta'sirini o'tkazgan bo'lsa, Labibiy an'analarini Mas'ud Sa'di Salmon (1046-1122) ijodining shakllanishiga turtki bo'lgan. G'aznada Beruniy ilmiy maktab yaratgan bo'lsa, u bilan yonma-yon turgan Farruxiy yirik adabiy maktabning ijodkorlaridan bo'lgan, u nafaqat hukmdorlarga balki, Beruniy kabi ulug' allomalar nomiga ham qasidalar bitgan.

Abulhasan Ali Chulug' Farruxiy Seyistoniy (980-1037) davrinining go'zal tabiatli, latif shoirlaridan bo'lgan. U haqda Nizomiy Aruziy Samarcandiy, Avfiy, Davlatshoh Samarcandiy xabar beradi. U och-nochor holda Seyistonidan Sag'oniyonga yo'lga chiqadi va Abul Muzaffar nomiga qasida bitadi, bir faqir bunday go'zal qasida yozishiga amirning kadxudosi Amid Asad ishonmaydi, shunda Farruxiy bir kechada boshqa «Dog' goh» nomli qasida bitgan ekan. Qasidada ulug' shoirni esga olib, «Daqiqiy qabri uzra o'sgan har bir ko'kat, seni minglab so'zlar bilan ta'riflaydi» deyish bilan qasidachilikda Daqiqiy yo'lini davom qilganiga ishora bermoqchi bo'ladi. Farruxiy amirning she'bazmida

Ko'k harirdan yuziga yopgan ro'molin sabzavor,
Yetti xil rang ipaklarin boshga soldi ko'hsor

¹⁹ Аршавская З.А. и др. Средневековые памятники Сурхандарьи. – Т.: 1982. – С.38.

deb boshlanuvchi qasida bilan hammaning maqtoviga sazovor bo`lgan ekan²⁰. Muzaaffariy ismli boshqa bir shoir uni «toju-l-shuar» deb ataganini Asadiy Tusiy (1005-1075) «Lug`ati furs» asarida keltiradi.

Xorazmshohlar davrida saroyda kotibu-l-insho bo`lib xizmat qilgan *Rashididdin Muhammad Umariy* (1080-1177)²¹ning to`liq ismi Sa`du-l-Mulk Rashididdin Muhammad bin Muhammad Abdu-l-Jalil Umariy Kotib Balxiy bo`lib, *Vatvot* (ma`nosi: yovvoyi qaldirg`och) uning adabiy taxallusidir. Shoir haqida Yoqut Hamaviy, Alouddin Juvayniy, Zakariyo Qazviniy va Davlatshoh Samarqandiyning tarix va tazkiralarida ma`lumot bor. Bu mualliflar uni sohibi devon shoir sifatida yuksak qadrlab, Xoqoniy va Anvari qatoriga qo`yadilar.

Rashididdin Balxda tug`ilgan, mashhur Nizomiya madrasasida va Xorazmda tahsil olgan. Qirq besh yoshlaridan boshlab o`ttiz yilcha muddat xorazmshohiylar saroyida devonxonada sohibi vazifasida xizmat qilgan. Forsiy she`rlaridan devon (8,5 ming bayt) tartib bergan, arabiylar devoni uning muxlislari tomonidan tuzilgan. Shuningdek, «Akbaru-l-afkor fi-r-rasoil va-l-ash`or» («Risola va she`rlarda ulug` fikrлar»), «Araisu-l-xavotir va nafoisu-n-navodir» («Sevimli fikrлar va nozik latifalar»), «Rasoilu-l-arabi» («Arab maktublari»), «G`aroyibu-l-kalom fi rag`oyibu-l-hikam» («Kutilgan donoliklar haqida nodir so`zlar») kabi yigirmadan ortiq asarlar yozgan. Ular orasida «Risola-t-aruz», «Badoyi`u-t-tarsat va ravoyi`u-t-tasji`at» («Tarsi` va tasji` san`atlarining mo`jizalari»), «Risolat tas`hifat» kabi adabiyotshunoslikka oid ilmiy asarlari bor. Adibning Hazrat Ali “Nasru-l-la’oli” (“Nasrdagi la’llar”) asaridagi hikmatlarni forsiy tilda she`rga aylantirgani manbalarda qayd etiladi. Biroq uni mashhur qilgan poetikaga doir bosh asari «Hadoyiqu-s-sehr fi daqoyiqu-sh-she`r» («She`r nazokatida(n) yaratilgan) sehrli bog`lar»)dir. Risola Muhammad Otsizning o`g`li Er Arslon (Abbos Iqbol) davri (1156-72)da yozilgan deb taxmin qilinadi. Biroq asar Muhammad Otsizga bag`ishlangan. Ellik besh bobdan iborat bu asarda arab va fors she`riyatidagi 62 san`atning tabiatini haqida fikr yuritilgan. SHoirning “Raso`il” (“Maktublar”) asari ikki qismidan: birinchisi – xalifa, sulton, vazir, amir, qozi va muftiylargacha (ya`ni hukmdor va amaldorlarga), ikkinchi qismi – olim, shoir, adib va do`stlariga yozgan maktublardan iborat.

Asiriddin Abulfazl Muhammad bin Tohir Axsikatiy (1108/10-1196/98) bo`lib, Xoqoniy bilan bir davrda yashab, shu ruhda qasidalar yozgan. Balx, Marv shaharlarida bo`lgan. Otabeklar davrining hukmdorlari Arslon bin To`g`ral (1160-1179) va Qizil Arslon (1185-1191) dargohida ishlagan. Qariyb 8 ming baytga yaqin she`rni o`z ichiga olgan va Ulviy Koshiy tomonidan ko`chirilgan (1313) devoni Londondagi Indian Ofis kutubxonasida saqlanadi.

²⁰ Низомий Арузий Самарқандий. Нодир хикоятлар. – Т.: 1985. – Б.37.

²¹ Тарихчи З.Бунёдов унинг хаёт саналарини (1114/16-1182/83) деб кўрсатади. Қаранг: Бунёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). - Т.: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1998; Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-ануштегинидов (1097-1231). – М.: Наука, 1986. – С. 118.

Devonda 120 qasida, 220 g'azal, 80 qit'a, 80 ruboiy, 4 tarkibband, 24 fard jamlangan. Devon nusxalari Berlin, Tehron, Dehli va Dushanbeda ham mavjud.

Axsikatiy haqida Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratu-sh-shuaro» asarida ma'lumot bor: «Fazl egalari Asir(iddin)ning shoirligiga tan berar edilar. Ba'zilar uning so'zлari Anvariyl ham Xoqoniy so'zлaridan fazlliroy ekanligini aytganlar... Asiriddin so'zni donishmandona, Anvariyl zavq bilan aytar edilar. Xoqoniy so'zga bezag-u oroyish berishda barchadan mumtoz edi... ular uchalasi ma'nilar daryosining g'avvoslari edilar va har biri o'sha daryodan kuchi yetgancha dur olib chiqqandir».

Ruboiy: *Uyqumda bo'lib hamnafas ul yorni suyibmen,
Ham har nafas ul yor ila asrorni tuyibmen.*

*Oh, shavqli yuzim yuziga qo'ydim, kuyibon, voh –
Uyg'ondimu ko'rdimki, yuzim yerga qo'yibmen.*

(Tohir Qahhor tarj.)

Shoir **Axsikatiy** (1073–1134) tilshunos, tarixchi va xattot bo'lgan. To'liq nomi: Abu Roshid Ahmad ibn Muhammad ibn Qosim Axsikatiy. Farg'ona vodiysida hozirgi To'raqo'rg'on tumanidagi Axsikat qishlog'ida tug'ilgan. Forsiy she'rлari asosida devon tuzgan. Ozarboyjonda Otabeklar sulolasining saroy shoiri bo'lib xizmat qilgan, Marvda sulton saroyida munshiylik qilgan. “Zulfazoyil” (ikki fazilat egasi – olim va shoir) degan nomga sazovor bo'lgan. Axsikatiy “Kitobu-t-tarix», “Kitobu-z-zavoyid fi sharh “Saqtu-z-zand” (“Chaqmoqtosh uchqunlari” dostoniga bitilgan sharh”), “Kitob fi qavlilim kazaba alayka kazo” (“Ularning seni bunday deb aldagan so'zлari haqidagi kitob”), “Devoni she'r” v.b. asarlar bitgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Islom madaniyatining shakllanishi nima bilan bog'liq edi?
2. Musulmon intibohi (renessansi) qaysi sohalarda ayniqsa bo'y ko'rsatdi?
3. Mahalliy sulolar davrida Mavarounnahrdan qanday ishlar amalga oshirildi?
4. Hadislar o'zbek adabiyotidagi ahamiyati haqida gapiring.
5. Imom Buxoriyning hadisshunoslikdagi o'rni haqida so'zlang.
6. IX-X asrlarda arab tilining madaniy hayotdagi ahamiyati qanday edi?
7. Turkiy xalqlarning arab va fors tillarida ijod etishi nima bilan bog'liq edi?
8. Qomusiy allomalar bo'lgan ajodolarimizning jahon ilm-faniga qo'shgan hissasini tavsiflab bering.
9. Tazkira nima?
10. Abu Mansur as-Solibiy va uning «Yatimatu-t-dahr» asari haqida gapirib bering.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.

5. Orziqulov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o'quvchilari uchun darslik). – Т.,2000.
7. Ас-Саолибий. Татиммат ал-йатима (“Йатимат ад-дахр” тўртинчи қисмининг қўшимчаси) (Тадқиқ қилувчи Исматулла Абдуллаев). – Т.;Фан, 1990.
8. Тўйчиева Г. Ўзбек арузшунослиги тарихига бир назар // ЎТА, 2010, №5 – 42-46-б.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Абдуллаев А. Тасаввуф ва унинг намояндалари. – Т., 2009.
2. Абдуллаев А. Абу Абдулло Рудакий. – Т., 2013.
3. Очилов Э. Рубоийнавислар устоди (Умар Хайём ҳакида) // Til va adabiyot ta'limi, 2013, №7. – 24-27-b.
4. Жабборов И. “Ҳаким ва ажал” достонида лирик қаҳрамон // ЎТА, №6, 2013. 71-75-бетлар.

MUMTOZ DIDAKTIK BADIY IJOD, DOSTONCHILIK VA QISSACHILIKNING VUJUDGA KELISH DAVRI (XI-XIII ASRLAR). XI-XIII ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA MADANIY HAYOT

Reja:

1. XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayat. Turkiy tilning yangi adabiy bosqichga ko`tarilishi.
2. Qoraxoniylar davrida turkiy madaniyatning taraqqiyoti. Bolasog'un va Koshg'ardagi madaniy hayat.
3. Turkiy dostonchilik maktabining vujudga kelishi. Badiiy asarlarda Qur'oni karim va Hadisi sharif sharhlari.

Tayanch so`z va iboralar: *islom dini, Qur'oni karim, hadis, muhaddis, sanad, musnad, tasavvuf, masnaviy, didaktik adabiyot, aruz, Yusuf Xos Hojib.*

XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayat. Turkiy tilning yangi adabiy bosqichga ko`tarilishi.

X asrning birinchi yarmidan boshlab Yettisuv va Koshg'ardagi turkiy qabilalar: qorluq, chigil va yag'molarning bir qismi o'troqlasha boradi, dehqonchilik xo'jaligi kengayadi, shaharlar rivojlanadi, savdo va hunarmandchilik o'sadi.

X asr o'rtalarida Qoraxoniylar davlati tashkil topdi va asta-sekin o'z mavqeini yaxshilay boshladidi. Bu paytda Movarounnahr va Xurosonda tohiriyalar o'rniiga kelgan somoniylar va g'aznaviyalar hukmronlik qilar edilar.

X asrning ikkinchi yarmidan boshlab G'aznaning siyosiy markaz sifatidagi mavqeiyi orta boshlaydi. Turkistondagi Barsxon qabilasidan bo'lgan Nosiruddin Sabuktagin tuksi qabilasiga asir tushadi, 4 yil ularning podasini boqadi, nihoyat Movarounnahr savdogarlariga sotib yuboriladi. U somoniylar qo'shinida jang qilib, amir sipohsolar bo`lib yetishadi. 997- yili vafot etadi. Sabuktaginning katta o'g'li Mahmud G'aznaviy (hukmronligi 998—1030) edi. U keyinchalik g'aznaviyalar sulolasining asoschisi sifatida taniladi.

Qoraxoniylar somoniylar ustiga shimoldan yurish boshlaydi. Mahmud janubdan hujumga o'tadi va butun Xurosonga egalik qiladi. 992- yilda Hasan Bug'roxon Movarounnahr ustiga lashkar tortadi. Somoniylar davlati ichidagi inqiroz qoraxoniylar maqsadining amalga oshishini tezlashtirdi. Garchi Buxoro va Samarcandni qaytarib olish uchun somoniylar ko'p kuch sarflashgan bo`lsada, X asr oxirida masala deyarli hal etilgan edi. Shosh, Farg'ona va boshqa viloyatlarda yashovchi turkiy qavmlar qoraxoniylar bilan qo'shilib ketadi.

G'aznaviyalar va qoraxoniylar Amudaryoni chegara sifatida belgilashadi. Qoraxoniylar bu chegaraga tez-tez daxl qilib turishadi. Bundan foydalangan Mahmud ham harakatga keladi. Nihoyat, u Hindistonning shimoli-g'arbidan Chag'oniyon va Xorazmga, Erondan esa Isfahon va Raygacha cho'zilgan qadratli davlatni yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, Somoniylar davlati o'rniga ikkita yangi davlat maydonga keldi. Bular - Koshg'ardan Amudaryogacha cho'zilgan Sharqiy Turkistonning bir qismi, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi So'g'dni qamrab olgan Qoraxoniylar hamda Shimoliy Hindistondan Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha bo'lган viloyatlarni qamragan G'aznaviyilar davlati edi. Bu paytda Xorazm ham mustaqil davlat bo'lib qolgan bo'lsa-da, 1017- yilda u ham g'aznaviyilar tarkibiga qo'shib olinadi.

Xuddi shu davrlardan tarix maydoniga saljuqiylar chiqadi. Sulola asoschisi Saljuq ibn Do'kak turk-o'g'uz qabilasi boshlig'i bo'lgan. Ular, asosan, Kaspiy va Orol bo'ylarida ko'chib yurishgan. Ular X asr oxirlarida Nur (hozirgi Nurota) atrofida joylashgan edilar. Saljuqiylar keyinchalik (XI—XIV asrlarda) Yaqin va O'rta Sharqdagi bir necha davlatlarda hukmronlik qilganlar. Dastlab XI asrda G'aznaviyilar davlatidagi ijtimoiy ziddiyatlardan foydalanib, Xurosonni egallashgan. Bunda ularning G'aznaviyilar davlatidagi harbiy xizmatlari omil bo'lgan. 1038-yili Nishopurni egallab, boshliqlari To'g'rulkbekni (1038—1063) sulton deb e'lon qilishgan. Ular sekin-asta butun Xurosonni (1038—1044), Xorazmni (1043), G'arbiy Eron (1042-1051), Ozarbayjon (1054) va Iroqni (1055) ham egallashadi. So'ng 1072—1092- yillarda orasida Armanistonni, vizantiyaliklarni (1071) yengib, Kichik Osiyo (1071—1081), Suriya va Falastinni bosib olishadi. Ularning Xurosondagi hukmronligi Sulton Sanjar vafoti bilan (1157) tugagan.

Endilikda Koshg'ardan Amudaryogacha bo'lgan hamma yerlar qoraxoniylar mulki hisoblanardi. Qoraxoniylar xoni «Tamt'ach» yoki «Tabq'ach» nomi bilan yuritilardi. Turklar Xitoy imperatorini ham shu nom bilan atashgan.

Somoniylar davlati yiqlungunga qadar Bolosog'un qoraxoniylar poytaxti edi. O'zgan (hozirgi Qirg'iziston) ham bir vaqtlar poytaxt bo'lgan. Mamlakatni Elig — xon boshqargan.

Qoraxoniylar davrida turkiy madaniyatning taraqqiyoti. Bolasog'un va Koshg'ardagi madaniy hayat.

Qoraxoniylar davrida madaniyat, ilm-fan, adabiyot ancha rivojlandi. Qoraxoniylar hukmdori Arslonxon zamonda qurilgan (1127-yil) masjid minorasi - Arslonxon minorasi Buxoroda hozirgacha yaxshi saqlangan. U xalq orasida Minorayi Kalon deb ham ataladi. XII asr oxirida qurilgan yana bir minora Vobkentda mavjud.

Turkiy til ravnaqi. Mutaxassislar fikricha, X—XII asrlar turkiy til va adabiyot rivojida g'oyat muhim davtdir. Masalan, bu davrda yozilib, bizga qadar yetib kelgan asarlar soni yigirmadan ortadi. Ulardan muhimlari quyidagilar: „Qutadg'u bilig”, „Devon-u lug'otit turk”, „Kitobi javohir al-nahv fi-1-lug'otit turk”, „Al-idrok lil-lisan at-turk”, „Bil lug'atil mushtoq fi-1-lug'atit turk va-1-qipchoq”, „Muqaddimatul adab”, „Al-af'ol fi-1-lisbnut turk” va hkz. Bular orasida oliy o'rinni, shubhasiz, „Devonu lug'otit turk” egallaydi. Abdulg'afur Koshg'ariy nomli olim Koshg'ar tarixini yozgan. 1126-yilda

yozilgan „Majmua ut-tavorix val-qisas“ („Tarix va qissalar to`plami“)da turkiy xalqlarning qahramonliklari haqidagi afsona va hikoyatlar jamlangan edi.

XI—XII asrlarda madaniyat va ilm-fan ham o`ziga xos rivojlanish yo`liga o`tadi. O`rta Osiyo olimlari arab tili orqali dunyo ilm-faniga yo`l ochdi. Bir qator aniq fanlar (matema-tika, kimyo, fizika), tabiiy fanlar (astronomiya, botanika, zoologiya, mineralogiya) hamda ijtimoiy-gumanitar yo`nalishdagi fanlar yuqori bosqichga ko`tariladi.

Shuningdek, tarixchi va adabiyotshunoslardan "Kitob-ul maorif", "Kitob ush-she'r va shuaro" asarlarining muallifi Abdulloh ibn Muslim Marvaziy Dinovari, "Zaynul-axbor" (Xabarlar ko`rki) nomli asar muallifi Abusaid Gardiziy, daryi tilida 30 tomlik kitob yozgan Abdulfazl Bayhaqiy, "Buxoro tarixi" kitobi bilan shuhrat qozongan Narshaxiy, "Tarixi muluki Turkiston" asari sohibi Majididdin Muhammad ibn Adnon, tarixchi Miskavayh, tibbiyot rivojiga hissa qo'shgan olimlardan Ibn Xammor, Najibuddin Samarqandiy, matematik va astronom Muhammad Balxiy, huquqshunos Burhoniddin Ali Marg'ioniy, tilshunoslardan Abulqosim Zamashshariy, Mahmud Koshg'ariylar ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shdilar.

Abu Bakr Narshaxiy (959- yil vafot etgan) ana shu davrda yetishgan yirik tarixchi olimdir. Uning «Buxoro tarixi» asari Movarounnahr, ayniqsa, Buxoro haqidagi nodir ma'lumotlarni jamlagan bebahol manbadir.

Abu Nasr Utbiy arab tilida «Tarixi Yaminiy» asarini yozdi. Unda Sabuk Tegin hamda Mahmud G'aznaviy hukmronligi davriga oid ko`plab tarixiy ma'lumotlar mayjud.

G'aznaviylar davrida yashagan yirik tarixchilardan biri Abu Said Gardiziydir. Uning «Zayn al-axbor» («Xabarlaf chiroyi») kitobi mashhur.

Abdulfazl Bayhaqiy (996—1077) «Tarixi Mas'udiy» yoki «Tarixi Bayhaqiy» deb nomlangan asarida sulton Mahmud va uning o`g`li Mas'ud davri (1000-1050)da bo`lgan voqealar, Bag'dod xalifaligi, Misrdagi fotimiyalar xalifaligi bilan bo`lgan munosabatlar, ijtimoiy va madaniy hayot, hokimiyat uchun kurashlarni keng bayon qilgan.

Qoraxoniyalar davrida madaniy hayot. XI—XIII asrlarda turkiy tilda so`zlashuvchi aholining xalq sifatida shakllanishi deyarli oxiriga yetdi. Qadimdan shu hududda yashab kelgan va turkiylar deb atalgan o`zbeklar ham xuddi shu davrda yagona xalq sifatida shakllandi. Ammo bu xalqqa o`zbek nomining berilishi sal keyinroq sodir bo`lgan. Tojik xalqi ham shu davrlarda shakllanib ulgurdi. Bu tilda fors-tojik adabiyotining yirik siymolaridan biri Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma» dostonini yaratdi. Bu asar fors-tojik adabiy tilining shakllanishiga ham kuchli ta'sir ko`rsatdi.

VIII asrdan e'tiboran turkiy xalqlar orasida islom qabilini bilan ular sekin-asta turk-islom davlatlari (X asr)ga aylandilar. Mana shunday davlatlardan biri hukmdor Abdulkarim Sotiq Bo'g'roxon (859-955) asos solgan davlatadir. U o`zini *qoraxon – ulug' xon* deb e'lon qilgan. Shundan barcha hukmdorlar o'zlarini qoraxonlar deb atagani uchun, davlat nomi ham shunday yuritilgan. Davlatning barpo bo`lishida qorluq, chigil, yag'mo qavmlari

yetakchilik qilgan. 1130-yilda Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon (1102-30) saljuqlarga yengilganidan so'ng davlat tanazzulga uchragan. Sulolaning so'nggi vakili 1212-yili Muhammad Xorazmshoh tomonidan qatl qilingan. Qoraxoniylar davlatning hududi Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tyanshanning janubiy yon bag irlariga yoyilgan.

Davlat hujjatlari, diplomatik yozishmalar uyg'ur yozuvida olib borilganiga qaramay X asrdan yozma adabiyot arab yozuvi orqali ham tarqala boshladi. Muayyan davrda har ikki yozuv parallel ravishda qo'llanilgan. Ayrim manbalarning (mas., "Qutadg'u bilig") har ikki yozuvda ko'chirilgan namunalarini saqlanadi.

Qoraxoniylar davrida yaratilgan adabiy manbalar. Bu davrda bir qator diniy va axloqiy asarlar yaratilgan, davlat boshqaruvi xususida tuzuklar tuzilgan. Ayni davrda Qur'oni karimning turk tiliga ilk tafsiri amalga oshirilgan. Noma'lum muallif tomonidan amalga oshirilgan tafsir saqlanish o'mniga ko'ra Rilands (Rylands) nusxasi deb yuritiladi²². Turkcha tarjima arabcha va forscha matnlari ostida satr orasi tarzida yozilgan. Arabcha matn sulis, forscha va turkcha tajima nozik nasih xati bilan yozilgan. U 1145 varaq, 30 jiddan iborat bo'lgan, biroq bizga qadar 14 jildi etib kelgan. Saqlanib qolgan qism Oli Imron surasi (3)dan Tahirim surasi (66)gacha.

Mahmud ibn Husayn Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" ("Turkiy so'zlar devoni", 1068), Yusuf Xos Hojib (Bolosog'uniy)ning "Qutadg'u bilig" ("Baxt kelituvchi bilim", 1069) kabi adabiy asarlar bu davr adabiyotining namunasidir.

Turkiy adabiy til ham keng rivojlandi. Biz bu davrda Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'otit-turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarlarini yaratilganini bilamiz. Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoqiy» asari ham shu davr adabiy yodgorliklaridan hisoblanadi.

Yoqut al-Hamaviyning "Mo'jam ul-udabo" asarida O'rta Osiyodan chiqqan arabiyyabzon shoirlar, ularning ijodiga badiiy va ilmiy qarashlari aks etga. Asarda, jumladan, 18 ta o'rta osiyolik shoirlar ijodi aruz va qofiya nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan [9].

Turkiy dostonchilik maktabining vujudga kelishi. Badiiy asarlarda Qur'oni karim va Hadisi sharif sharhlari.

«*Hadis*» arabcha so'z bo'lib, uning bir qator ma'nolari bor:

- 1) yangi, yangi narsa, yangi ro'y bergan voqeal;
- 2) so'z, hikoya, naql, rivoyat;
- 3) Muhammad payg'ambar yoki uning sahabalari haqida hikoya qiluvchi xabar yoki rivoyat.

Islom dini ta'limoto bo'yicha eng asosiy manba Qur'onidir. Hadislar ana shu muqaddas kitobdan keyingi o'rinda turuvchi mo'tabar manbadir. Hadislar

²² Türkçe İlk Kur'an Tercümesi (Rylands Nüshası) / Karahanlı Türkçesi. Prof. Dr. Aysu Ata. Ankara, 2004.

Muhammad payg'ambar hayoti va faoliyati, shuningdek, uning turli sharoitlarda diniy, falsaffiy, axloqiy-ta'limiy mavzularda aytgan xilma-xil fikrlari, ko'rsatmalari yoki munosabatlarini aks ettiradi.

Hadislarning yuzaga kelishi uch omil bilan bog'liq:

1. Muhammad payg'ambar aytgan gaplar.
2. Uning o'zi qilib ko'rsatgan ishlar.
3. Payg'ambarimiz tomonidan ko'rilgan yoki kuzatilgan ishning taqiqlanmagani.

Ana shu uch holatning har biri sunnat deyiladi. «Sunnat» ham arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi «yo'l, ravish, odat» demakdir. Istilohiy ma'noda esa Muhammad payg'ambar (a.s)dan qolgan urf-odatlarga aytildi. Ularni bajarish vojib hisoblanadi.

Hadisda islom diniga oid tushunchalar va ularning talqini, farz, vojib, sunnat, halol, harom, makruh kabi tushunchalarning ma'no qamrovi, izohi o'z aksini topgan. Hadislarning asosiy katta qismi axloq-odob masalalariga, ma'naviyati bilan bog'liq muammolarga qaratilgan.

Shuning uchun ham hadislarga Muhammad alayhissalom zamonidanoq alohida ahamiyat berishgan. Hadislar imkonni boricha xatosiz, asl holida boshqalarga yetkazilishi lozim bo'lган. Payg'ambar nomiga bog'lab turib yolg'on hadis tarqatish qattiq qoralangan.

Hadislarni to'plab, ularning haqiqiyalarini aniqlash bilan shug'ullangan olimlar muhaddis deyiladi. Imom Buxoriy, Muslim ibn Hajjoj, Imom Termiziyy, Abu Dovud, Sulaymon Sijistoniy (817-888), Ibn Mojja (834-886), Dorimiy, Bayhaqiy, Tabaroniy, Ibn Hibbon, Xatib, Hokim, Abu A'lo, Daylamiy, Doriquutniy, Jamoliddin Suyuti kabi muhaddislarning nomi mashhur. Lekin muhaddislarning orasida olti kishining dovrug'i olamni tutgan. Ulardan beshtasi o'rta osiyolik: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (hijriy 194-256, milodiy 810-870), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyy (824-892), Abu Muhammad Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Mojja (824—888) shular jumlasidandir.

Hadislarning mavzu qamrovi nihoyatda keng. Ular Muhammad payg'ambarining hayoti va faoliyati bilan bog'liq hadislar talqini, o'zaro insoniy munosabatlar, do'stlik, ahillik, saxovat, ota-onalarga va qarindosh-urug'larga munosabat, halollik, poklik,adolat, insof, diyonat, hasad, xiyonat, rostgo'ylik, yolg'onchilik, fitna-fasod kabi insoniy fazilatlar va nuqsonlar ustida bahs yuritadi. Muhimi, ularda yuksak insoniy fazilatlar ulug'lanadi, kishilarda shunday xislatlarning bo'lishi ma'qullanadi va targ'ib qilinadi, aksincha, yomon fe'l-atvor va xususiyatlarning kishilik jamiyatini uchun kulfat va azoblar keltirishi qayta-qayta ta'kidlanadi.

Hadisi shariflar falsafa, axloq va odob ta'lilotiga, ayniqsa, badiiy adabiyotga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Arab, fors-tojik adabiyotida hadislardan ta'sirlanib yaratilgan ko'plab asarlar mavjud. Turkiy, jumladan, o'zbek adabiyotida ham hadislardan ilhomlanib yozilgan bir qator badiiy namunalar

yuzaga keldi. Bu silsiladagi dastlabki tajriba Yusuf Xos Hojib nomi bilan bog'liq.

Yusuf Xos Hojib tasavvuf adabiyotining namoyandasini sifatida Qur'onning o'zini ham, hadislarni ham mukammal darajada o'rgangan. Uning «Qutadg'u bilig» dostoni bilan tanishish bu fikrni quvvatlaydi.

Ma'lumki, kitobda Ollohg'a hamddan tashqari payg'ambarga na't ham mavjud. U «payg'ambar alayhissalom fazilatlari borasida» deb ataladi. Adib:

O'qitchi ul erdi bayatdin senga,
Sen o'tru ko'ni yo'lqa kirding, to'nga.

(*U xudodan senga xabarchi edi, Sen so'ng to'g'ri yo'lga kirding, ey bahodir.*)

Ko`ngul badim emdi uning yo`linga,
Sevib so`zi tuttim butub qavlinga.

(*Endi men ko`ngilni uning yo`liga bog'ladim, Qavliga ishonib, sevib, so`zlariga amal qildim*) deb yozganida, hech shubhasiz payg'ambar hadislarini ham nazarda tutgan.

Yusuf Xos Hojibning quyidagi to'rtligida ushbu hadislar bilan ma'naviy uyg'unlikni sezish qiyin emas:

Atang pandini sen qatig' tut, qatig',
Qutadg'a kunung bo`lg'ay kundin tatiq'.
Atangni, anangni sevindir tushi,
Yanut berge tapg'ing tuman ming asig'.

(*Otagning pandini sen qattiq tut, qattiq, Seni baxtga eltadi, kuning kundan-kunga totli bo'ladi. Otagni, onangni doimo xursand qil, Xizmatlaring evaziga ming hissa foyda olasan*)

Hadisi sharifiarda g'iybat, chaqimchilik qattiq qoralanadi, uning kishi axloqidagi eng katta illat ekanligi, kishini og'ir gunohlarga qoldirishi ta'kidlanadi:

«Yashirin ravishda kishilar gapiga qulq solib, uni (yomon niyatda) boshqalarga naql qiluvchi odam jannatga kirmaydi».

«Asmo Yaziddan rivoyat qilindi. Rasululloh sahabalarga: «Men sizlarga eng yaxshilaringizni aytib beraymi?» - dedilar. Sahobalar: «Yo Rasululloh, aytib bering», — deyishdi. Rasululloh: «Ular shunday kishilarki, qachon ko'rinsalar, Alloh Taoloni eslatadilar. Eng yomonlaringizni aysam, ular chaqimchilik bilan yurib do'stlar orasini buzuvchi, begunoh odamlarni buzuqlik, halokat va mashaqqatga mutbalo bo'lishlarini istovchi kishilardir», - dedilar.

«Yomon so'zni aytuvchi bilan uni boshqalarga oshkora qiluvchi - ikkisi gunohkorlikda barobardir».

Endi Yusuf Xos Hojib misralarini kuzataylik:
Uzunchi kishika qatilma, yira,
Uzunchi tilinda kuyar o't ko'r-a.

(*G'iybatchi kishiga aralashma, uzoqlash, G'iybatchi tilida o't yonadi, ko'r.*)

Uzundin qo'par ul ajun bulg'aqi,

Uzunchi bashin kes, ey ersig aqi.

(*Dunyo flsq-u fasodlari g'iybatdan chiqadi, G'iybatchining boshini kes, ey mardonavor saxiy*)

Demak, Yusuf Xos Hojib Hadisi shariflardan ijodiy foydalanib, zamondoshlari va keyingi avlodlarga o'zining shunday o`gtilarini qoldirgan.

Ishlarda og'irlik, bosiqlik qilish, shoshilmaslik haqida hadislarda anchagina ibratli hikmatlar mavjud. Jumladan, «A1-adab al-mufrad» dagi 583-hadisda «Olloh Taolodan qo'rq, sabrli-chidamli bo'l, qiladigan ishlaringda shoshilma!» deyilgan. Shuningdek, boshqa hadislarda ham shoshilishning oqibatlari, salbiy tomonlari ko`rsatilgan.

«Sabrlilik musibatning birinchi daqiqalarida bilinadi».

«Sabr va bardosh Tangridan, shoshqaloqlik esa shaytondandir».

Adib sabr qilgan, bosiqlik bilan ish yuritadigan kishilarning yuksak axloq egalari ekanligini ta'kidlaydi:

Evak, qurg'u bo'lma qilinchin, so'zun,

Seringil, seringen atanur tuzun.

(*Fe'ling va so'zingda shoshilma, yengiltak bo'lma, Sabr qilgin, sabr qilgan afzal deb ataladi.*)

Shoshilish kulfatga, undan tiyilish esa baxtga eltadi, deb ta'kidlaydi shoir:

Qamug' ishta evma, serin, o'z tutun,

Serinsa bo'lur qul bu beglik qurin.

(*Barcha ishda ham shoshilma, ehtiyyot bo'l, o'zingni tuta bil, Ehtiyyot bo'lsa, qul beklik martabasini topadi.*)

Qamug' ishta evma, serin, o'z baqa,

Serinlug kishilar tegir arzuqa.

(*Barcha ishda ham shoshilma, sabrli bo'l, o'ylab ko'r, Sabrli kishilar orzuga yetadi.*)

Shoshilish tufayli yuzaga keladigan og'ir oqibatlar, uning umri va taqdiriga jiddiy salbiy ta'siri ham adib e'tiboridan chetda qolmaydi.

Qayu ishka evar, o'zar, kech qalur,

Eva qilmish ishlar o'kunchlug bo'lur.

(*Kimki ishda shoshilsa, ilgarilasa, kech qoladi, Shoshilib qilingan ishlar oqibati ayanchli bo'ladi.*)

Shoshilish - ijtimoiy illat hamdir. Yusuf Xos Hojib uning ana shu jihatiga ham e'tiborni tortadi:

Evaklik biling - ul qamug'qa yovuz,

Qali bo'lsa begka yuzi bo'lди bo'z.

(*Shoshqaloqlik barchaga yovdir, biling, Agar u bekda bo'lsa, uning yuzi qora bo'ladi.*)

Bulardan ko'rindiki, Yusuf Xos Hojib payg'ambar alayhissalom hadislarini el orasiga yoyishda, uni targ'ib qilishda ham o'ziga xos g'ayrat ko'rsatgan. Yusuf Xos Hojib asarida hadis ohanglari yanada jozibaliroq eshitiladigan bo'lgan.

Shubhasiz, hadislardan kuchli ta'sirlangan adiblar orasida Ahmad Yugnakiyning nomi ham bor. Ahmad Yugnakiy ham Yusuf Xos Hojib izidan borib, payg' ambar sha'niga alohida maqtovlar bag'ishlaydi:

Aning madhi birla tatar bu tilim,

Aning yadi birla shakar shahd anga.

(*Uning madhi bilan tilim chuchiysi*,

Uning yodi tilimga shakar va asal bag'ishlaydi.)

Hatto asardagi bir bobga «Tangrining mo'jizalari, johillikdan tiyilish, xudoning rasuliga sodiq bo'lish haqida payg' ambar alayhissalomning aytgan so'zlar» deb nom qo'yilgan. Unda quyidagi misralar bor:

Biliklik kishi, ko'r, bilur ish o'zin,

Bilib etar ishni o'kunmas kezin.

Ne turluk ish ersa biliksiz o'ngi

O'kunch - ul anga yo'q o'ng anda azin.

(*Bilimli kishi o'z ishini bilib qiladi, Bilib qilgan ishiga keyin o'kinmaydi. Turli ishlaryuz bersa bilimsiz nazdida o'ng ko'rindi, Bu unga tashvish, bundan boshqa chora (o'ng narsa) yo'q.)*

Shuningdek, «Tavozelilikni oshirish va kibrilikni tashlash tog'risida payg' ambarning aytganlari», «Tangriga muhabbatni qattiq tutish, shuningdek, alayhissalomning ibodat orqali sevinchni kutish haqida aytganlari», «Alayhissalomning ming do'stdan bir dushman ko'p degani», «Alayhissalomning zulm va jinoyat ladan saqlanish haqida aytganlari», «Islomning tushkunlikka uchrashi va saodatning qaytishi haqida alayhissalomning aytganlari» singari sarlavhalar «Hibat ul-haqoyiq»ning yaratilishida hadisi shariflarning nechog'lik katta o'rin tutganini yaqqol ko'rsatib turadi.

Demak, Yusuf Xos Hojib hadisi shariflardan ijodiy foydalanganini maxsus ta'kidlab ko'rsatmagan bo'lsa, Ahrnan Yugnakiy hazrati payg' ambar so'zlariga to'g'ridan to'gri murojaat etganini ochiq ko'rsatib o'tadi. Ahmad Yassaviy ham ularidan ijodiy foydalangan.

Hadislardan ijodiy foydalanish keyingi asrlarda ham davom etdi. Bu yo'nalihsda Alisher Navoiyning «Arba'in» («Qirq hadis») asarini eslash joiz. Zamondoshlarimizdan Abdulla Oripovning «Haj daftari» kitobi ham, asosan, hadisi shariflarga ijodiy yondashish oqibatidir.

Hadislarning barchasida ham kishilar orasidagi ilin munosabatlari, yaxshi fazilatlar, ijobjiy axloqiy-ma'naviy qadriyatlar ulugianadi, ezbilik targ'ib qilinadi, yovuzlik, yomonlik esa qattiq qoralanadi. Ularni o'qib-o'rganish yosililarimizning serfazilat bo'lishlariga yaqindan yordam beradi. Ular tarbiya maktabi sifatida avlodlar ko'nglidan mustahkam joy olaveradi.

Nazorat uchun savollar:

1. XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayat haqida nima deysiz?
2. Bu davrda turkiy tilning mavqeyi qanday bo`ldi?
3. Qoraxoniylar davrining turkiy madaniyatning taraqqiyotidagi o`rn haqida ayting.
4. Turkiy dostonchilik maktabi haqida gapirib bering.
5. «Hadis» so`zining lug`aviy ma`nosi nima?
6. Hadislarning yuzaga kelish omillari haqida gapirib bering.
7. Muhaddislarning tarixiy xizmatlari nimada?
8. O`rta osiyolik muhaddislар nomini sanang. Ular orasida Imom Buxoriy qanday o`rin tutadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Малласев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziquulov N. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot (Akademik litsey 1-kurs o`quvchilari uchun darslik). – Т.,2000.
7. Кораев О. История Карабанитского каганата X-нач. XIII вв. Фрунзе, 1983
8. Shoniyoзов Q. Qarluq davlati va qarluqlar. - Т., 1999.
9. Тўйчиева Г. Ўзбек арузшунослиги тарихига бир назар // ЎТА, 2010, №5 – 42-46-б.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Сиёев С. Қирқ жавоҳир [Navoiyning “Arba’in hadis” asari xususida]// Қишлоқ ҳаёти, 2009, 27-январь.

MAHMUD KOSHG'ARIY VA UNING «DEVONU LUG'ATIT-TURK» ASARI

Reja:

1. Mahmud Koshg'ariy va uning “Devonu lug’otit turk” asari.
2. “Devonu lug’otit turk” – adabiy manba sifatida.
3. “Devon...”da uchraydigan turkiy adabiy janrlar.

Tayanch iboralar: “Devonu lug’otit turk”, takshut, shlok, yir (ir), kug, munozara, marsiya, Alp Er To’nga, doston, hadis, ramz, qasida, masnaviy, to’rtlik, tuyuq.

Mahmud Koshg'ariy va uning „Devonu lug’otit turk” asari. Jahonning turkiyshunos olimlari Mahmud ibn Husayn Koshg'ariy tavalludini milodiy minginchi yilning dastlabki o’n yilligi deb belgilaydi. Oti Mahmud, otasining oti Husayn ekanligi asardan bilib olinadi. Ma'lum bo'lishicha, uning ota-bobolari Issiqko'l atrofidagi Barsag'on shahridan bo'lgan. Oila Koshg'ar (bu shahar xalq orasida Koshg'ar, Qashg'ar nomlari bilan mashhur)ga ko'chadi va Mahmud o'sha yerda tavallud topadi. U o'z tavallud makonini O'pol qishlog'i Ozig' mahallasidan, men o'z elimning nayzadorlaridan edim deb yozadi. Shu sababli u o'zini Mahmud Koshg'ariy deb ataydi. Allomaning tug'ilgan yurti devonda aniq aytilmagani uchun turk olimi Bosim Atalay uni Koshg'ar (O'rdukent)da tug'ilgan deb aytadi²³. O'zbek olimi Q.Karimov Bolosog'un (Quz O'rda, ya'ni hozirgi To'qmoq) shahrida tug'ilganini, ko'p vaqtini O'pal va Azik qishloqlarda o'tkazganini yozadi²⁴.

“Devon...”da yozilishicha, olimning otasi Husayn ibn Muhammad Barshan (Issiqko'lning janubidagi shahar, ruscha manbalarda Barsgan) shahrida tug'ilgan. Uyg'ur olimlari Ibrohim Mut'iy va Mirsulton Usmonov Mahmud Koshg'ariy tug'ilgan yurt va u dafn etilgan dahma xususida uzoq yillar davomidagi kuzatishlaridan so'ng 1981 yilda «Devon...»ning uyg'ur tilidagi tarjimasi so'zboshisida o'zlarining xulosalarini e'lon qilganlar. Unga ko'ra, Mahmud Koshg'ariy Qashg'ar yaqinidagi Azik yoki O'pal qishlog'ida tug'ilgan²⁵.

Ilk savodini Koshg'arda oladi. So'ng Buxoro, Samarqand madrasalarida o'qiydi. Bag'dodda tahsil oladi. Yoshligidan til ilmiga qiziqadi. Ulkan mintaqaga yoyilgan turkiy xalqlarning urf-udumini yaqindan o'rganadi. Uzoq, davomli sayohatlarining, mashaqqatlari mehnatining samarasini o'laroq „Devonu

²³ Besim Atalay. Divanü Lügat-it-Türk ve Tercümesi üzerine Notlar / Kaşgarlı Mahmud. Divanü Lügat-it-Türk (çeviri). Çeviren: Besim Atalay. 5.Baskı. Cild I. – Ankara, 2006. – S. XII.

²⁴ Каримов К. “Қутадғу билиг” асари ҳақида / Юсуф Ҳос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: Фан, 1971. – Б.7.

²⁵ Мутъий И., Усмонов М. Махмуд Кошгариининг юрти, ҳаёти ва мозори тўғрисида / Адабиёт кўзгуси. – Тошкент, 1996. 2-сон. – Б. 107-119.

lug'otit turk" asari maydonga keladi. Kitob qisqa muddatda Bag'dodda yozilgan. 1072- yilda boshlanib, 1074- yilda tugatilgan. U o'sha davr an'anasiga ko'ra arab tilida yaratilgan edi.

"Devonu lug'ati-t-turk" ("Turkiy so'zlar devoni") asarining o'zbek tilidagi ilk nashri muallifi, zukko olim Solihqori Mutallibov "devon yozilayotgangan vaqtarda (1068) Mahmud Koshg'ariyning ancha yoshlarga borganidan, keksaligidan, uning XI asr boshlarida tug'ilganini taxminlash mumkin" deb yozadi²⁶. Mashhur mustashriqlar K. Brokelmann, V.V.Bartold, S.E.Malov, K.K.Yudaxin, B.Atalay, A.Fitrat, B.CHo`ponzoda v.b. olimlarning ishlarida ham mana shunga yaqin fikrlar aytildi. SHundan kelib chiqib, YUNESKO qarori bilan 2008 yil *Mahmud Koshg'ariy yili* deb e'lon qilindi va Turkiya poytaxti Anqara shahrida jahon turkiyshunoslari xalqaro anjumanga to'plandilar. Shu munosabat bilan tuzilgan ozarbayjon olimi Ramiz Askar tomonidan tuzilgan bibliografik ko'rsatkichda muallif Mahmud Koshg'ariyni "1008-yilda Koshg'ar shahri yaqinidagi O'pal qasabasida dunyoga kelgan... 1082-yilda yana o'z ona shahriga qaytib madrasa ochgan va 1105-yilda 97 yoshida o'sha yerda vafot etgan" deb yozadi²⁷.

"Devonu lug'oti-t-turk" – adabiy manba sifatida.

„Devonu lug'otit turk", birinchi navbatda, lug'at kitobidir. Muallif Xitoydan Rumgacha yoyilgan turkiy qabilalarning tilini atroflicha o'rganadi va ularning kundalik hayotda ishlatib turgan so'zlarini to'plab, arab tiliga tarjima etish va izohlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Koshg'ariy biror so'zni izohlar ekan, uning boshqa turkiy qabilalardagi variantini ham keltiradi, bugungi ifoda bilan aytganda, qiyosiy metod bilan ish ko'radi.

Kitob turkiy xalqlarning tarixini o'rganish jihatidan ham katta ahamiyatga egadir. Unda quyidagi turkiy qabilalarning nomlari keltirilgan: bijanak (bular Rum sarhadiga yaqin yashaydilar), qipchoq, o'g'uz, yamak, boshqirt, basmil, qay, yaboqu, tatar, qirg'iz, chigil, tuxsi, yag'mo, ig'roq, jaru, jamul, uyg'ur, tangut va Xitoy bilan yondosh yashaydigan tabg'ochlardir. So'ng ularning joylashish o'rni ko'rsatilgan rangli xarita berilgan. Muallif Yerni dumaloq tasavvur etadi va turkiy qabilalarini shunga muvofiq joylashtiradi. Atrof chegaralarni belgilaydi. Uningcha, bu qabilalar Rumdan Mochin (Xitoy)gacha yoyilgan bo'lib, uzunligi 5000, eni 3000 farsahlik (bir farsax—6—8 km) kengliklarda yashaydilar. Yuqorida tilga olingan qabilalarning bir qismi hozirda mustaqil millatga aylanib, o'z nomini saqlab keladi. Ko'pchiligi boshqa turkiy millatlarning shakllanishida ishtirot etib, ular tarkibiga singib ketgan.

Kitobda sanab o'tilgan 20 qabila bu bosh turkiy qavmlar nomi xolos. Ularning har biri, o'z navbatida, mayda bo'laklargabo'linadi. Masalan, muallif

²⁶ Махмуд Кошгариј. Туркиј сўзлар девони / Девону лагатит турк. Уч томлик. I том. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1960. – Б. 16.

²⁷ Ramiz Әskər. Mahmud Kaşgarinin 1.000 illik yubileyinə 1.000 bibliografiq Göstərici. Bakı, 2008. S.6, 8.

o`g`uz - turkmanlarning 22 qismga bo`linishini aytib, har birining nomini keltiradi. Asar birgina tilshunoslik, etnografiya emas, tarix, geografiya, folklor va adabiyotshunoslik, hatto tibbiyot kabi bir qator fanlar nuqtayi nazaridan ham qimmatli ma'lumotlar bera oladi. Masalan, Koshg`ariy buquq (bo`qoq) so`zini izohlar ,ekan, uning kasallik sifatidagi ta'rifini beradi, tarqalish doirasini belgilaydi, patologiyasini tasvirlaydi, naslga o`tishiga diqqatni qaratadi va hokazo. Tarix, geografiyaga oid ma'lumotlar esa juda ham ko`p. Masalan, shaharlar, daryolar haqida gap ketganda, muallif ularning joylashish o`rni, tarixi, yon-atrofi haqida keng va atroficha fikr yuritishga harakat qiladi. Jumladan, Etil (Volga) daryosi haqida shunday ma'lumot beriladi: .., Etil — Qipchoq ellarida oqqan bir daryoning otidir. Bulg`or dengiziga quyiladi; bir irmog`i Rus diyordadir. Ushbu parchada shunday keladi:

Etil suvi oqa turur,
Qoya tubi qaqa turur,
Baliq telim baqa turur,
Ko`lung taqi qush arur.

(Etil suvi oqayotir, Qoya tubin qoqayotir, Sonsiz baliq boqayotir, Ko`l hapriqib toshmoqda).

Muallif asarda adabiy tur, janrlar haqida ham to`xtaladi. Masalan, „qo`shug” haqida fikr yuritib, uni „she'r”, „qasida” deya izohlaydi. Adabiy-badiiy ijodning ma'naviy turmushdagi o`rniga yuksak baho beradi. Kitob „Muqaddima”sida uni „hikmatli so`zlar, sajlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan” bezaganini faxrlanib ta'kidlaydi. Darhaqiqat, unda Koshg`ariy o`z fikr-mulohazalarini dalillash maqsadida yuzlab „adabiy parchalar” keltiradi. Bu hol asarga alohida ko`rk bag`ishlaydi. Bu adabiy parchalarning salmoqli qismini she'rlar tashkil qiladi. Shoir: „She`rda shunday kelgan”, — deydi-da, misolga o`taveradi. Ushbu she'rlar orasida xalq og`zaki ijodidan olinganlari ham ancha-muncha. Kitobda Alp Er To`nga haqida bir necha she'riy parcha keltirilgan. „Alp” mard, botir degani. Mutaxassislar Alp Er To`ngani tarixiy shaxs deb hisoblaydilar. U miloddan oldingi VII — VI asrlarda saltanat qurgan saqlarning qo`shin boshlig`i. Mazkur she'r uning o`limiga bitilgan marsiyadir. Marsiya — biror kishining o`limiga bag`ishlab yoziladigan she'r turi. Unda, odatda, o`sha kishining qadri, o`rni, xizmatlari va ayriqliq, judolik iztiroblari aks etadi. Bu yerda biz xuddi shu holni ko`ramiz. Alp Er To`nga o`limi chidash mumkin bo`lmagan og`ir judolikdir. She`rning butun ruhi shu fikr ifodasiga qaratilgan. Ifoda esa buyuk inson va tuban dunyo muqoyasasi asosiga qurilgan. So`zlar - zalvorli, o`ylar - iztirobli, tuyg`u - avj pardada:

Alp Er To`nga o`ldimu?
Egsiz ajun qoldimu?!
O`zlek o`jin oldimu?!
Emdi yurak yirtilur.

(Mard Er To`nga o`ldimi?! Buzg`un dunyo qoldimi?! Zamon o`chin oldimi?! Endi yurak yirtilar.)

Ko`nglim ichin o`rtadi,
Etmish bashig` qartadi,
Kechmish uzug irtadi,
Tun-kun kechib irtilur.

(Ko`nglim ichdan o`rtandi, Bitgan yara ochildi, O`tgan kunlarga boqdi, Tun-kun kechib, uzoqlashmoqda.) Muhimi shundaki, bu yo`qlovlardan odamning tuyg`ulari go`zal badiiy libosga o`rab, eshitganga ham ta'sirqiladigan yo`sinda beriladi.

„Devonu lug`otit turk”dagi she'riy parchalar ajodolar hayoti, ular boshidan kechgan issiq-sovuq kunlar, quvonch-tashvishlar oynasidir. Ularda jangovar hayot manzaralaridan mehmon kutishgacha, ishqiy-intim kechinmalardan olamni idrok etishgacha bo`lgan anvoysi va murakkab tuyg`ular o`z ifodasini topgan. Inson borki, armon bor. Odam hamisha bir dunyo orzu bilan yashaydi. Lekin hayot otlig` hukmdor ularning hammasini ham ushal-tiravermaydi. Armon xuddi o`sha nuqtada tug`iladi. U ko`pincha hasrat orqali ifoda qilinadi:

Tun-kun turib yig`layu,
Yoshim mening sovrulur.

(Kecha-yu kunduz yig`layman, Ko`z yoshlarim har tarafga sochiladi.)

„Devonu lug`otit turk” asari turkiy tilning X—XI asrlardayoq yuksak jahoniy mavqega ko`tarilganligiga dalildir.

Asar nusxalari. Mahmud Koshg`ariy o`z dastxati bilan yozilgan 4 nusxa abbosiy xalifalari saroyida saqlangan, so`ngra esa xalifalikning ko`chishi, Bog`doddagi janglar natijasida yo`qolgan. Asarning bizga etib kelgan yagona nusxasi Shom (hozirgi Suriya) mamlakatining poytaxti Damashq shahrida Muhammad ibn Abu Bakr ibn Abulfath as-Saviy ad-Damashqiy tomonidan 664/1266 sana 27 shavvol / 1 avgustida ko`chirib tugatilgan. Asardan yozilganidan qariyb 200 yil keyin ko`chirilgan bu nusxa, kotibning fikriga ko`ra, u Mahmud Koshg`ariyning o`z qo`li bilan yozgan qo`lyozmadan ko`chirib kitobat qilgan. Qo`lyozma 638 betdan iborat bo`lib, har sahifada 17 satrdan matn yozilgan. Qo`lyozma Istanbul (Fotih)dagi Millat kutubxonasida Ar.4189 raqami bilan saqlanadi.

Tarjimalari va nashrlari. „Devonu lug`atit turk”ning izoh va tushuntirish matnlari arab tilida yozilgani uchun u XX asrda bir necha tillarga tarjima qilingan. Asarning turk, o`zbek, uyg`ur, qozoq, ozarboyjon, ingлиз, nemis, rus v.b. tillarda (jami 18 tilda 22 marta to`la va qisman tarjima qilingan) chop etilgan.

Nihoyat, 1960-63 yillari Solih Mutallibov tarjimasida uch jild holida o`zbek tilida to`la nashr qildirilgan²⁸. “Devon...”dan dastlabki namunalar

²⁸ Махмуд Кошгариј. Туркий сўзлар девони / Девону лагатит турк. Уч томлик. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960–1963.

O'zbekistonda 1927-1928 yillarda Fitrat tomonidan e'lon qilingan²⁹. So'ngra ushbu namunalar "O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi" (1940), "O'zbek poeziyasining antologiyasi" (1948), "O'zbek adabiyoti" (1 tom, 1960) to'plamlarida qayta chop etilgan. So'ngra umumta'lim maktablari va o'rta maxsus ta'lim tizimi uchun yaratilgan majmualardan o'rin olgan.

Asar asosida tuzilgan indeks va lug'atlar. Nemis turkshunosi K.Brokelmann 1928 yilda ushbu asar asosida "O'rtaturk tili lug'ati"ni nashr qildirgan.

Bosim Atalay esa "Devon..." indeksini tuzishda lug'atdagi ismlarning har birining tarjimasi va sahifalarini ko'rsatgan. Tarjimonning asarning Ikkinchisi nashriga yozgan so'zboshisi (1985)da ko'rsatilganidek, garchi "dizin"da lotin yozuvida 8783 so'z tarjima etilsa-da, bu ish oxiriga qadar etmagan. CHunki unga ilova qilingan ismlar ko'rsatkichi, to'g'ri va yanglish o'qilgan so'zlar jadvali nihoyasiga etmagan.

"Devon..."ning o'zbekcha tarjimasining indeksi Solih Mutallibov va akad. G'.Abdurahmonov hamkorligida tuzilgan.

Organilish tarixi. Mahmud Koshg'ariy asarini ilmiy asosda tadqiq etish, asosan, XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Asar 1914 yilda kitobsevar Ali Amiriy tomonidan topilgan.

Asar haqida V.Radlov, G.Bergshtresser, F.Xommel, V.V.Bartold, S.E.Malov, I.I.Umnyakov, A.Bombachi, J.Kelli, R.Denkoff, J.Kelli, A.N.Kononov, I.V.Stebleva, T.A.Borovkova, R.Ermers, YU.A.Zuev, I.Xavenshild kabi xorijiy va rus olimlarining ishlari ma'lum.

Turk olimlari Bosim Atalay, Najib Osimbek, Ismoil Hikmat, Said Bey, Mehmet Fuod Ko'prulu, Zaki Validi To'g'on, Farit Birtek, M.SH.Ulkutashir, A.Jafer o'g'lu, Sechqin va Sarab Tug'ba Yurtasar v.b. turk olimlari tadqiqot olib bordilar. Sobiq Ittifoqda B.CHo'ponzoda, P.K.Juze, J.Validov, S.Axalli, S.K.Ibragimov, I.S.Xarkovskiy, A.Eqeubay, X.S.Xo'jaev, Ramiz Askar, X.Ko'ro'g'li, A.B.Xalidov kabi qardosh xalqlar olimlarining ishlari mavjud.

O'zbekistonda Fitrat, S.Mutallibov, Q.Karimov, A.Rustamov, H.Hasanov, A.Qayumov, G'.Abdurahmonov, E.Umarov, A.Abdurahmonov, S.Rustamiy v.b. ning tadqiqotlari orqali ushbu qomusiy asar jiddiy tadqiqot obyektiga aylandi.

"Devon..."ning turkiy tillarga tarjimalari orasida B.Atalay tarjimasi (1939-1941) nisbatan birinchilidan bo'lib nashr qilingan bo'lsa ham, uning turkiy tilga ilk tarjimasi 1935-37-yillarda o'zbek olimi Xolid Said Xo'jayev³⁰ edi. B.Atalay ham o'z kitobida Xo'jayev nomini tilga olib uni e'tirof etadi. Asar nashri qatag'on tufayli to'xtab qoladi.

²⁹ Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Самарқанд-Тошкент, 1927; Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Самарқанд-Тошкент, 1928,

³⁰ Xolid Said Xo'jayev Rashod Nuri Guntekinning "Choliqushi" romanini o'zbek tiliga, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini ozarbayjon tiliga tarjima qilganligi bilan ham mashhur.

Asarning yozilish sabablari va xususiyatlari. “Devon...” muallifi o’z asari muqaddimasida Xalil ibn Ahmadning “Kitobu-l-ayn» asari (bu asar arab filologiyasining ilk va muhtasham manbalaridan bo’lib, hozirgi kunga qadar to’la saqlanmagan.

Asarni sinchiklab sinchiklab o’rgangan va uning asosida tadqiqiy majmua yaratgan prof. Fitrat “Mahmud Koshg’ariy “Devoni lug’at”da 6,5 mingdan ortuq so’zlarni olib izoh qiladir. Ko’b o’rinlarda bu so’zlarning qabilaviy ayirmalarini ko’rsatadir. Mahmud Koshg’ariy asarini birgina izohli lug’at yoki filologiyaga ilmiga doxil manba deb qarash kamlik qilsa ham biz asarning O’zbek filologiyasi bilan bog’liq jihatlarigagina e’tibor qaratish bilan cheklanamiz.

Tarkibi. “Devonu lug’ati-t-turk” uch qismidan iborat: muqaddima, lug’at va fihrist (indeks).

Muqaddimada Hamdu salotdan so`ng muallif o’zini tanitib, turkiy xalqlarning ulug’ vorligi, turk tili bilishlikning ahamiyati haqida so’z yuritgan.

“Devon...”ning lug’at qismi sakkiz bo’limga joylashtirilgan bo’lib, ular arab alifbosi va fonetikasi qoidalari asosida (kitobdagagi turkcha so’zlarning arabcha sharhlanganini unutmaylik) dastlab so’zboshida hamza kelgan otlar bo’limi (1) berilgan bo’lib, ikki harfli so’zlar (2), muzoaf, ya’ni bir harf ikki marta takrorlangan so’zlar (3), tarkibida burun tovushlari (hozirgi istiloha: sonorlar) bo’lgan otlarning misollari (4) beriladi. Keyin uch harfli so’zlar (5), to’rt harfli so’zlar (6), bu bo’limning turlari, oxiri “a” bilan tugagan so’zlar, ortiqcha harfli boblar, so’zlarning boshi va oxiri “alif” bo’lgan so’zları, g’unnalilar bo’limi (7) va ikki undosh qator kelgan so’zlar (8) bo’limlaridan iborat. Har bir bo’limdagi so’zlar fe’llar va otlar tarzida ikki ajratilgan. Bu o’rinda asosan, iste’molda bo’lgan so’zlar qo’llanilgan bo’lib, ayrim so’zlarning arxaik shakllari, ya’ni iste’moldan chiqqanlarini ham ko’rsatib borgan.

Qamrov doirasi. Muallif buyuk tilshunoslik kashfiyotini bajarish bilan cheklanmay, endi adabiyotshunos va folklorshunos olim sifatida masalaga yondoshadi va har bir so’z qo’llanilgan misollarni zamonidagi va o’zigacha yaratilgan adabiy manbalarini keltiradi. Bu haqda yana muallifning o’ziga so’z bersak: “men bu kitobni maxsus alifbo tartibida (ya’ni ajam harflari tartibida) hikmatli so’zlar, saj’lar (qoffiali nasr naumnalar), maqollar, qo’shiqlar, rajaz (jangnomma aytimlari) va nasr deb atalganchalar bilan bezadim” (“Devon...”, 44-bet). Agar mutaxassis nigohi bilan qaralsa, Mahmud koshg’ariy shunchaki badiiy asar namunalarini keltiribgina qolmagan, ularning janriy jihatlaridan kelib chiqib tasnif ham qilgan. Tasnidagi har bir asarga janriy tavsif bergen, ular qo’llanilgan asarlar, bu asar mansub qabilar va ayrim o’rinlarda ularning mualliflarini ham tilga olgan.

“Devon...”da til, adabiyot, tarix, falsafa, geografiya, huquq, tabobat, ilohiyot, mantiq, siyosat, harbiy san’at, axloqshunoslik, etnografiya singari sohalarga oid ma’lumot va misollar uchraydi. Kitobga ilova qilingan xarita filologiya ilmida tuzilgan ilk dialektologik xarita hisoblanadi. Shuningdek,

kitobda 200 dan ortiq dori turi tilga olingan, 30 dan ortiq kasallik aniqlanib, unga shifo bo`luvchi 40 tadan ko`proq ovqat va retsept tavsiya etilgan.

“Devon...”da uchraydigan turkiy adabiy janrlar. “Devon...”da umumiy hajmi 764 misra bo`lgan 289 to`rtlik va ikkilik (bayt) she’riy namunalar berilgan.

Fitrat “...namunalari”ning birinchi qismida 14 turkumda shartli sarlavhalar bilan bir qancha to`rtliklar berilib, ularning izoh va tarjimalaridan tashqari olim ikki marsiyani mazmun va mavzu jihatidan farqlaydi. Ma’lumki, Fuod Ko`prulu “Devon”ga kirgan parchalarni adabiy nav’ jihatidan “Marsiya, doston, ov qo’shiqlari, ishq va sharob she’rlari hamda hikmatlar”dan iborat deb ko’rsatgan edi. Shu bilan birga olim “Turk adabiyotining manshai” maqolasida Alp Erto`nga mavzusidagi to`rtliklarni o`zarlo mazmun jihatdan bog’lab, ularni to`rt marsiyaga ajratgan ham edi. Fitrat bu qarashlarni isloh etib, avvalo, Alp Erto`nga nomi bilan bog’liq manzumalar to`rt marsiya emas, balki ikki marsiyani tashkil etishini isbotladi. Qolgan ikki marsiya haqida “boshqa unvonlar berish kerak” degan fikrga keldi. Fitrat “Devon”dagi “O’g’uzlar bilan urush” deb nom bergen parchani milodiy VI-VII asrlarga taalluqli ekanini aniqlaydi. Devondan tanlab olingan adabiy parchalarni esa ikki qismga ajratadi: Birinchisi, asosan, to`rtliklardan iborat bo`lib, undagi asarlar qisqa vaznda aytilgandir. Bular tasviriy parchalar bo`lgani uchun ular mavzu jihatidan quyidagicha tasnif qilingan: Alp Erto`nga marsiyasi, Yoz-Qish munozarasi, Bir urush maydoni haqida, Yoz o`yinlari, Ovdan urushga, Tog’ush begining urushi, Uyg’urlar bilan urush, Ikki savdogar orasida, Ayriliq (hijron), sevgiga oid parchalar (7 parcha), Uch urush (5 parcha), Bir urush, Doston boshlang’ichi (6 parcha) va Bir marsiya (3 parcha).

Fitrat tasnifida, ikkinchi qism ikkiliklardan iborat bo`lib, ular ta’limiy-axloqiy mazmundadir. Fitrat masnaviyarlarni quyidagicha mavzularga ajratadi: Nasihat, Mehmon tutish to`g’risida, Tarbiya to`g’risida, Bir go`zal to`g’risida, E’tiqodiy bir parcha, O`g’limga nasihat, Dunyodan shikoyat, Sevgan bir kishi uchun, Boylikni maqtaydir, O`gut, Maqtanish, Boylik to`g’risida, Aldangan bir kishiga, O`zini maqtab, Ayrilish, Diniy nasihat, Mehmon to`g’risida, Rohat to`g’risida.

Fitrat o’z majmuasiga uchinchi qism orttirgan va bunda “manzumalarning ba’zi so`zlarini izoh qilish, ba’zi so`zlardagi sarfiy (morphologik – H.B.) va savtiy (fonetik – H.B.) ahamiyatli nuqtalarni chizib o’tgan”. Bu jihatdan mualif Mahmud Koshg’ariy yo’lidan borgan. Bundan tashqari Fitrat har bir manzum parchaning nasriy bayonini yozib chiqqan (1) va janrini aniqlagan (2). Qadimgi davr adabiy yodgorliklarining mavzu jihatini belgilgan (3), mazmunan ularni bir-biri bilan bog’lashga harakat qilgan (4),

vazn xususiyatlarini aniqlagan (5), asarning shakli (6) va qofiyasiga oid fikrlar (7)ini ifoda qilgan³¹.

“Devon...”da 318 ta maqol va hikmatli so’zlar keltirilgan bo`lib, ulardan 26 tasi ikki marta, 6 tasi uch marta tilga olingan. Bu maqollar turkiy xalqlarning falsafasi, turmush tajribasi, hayot hodisalariga munosabatini anglatadi.

Fitratdan so’ng ayni yo`nalishda ilmiy yumushlar amalga oshirilmagan bo`lsa ham jahonga larza solgan buyuk ilmiy asarni o’rganishga va zamonaviy tillarga tarjima qilishga o`ziga xos yo`l ochilgan.

“Devon...”da o’sha davga mansub adabiy pachalani ifodalovchi quyidagi atamalar uchraydi:

1. Etuk - hikoya, ertak (biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham ishlatalig) (1,98)
2. Otkunch – hikoya (3,197) Avtobiografik hikoya.
3. Sav – hikmat, qissa, hikoya, risola, xat, kitobcha, nutq ma’nolaidagi so’z. Tadqiqotchi T.Haydarov fikricha, mazkur termin yunoncha mif terminiga mos keladi³².
4. Jir – g’azal, maqom, kuy (3.15)
5. Kug – she’r vazni, kuy, latifa (3.144)
6. Tabzug’ – topishmoq (1.429)
7. O’tluk – nasihat, o’git mazmunidagi she’r.
8. Yig’i-yo’qlov – marsiya she’r.
9. Qarg’aq – qarg’ish mazmunidagi she’r. (2.333)
10. Alqish – madhiya, maqtov she’r. (1.123)
11. Qo’shug’ – qo’shiq, she’, qasida. (1.357)
12. Yir – she’r, kuy vazni. (3.159)

Nazorat uchun savollar:

1. Mahmud Koshg’ariy hayoti haqida nimalar bilasizmi?
2. Koshg’ariyning turkiyshunoslikdagi hissasi nimalardan iborat?
3. “Devonu lug’oti-t-turk” asari haqida ma’lumot bering.
4. “Devonu lug’oti-t-turk” da qanday adabiy janrlar jamlangan?
5. Asarda keltirilgan afsonalarni aytib bering.
6. Asarda keltirilgan adabiy parchalar qaysi eposning bir qismi sifatida baholanadi?

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.

³¹ Фитрат асарининг замонавий нашри учун қаранг: Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. Адабиётимиз тарихи учун материаллар. / Нашрга тайёрловчи ва сўнгсўз муаллифи О.Хамраева. (Масъул мухаррир ва сўзбоши муаллифи X.Болтабоев). – Т.: MUMTOZ SO’Z, 2008.

³² Ҳайдаров Т. “Гўрўғли” ва мифология синкретизми. НДА. – Т., 1993. 10-б.

2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqulov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o`quvchilari uchun darslik). – Т.,2000.
7. Болтабоев X. “Девону луготит турк”нинг илк таржимони // ЎТА, №4, 2016. 65- 70-бетлар.
8. www.ziyonet.uz
9. <http://kh-davron.uz>

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Махмуд Кошгариј. Девону луготит турк. З томлик. 1961,1962,1963/ Нашрга тайёрлович С.Муталибов. – Тошкент, 1963.
2. Қадимги туркий тил лугати (Х-ХII асрлар): “Девону луготи-т- турк”, “Қутадғу билиг”, “Хібату-л-ҳақойик” асарлари бўйича/ Тузувчи :ф.ф.н.Қ.Каримов. – Тошкент: Мумтоз сўз,2009.
3. Ўринбоев Б. Махмуд Кошгариј: библиографик кўрсаткич. – Тошкент, 2002.
4. Одилов Ё. “Девону луготит турк”даги баъзи сўзларнинг семантикаси тадқики (М.Кошгариининг асари асосида)/Til va adabiyot ta’limi,2013, №6
5. Болтабоев Ҳ. “Девону луготит турк”даги мазмун парчаларнинг адабий таснифи// Махмуд Кошгариининг “Девону луготит турк” асари ва унинг туркий халқлар маданияти ҳамда жаҳон цивилизациясидаги ўрни (Халқаро конференция материаллари). – Самарканд, 2002. 118-119-б.
6. Ражабов Д. “Девону луготит турк”даги адабий парчалар ҳакида// ЎТА, №2, 2013. 34-38-бетлар.
7. Абдулахатов Н., Тошпўлатов И., Носирова У., Жўрабоева У. Махмуд Кошгариининг “Девону луготит турк” асаридаги лексик бирликлар тадқики. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – 87 б.
8. Орипов З. Туркий сўзлар девонида мусикашунослик атамалари//Шарқ машъали, 2012, №2. – 5-7-б.
9. Мислиддинова М. Махмуд Кошгариининг айрим фоностилистик карашлари//ТАТ, 2012, №2. – 36-38-б.
10. Рустамова С.А. Махмуд Кошгариј “Девон”идаги “ишмам” атамаси ҳакида//ЎТА, 1995, №5-6. – 53-55-б.
11. Акрамов Қ. Миф ва ёзма адабиёт муносабатига доир//ЎТА, 1996, №5. – 56-58-б.
12. Бегалиев М., Зокиров Э. “Девону луготит турк”даги иқтисодиётга оид айрим сўзлар ҳакида // ЎТА, №4, 2011. – 113-115-бетлар.
13. Нурмонов А. Махмуд Кошгариининг лингвистик карашлари // ЎТА, №1, 2012. 104-111-бетлар.
14. Расулова Г. “Девону луготит турк”да сочиувчи нарсалар солинадиган рўзгор буюмларини ифодаловчи лексемалар // ТАТ, №5, 2010. 24-29-б.
15. Абдиев М. “Девону луготит турк”да кўлланган шахс номлари // ЎТА, №6, 2012. 65-67-бетлар.
16. Бердиев Ҳ. “Девону луготит турк”даги ўтовсозли атамалари// ЎТА, №6, 2015. 82-85-бетлар.

YUSUF XOS HOJIB HAYOTI VA IJODINING MANBALARI

Reja:

1. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.
2. “Qutadg’u bilig” adabiy manba sifatida.
3. “Qutadg’u bilig” hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar. Dostonda axloqiy va estetik qarashlar.
4. Doston janrlari: masnaviy, qasida, to`rtlik va g’azal unsurlari. Asarning ahamiyati.

Tayanch iboralar: *Doston, hadis, ramz, qasida, masnaviy, to`rtlik, tuyuq, madhiya, tasavvuf, davlat, gurizgoh, nasib,adolat, aql, ofiyat, zohid.*

Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.

Yusuf Xos Hojib (Bolosog’uniy) hayoti haqida faqat uning asaridagi ma'lumotlar doirasidagina xabar qilinadi. Asarda yozilishicha, shoirning asl ismi Yusuf bo'lgan, Bolosog'un (Quz O'rdu) shahrida tug'ilgan. Yusuf ismli shoir Bolosog'uniy (tug'ilgan eriga ko'ra) nisbasini olgan. Hatto asarning rus tilidagi 1983-yilgi nashrida muallifni Yusuf Bolosog'uniy deb tanishtiradi. Asarda: "Kitab izisi Yusuf ulug' Hajib o'zinga pand berur, Yusuf Xas Hajib teb ati javi yozilmish" deyilgan. Ma'lum bo'ladiki, shoir Yusuf ulug' (katta, yuqori) mansabda xos (maxsus) hojiblik (eshik og'asi) vazifasida ishlagan. Bolosog'unda o'z asarini yoza boshlagan va qoraxoniylar davlatining poytaxti bo'lgan Qashg'ar shahriga kelib tugallagan. Uni 462\1069 yilda yozib tugallab, Tavg'ach Ulug' Bo`g'ra Qoraxonga taqdim qilgan. Asar hukmdorga ma'qul bo'lgani uchun shoirga Xos Hojib unvoni berilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, turk davlatchilik asoslari va mamlakat boshqaruvi masalalaridan bahs yuritgan ushbu manba Nizomulmulkning "Siyosatnoma" (469\1077)sidan etti yil avval, Kaykovusning «Qobusnama» asaridan (485\1082) 12-13 yil avval yaratilgandir.

Asardagi

Tegurdi manga elgi ellik yashim

O'qir altmish emdi manga kel teyu

Mazmuni: Ellik yoshim menga qo'lini tegizdi,

Oltmis yosh meni kel deb chorlayapti

bayti muallif asar yozayotganida 50 yoshlar chamasida bo`lagniga ishora. Boshqa bir o'rinda

Yil altmish eki erdi to`rt bila...

Tugal o'n sakiz ayda aydim bu so'z

misralari bizga "Qutadg'u bilig" 18 oy davomida yozilib, 1062-1069 yilda tugallanganini ma'lum qiladi. Kitobda shunday yozilgan:

Kitab ati urdum Qutadg'u bilig,

Qutadsu o`qug`liqa tutsu elig.

Bundan kitob o'quvchining qo'lidan baxt tutsin deya, uni baxtga eltuvchi bilim deb atagani anglashiladi. Fitrat qut – “baxt”, qutadg'u/qutayg'u – “baxtliklanish”; bilig – “bilim” bo'lib, “Qutadg'u bilig”ning ma'nosi “Baxtliklanish bilimi” bo'ladir”, degan xulosaga kelgan³³.

Shunday qilib, baxtlilanish bilimi o'z o'quvchilariga saodat keltirish barobarida dunyoga tanilgan.

Chiniylar “Adabu-l-muluk” teb ayar
Machinlar “Anisu-l-mamolik» ma ayar

Bu Mashriq elinda ulug'lar muni
“Ziynatu-l-umaro” teyurlar ko'ni

Eranlig'lar “Shohnoma” ter mungar
Turanlig'lar “Qutadg'u bilig” teb uqar

Asarning muqaddimasida ushbu fikrni takror keltirish bilan birga «Anisu-l-mamolik» birikmasi “Ayinu-l-mamlakat” bo'lib yozilgan. Shu holatning o'ziyoq muqaddima asar muallifi tomonidan yozilmagan, degan A.Vamberi, V.Tomsen, M.Xartman, Fitrat va Q.Karimov fikrlarini tasdiqlaydi.

Asarning tiliga doir qashg'ar tili (Mehmet Fuod Ko'prulu), chig'atoy tili (V.Tomsen), uyg'ur tili (S.E.Malov)da yozilgan degan fikrlashlar bo'lismiga qaramay, bu qoraxoniylar davlatida umumiste'molda bo'lgan turkiy xalqlar tili (Mahmud Koshg'ariy bu hududdagi turkiy tilga nisbatan *xoqoniy* turkchasi istilohini qo'llagan) ekanini barcha olimlar e'tirof etganlar. Asar yuzasidan A.Fitrat, N.Mallayev, G'.Abdurahmonov, Q.Karimov, B.To'xliyev, Sh.Shukurov, Q. Sodiqov, Z.Sodiqov³⁴, Q.Siddiqov³⁵, A.Axmetova, X.Abdullayev, B.Abdurahmonova kabilar tadqiqot olib borganlar.

Yozilishi va saqlanishi. “Qutadg'u bilig” asari XIX asr boshlariga qadar adabiyotshunoslikkha ma'lum bo'limgan, Navoiy va Bobur asarlarida ham, undan keyin yaratilgan o'nlab tazkiralarda ham tilga olinmagan. Uning dastlabki nusxasi - 843/1439 yilda Hirotda Hasan Qora Sayil SHams tomonidan uyg'ur yozuvidagi qo'lyozmasi mavjud edi. Bu asar taxminan ko'chirilgan zamonalarda To'g'ot shahriga keltirilgan. 879/1474 sanada qo'lyozma

³³ Фитрат. Кутадгу билиг / Танланган асарлар (нашрга тайёровчи Х.Болтабоев). II жилд. – Т.: Машнивият, 2000. – Б.13-14.

³⁴ NamDU dotsenti f.f.n Z.Sodiqov “Кутадгу билиг” таржималарининг киёсий-типологик таҳлили” (Т.: Фан, 2007. 172 б.) monografiyasida dorstonning jahon ilmida o'rganish darajasi, undagi diniy-falsafiy mavzudagi, o'ziga xos turkiy parchalarining tarjima xususiyatlari, rus, nemis, ingliz tiliga qilingan tarjimalarning yutuqli va nuqsonli jihatlari haqida atroficha fikr yuritadi, doston poetikasi, undagi badiiy san'at va tasvir vositalarining, ibora, maqol hamda aforizmlarning qay tarzda tabdil etilishi bo'yicha qimmatli fikrlar bildiradi.

³⁵ NamDU dotsenti f.f.n Q.Sidiqov “Кутадгу билиг” тўртликларининг инглизча бадиий таржимаси хусусиятлари” (Т.: Bayoz, 2014. 128 б.) monografiyasida dostonning yurtimiz va jahonda o'rganilishi, tadqiqotlar tanqidiy va qiyosiy tahlil etilgan. Asarning ikki inglizcha (R.Denkoff va V.Mey tomonidan amalga oshirilgan) tarjimalarning badiiy qimmati to'rtliklar misolida aniqlanib, tarjimada vositachi til – rus tilining ta'siri ham belgilangan.

Abdurazzoq SHayxzoda baxshi talabi bilan Kadi Ali Fanari o'g'li tomonidan Istanbulga olib kelingan. 1796-yil Avstriya elchisi H.Purgshtal qo'lyozma sotib olgan va Vena Qirollik kutubxonasiga topshirgan edi.

«Qutadg'u bilig» qo'lyozmasining arab yozuvidagi (suls xati bilan) uchinchi nusxasi Namangandan topilgan. Kitobni prof. Fitrat 1924 yilda Muhammadhoji Lolareshdan qo'lga kiritgan bo'lib, u Namanganda xususiy bosmaxona egasi Is'hoqxon to'ra Ibrat uyidan tintuv vaqtida topilgan, qo'lyozmani qo'lga kiritgan tintuvchi kitobni sotib yuborgan edi. Fitrat domla asarni Toshkentga keltirib, u haqda 1925 yilda maqola e'lon qilgan, "O'zbek adabiyoti namunalari. 1-jildida undan parchalar nashr qildirgan. Bir qancha sarguzashtlarni boshdan kechirgan ushbu nusxa hozir O'zRFA SHIda 1809 raqami bilan saqlanadi.

Asarning Qohira nusxasi 1896-yil Qohirada nemis olimi B.Moris tomonidan topilgan. Asar nusxasi V.V. Radlov buyurtmasi bilan 1898-yil Rossiyaga keltirilgan.

S.Y.Samoylov asarning har uchala nusxasini solishtirib chiqib, uyg'ur yozuvidagi nusxa qolgan ikki arab yozuvidagi nusxdan katta farqqa ega ekanligi, bu nusxa uyg'ur yozuvidagi kamyoq qo'lyozma sifatidagina ahamiyatga egaligini yozgan edi³⁶.

"Qutadg'u bilig" adabiy manba sifatida.

Kitob nasr bilan yozilgan muqaddima, boblarni ko'rsatuvchi fihrist (mundarijasi) va nazm qismidan tarkib topgan. Uning 11 fasli she'riy debocha bo'lib, qolganlari voqeа bayonidan iborat. So`nggi faslda kitobning yozilgan yili haqida ma'lumot berilgan. Tabiiyki, qo'lyozma nusxalar o'zarо farqlanadi. Akad. A.Kononov asarning Namangan nusxasini "mayjud nusxalar ichida nisbatan mukammali deb hisoblagan".

Asarning hajmi 6,5 ming bayt deb aytilsa ham, Fitrat ma'lumotiga qaraganda, Namangan nusxasi 6329 baytdan iborat. Vena nusxasida esa 171 bayt etishmaydi. Nasriy muqaddima asar muallifiga tegishli bo'lmagani tufayli asarni asosiy she'riy matndan kelib chiqib tarkiblash lozim. Debochada Hamd, sano, na't, Qoraxon madhi, Kitob avvali, yetti kavokib va o'n ikki burj, Odamning qadr-u qimmati, til ardami (fazilatlari), kitob egasining uzri, nasihat so`zi, bilim va uquv ardami, Kitobning nomi va o'z (muallif) qariligi (yoshi) kabilar bayon qilingan. Asar voqealari 391-baytdan boshlanadi.

Asarning janri nisbatan murakkab, uning tarkibida masnaviy, ruboiy, to'rtlik kabi janrlar uchraydi. Bizningcha, asarni *ta'limiy doston* deb qabul qilsak-da, unga *syujet va kompozitsion jihatи murakkab* tarkibli bo'lganini va boshdan oyoq bir vaznda yaratilmaganligini qo'shib qo'yish zarur.

³⁶ Болосогунский Ю. Благодатное знание / Послесловие А.Н.Кононова. – М.: Наука, 1983. – С. 511.

³⁷ Болосогунский Ю. Благодатное знание / Послесловие А.Н.Кононова. – М.: Наука, 1983. – С. 495-517.

Vazn xususiyatlari. Asar asosiy voqealarini bayon qilgan nazmiy qism, Fitratning aniqlashicha, “yozilishi tizimning ikkilik – masnaviy shaklida”³⁸. Ushbu fikrni izchil davom ettirgan Q.Karimov doston mutaqoribi musammani solim vaznidagina emas, undan far’iy (hosila) bo’lgan *mutaqoribi musammani mahzuf va mutaqoribi musammani maqsur* vaznlarida yozilgan, degan qat’iy xulosaga kelgan.

Janr xususiyatlari. “Qutadg’u bilig”da 210 ta to’rtlik mayjud³⁹ bo’lib, mazkur to’rtliklar ruboiy darajasiga yetmagan, biroq ularning janr xususiyatlarini o’rganish, bu to’rtliklarning turkiy tillardagi ruboilyarning shakllanishida muhim bosqich bo’lganini ta’kidlab turadi⁴⁰. Bu to’rtliklarda xalq og’zaki ijodi an’analari bo’rtib turadi. Dostondagi “Qayu erda bo’lsa uqush birla o’g” misralari bilan boshlanuvchi to’rtlik o’zbek adabiyotida tuyuqning ilk namunasi deb baholanadi.

Sharq adabiyotida qasidalar kompozitsion jihatdan ikki xil - qasidayi tomm (to’liq qasida), qasidayi mujarrada (noqto’liq qasida). Qasida nasib (yoki tashbib – kirish qism), gurizgoh (krishdan asosiy qismga ulash joyi), madh, duo hamda talab qismlaridan iborat bo’ladi. Taroziy qasidada to’rt xususiyat – adl, insof, shijoat, saxovat yodga olinishini, qolgan xislatlar shoir ixtiyororda ekanini yozadi [8]. Qasidayi mujarradada yuqoridagi ayrim qsmlar bo’lmashligi mumkin.

Doston mavzusi va timsollari. Asarning voqealar ko’lami keng bo’lgani uchun uni bir-ikki mavzuni tashigan deb bo’lmaydi. Doston mavzularini belgilashda fihristdagi boblanish yordam berishi mumkin. Mana shu “ko’mak”ka tayangan holda *davlat sifati ardami (fazilati)*, *adl sifati manguligi, bilim va uquv o’rni, beglar, amirlar, hojiblar, pardadorlar, elchilar, kotiblar, xazinador, dasturxonchi, sharobdorlarning vazifalari, xotin olish, farzand tarbiyasi, yig’in va dasturxon adabi v.b.* haqida fikr yuritilganini uqish mumkin. Biroq bu hammasi emas, fihristdagi “sarlavhalar” shartli bo’lib, ular asar mavzu doirasini belgilashdan ko’ra syujet tartibi bayoni ekanligini unutmaslik kerak: *Oyo’ldining Kuntug’di huzuriga kelishi, Eligining O’gdulmishga savoli, O’zg’urmishning eligga nasihat... kabi.*

Dostonning mavzulari doirasi asardagi timsollar o’rni va vazifasi bilan qat’iy bog’lanadi. Chunki Kuntug’di elig (hukmdor)gina emas, u *Adl* (adolat) timsoli. Oyo’ldi vazirgina emas, *qutili, barakali davlat* timsoli. O’gdulmish – vazirning o’g’li bo’lishi bilan birga *aql va zako* belgisi, vazirning qarindoshi O’zg’urmish esa, *qanoat, ofiyat* elchisi sifatida taqdim qilinadi:

Biri to’g’rilikka tayanch – adolat,

³⁸ Фитрат. Аруз хакида / Нашрга тайёрловчи Х.Болтабоев. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б. 27.

³⁹ Сидиков К. “Кутадгу билиг” тўртликларининг инглизча бадиий таржимаси хусусиятларию – Тошкент: Bayoz, 2014. 128 b. – 9-иую

⁴⁰ Xos Hojib Yusuf. Qutadg’u bilig. To’rtliliklar. (Nashrga tayyorlovchilar: B.To’xliyev, Q. Sidiqov, S.Ibotov) – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 107-b.

Biri davlat erur, u qutli g'oyat.

*Uchinchi ulug'lik – aql va zako,
To`rtinchi qanoat erur bebaho⁴¹.*

Asarda SO`Zning ulug'lanishi. Dostonning ikkinchi fasli «Yangluq ag'irliqin tanurlayur bilig birla», ya'ni Insonning qadri bilim bilan belginadi, deb nomlanadi. Bunda muallif Tangri insonni yaratar ekan, unga bilim, hunar, ko`ngil bergani, tilini ravon go`zal fe'l va xulq ato qilgani, unga uquv bergach, barcha tugunlar echilib, ezgu ishlarga qo'l urgani aytildi. Bilim bilan uquvgina tanlagan bandasini ulg'aytirishi mumkin:

Uqush qayda bo`lsa uluqluq bo`lur

Bilik kimda bo`lsa bezugluk alur

Mazmuni: *Uqish vayda bo`lsa, ulug'lik bo`ladi,*

Bilik kimda bo`lsa, buyuklik bo`ladi.

SO`Zning, ya'ni Qur'oni karimni Alloh tomonidan nozil qilingani va so`z yashil ko`kdan tushib, insonning yuzi (suvli, oq) bo`lgani, inson sharifligining boisi So`zdir:

Yashil ko`kdin indi yag'iz yerka s o`z

So`zi birlan yangluq ag'ir qildi o`z

Mazmuni: *So`z bo`z erga yashil ko`k (osmon)dan tushdi,*

So`zi tufayli inson o`zini ulug' qildi.

...O`lugdin tirigka qumaru so`z-ul

Qumaru so`zi tutsa asg'i yuz-ul

Mazmuni: *O`lgan(lar)dan tirk(larga) meros so`zdir,*

Meros so`zni tutilsa, naf'i yuzdir.

Shoir o`z tiliga e'tibor berib, nutqini go`zal so`zlar bilan ziynatlagandagina ulug'lik kasb etishini buyuradi:

... Tili bilan yangluq so`zi so`zlayur

So`zi yaxshi bo`lsa yuzi suvlanur

Mazmuni: *Inson so`zini (fikrini) til orqali so`zlaydi,*

So`zi yaxshi bo`lsa, yuzi suvlanadi (oq bo`ladi).

Bu oddiy pand, nashatlar emas, balki so`zning ulug'vor qudratini his qilgan, uning quvvatiga tayanib ish ko`rgan so`z san'atkoring e'tirofidir.

Dostonda voqeа tasviri yo`q deb aytish mumkin. To`g'rirog'i, muallif qiziqarli bir voqeani hikoya qilib berishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ymaydi. Uning markazida to`rt timsol turadi. Bular: Kuntug'di, Oyto`ldi, O`gdulmish, O`zg'urmish. Nomlarning sof turkcha ekaniga e'tibor qaratish kerak, chunki o'sha davrda hali tilimizga arabcha, "forscha so`zlar yopirilib kirmagan edi. Kuntug'di- vand kun demakdir. Bu so`zni siz eshitgansiz. Esingizda bo`lsa, xalq dostonlarining biri „Kuntug'mish" deb ataladi. Xalqimizda gap orasida

⁴¹ Kattabekov A., Yo`ldoshev Q., Boltaboyev H. Adabiyot. 8-sinf ushun darslik-majmua. Qayta ishlangan 5-nashri. – T.: O'qituvchi, 2005. – B. 62.

, „Rosa kuning tug’ibdi”, „Sen uchun kun tuqqan ekan-da” singari iboralar ishlataladi. „Kuntug’di” dostondaadolatni ifoda etadi. E’tibor qilaylik:adolat kun (quyosh)ga o’xshatilyapti. Hayotning manbai quyoshdir. U bo’lmasa, hayot bo’lmaganiday,adolat bo’lmasa, jamiyat ham yashay olmaydi. „Oyto’ldi” to’gan oy demakdir. U – davlat ramzi. Bu yerda ham chuqr mantiq bor. Oy to’ladi, kamayadi („shom yeysi”), shu jihatlari bilan davlatga (boylikka) o’xshaydi: davlat kengayadi-torayadi, boylik ko’payadi-ozayadi. „O’gdulmish” ziyrak, oqil ma’nolarini bildirib, aql ramzidir. „O’zg’urmish” sabrli, qanoatli demakdir, sabr-qanoat ramzidir.

„Qutadg’u bilig”da bu timsollar turli mavqedagi shaxslar qiyofasida namoyon bo’ladi. Chunonchi, Kuntug’di – podsho, Oyto’ldi – vazir, O’gdulmish – vazirning o’g’li, O’zg’urmish – vazirning qarindoshi o’rnidadir.

“Qutadg’u bilig” hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar.

Dostonda axloqiy va estetik qarashlar.

Doston 73 bobdan iborat bo’lib, 6500 baytni tashkil etadi. Asar u hagda ma’lumot beruvchi qisqa muqaddima bilan boshlanadi. So’ng Allohga “hamd”(maqtov) va payg’ambarga na’t” qismi keladi. Hukmdor Bug’raxon tavsifiga maxsus bob bag’ishlangan. Undan keyin olamming qurilishi, bilim ta’rifi, til odobi haqida ham alohida-alohida boblar bor. So’ng muallifning o’z-o’ziga murojaati, ezzulik amallari, uquv-idrok foydalari, kitobga nom berilishi haqida so’z yuritilib, gap elig (podsho) Kuntug’diga kelib taqaladi. Uning odil hukmdor sifatidagi ta’rif-tavsifidan so’ng, 12-bobdan e’tiboran asar voqeasi boshl'anadi.

Elig Kuntug’dming adolati haqidagi gaplar butun dunyoga taraladi. Har tomondan uning huzuriga odamlar kela boshlaydilar. Shular qatorida ko’p mashaqqatlar chekib Oyto’ldi nomli oqil va mard kishi ham keladi. Kuntug’di uni har tomonlama sinab ko’rib, adolati va sadoqatiga ishonch hosil qilgach, o’ziga vazir qilib oladi. Yurtda nizom va qoida ustuvor bo’lib, shu darajada adolat qaror topadiki, xazina oltinga to’lib, qo’zi bo’ri bilan yonma-yon omonlikda yashay boshlaydi. Lekin kunnlardan bir kun Oyto’ldi xastalanib vafot etadi. O’limi oldidan o’g’li O’gdulmishga Kuntug’di xizmatiga borishini vasiyat qiladi. O’g’li ulg’ayib, kamolga yetgach, podsho huzuriga borib, uning e’tibor va hurmatiga sazovorbo’ladi. Oyto’ldidan ham oqil va tadbirli chiqib, el-yurt ni yashnatib yuboradi. Tabiiyki, el-yurt kengayib, ishlar ko’payib boraveradi.

O’gdulmishga munosib yordamchi izlash ehtiyoji paydo bo’ladi. O’gdulmish bunga eng munosib nomzod O’zg’urmish ekanligini aytadi. O’zg’urmishning ma’nosi hushyor qiluvchi”, “sergaklantiruvchi” demakdir. Uning zohid qiyofasida ko’rinishida shu ma’noga uyg’unklik bor. U behuda ishlar bilan band bo’lish, har xil mayda-chuyda orzu-havaslarga ovunib qolishdan ogohlantiradi. Mudrab borayotgan tuyg’ularni sergaklantiradi. Dunyoda faqat davlat yoki aql bilan bitirib bo’lmaydigan ishlar ham borligidan, inson ko’nglida nozik tuyg’ular mavjlanib turishidan xabar beradi, shu tuyg’ularga beparvo bo’lmaslikka undaydi, hushyorlikka chaqiradi.

O'zg'urmish – qat'iy fikrli inson. U Eligning shaharga taklifini rad etadi. Garchi bu taklif uch marta takrorlansa-da, u fikrini o'zgartirmaydi. Faqat O'gdulmishning tushuntirishlaridan so'ng, ziyorat maqsadidagina Elig huzuriga boradi. Shunda ham u'saroyda biror martaoani qabul qilmaydi, faqat ularga o'gitlar beradi. Shu bilan kifoyalanib, yana o'z manziliga - tog' etagidagi g'orga qaytadi va shu yerda vafot etadi. O'zg'urmish" nazarida:

Tilagan qulini siylasa xudo,
Unga dunyo emas, yo'l berar a'lo.
Shuning-chun yaxshimas bu dunyo quti –
Xudodan yiratar, udir din yuti.

Ko'ringanidek, asar voqeasi kishini jalg qiladigan darajada qiziqarli emas. Asosiy gap dostondag'i to'rt personaj o'rtasida kechgan suhbatda. Bu suhbatlar haqida tasavvur hosil qilmoq uchun Oyto'ldi va Kuntug'di o'rtasida kechgan ilk uchrashuvlardan birini keltiraylik.

Kuntug'di bir kuni yolg'iz qolib, yoniga Oyto'ldini chaqirdi. Xonning qovog'i soliq, qo'lida pichoq, chap tomonida o'rog'un degan dori, o'ng tarafida bir kosa sharbat, o'zi uch oyoqli kumush kursida o'tiribdi. Xonaga kirgan Oyto'ldi podshoning avzoyini ko'rib qo'rqiб ketadi. Kuntug'di Oyto'ldining ishlaridan qanoatlan-mayotganidan darg'azab ekanini aytadi. Uni o'z huzuriga cha-qirishidan maqsadi odilona siyosat qarorgohini ko'rsatib qo'yish. Podshoh o'tirgan uch oyoqli kursi — rostlik. adolat timsoli. Uch oyoqli narsagini joyidan siljimaydi, qimirlamaydi. Agar bittasi siljisa, qolganlari ham turmaydi, yiqliladi. Xon qo'lidagi pichoq muammoni hal qilish ramzidir. Sharbat mazlumlarr, dori esa zolim nasibasidir...

Yusuf Xos Hojib ilmning jamiyatdagi o'rniga yuksak baho beradi. Uni insonlar yo'lini yorituvchi mash'alga qiyoslaydi. Olimlarni haqiqat ustunlari deb biladi. Shoир farzand tarbiyasiga alohida diqqat qaratadi. Masalan, Oyto'ldi o'limi oldidan o'g'li O'gdulmishga vasiyat qilar ekan, bolaga ilm-u hunar o'rgatish va xushaxloq qilib tarbiyalash otaning burchi ekanligini, o'g'il-qizning xulq-atvori yaramas bo'lsa, buning uchun ota javobgar ekanligini alohida ta'kidlaydi. Umuman, bu masalalarga shu qadar keng o'rin berilganki, ular oddiy salomlashishning ma'no-mazmunidan mehmon kutishgacha, hatto uylanishgacha bo'lgan fikr-mulohazalarni qamrab oladi.

Asar Yusuf Xos Hojibning o'z zamonusi ilm-fanidan xabardor, katta bilim egasi bo'lganligidan dalolat beradi. Masalan: borliq haqida fikr yuritar ekan:

Yaratti ko'r, avran tuchi evrulur,
Aning birla tezginch yema tezginur.
(Yaratdi falakni doim aylanar,
U birla bu charx ham tinmay tebranan) –

deb yozadi. Qizig'i shundaki, muallifning osmon yoritgichlari, jumladan 12 burj, 7 sayyora haqidagi kuzatishlari ilmiy jihatdan bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

„Qutadg'u bilig"ni vatan, el-yurt madhiyasi deb atash ham mumkin. Zero, asar to'laligicha turkiy xalqlarning davlat tuzilishi, el-yurt farovonligini ta'minlashga qaratilgan omillarning badiiy tahlilidan iboratdir. Ana shu fikrlarni bildirish jarayonida Yusuf Xos Hojib o'z vatanining chin oshig'i, o'z elining sadoqatli va fidokor farzandi sifatida namoyon bo'ladi. U asarda goh olam sirlaridan yaxshi xabardor mutafakkir, goh qadim moziy sarhadlariga nazari yetgan tarixchi, goh zamonasining turli sohalariga oid fanlardan puxta xabardor bo'lgan zukko olim va, tabiiyki, inson qobiliyatining turli-tuman manzaralarini inkishof etuvchi hassos shoir sifatida ko'rindi.

XI asrda xalq, el „budun", „bo'dun" atamalari bilan yuritilgan. Mamlakatning daxlsizligi, uning ravnaqi faqat budun bilanganadir. Shuning uchun ham:

Kiumung davlati bash ko'tursa o'ru,
Qamug' ezgu qilg'u budunqa to'ru.
(Kiumning davlati ziyoda bo'lsa,
U xalqqa mutlaq ezgu siyosat yuritishi kerak.)

Xalqning qanday bo'lishi mamlakat boshlig'iga to'la bog'liqdir:
Begi ezgu bo'lsa budun barcha tuz,
Bo'lur qilqi ezgu, yo'riqlari uz.

(Agar begi ezgu bo'lsa, bo'lar xalq to'g'ri, Qiliqlari ezgu, yo'riqlari soz.)

Shuni alohida ta'kidlash joizki, qadimgi turklarda vatan tu-shunchasi shu vatanga mansub bo'lgan xalq bilan birgalikda tasavvur etilgan. Ushbu tushuncha „el" so'zi bilan ifodalandi. „El" so'zi mamlakat, o'lka, xalq, saltanat, yurt tushunchalarini ifodalaydi. Uning „kun" so'zi bilan birga kelishi: „el-u xalq", „yurt", „vatan" tushunchalariga teng keladi:

O'zi yetti, tuzdi, ko'r, el-kun ishi, Taqi ma tilar erdi o'zrum kishi.
(El-u xalq ishini o'zi bildi va tuzdi,
U yana sara kishilarini tilardi.)

Yusuf Xos Hojib mamlakat mustaqilligini, vatan ozodligini el-yurt, xalq ozodligidan tashqarida ko'rmaydi:

Eki nang turur elka bag'i beki,
Biri – saqliq ul, biri – to'ru el ko'ki.
(Ikki narsa el uchun mustahkam bog'(ich)dir,
Biri – hushyorlik, biri –adolat, bular elning asosidir.)

Yusuf Xos Hojib nazarida Vatanga xizmat bu, avvalo, xalqqa, el-u yurtga xizmat qilishdir. Faqat shu yo'l bilangina Vatanning ozodligini, uning iqtisodiy, harbiy va siyosiy qudratini ta'minlash mumkin. Shu maqsadda adib XI asrdagi juda ko'plab ijtimoiy guruh va tabaqalarga tavsif beradi, ularning jamiyat va yurt oldidagi mas'uliyat va burchlariga alohida to'xtab o'tadi.

Yusuf Xos Hojib nazarida har bir shaxs jamiyatning og'irini yengillatishga urinmog'i kerak. Buning uchun esa har bir kishi o'z ishi bilan shug'ullanmog'i, halol, pokiza yashamog'i, o'zining tor shaxsiy manfaatlari

doirasida biqinib qolmasdan el-yurt manfaatlarini ustun qo`ya oladigan darajaga ko`tarilmog'i shart. Buning yo`li o`qish, o`rganishdir:

Yula-ul uqush, ko'r, qarag'uka ko'z,

O`lug tanga janul, ag'in tilqa so'z.

(Uquv-idrok bir mash'aldir, ko`rgin, nobinoga ko'z. O`lik tanlarga jon va lol tillarga so'z.)

Uquv-idrok kishi ko`nglini boyitadi. Ko`ngli boy kishi esa himmat-muruvvatli, sofdil, odil bo'ladi. Aksincha, bilimsiz, uquv-idroksiz kishilarni tiriklar qatoriga qo'shish qiyin. Shuning uchun ham bilimga intilish, o'zini bilim bilan poklashga urinish chin insoniy fazilatdir.

Shoirning siyosiy qarashlari, xususan, bek va raiyat munosabatlari borasidagi fikrlari kishini hayratga soladi. Uningcha, bek o'zi boshqaradigan mamlakatning timsolidir. Shu sababli, u jismoniy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham yetuk inson bo`lmog'i kerak. Adibning o'yiga ko'ra, hukmdor o'rta bo`yli, ko`rkam, xushmuomala va albatta, aqli bo'lishi lozim. Muallif, ayniqsa, bekning chuqur bilimga ega bo'lishini shart qilib qo'yadi. Bilimni ideallashtiradi, hatto „bek" so'zining o'zidan ham „bilim" ma'nosini qidiradi. Chunonchi:

Bek oti bilig bila bag'lig' turur,

Bilik lomi ketsa bek oti qolur.

Arab yozuvida „bilig" so`zidan o`rtadagi „l" („lom") olib qo`yilsa, „beg" bo`lib qoladi. Shoir bekning bilimli bo'lishi lozimligini mana shu tarzda ifodalaydi. Shoir bular bilan ham cheklanmaydi. Uningcha, bek bo'lish uchun bular ham kifoya emas, u yuqorida ko`rsatilgan ko`plab fazilatlarga ega bo'lishidan tashqari, zoti ham aslzoda bo'lishi kerak. Bu ham kifoya qilmaydi. U bek bo`lib tug'ilmog'i lozim. Adib insonlar ustidan hukm chiqaradigan kishining shu qadar noyob, salkam ilohiy bo`lmog'ini orzu qilgan edi.

Yusuf Xos Hojib bek va xalq munosabatlari haqida fikr yuritganda, ovozasi zamonasidan juda ilgarilab ketadi, ijtimoiy shartnomaga masalasini o`rtaga qo'yadi. Jumladan, raiyat – xalq hukmdor oldiga uch shartni qo'yishga haqlidir: pulning qadrini saqlash, adolatli siyosat yuritish, yo'llarni qaroqchilardan saqlash:

Biris – elingda arig' tut kumush,

Iyarin ko`zazg'il, ye bilgi o`qush.

(Biri – mamlakatda oltinning sofligini saqlash, nazorat qilib turishdir, ey dono kishi.)

Taqi bir – buzunqa to'ru ber ko`ni,

Ko'tur bir ekidin kuchin ko'r, ani.

(Biri – xalqqa odil siyosat yurit, Jabr-zulmni o`rtadan ko'tar, ezgu yo'l tut.)

Uchinchi – emin tut, qamug' yoilarig',

Qarag'chig', sabarchig' aritg'il arig'.

(Uchinchi – emin tut jami yo'llarni, Qaroqchi va yo'lto'sarning qo'yma birini.)

Ayni paytda, hukmdorning ham xalq oldiga qo'yadigan talablari bo'ladi. U ham xalqdan uch narsani talab qilishga haqli: birinchidan, farmonlar, qonunlar aziz tutilishi va so'zsiz bajarilishi lozim:

Biri – yarlig'ingni ag'ir tutsalar.

Neku ersa terkin, ani qilsalar.

(Biri – yorlig'ingni aziz tutsalar,

Nima bo'lsa, darhol uni qilsalar.)

Ikkinchidan, soliqlar vaqtida to'lab turilishi kerak:

Ekinch – tizmasalar xazina haqi,

O'zinda tegursa, ey elchi aqi.

(Ikkinci – xazina haqin tiymasa,

Kezi kelgach, darhol uni to'lasa.)

Uchinchidan, xalq hukmdorning do'stini do'st, dushmanini dushman bilishi kerak:

Uchunchi – yag'iqa yag'i bo'lsalar,

Sevaring kim ersa, ani sevsalar.

(Uchinchi – yovingning yovi bo'lsalar, Sevaring kim ersa, uni sevsalar.)

Ijtimoiy shartnoma jamiyat osoyishtaligini, el-yurt ravnaqini ta'minlashdagi buyuk omil edi. Yevropada bu masalalar XVIII asrda fransuz adibi Jan Jak Russo asarlarida o'rtaga qo'yilgan edi. Shu jihatdan, Yusuf Xos Hojibning jamiyat barasidagi bu fikrlari o'sha davr uchun o'ziga xos inqilob edi. Shoir yashagan zamонни hech bir jihatdan osoyishta deyish mumkin emas edi. Quyidagi ishoralarga e'tibor qiling, muallif nimalarga diqqatni qaratadi?

Kichigda adah yo'q, ulug'da - bilig,

O'tunlar o'qush bo'ldi, yitti silig.

(Kichikda odob yo'q, kattada – bilim, Pastkashlar ko'paydi, ezgu yo'qoldi.)

Kishi barcha yarmoq quli bo'ldilar...

(Barcha odamlar pul quliga aylandilar.)

Musulmon qarishti, ichin et eshur.

(Musulmonlar urushib, bir-birining etini g'ajimoqda.)

Otalik qilur, ko`rataqa o'g'il,

O'g'ul bek bo'lib, ko'r, ata bo'ldi qul.

(Otalik qilur, ko'r, otaga o'g'il,

O'g'il bek bo'lib, ota bo'ldi qul.)

Ajun bo'ldi oxir, to'ru artadi...

(Dunyo oxir bo'ldi, tartib buzildi.)

Bularni tuzatish, o'rniga qo'yish uchun ma'rifat kerak edi. Ma'rifatni yoymoq, jamiyat bag'riga singdirmoq uchun sharoit kerak edi. Sharoitning birinchi belgisi osoyishtalik, undan keyin esa, el-yurt ravnaqi, obodlik, farovonlik edi. Bek bilan raiyat (xalq) o'rtasidagi shartnoma osoyishtalik va el-

yurt ravnaqini ta'min etmog'i lozim edi. „Qutadg'u bilig" – badiiy asar. Uning badiyliги асарнинг she'riy yo'lда, doston shaklida yozilganligidagina emas. Asar katta badiiy mahorat bilan yozilgani, unda teran fikr va g'oyalari yuksak san'atkorlik bilan ifoda etilgani uchun badiiydir. Shoirning doston muqaddimasida: „Bu turkcha qo'shuqlar tuzattim senga. O'qurda unutma, duo qil menga" deb yozgani bejiz emas. U chindan ham buyuk ajdbdimizning flison qanday bo'lmosi, qanday yashamog'i kerakligi haqidagi, turkona ideal turmush to'g'risidagi turkiy qo'shig'idi. Asar garchi tugal masnaviyda yozilgan bo'lsa-da, o'rni-o'rni bilan keladigan to'rtliklar, qasida, tuyuq, hatto muammo janriga xos unsurlar bu „qo'shiq"ning serohangligini ta'minlaydi. Doston boshdan-oxirigacha ikki bir-birini inkor etuvchi ohang (motiv) asosiga qurilgan. Bu yaxshilik („ezgu") va yomonlik („esiz")dir. „Ezgu" inson uchun ziynatdir, „esiz" illatdir.

Shoir so'z tanlashga alohida e'tibor qiladi, har bir so'zning ma'no va ohang tovushlarini nozik his etadi. Eng muhimi, kam so'z bilan ko'p ma'no ifodalashga harakat qiladi:

O'gush so'zlama so'z, biror so'zla oz,
Tuman so'z tugunin bu bir so'zda yoz.
(So'zni ko'p so'zlama, biroz so'zla oz,
Minglab so'z tugunini shu bir so'zda yoz.)

Asarda badiiy ifoda yetakchi o'rin egallaydi. Muallif aniq, yorqin o'xhatishlar orqali ta'sirchan manzaralar yaratish, fikrni jozibali ifodalashga harakat qiladi.

Bo'dum erdi o'qteg, ko'ngul erdi ya,
Ko'ngul qilg'u o'qteg, bo'dum bo'ldi ya

(Qaddim o'qdek edi, ko'nglim esa yoy, Ko'ngulmo'qdek qilguncha, qaddim bo'ldi yoy) satrlarida umrning o'tkinchiligi, hayotning mashaqqatlarga to'laligi, dunyoning armonli dunyo ekanligi yorqin manzaralarda aks etmoqda. Qadning turli munosabat bilan o'q va yoyga o'xhatilishi Xos Hojibdan so'ng mumtoz adabiyotimizda an'anaga aylandi. Ko'ngil esa ungacha ham, undan keyin ham na o'qqa va na yoyga o'xhatildiki, bu shoirning yuksak iqtidoridan dalolatdir.

„Qutadg'u bilig"ning „Kirish" qismida, bahor madhiga bag'ishlangan maxsus bob mavjud. U shunday boshlanadi:

Tug'ardin esa keldi o'ngdun yeli,
Ajun etguka achiq umjah yo'li.
(Kun chiqishdan erta ko'klam shamoli esa boshladni,
Olamni bezash-chun jannat yo'lin ochdi.)

Yusuf Xos Hojib bahor tasviriga alohida e'tibor beradi. Tasvirlarda adibning nozik kuzatishlari, hassos va sezgir qalbi ko'rinish turadi.

Yusuf Xos Hojib tasvirida qushlar ham o'quvchi ko'z oldiga yaqqol keladi: „Uchar qush kukular o'z eshi tomon, Go'zal qiz oshig'in chorlagansimon". Yoki adib kaklikning og'zi va qoshigacha aniq tasvirlagan: „Qo'shiq aytdi kaklik go'zal tog' ora, Qizil og'zi qondek, qoshi qop-qora".

Qora zog' hamda bulbul eslatilgan o'rirlarda ham tasvirdagi takrorlanmas o'ziga xoslik ko'zga tashlanadi. Bu misralarda adib o'xshatish, sifatlash, jondanitirish, shuningdek, tazoddan ham unumli foydalangan:

Qovoq solib osmon ko'zi yosh sochar,
Chechak-maysa quvnoq kulib yuz ochar.

Bu yerda qovoq solish, ko'zdan yosh sochish quvnoqlik va kulib yuz ochishga ziddir. Aslida bu yerda yana bir yashirin vosita – qarshilanitirish ham bor. U osmon-yer zidligidir. Bu o'rinda yer tushunchasini faqat „chechak-maysa" anglatmoqda.

Shoir Bug'roxon madhiga o'tishdan oldin tabiatni bor go'zalligi, chiroyi, tarovati bilan aks ettiradi. Uning eng nafis, ayni paytda, dilkash tomonlariga diqqatini qaratadi. Ularning ko'tarinki ruhdagi tasviri Bug'roxon shaxsiyatini ta'riflashga bo'ysundiriladi. Ularda shoirning o'zini qurshab turgan turli narsa-hodisalarни kuzatish qobiliyati, o'tkir zehni va ziyrakligi o'z aksini topgan. Bahor haqidagi ko'tarinki misralar Bug'roxon madhiga zamin tayyorlagan. Keyingi misralarda Bug'roxon ezgu vaadolatli shaxs sifatida sharaflanadi. Uning ko'plab ijobjiy fazilatlari sanab o'tiladi. Biroq bular Bug'roxonning tarixiy – aniq shaxs sifatida emas, adabiy qahramon sifatidagi tasviridir. Maqtov manbaidagi turli ijobjiy xislatlarni bo'rttirib tasvirlash qadimgi turkiy yodnomalar: Kultegin, To'nyuquq, Bilga xoqon bitiktoshlarida, shuningdek, „Devonu lug'otit turk"da ham asosiy o'rın tutadi.

Asarda Bug'roxonning xislatlari bilvosita, ya'nii tabiiy hodisalar orqali tasvirlanadi. Hatto momaqaldiroq guldurashi va yashin chaqnashi ham u haqidagi muayyan fazilatlar (qudrat va buyuklik) alomati kabi yangraydi. So'ng bevosita tasvirga o'tiladi:

Olam tutdi Tavg'ach ulug' Bug'roxon,
Ato bo`lsin unga bu ikki jahon.

So'ng uning dunyo jamoli, sharafga chiroy, baxtga tayanch, qorong'u kechaga oy, baxt va taxt egasi ekanligi tilga olinadi. Bug'roxonni qurshab turgan olam ham uning madhi bilan band. Buning sababi shoir talqinida quyidagicha:

Olam osoyish-u siyosat odil –
Xoqonning nomi ham o'sar muttasil.
Jafosiz, vafoli kishi istasang,
Yuziga boqa ko'r – vafo birla shan.

Bug'roxon fazilatlarga boy kishi. Shuning uchun ham ezgu niyatli kishilar uning atrofidan ketmaydi. Shoirning ham bu yerda bo'lishi tasodifiy emas:

Senga tuhfa garchi talaydir, Elig,
Meningdin qabul qil „Qutadg'u bilig".
Ular tuhfasi, bil, kelar ham borar,
„Qutadg'u bilig"-chi, u mangu qolar.

Demak, bahor tasviri shoir uchun qalb tug'yonlarini, tabiat manzaralari tufayli hosil bo'ladigan tuyg'ular to'lqinini aks ettirishga imkon bo'lib

qolmasdan, ayni paytda, yanada jiddiyroq voqealarni tasvirga tortish vositasi hamdir. Tabiat tasviri asosida inson ruhiyatidagi nozik o'zgarishlar, qalb kechimmalari, hatto yirik ijtimoiy hodisalarga beriladigan baho yashiringandir.

„Qutadg'u bilig"da ilgari surilgan g'oya va fikrlar hanuzgacha o'z ahamiyatini saqlab keladi. Chunki u insonlik haqida, uning insondek yashamog'i haqida edi. Inson bor ekan, bu fikrlarga ehtiyoj bo'ladi. Doston salkam ming yil oldin turkiy tilda yozilgan, turkona aytilgan edi. Shu sababli u biz, Yusuf Xos Hojibning vorislari uchun g'oyat qadrlidir.

Nazorat uchun savollar:

1. Yusuf Xos Hojib hayoti haqida qaysi manbalardan bilib olamiz?
2. „Qutadg'u bilig“ qanday ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar yoritilgan?
3. Dostonda qaysi janrlarning turkiy adabiyotdagi ilk namunalari uchraydi?
4. Qasida janri haqida ma'lumot bering.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqulov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o'quvchilari uchun darslik). – T.,2000.
7. Тўхлиев Б. Моддий ва маънавий ҳаёт уйғунлиги ЮСУФ ХОС ҲОЖИБ ТАЛҚИНИДА. 1-китоб – Тошкент, 2010. 64 б.
8. Ҳасанова М. XV аср биринчи ярмида қасидачиллик анъанаси // ЎТА, №1,2013. – 59-61-бетлар.
9. www.ziyonet.uz
10. <http://kh-davron.uz>

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Xos Hojib Yusuf. Qutadg'u bilig. To'ttliliklar. (Nashrga tayyorlovchilar: B.To'xliyev, Q. Sidiqov, S.Ibotov) – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 128 b.
2. Қадимги туркий тил лугати (Х-XII асрлар): “Девону луготи-т- турк”, “Қутадғу билиг”, “Хибату-л-хақойик” асарлари бўйича/ Тузувчи :ф.ф.н.Қ.Каримов. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009.
3. Юсуф Баласагунский. Благодатное знание / Издание подготовил С.Н. Иванов – Москва: Наука, 1983. 557 с.
4. Содиков З. “Қутадғу билиг” таржималарининг киёсий-типологик таҳлили. - Т.: Фан, 2007. 170 б.
5. Мансурова Д. “Қутадғу билиг” асарида “ижтимоий” лексема тадқики//Хориж filologiya.2012, №1.
6. Ибодов С. “Қутадғу билиг”даги айрим метафоралар таржимаси хусусида//ЎТА, 2010,№1. – 84-86-б.
7. Абдурахмонов F. “Қутадғу билиг”нинг илмий-танқидий матнини тузиш ҳакида//ЎТА, 1997, №1. – 25-29-б.
8. Акрамов Қ. Миф ва ёзма адабиёт муносабатига доири//ЎТА, 1996, №5. – 56-58-б.
9. Иботов С. “Қутадғу билиг”нинг бир таржимаси хусусида//ЎТА, 2007, №5. 71-73-б.
- 10.Юсуф Хос Ҳожибининг “Қутадғу билиг” асари илмий-танқидий матни // // ЎТА, №4, 2010. 125-135-бетлар.

ADIB AHMAD YUGNAKIY IJODI

Reja:

1. Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari.
2. Adib Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi.
3. "Hibatu-l-haqoyiq" asari.
4. Asar mavzui va tarkibi.
5. Asarning badiiy xususiyatlari.

Tayanch iboralar: *hadis*, "Atebatul haqoyiq", "Nasoyim ul-muhabbat", "Hibat ul-haqoyiq", tasavvuf, ilm-ma'rifat, nafs, didaktik asar.

Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari.

Ahmad Yugnakiy didaktik adabiyotning Yusuf Xos Hojibdan keyingi mashhur vakilidir. U XII asr oxiri – XIII asr boshlarida yashab ijod qilgan. Shoир ko'проq „Adib Ahmad“ nomi bilan shuhrat topgan. Navoiy o'зining „Nasoyim ul-muhabbat“ asarida Ahmad Yugnakiy haqida maxsus to'xtalgan. Buyuk shoир, avvalo, uning "turk eli" dan ekanligini ta'kidlaydi. So'ng u haqda tarqalgan naqllardan keltiradi: „Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g'arib (ajoyib, qiziqarli) nimalar manquldur (naql qilingan). Derlarki, ko'zlari butov (tamom bitib ketgan, yopiq) ermishki, aslo zohir ermas ermish (ochilmasmish). Basir (ko'rmaydigan) bo'lub o'zga basirlardek andoq emas ermishki, ko'z bo'lg'ay va ko'rmas bo'lg'ay".

Shuningdek: „..aning tili turk alfozi (so'zlari) bila mavoiz (va'zlar) u nasoyih (nasihatlar)g'a go'yo (biyron, yetuk) ermish. Xeyli elning muqtadosi ermish. Balki aksar turk ulusida hikmat va nuktalari shoye'dur. Nazm tariqi bila aytur ermish:

Ulug'lar ne bersa, yemasman, dema,

Ilik sun, og'iz ur, yemasang yema

So'ngakka ilikdur, eranga bilik,

Biligsiz eran – ul iliksiz so'ngak" baytlarini keltiradi.

Navoiy otasiga qarshi isyon qilgan Badi'uzzamonga yozgan maktubida ham Adib Ahmadning bir to'rtligini keltiradi:

Atodin xato kelsa, ko'rma xato,

Savob bil xato toki qilsa ato.

Atoning xatosini bilgil savob,

Seni yuz balodin qutqarg'ay Xudo.

Adibning bizga qadar yetib kelgan „Hibat ul-haqoyiq“ kitobiga bitilgan ilovada „Tug'a ko'rmas adibning ko'zi degan qayd bor. Bu Navoiy fikrlarni tasdiqlaydi. Shuningdek, Navoiy uning bir muddat Bag'dod atrofida yashagani, o'z davrining mashhur imomlaridan biri darsiga qatnagani va ustozи uning zehni hamda salohiyatiga yuksak baho bergani haqidagi naqlni keltiradi.

Yugnakiyning umr bayoniga doir ma'lumotlar nihoyatda kam. Shoirning „Hibat ul-haqoyiq“ asarining o`zida bu haqda ayrim chizgilargina mavjud:

Adib Ahmad ayttim, adab, pand so`zim,
So`zum munda qalur, barur bu o`zum.

Demak, muallif o`z nomini Ahmad deb tanishtirmoqda. Adib —uning ijodkorligiga ishora. Ehtimol, bu xalq orasidagi mashhurlik belgisidir. Adib Ahmadning tug'ilgan yeri, otasi haqidagi ma'lumotlar yuqorida tilga olingan kitobiga yozilgan ilovada uchraydi:

Adibning yeri oti Yugnak erur,
Safoliq ajab yer, ko`ngillar erur.
Atosi oti Mahmudi Yugnakiy,
Adib Ahmad o`g`li, yo`q ul hech shaki.

She`rda adibning tug'ilgan yeri ko`ngillarni yayratadigan go`zal bir maskan ekanligi, nomi Yugnakligi qayd etilayapti. Yugnak yoxud Yuglnoq shahrining qayerda joylashganligi haqida har xil fikrlar bor. Bunday nomdagagi shahar uch joyda uchraydi: Samarqand atrofida, Farg`ona vodiysida? Turkiston (Qozog`iston) da. Adib Ahmadning bu uch Yugnakdan qaysi birida yashab o`tgani haqida aniq ma'lumot yo`q. Ayrim manbalarda bu shaharning qadimgi nomi Sig`noq bo`lib, Samarqand yaqinida deb ham ko`satiladi.

Adib Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining o`rganish tarixi.

Bizga qadar yetib kelgan kitobining nomi „Hibat-ul haqoyiq“ bo`lib, ma`nosi „Haqiqatlar armug`oni“dir. Kitob uch nusxada yetib kelgan. Nusxalar bir-biridan kichik farqlarga ega. Ulardan eng eskisi Samarqandda Zaynul Obidin degan xattot tomonidan uyg`ur yozuvida ko`chirilgan bo`lib, 1444-yilda Turkiyaga borib qolgan. 1480- yilda Abdurazzoq baxshi degan kishi O`rta Osiyodan Turkiyaga borib, ushbu kitobdan arab va uyg`ur yozuvida 2 nusxa ko`chirgan. Har uch nusxa Istanbulda saqlanadi. So`ngroq yana ikki nusxasi topilib, hozirda kitob qo`lyozmasining besh nusxasi mavjud.

Zaynul Obidin nusxasida kitobning nomi “Atebatul haqoyiq” („Haqiqatlar eshigi“) deb berilgan. Shu sababli, uni Turkiyada ko`proq shu nom bilan ataydilar. Undan ko`chirilgan nusxalarning birida „Aybat ul-haqoyiq“, ikkinchisida „Hibat ul-haqoyiq“ deb yozilgan. Asar o`zbek adabiyotshunosligi fanida „Hibat ul-haqoyiq“ nomi bilan shuhrat topdi. Uni o`rganishda olimlarimizdan Qayum Karimov, Qozoqboy Mahmudovlarning xizmati katta bo`ldi.

Mutaxassislar asarning paydo bo`lish tarixini XII asrning. Oxirlari deb belgilaydilar. Kitob muallif zamondoshi Pod Sipohsolor bekka bag`ishlangan. Sipohsolor – bosh qo`mondon degani. Lekin bu bosh qo`mondonning qachon, qayerda yashagani ma'lum emas. Kitob so`ngida kotib Zaynul Obidin asar va uning muallif haqida ma'lumot beradi. Chunonchi, unda quyidagi satrlar bor:

Kitobining oti erur „Hibat ul“,
“haqoyiq” bo`lubdur arabtin o`shul.
Tamomi erur koshg`ariy til bila,
Ayitmis adib riqqati til bila.

Agar bilsa koshg'ar tilin har kishi,
Bilur ul adibning nekim aymishi.

Bu so'zlardan shu narsa anglashilyaptiki, kotib — xattot turkiy bo'limgan so'zlarning, ya'ni arabchaning kitoblarga kirib kelayotganini yaxshi anglaydi. Haqiqatan ham, bundan bir asr oldin yozilgan Yusuf Xos Hojib asari „Qutadg'u bilig" turkcha nomlangan edi. Ahmad Yughnakiyning kitobi esa arabcha ataldi. Mutaxassislар uning ich matnida ham 15–20 foizgacha arabiy-forsiy so`zlar uchrashini ta'kidlaydilar. Bu shuni ko`rsatadiki, XII–XIII asrlardan boshlab turkiy adabiy tilda arabcha so`zlar ko`payib borgan. Ikkinchи tomondan, koshg'ariy tili shu davr adabiy tilining ko`rkam namunasi ekanligiga ishora qiladi. Koshg'ar tili degani uyg'ur tili emas, albatta. Mahmud Koshg'ariy ham Koshg'ar (Koshg'ardan), lekin uning butun ijodi va faoliyatи turkiy tillar tadqiqiga qaratilgan, „Devonu lug'otit turk" esa, X–XI asrlardagi barcha turkiy tillarning qomusi edi. Hattot – kotibning asarga qilgan ilovasidagi fikrlarni shunday tushunmoq kerak.

Asar muallifi va yozilishi ham kishini qiziqtiradi. Agar adib Ahmad „tug'a ko'rmas" bo`lsa, asarini qanday yozgan? Bu borada turli fikrlar mayjud. Ulardan eng haqiqatga yaqin bo`lgani shuki, shoir boshqa bir kishiga aytib turib yozdirgan. „Hibatul haqoyiq" hajman unchalik katta emas: bor-yo`g'i 256 bayt (512 satr)ni tashkil qiladi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, „Qutadg u bilig"da ozmi-ko`pmi sujet – voqeа bor edi, bunda u ham yo`q. „Hibat ul-haqoyiq" boshidan oxirigacha ta'rif-tavsifga qurilgan asar.

Alisher Navoiyning e'tirof qilishicha, Ahmad Yughnakiyning hikmat va pandlari turk ulusi orasida juda mashhur bo`lgan. Shoir yuqorida shulardan ikkitasini keltirgan:

Ulug'lar ne bersa, yemasman dema,
Ilik sun, og'iz ur, yemasang yema.
So`ngakka iliktur, eranga - bilik,
Biliksiz eran - ul so`ngaksiz ilik.

Birinchi bayt ulug'larga ehtirom haqida. „Ulug'" so`zining ma'nosi ancha keng. Asl ma'nosi "katta" bo`lsa-da, ko`pincha, yoshi katta, qadri baland, hurmatga sazovor, mavqeyi yuksak kishilarga nisbatan ishlatalidi. Asosiy fikrga keladigan bo`lsak, gap dasturxon odobi vositasida tushuntirilmoqda. Chunonchi, ulug'lar bir narsa bersalar, yemayman dema; yemasang ham qo'l ur, yegandek bo'l. Kengroq mazmunda tushuntiradigan bo`lsak: yoshi katta, tajribali, dunyo ko`rgan kishilarning gaplarini qulog'ingga ol, aytganlarini qil, hech bo`lmasa, ular haqida o`ylab ko'r. Chunki ular ma'nisiz, keraksiz gapni gapirmaydilar.

Ulug' Navoiy tomonidan Ahmad Yughnakiya nisbat berilgan bu bayt „Hibat ul-haqoyiq"dagи 256 bayt orasida yo`q. Ehtimol, bu uning bizga yetib kelmagan boshqa asarlaridan olingandir. Lekin uning vazni, uslubi shundoqqina Adib Ahmadga tegishli ekanligini ko`rsatib turibdi. Keyingi baytda bilimning qadri va o'mi chiroyli bir o'xshatish bilan ko`rsatib berilmoqda. Chunonchi: suyakning qimmati uning ichida iligi borligida,

odamning odamligi bilimi borligida. Bilimi yo`q odam iligi yo`q suyak kabitidir. Iligi yo`q suyak esa, keraksizdir. Unga qo`l urilmaydi. Bilimning ahamiyatini bunday tushuntirish har jihatdan asosli va uni ko`z oldimizga keltirish qiyin emas. Ayniqsa, hayotlarida chorvachilik muhim o`rin tutgan ajodolarimiz uchun.

“Hibatu-l-haqoyiq” asari. Asar mavzui va tarkibi.

Bilimning foydasi, jaholatning zarari haqidagi o`zaro muqoyasali tasvir asarning asosiy qismini egallaydi. Shoир kitobning kirish qismlari — hamd, na't va choryorlar madhidan so`ng Sipohsolor maqtoviga va shundan keyinoq ilm haqidagi fikrlarga o`tadi. Uning fikricha, baxtga yetishishning yo`li bitta, u "Ham bo`lsa ilmdir. Shoир bunga qiyoslar keltiradi. Masalan: ilmlining o`zi o`lganda ham nomi o`lmaydi. Ilmsiz tirk o`likdir, o`zi hayot bo`lsa ham nomi o`likdir. Nom kishini yuksakka ko`taradi, ilmsizlik tubanlashtiradi va hokazo.

Kitobda salmoqli o`rinni odob-axloq masalalari egallaydi. Ahmad Yughakiy fikricha, odob tilni tiymoqdan boshlanadi:

Eshitgil, biliklik negu teb ayur,

Adablar boshi til kuzazmak turur.

(Ilmli kishi nimalami so`zlaydi, sen unga qulq sol. Adablar boshi tildir, uni tiymoq zarur.)

Shu bois, shoир til odobiga alohida e'tibor beradi:

Tiling bekta tutg'il, tishing simmasun,

Qali chiqsa, bekta tishingni siyur.

(Tilingni tiy, tishing simmasin,

Agar o`ylamay so`zlab yuborsang, tishingni sindiradi.)

Keyingi satrlarda u burring sabablarini ochishga harakat qiladi:

Sonib so`zlagan er so`zi sog'i,

O'qush yangshag'an til ayalmas yog'i.

(O`ylab so`zlagan kishining so`zi to`g'ridir,

O`rinsiz ortiqcha vaysagan til ayovsiz yovdir).

So`zung bo`sslug' esma, yig'a tut tiling. Yetar boshqa bir kun bu til so`z bo`shi.

(So`zlarining achchiq qilma, tilingni tiy,

Achchiq, tiyiqsiz til bir kuni boshingga yetadi.)

Shoир bu fikrni keyingi misralarda yanada kuchaytiradi:

Xiradliqmu bo`lur tili bo`sh kishi,

Telim boshni edi bu til so`z bo`shi.

(Tili achchiq kishining aqli yetuk bo`ladimi?

Til va so`z zahari ko`p kishilarining boshini yedi.)

Demak, behuda so`zdan, achchiq tildan saqlanmoq kerak. Behuda so`z obro`ni to`kadi, achchiq til boshga yetadi. Kam so`zlamoq bilan birlgilikda to`g'ri so`zlamoq kerak. To`g'ri so`z tilning bezagidir. Shoирning to`g'ri va yolg'on so`zlar uchun qo'llagan o`xshatishlari ham e'tiborni tortadi. To`g'ri

so`z yoqimli bo`lganidan uni shirinliklarning eng yaxshisi – asalga, yolg'on so`zning achchiq ta'sirini esa yovvoyi sarimsoq piyoz (basal)ga qiyoslaydi. Yugnakiy bu bilan kifoyalanmasdan to`g'ri va yolg'on so`zni tinglovchi ko`zi oldida yanada aniqroq gavdalantirishga urinadi. Bu maqsadda kasallik va uning davosi bilan bog'liq o`xshatishlarni keltiradi. Bunda yolg'on so`z dard, kasallik, to`g'ri so`z esa uning davosiga qiyoslanadi:

Ko`ni so`z asalteg, bu yalg'an - basal,

Basal yeb achitma ag'iz, e asal.

Bu yalg'an so`z igitteg, ko`ni so`z - shifa,

Bu bir so`z o`zag'i urulmish masal.

(To`g'ri so`z asal kabitdir, yolg'on (so`z) sarimsoq piyozdir,

Sarimsoq piyoz yeb og'izni achitmay, asal yegin.

Yolg'on so`z kasallik kabitdir, chin so`z shifodir,

Bu so`z to`g'risida (qadimda) shunday maqol to`qilgan.)

So`zni o`z o`rnida qo`llash – nozik san'at. Uning nazokatini teran anglash uchun, eng avvalo, bilim hamda bilimdonlik, zukkolik kerak. Bilimli odam so`z qo`llash me'yorlarini ham biladi, undagi ma'no nozikliklarini yaxshi his qiladi. Bilimsiz esa so`zni pala-partish ishlataveradi, u ifodalangan ma'noning kishi qalbiga, ruhiy olamiga ta'sirini nozik anglashdan mahrum. Har kim ko`rgilikni tilidan ko`radi, deb ta'kidlanishiga sabab ham aslida shu bilan bog'liq:

Neki kelsa erka tilitin kelur,

Bu tiltin kim ezgu, kim aqir bo`lur.

(Kishi boshiga tushgan har qanday ish uning tili tufayli sodir bo`ladi,

Bu til sababli ayrimlar yaxshilik, ba'zilar hurmat ko`radi).

Eshit, but bu so`zga qamug' tengda teng,

Ko`zub, tilga yuknub tazarru qilur.

(Bu o`git-nasihat barchaga teng,

Ular so`zni hurmatlab, tilga yukanadilar.)

Shoir so`zni to`g'rilikka burib, to`g'riso`zlik va to`g'rilikni ulug'laydi:

Ko`ni bo'l, ko`nilik qil, atan ko`ni,

Ko`ni tiyu bilsun xaloyiq seni.

(To`g'ri bo'l, to`g'ri ish qil, to`g'ri deb nom chiqar. Xaloyiq seni to`g'ri deb bilsin.)

Asarning maxsus bir bobi dunvo va umr haqidagi falsafiv kuzatishlarga bag'ishlangan. Shoir dunyonи odamlar bir qo`nib o'tib ketadigan karvonsaroy (robot) deb tushuntiradi. Unga qanchadan-qancha karvonlar kelib ketaveradilar. Shu sababli, mol-dunyo orqasidan quvish aqlli kishining ishi emas. Bu dunyo boyligidan yegulik, kiyulgulik bo`lsa yetarli, ortiqcha tilama. Dunyo bir qo`li bilan asal tutsa, ikkinchi qo`li bilan zahar tutadi. Bu dunyo – ilon. Avraydi, aldaydi, qo`yningga kirib oladi va zahrini quyadi. Unga ko`ngil bermoq aqldan emas. Baxt – omonat. U qushdek uchib yuradi. Hech kimning boshida uzoq turmaydi.

Adibning bu muqoyasalari mol-dunyo uchun olib boriladigan qirg' inbarot urushlarga, zulm-zo' ravonlikka dashnom edi. Shuning uchun ham u saxiylikni insonlikning eng muhim belgisi deb biladi. Baxilni qoralab, saxiyni ulug'laydi:

Axi bo'l, sanga so'z so'kunch kelmasun,
So'kunch kelgu yo'lni axilik tiyr.

(Saxiy bo'l, senga la'nat kelmasin, saxovat la'nat yo'lini berkitadi.) Uningcha, saxiy har qanday tosh ko`ngilni ham erita oladi. Nimani tilasa, erisha oladi. Ular o`zlaridan yaxshi nom qoldiradilar va bu nom tufayli uzoq yashaydilar. Baxillar esa, o'z mollarini harom bilan yig'adilar va hamisha la'nat ostida qoladilar. Baxillik dori bilan tuzatib bo`lmaydigan kasallikdir. Baxillik harislik (mol-dunyoga hirs qo'yish) bilan yonma-yon yuradi. Baxil mol-dunyoga quldir. Saxiya esa mol-dunyo quldir. Kishilar saxiyni sevadilar. Baxil yemay-ichmay mol-dunyo to`playdi va to`plagani boshqalarga, ko`pincha, dushmaniga buyuradi.

Adibning fikricha, muhim insoniy sifatlardan biri muloyimlik, keng fe'llikdir. Dunyoda manmanlikdan, takabburlikdan yomon narsa yo`q. Kibr manmanlik belgisidir. Eng go`zal insoniy fazilatlardan biri boshqalarga marhamat ko`rsatish, lutf-u karamadir:

Yemishsiz yig'ochtek karamsiz kishi,
Yemishsiz yig'ochni kesib, o`rtagil.

(Birovlaiga himmat, marhamat ko`rsatmaydigan kishi mevasiz daraxt kabitdir, Mevasiz daraxtni kesib yondirgin.)

Yusuf Xos Hojib singari adib Ahmadning ham eng katta orzularidan biri el-yurt osoyishtaligi bo`lgan. U zulm-zo' ravonlikning dushmani edi. Aslida zulm qur'on va hadisda ham qoralanadi. Shoir fikrini xuddi shu nuqtadan davom ettiradi, payg' ambarimizning bu boradagi hadislarini sharhlaydi:

Jafo qildachingg'a yanut qil vafo,
Arimas, necha yuvsa, qon birla qon.

(Jafo qiluvchiga sen vafo bilan javob qil, qonni qon bilan qancha yuvsa ham toza bo`lmaydi).

Kuch emgak tegurma kishiga qali,
Agar tegsa emgak kishidin ko'tur.

(Imkonini topsang, kishiga zulm-zo' ravonlik qilma,
Agar biror kishi qiyinchilikka duch kelsa, unga yordam ber.)

Agar kelsa ertin sanga ezbkuluk,
O'qush qil, ul arning sanosin tila.

(Agar biror kishidan senga yaxshilik kelsa, sen u kishini maqta. U kishining duosida bo'l.)

Yozug'lug' kishining yozug' in kechur,
Aduvat ko'kini qazib kes, ko`chur.

(Gunohkor kishining gunohini kechir,
Aduvat - dushmanlik ko`chatini qazib olib, ko`chirib tashla.)

Alinglansa tutnub, g'azab, inod o'ti,

Halimliq suvin soch, ul o`tni o`chur.

(G`azab o`ti tutab, alangananib avj olsa, muloyimlik bilan shafqat, marhamat, haqiqat suvini sochib, uni o`chir.)

Shoir zamonasidagi nosozliklar haqida so`zlaydi. Hayotdagি adolatsizliklar, vafo o`rniga jafo, sadoqat o`rniga xiyonat ko`pay-ganligiga diqqatni qaratadi. Do`stlik degan narsaning faqat nomi qolganligi, chinakam do`sht mingtadan bitta ham topilmasligini, haqiqiy insonlikning oradan ko`tarilganini aytadi. Yaxshiiar kamayib, yomon ko`payganidan shikoyat qiladi. Lekin u zamonani qoralamaydi. Aybni odamlardan qidiradi. Chunki zamonaning egasi odamlardir:

Yirarsan zamonangni. xalqni qo`yub,

Zamonangni yirma, kishisini yir.

(Xalqingni qo`yib, zamonangni ayblama,

Zamonangni emas, kishilarini aybla.)

Bulardan ko`rinadiki, Ahmad Yugnakiy davrining eng dolzarb masalalarini insoniylik bilan bog`lab tahlil qiladi. Xullas, shoir kishilarga ibrat, ta`lim beruvchi, ularni odobga chaqiruvchi pandnomma, go`zal va totli bir asar qoldirib ketdi.

Asarning badiiy xususiyatlari. „Hibat ul-haqoyiq“ badiiy jihatdan ham yetuk asar. Doston, asosan, aruzning mutaqorib bahrida to`rtliklarda bilan yozilgan. O`rni kelganda, shoir masnaviyga ham murojaat qiladi. Asar boshidan oxirigacha pandnomma yo`lida bitilgan yaxlit bir dostondir. Shoir badiiylikning xilma-xil vositalaridan samarali foydalanadi. Jumladan, unda tashxis (jonsiz narsalarga ionli narsalarning xususiyatlarini singdirish)ning go`zal namunalarini uchratamiz:

Aning baxshishidin bulut o`ptanur.

(Uning marhamatidan bulut uyaladi.)

Ochun kulchirar boz alin qosh chetar,

Bir ilkin tutub shahd, biri zahr qotar.

(Olam kulib boqadi, so`ng birdan qovog`ini soladi.

Bir q`li bilan asal bersa, ikkinchisi bilan zahar tutadi.)

Asardagi takrorlanishlarni hisobga olmaganda mingga yaqin so`z qo`llangan, ularning uchdan ikki qismini sof turkiy so`zlar tashkil etadi. Faqat bir qismigina arab va fors tilidan o`zlashgan so`zlar. Buni „Qutadg`u bilig“ tili bilan qiyoslasak, adabiy tilda arabcha va forscha so`zlar salmog`i ortib borayotganini ko`rish mumkin. Chunki „Qutadg`u bilig“da arabcha va forscha so`zlar salmog`i 4 – 5 foizdan oshmaydi. Asarning til xususiyatlari bir tomonidan XI asrda yaratilgan “Qutadg`u bilig”ga, ikkinchi tomonidan „Qisasi Rabg`uziy“ga o`xshab ketadi. Shunga ko`ra uni XII asr oxiri XIII asr bosfalarida yaratilgan deb aytish mumkin.

Ahmad Yugnakiy o`zaro zid ma'noli so`zlardan ko`p foydalanadi. Chunonchi: bilim – jaholat, halol – harom, to`g`-rilik-egrilik, atlas – bo`z kabi:

Baholiq dinor ul biliklik kishi,

Bu johil biliksiz bahosiz bishi.

*Biliklik biliksiz qachon teng bo`lur,
Biliklik tishi er, jahil er — tishi.
Qimmatli dinordir ilmli kishi,
Keraksiz mevadir ilmsiz kishi.
Ilmlı ilmsiz qachon teng bo`lar,
Ilmlı ayol erdir, johil er — ayol.)*

Bu to'rtlik to'lig'icha o`zaro zid ma'noli so`zlarga tayanadi. Baholiq – bahosiz, biliklik – biliksiz, tishi – er so`zlarining ma'nolari orasidagi qarama-qarshilik vositasida Ahmad Yugnakiy bilim, ilm-ma'rifatning qadrini ko`rsatishga tuyassar bo`lgan.

„Hibat ul-haqoyiq“ o`zidan keyingi adabiyotga sezilarli ta'sir ko`rsatdi. Buning yorqin dalili Navoiyning e'tirofi, mumtoz she'riyatimizda didaktikaning uzoq asrlar asosiy unsurlardan bo`lib kelganligi, ilm-fanga rag'batning hech qachon so`nmaganligi, axloq va odobning hamma zamonalarda yuksak qadrlanganligidir.

Nazorat uchun savollar:

1. Ahmad Yugnakiy hayoti haqida nimalar bilasi?
2. Alisher Navoiyning Yugnakiy haqidagi fikrlariga qanday izoh berasiz?
3. Yugnak mavzesi haqida nima deya olasiz?
4. “Hibatu-l-haqoyiq” asarining bosh mavzusi nima?
5. Asarning “Qutadg'u biling” bilan mushtarak jihatlarini ko`rsating.
6. Asar tarkibi haqida nima deya olasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqulov N. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o`quvchilari uchun darslik). – Т., 2000.
7. Adib Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq (She'riy tabdilni amalga oshiruvchi E. Ochilov). – Т.: Sharq, 2013.
8. Махмудов К. Ахмад Югнакийнинг “Хибат ул-хақойик” асари ҳакида. – Т.:Фан, 1972.
9. Шукурова А. «Хибат ул-хақойик»нинг ўрганилиш тарихига бир назар // ЎТА, №1,2015. – 93-95-бетлар.

Tavsiya qilinadigan manbalar:

1. Имомназаров М. Ахмад Югнакий // Маънавият юлдузлари. – Т.: Халк мероси, 2001.
2. Ўзбек мумтоz адабиёти намуналари. – Т.: Фан, 2003.
3. Тохиров С. Адип Ахмад Югнакийнинг «Хибат ул-хақойик» достони (матн, тадқик ва таҳлил). – Т.

XOJA AHMAD YASSAVIY IJODI

Reja:

1. Xoja Ahmad Yassaviy ijodi.
2. Turkiy she'riyatda hikmat janrining shakllanishi.
3. "Devoni hikmat" asari va uning tarkibi.
4. Yassaviy izdoshlari. Sulaymon Boqirg'oniy asarlari. "Boqirg'on kitobi" mundarijasi.

Tayanch iboralar: *hikmat*, "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat", *mutasavvif*, *tasavvuf*, *tariqat*, *Boqirg'oniy*, *Yassaviya*, *ota*, *pir*, *faqr*, "Faqrnoma", *jahriya*, *zikr*.

Xoja Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi.

Ahmad Yassaviy hazratlari turk dunyosining eng mashhur shaxsiyatlaridandir. Farididdin Attor uni „Piri Turkistoniy” („Turkiston piri”) deb atagan edi. Buyuk Navoiy „shayxul mashoyix” („shayxlar shayxi”) deb nomlaydi. O’z yurtida esa “hazrat sultonim” deydiilar. Alisher Navoiy u haqda shunday yozadi: „Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston mulkinining shayxul mashoyixidir. Maqomoti oliv va mashhur, karomoti matavoli (hayratlanarli) va nomahsur (chegarasiz) ermish. Murid-u as’obi (do’st, suhbatdoshi) g’oyat-siz va shoh-u gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish. Imam Yusuf Hamadoniyning as’obidindur... Va aning mazori Turkistonda, Yassi degan yerdaki, aning mavlid va manshaidur, voqe’ bo’lubdur va Turkiston ahlining qiblayi duosidur”.

Yassaviyning hayoti va faofiyati haqidagi ma'lumotlar juda oz. Borlari ham rivoyat va afsonalarga qorishib ketgan. Buning ustiga, Yassaviy ijodi O’zbekistonda mustaqillikdan keyingga o’rganilmoqda. Bu borada birinchi manba, tabiiyki, uning „Devoni hikmat” asaridif. Shuningdek, Yassaviy xalifasi Sujayman, Boqirg'oniyning „Hakim ota kitobi”, Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, Fazlulloh Ro’zbekxonning “Mehmonnomayi Buxoro”. Xizr ibn Ilyosning “Manoqibi Hoji Bektoshi valiy”, Avliyo Chalabiyning „Sayohatnoma”, Husomiddin Bulg’oriyning „Tavorixi Bulg’oriya” Haziniyning “Javohur ul-abror” kitoblarida ham adib haqida ozmi-ko’pmi ma'lumotlar berilgan.

Yassaviy haqidagi ma'lumotlarni birinchi marta to’plab, jiddiy tadqiq qilgan turkiyalik olim Muhammad Fuod Ko’pruluzoda bo’lgan edi. U 1918-yilda „Turk adabiyotida ilk mutasavviflar” degan kitobini e’lon qildi. Abdurauf Fitrat 1927- yilda Yassaviy va uning ijodiy qiyofasi haqida maqola yozdi. 1972- yilda esa prof. E. Rustamovning „Ahmad Yassaviy hikmatlarida tarix va hayot sadosi” maqolasasi („O’zbek tili va adabiyoti” jurnali 4–5 – sonlar) chop etilgach, sho’ro idoralari tomonidan muallif boshiga turli savdolar tushdi. 1991-yildan keyingga uning hikmatlarini va u haqdagi tadqiqotlarni nashr etish keng

yo`lga qo`yildi. Hozirda Yassaviy ijodi birgina O`zbekiston yoki Qozog`istondagina emas, jahon turkologlari tomonidan keng miqyosda o`rganilmoqda. Yassaviy ijodiga qiziqish Yevropa fanida ancha ilgari boshlangan edi. Herman Vamberi „Chig`atoy tili darsligi“da Yassaviyning 70 baytdan iborat hikmatlarini nemis tiliga tarjimasini beradi⁴².

Ahmad Yassaviy hozirgi Qozog`iston Respublikasining Chimkent viloyatiga qarashli Sayram shahrida tug`ilgan. Sayram (Saryom) O`rta Osiyoning qadim shaharlaridan. Bir vaqtlar „Isfijob“, „Madinat ul-bayzo“ (Oq shahar) nomlari bilan mashhur bo`lgan. Tarixi miloddan oldingi zamonlarga borib taqaladi.

Alisher Navoiy Ahmad Yassaviyning tug`ilgan yerini Yassi deb ko`rsatadi. Yassi bugungi Turkiston shahrining qadimgi nomidir. Uning Yassaviy taxallus – nisbasi, ayrim she`rlarida bunga ishoralar borligi, ehtimol, Navoiyni shunday fikrga kelishga undagan bo`lishi mumkin. Lekin Yassaviy hayoti va ijodini qiyoslab o`rgangan mutaxassislar uning Sayramda tug`ilgani haqiqatga yaqinroq, deb hissoblaydilar.

Yassaviyning tug`ilgan yili ham aniq emas. Manbalar uning Yusuf Hamadoniy qo`lida o`qiganligini tasdiqiaydi. Shunga qaraganda, Ahmad Yassaviy XI asrning ikkinchi yarmida tug`ilgan. Chunki Yusuf Hamadoniyning tavallud sanasi 1048- yildir.

Ahmad Yassaviyning otasi Ibrohim shayxlik martabasida edi. Uning hazrati Ali avlodlaridan bo`lganligini naql qiladilar. Onasi Oysha shayx Ibrohimning shogirdlaridan bo`lgan Musa shayxning qizidir. Ahmad oilada ikkinchi farzand bo`lgan. Opasining oti Javhari Shahnozdir. Juda yoshlik paytlarida ota-onasi vafot etib, yetim qoladi. Opasi bilan birqalikda Yassiga keladi. Arslonbob(,Bob" qo`shimchasi asli „bobo" so`zidan bo`lishi kerak. Alisher Navoiy „Nasoyim ul-muhabbat“da Farg`onada „ulug` mashoyix“ni „bob“ deb aytishlarini ma'lum qiladi) degan shayx qo`lida tarbiya topadi. Yosh Ahmadning Arslonbob bilan uchrashuvி voqeasi rivoyatlarga ko`milgan. Ularga ko`ra, Arslonbob payg`am-barimiz as`hoblaridan(As`hob—suhbatdosh, yaqin maslakdosh) bo`lib, to`rt yuz yil yashagan. U Muhammad payg`ambarning Yassaviyga atab bergen omonatlari – bir dona xurmoni necha yuz yillar tishining kovagida asrab keladi va yetti yashar Ahmadga topshirib, bolaning tarbiyasini o`z zimmasiga oladi.

Ma'lumotlarga ko`ra, Ahmad Yassaviy Arslonbob vafotidan keyin, taxminan 1110-yildan boshlab Buxoroda o`qiydi. Mashhur Yusuf Hamadoniydan tahsil oladi. Uning xalifasi (yordamchisi), izdoshi darajasiga ko`tariladi. Manbalarga ko`ra, Yusuf Hamadoniy vafotidan keyin uning o`rniga birinchi xalifa shayx Abdulloh Barqiy ko`tariladi. U vafot etgach, ikkinchi xalifa shayx Hasan Andoqiy, uning o`limi (1160- yil) dan so`ng esa, uchinchi xalifa Ahmad Yassaviy irshod (rahbar)lik mavqeyini egallaydi. So`ng bir

⁴² Нурмурадов Й. Яссавий хикматлари Вамбери таржимасида//ЎТА, 1993, №5-6. – 31-33-б.

„ishorati g’aybiya” (ilohiy ishorat) bilan o’z o’rmini to’rtinchi xalifa Abduxoliq G’ijduvoniya topshirib, Yassiga qaytadi va vafotiga qadar u yerda irshodlik maqomida bo’ladi. Ahmad Yassaviyning pirlik maqomi shu darajada yuqori ediki, xalq orasida: „Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad”, — degan naql paydo bo’ladi. Yassaviy shuhrati uning hikmatlari bilan ham bog’liq. XIX asrda Turkistonga sayr etgan Herman Vamberi shunday yozadi: ”Men O’rta Osiyo sahrosiga qadam qo’yishim bilan o’zim duch kelgan kishidan duo paytida Luqmoni Hakim, Yassaviy so’zlarini eshitdim, she’riyatdan so’z ketadigan bo’lsa, Navoiy, Fuzuliy, So’fi Olloyor g’azallari ularning birinchi sevimli baytlaridir. Yassaviy hikmatlarini juda ko’pchilik yod biladi”⁴³.

Ahmad Yassaviyning necha yil umr ko’rgani haqida turlicha fikrlar mavjud. Ba’zilar 63 yoshda vafot etgan desalar, ayrimlar bu sanani 73, yana birlari 85 deb ko’rsatadilar. Ko’pruluzoda 120, rus turkolog V. A. Gordlevskiy 125 deb belgilaydilar. Bunday xulosa chiqarishga uning hikmatlari ham ma’lum darajada asos beradi. Masalan, bir hikmatida shunday satrlar bor:

Eranlardan fayz-u futuh ololmadim,
Yuz yigirma yoshga kirdim, bilolmadim,
Haq taolo toatlarin qilolmadim,
Eshtib, o’qub yerga kirdi Qul Xoja Ahmad.

Har holda buyuk so’fiyning 1166- yilda Yassida vafot etgani aniq, tug’ilgan yili esa noma’lum. Qabri Yassi - Turkistonda. 1396–1397- yillarda Amir Temur uning qabrini ziyyorat etib, ustiga maqbara qudiradi. Maqbara hozir ham ulkan ziyyoratgohdir.

Ahmad Yassaviy bir o’g’il, ikki qiz ko’rgani ma’lum. O’g’lining oti Ibrohim bo’lib, yoshlik paytlarida vafot etgan. Qizlari – Gavhari Shahnoz va Gavhari Xushnoz. Xo’ja Ahmad Yassaviyning hozirgacha yashayotgan avlodlari Gavhari Shahnoz ismli qizidan tarqalgan.

Yassaviy nomi turk dunyosida ikki jihatdan shuhrat topgan:
1. Pir, karomatlar ko’rsatgan avliyo.
2. Shoir, hikmatlar muallifi.

Rivoyatlarda Yassaviy dunyoning turli tomonlariga yoyilib ketgan to’qson to’qqiz ming murid, o’n ikki ming yon-atrofida yuruvchi suhbatdosh do’stlar va ko’plab xalifalarga ega bo’lgani naql qilinadi. Birinchi xalifasi Arslonbobning o’g’li Mansur ota bo’lib, u vafot etgach (1197), o’g’li Abdulmalik, so’nguning o’g’li Tojxo’ja, Tojxo’janing o’g’li Zangi ota vaqt bilan irshodlik qilishgan. Xorazmlik Said ota (1218–19- yilda vafot etgan) uning ikkinchi xalifasi, Hakim ota (Sulaymon Boqirg’oniy) esa uchinchi xalifasi edi.

⁴³ Qarang: Нурмуровов Й. Яссавий хикматлари Вамбери таржимасида//ЎТА, 1993, №5-6. – 31-33-б.

Yassaviyning karomatlari haqida ko'plab rivoyatlar yuradi. Ularning birida Xizr bilan ko'p marotaba suhbatdosh bo'lgani naql qilinadi. Xizr unga „Har kun yetti iqlimni kezaman va har iqlimdan bir suhbatdosh izlayman. Lekin shu paytgacha, senday qobiliyatli va asl suhbatdoshga duch kelmadim”, – degan ekan. Bir kuni „shayx ul-mashoyix”ni juma namozida uchratmagan muxoliflari uning ustidan har xil ig'volar to'qib, yurt podshohiga chaqadilar, podshoh taftish buyuradi. Tekshirib ko'rsalar, Ahmad Yassaviy ba'zan juma namozini Makkaga borib o'qib kelar ekan... Bu xil rivoyatlar ko'p. Sohibqiron Amir Temurning unga alohida muhabbat qo'yanligi bejiz emas. Uning farmoni bilan hazrat qabri ustiga gumbazining balandligi 30, aylanasi 40 gazlik ulkan maqbara qurildi. Unga vaqf yer ajratilib, daxlsiz deb e'lon qilindi. Jahongir 1402- yilning boshida mashhur Rum safari oldidan Turkiston shayxlardan tumor yozdirib ketgan. „Voqeoti Temur” degan kitobda keltirilishicha, Anqara jangida buyuk jahongir piri murshidning:

*Yaldo kechani sham'i shabiston etgon,
Bir lahzada olamni guliston etgon,
Bir mushkul ishim tushubdur, oson etgil,
Ey, barchani mushkulin oson etgon*

satrlarini yetmish marta yoddan o'qigan ekan.

Turkiy she'riyatda hikmat janrining shakllanishi.

Buyuk mutasavvif Ahmad Yassaviy turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan birinchi so'fiy, tasavvufning buyuk vakilidir. „Yassaviya” tariqatining asoschisidir. Tasavvuf esa Sharq olamining keng tarqalgan falsafasidir. Tasavvufning asosida Alloho anglamoq yotadi. Alloh haqdir, haqiqatdir. Uni oddiy odamning jo'n aqli bilan anglash mumkin emas. Buning uchun ustoz, pir kerak. Chunki bu dunyoda o'z holingcha to'g'ri yo'lni topish g'oyat qiyn. Bu boradagi birdan-bir to'g'ri yo'l tariqatdir. Tariqat deganining o'zi ham „yo'l”, „usul” degan ma'nolarni bildiradi. „Devoni hikmat”da o'qiymiz:

Tariqatga siyosatlig' murshid kerak,
Ul murshidga e'tiqodlig' murid kerak,
Xizmat qilib pir rizosin topmoq kerak,
Mundog' oshiq haqdin ulush olur ermish.

Tariqat shariatning davomidir. Yassaviy aytmoqchi, shariat imonning po'sti bo'lsa, tariqat uning mag'zidir. Shariat uning zohiri bo'lsa, tariqat botinidir. Birini ikkinchisisiz tasavvur qilib bo'lnaydi. Shariat islomda rioya qilinishi lozim bo'lgan diniy qoidalar yig'indisidir. Tariqat shularni anglamoq yo'lidir.

Ahmad Yassaviy turkiy xalqlar orasidan chiqqan birinchi mutasavvifgina emas, yangi bir tariqatning asoschisi hamdir. Bu tariqat lining nomi bilan „Yassaviya” deb ataladi.

Pir (shayx) ham o'z navbatida shunga munosib bo'lishi kerak. „Piri turkistoniy”ning „Faqrnama” asarida bu boradagi shunday fikrlariga duch kelamiz: „Shayx uldurkim, niyoz (tortiq) olsa, mustahiq (muhtoj) larg'a, g'arib bechorag'a bergaylar. Agar olib, o'zi yesa, murdor (harom) et yemishdek

bo`lg`ay. Agar to`n qilib kiysa, ul to`n to`zg`uncha haq taolo namoz, ro`zasini qabul qilmag`ay va agar olg`an niyozidin non qilib yesa, haq taolo oni do`zaxda turluk azobg`a giriftor qilg`ay. Va agar andog` shayxga har kishi e`tiqod qilsa, kofir bo`lg`ay. Andog` shayxlar mal'un turur. Oning fitnasi Dajjoldin badtar, shariatda, tariqatda, haqiqatda, ma'rifatda murtad (dindan qaytishlik) turur. Ey tolib, agar haqni talab qilib topay desang, andog` pirga qo'l bergilkim, shariatda orifi billoh (Allohni tanuvchi) bo`lsa, tariqatda voqifi asror (sirlardan xabardor) bo`lsa, haqiqatda komil-u mukammal bo`lsa, ma'rifatda daryoyi ummon bo`lsa, saodat bo`lg`ay".

Yassaviy mutasavvif – pir sifatida ilm-fanga alohida e'tibor qildi. Prof. E. Rustamovning ma'lumot berishicha, Yassaviy o`z masjidi tepasiga „Talabul ilm farizatun ala kulli muslimin va muslimatin" („Ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir") degan hadisni yozdirib qo'ygan ekan. Tarixchi olimlar bu mashhur hadisni XV asrda Mirzo Ulug`bek ham Buxoroda qurdirgan madrasasi peshtoqiga yozdirganligini xabar beradilar.

„Yassaviya" tariqatining ikkinchi nomi „jahriya"dir. „Jahr" – oshkor qilmoq, baland ovoz bilan o`qimoq degani. „Devoni hikmafda shunday satrlarga duch kelamiz:

Mani hikmatlarim ko`plarg`a aytинг,
Duo-takbir qilib, rahmatga boting,
Agar hikmat o`qusa ayuhannos,
Erur farzand manga ul tolibi xos.

Mualif „duo-takbir"ga, „hikmatlarni ayuhannos o`qish"ga e'tibor qaratadi. Boshqacha aytganda, darveshlikni, qalandarlikni Allohni tanishdag'i asosiy vosita deb biladi. Turkistondagi darveshlik - qalandarlik tarixi Ahmad Yassaviy nomi bilan bogianadi. Ular islom g'oyalari bilan sug'orilgan hikmatlarni dunyoning to`rt tomoniga yoydilar. Turkiyalik mutaxassislar Onado`li sarhadlarda turk islom davlatining maydonga kelishida, umuman, bu o`lkaning musulmonlashuvida qalandarlarning xizmatlari katta bo`lgan, deydilar. Ayni paytda, ular xalqimizning keng qatlamlari orzu-istiklarini ifoda etdilar. Xususan, mol-dunyo, davlat-u saltanat, kibr-u havo va manmanlikni tark etib, faqirona umr o`tkazishga so`zda va amalda harakat qildilar. O`z zamonida u davrning eng ilg`or harakatiga aylangan. Ularning atrofiga eng sog`lom kuchlar yig`ilgan. Masalan: 1898- yilgi Andijonda boshlangan milliy-ozodlik qo`zg`olonining harakatlantiruvchi kuchlari qalandarlar edi. Ularning tilida faqat Allohning hamd-u sanosigina emas, har qan-day zo`ravonlikka qarshi isyon ham bor edi. 1898- yilgi qo`zg`olonda ular faol ishtirot etganligi uchun Chor hukumati tomonidan qalandarlikning rasman taqiqlanganligi ham bejiz emas.

“Devoni hikmat” asari va uning tarkibi. Devoni hikmat. Hikmatlar Ahmad Yassaviy merosini jamlagan asardir. Ular Hikmatlarga „Qul Xoja Ahmad", „Xoja Ahmad Yassaviy", „Ahmad ibn Ibrohim", „Sulton Xoja Ahmad Yassaviy", „Yassaviy miskin Ahmad", „Miskin Yassaviy", „Xoja AhmacP, „Ahmad", „Ahmadiy", „Qul Ahmad", „Miskin Ahmad" kabi taxalluslar

qo'yilgan. Ahmad Yassaviyning bizga qadar yetib kelgan asari „Devoni hikmafdır. „Devoni hikmat" – hikmatlar to'plami demakdir. Devon „Faqrnama" deb atalgan so'zboshi bilan boshlanadi.

„Faqrnama" faqirlilik ta'rifiga bag'ishlangan. Tasavvufda mol-dunyoga hirs qo'yish qattiq tanqid qilinadi, faqirlilik ulug'lanadi. Faqirlilik qashshoqlik, miskinlik emas. Bu tushunchalar bir-biridan farq qiladi. Faqir o'z kundalik tirikchiligidagina yetarli ozuqasi bor, muhtojligi yo'q kishi, lekin unda ortiqcha narsa bo'lmaydi. Qashshoqning esa kundalik ehtiyojiga ham ozuqasi yo'q. Hazrati Muhammad tilidan aytildi gap bor: „Al-faqru faxri" (Faqirlilik faxrimdir). Rivoyat qiladilarki, payg'ambarimiz me'rojga chiqqanlarida(Islomda hazrati Muhammad payg'ambarining Buroq nomli ot minib arshi a'loga Alloh huzuriga ko'tarilishlari voqeasi bor. Shunga me'roj deyildi.), Alloh taolo u kishiga faqir qiyofasida ko'ringan emish. Faqirlikning bunday ulug'lanishida chuqur ma'no bor. Mol-dunyoga hirs qo'yish, avvalo, uni harom-halol, qonuniy-qonunsiz yig'ishga yo'l ochadi. Bunda kimningdir haqqiga xiyonatga, zulm-zo'ravonlikka imkon qoladi. Ikkinchidan, bu mol-dunyo egasini kibr-u havoga, manmanlikka boshlaydi. Shu sababli, faqirlikka mumtoz adabiyotimizda alohida mavqe'-martaba berilgan. Bunda, shubhasiz, hadislarning ta'siri katta bo'lgan. Adabiyot ko'proq bu boradagi hadislarni sharhash yo'lidan borgan. Mana bu boradagi ayrim hadislar: „Har ummat uchun bir fitna sababi bor. Ummatimning fitnasi mol-dunyodir", „Faqirlar bilan birga o'tirib-turish kamtarlik va ustun bir fazilatdir", „Allohim, meni faqir o'laroq yashat va faqir o'laroq o'ldir" va hokazo. Xullas, „faqir" tasavvufda mol-dunyoga o'ch bo'lmaslik, zohiran yo'qsil hayot kechirish, Alloha yetishish uchun qilinadigan xatti-harakat va bosib o'tiladigan maqomlarni ifodalovchi atama bo'lib qoldi. „Faqrnama" esa, mana shu maqomlarni o'zida aks ettiradi.

Tasavvufda muridning tilagi haqqa yetmoq, Alloh vasliga erishmoqdir. Buning uchun solik, ya'ni tariqatning yo'liga kirgan kishi, boshqacha aytganda, faqir muayyan bosqichlarni bosib o'tishi kerak. Bular: shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat. Yassaviy „Faqrnama" sida keltirishicha, ularning har birida o'ntadan, jami qirq maqom bor. Bu maqomlarning birinchisi musulmonlikning birinchi shartidan „haq taolo"ning birligiga, borligiga va zotiga imon keltirmoqdan boshlanib, qirqinchisi „hazrati rabbil izzatni topish" - Alloh visoliga yetishish bilan yakun topadi. „Faqrnama"da shular haqida gap ketadi.

„Devoni hikmat" atamasidagi „**hikmat**" so'zi ham teran ichki ma'noga ega bo'lib, muayyan talqinni talab etadi. Illohiyotchi mutaxassislarining aniqlashicha, „hikmat" Qur'oni karim oyatlarida payg'ambarimizning haq yo'lni ko'rsatuvchi va'zlariga nisbatan qo'llanilgan ekan. Lug'atlarda esa, hikmat ilm va adolatni o'z ichiga oluvchi, borliq haqiqatini anglatuvchi ma'rifiy so'z, odat va axloqqa xos kalima, sirli sabab kabi ma'nolarni anglatishi aytildi. Shulardan kelib chiqib, ayrimlar uni „diniy-tasavvufiy o'ziga xos so'z" deb ta'rif qiladilar. Xalq jonli tilida ham bu so'z juda ko'p uchraydi. Aksariyat hollarda tajribadan kelib chiqqan ibratli so'z ma'nosini anglatadi. Yassaviy hikmatlari islam g'oyalarini,

birinchi navbatda shariatni targ'ib va tashviq qiluvchi she'riyatdir. Shariat esa Qur'onga, hadisga tayanadi. Demak, bu she'rlar Qur'on va hadislarning o'ziga xos sharhlaridir.

Tasavvufning eng yuqori bosqichi – haqiqat. Shariat - shu yo'lning birinchi bosqichi. Tariqat undan keyin keladi. Shariatsiz tariqatga – Alloh tomon yo'l izlashga o'tib bo'lmaydi. Undan keyin ma'rifat – Allohnini tanish bosqichi keladi. Nihoyat, orif inson haqiqatga erishishi, ya'ni Yaratganning jamoliga yetishishi mumkin. Falonchi haqqqa yetgan deyilsa, tariqatning oliv bosqichiga erishgan, demoqchi bo'ladi. Bu bosqichlar o'zaro chambarchas bogiiqidir. Shariat hali din, xolos. Unda talab qilingan narsalar ko'p emas: Allohnini tanish, unga imon keltirish, namoz, ro'za, zakot, haj, amri ma'ruf (shariat buyurgani)ni bajarish, nahyi munkar (taqiqlaganidan tiyilish), hilm (muloyimlik), ilm olish. Tasavvuf tariqatdan boshlanadi. Tariqat deganining o'zi yo'l degani. Bu Allohnini anglashning, uni qalb ko'zi bilan tanishning boshlanishidir. Bu tavba, pirga qo'l berish, xavf (qo'rquv), rajo (umid), tajrid (ortiqcha narsalardan xoli bo'lish), tafrid (uzlatga chekinish) kabilar orqali amalga oshadi. Hikmatlardan birida shunday deyiladi:

Tariqatga shariatsiz kirgonlarni,
Shayton kelib imonini olur ermish,
Ushbu yo'lni pirsiz da'vo qilg'onlarni,
Sarson qilib aro yo'lida qo'yarsa ermish.

Dunyoningadolati bor. Adolatlito shariatsiz bor. Halollik bilan kelmagan mol-davlat vafo qilmaydi. Qanday kelgan bo'lsa, shunday ketadi. Harom, yolg'on jazosiz qolmaydi. Shu bois, vijdon bilan halol yashash kerak. Dunyo moliga hirs qo'yib, boylik yig'gan kishi o'limtik bilan kun kechiradigan qushga o'xhashi poetik timsol orqali beriladi:

Dunyo mening deganlar, jahon molin olg'onlar,
Karkas qushdek bo'lubon ul haromga botmishlar.

Shariatni o'z manfaati yo'lida xizmat qildirmoqchi bo'lgan din ahli, garchi ularning og'zidan Alloh nomi tushmasa-da, o'zlariga do'zaxdan joy tayyorlaydilar:

Mullo, mufti bo'lg'onlar, yolg'on da'vo qilg'onlar,
Oqni qaro qilg'onlar, ul tamug'ga kirmishlar.

Yassaviy jamiyatning boshqaruvchi, o'zgalarining taqdiriga ta'sir ko'rsatuvchi odamlarning halolligi, to'g'riliqi o'ta muhim ekanligini, adolatsiz hukmdoriarjazosiz qolmasligini g'azal shaklida bitilgan hikmatida birma-bir ko'rsatib beradi:

Hazrati Yassaviy kishini fikrlashga, insofga chorlaydi. Insofga kelmoq, vijdonga muvofiq yashamoq uchun o'ylab ko'rish, haq yo'lni nohaqdan ajratib olish lozimligini uqtiradi. Buning uchun odam juda bo'lmasa, o'z yaqinlari taqdiriga nazar tashlashi, ulardan xulosa chiqarishi lozim:

Oto-ono, qarindosh, qayon ketti, fikr qil,
To'rt ayog'lig' cho'bin ot bir kun sanga yetaro.

Valiy shoir o'z qarashlarini bayon etibgina qolmay, balki fikrlarining esdan chiqmaydigan, xotiraga mixlanib qoladigan, kutilmaganda yodga tushadigan shaklda ifodalanishiga ham e'tibor qiladi. Buning uchun g'oyat musiqiy tarzda tugallanuvchi qofiya, to'rt oyoqlik yog'och ot singari she'riy unsurlardan ustalik bilan foydalanadi. Shoir odamlarga mohiyatni izlash, unga yetishishga urinish lozimligini ta'kidlaydi:

Dunyo uchun g'am yema, haqdin o'zgani dema.
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.

So'fiylikda inson fe'lining eng katta qusurlaridan biri — kibr-u havo, manmanlik deb qaraladi. Takabburlik, kekkayish, ko'pincha, mol-dunyo, naslnasabdani. Shu sababli, pir ishni tariqatga kirgan muriddagi kibrni yo'qotishdan boshlaydi. Buning uchun unga eng tuban ishlarni (masalan, hojatxona tozalash kabi) buyuriladi. Xokisorlik, siniqlik, kichik fe'llik tariqat ahlining turmush tarzi edi. Bu barcha so'fiylar uchun qoida darajasida bo'lgan. Shu sababli ularning hikmatlarda aks etishi tabiiyi edi.

Hikmatlarning badiiyati. „Devon"dagi ayrim she'rlarda tasvir emas, ta'lim, so'fiyona aqidalarini o'rgatish maqsad qilib olinganligi sababli, badiiylik darajasi hamisha ham yuqori emas. San'atkorlik yaqqol ko'rinish turmaydigan satrlar ham yo'q emas. Chunki hazrati Yassaviy uchun she'r faqat vosita ekanligini hisobga olish kerak. Shunday bo`lsa-da, to`q, serma'no va serohang qofiyalar, esda uzoq saqlanib qoladigan nozik qochiriqlar, go'zal o'xshatishlar, ingichka ifodalar yo'q emas. Hikmatlardagi ifodaning soddaligi, samimiyyat, jo'shqinlik ularga joziba bag'ishlaydi va o'quvchini o'ziga tortadi. Quyidagi satrlar shu fikrimizga yaqqol misol bo'ladi:

Ko'zim namlik, dilim g'amlik, jon alamlik,
Nechuk iloj etorimni bilmam, do'stlar.

Bu hasratda, nadomatda yoshim oqib,
Qayu taraf ketorimni bilmam, do'stlar.

Hikmatlarning ko'pchilik qismi qadim an'anaviy to'rtlik usulida bitilgan. To'rtliklar dastlab xalq og'zaki ijodi namunalarida uchragan. Qo'shiqlar, termalar, laparlar, ko'pincha, to'rtlik shaklida yaratilgan. So'ng she'rlarni bu turda bandlashtirish yozma adabiyotga o'tgan. Aksariyat hikmatlar barmoq vaznida yozilgan. Bu vazn ham eski turkiy she'r vaznidir. Jumladan, yuqoridagi she'r

hijoning o'n ikki (4-4-4)lik vaznida. Ya'ni: ko`-zim nam-lik (4), di-lim-g'am-lik (4), jon-a-lam-lik (4). Hikmatlarning 14 (7-7), hatto 16 (8-8) hijoli ko`rinishlari ham uchraydi.

Ahmad Yassaviy she'riyatidagi timsollar tuzilishi ham tasavvuf ta'limoti bilan, ham og'zaki ijod an'analari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Masalan, she'rlarda uchrovchi pir, darvesh, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, tolib, ummat, rasul, shayton, iyomon kabi timsollar bevosita tasavvuf bilan bog'lansa, yo'l, rabot, karvon, o'q kabilar og'zaki ijod an'analari bilan aloqador holda yuzaga kelgan.

“Devoni hikmat”dan „Munojotnama” ham joy olgan. Munojot asli she'rning bir turi. Lug'aviy ma'nosi „najot”, ya'niyordam so'rashdan olingan. Ko'pincha, Allohdan qilinadigan iltijolarga munojot deyilgan. Lekin bu yerda gap hikmatlar haqida boradi. Muallif hikmatlarning xalq orasiga yoyilishini istab, Allohg'a munojot qiladi. Bu bilan mazkur hikmatlarning „ma'niyi Qur'on”, „koni hadis” ekanligini, Alloh kalomi va payg'ambar sunnatining sharhi ekanligini ta'kidlamoqchi bo`ladi. She'r aruz vaznida yozilgan. Chunonchi:

Ma-ni hik-mat-la-rim far-mo-ni sub-hon,

V — — — V — — - V - -

Ma-fo-iy-lun ma-fo-iy-lun fa-uv-lun

O`-qub uq-sang ha-ma ma'-ni-yi Qur'-on.

V — — — V — — - V - -

Ma-fo-iy-lun ma-fo-iy-lun fa-uv-lun

She'r hazaj bahrida bitilgan. Hikmatlarning ayrimlari g'azal yo'lida yozilgan. Ya'ni: she'rning birinchi baytidagi satrlar o'zaro (aa) qofiyalanadi. Undan keyingi toq misralar ochiq qolib, juft misralar qofiyalanib keladi (ba, va, ga kabi). Oxirgi baytda taxallus keladi. Ta'kidlash kerakki, hikmatlarning hammasida taxallus bor.

To`rtliklardan tarkib topgan hikmatlarning adadi ham har xil: besh banddan yigirma besh bandgacha boradi. G'azal hikmatlarning hajmi olti baytdan o'n uch baytgacha. Hikmatlar orasida bayt misralari o'zaro (aa, bb, vv, gg tarzida) qofiyalanuvchi masnaviy hikmatlar ham bor. Ular ham, tabiiyki, aruz vaznida. Masnaviy hikmatlarning vazni „Munojotnama”ni esga soladi. G'azal hikmatlarniki esa har xil. Masalan, hazaj vaznining solim (to'la) shakllari ham uchraydi.

Lekin „Devoni hikmat”da bu vazn talablariga hamisha ham rioya qilinavermaydi. Och qofiyalar, qofiyasiz ochiq satrlar, fe'l qofiyalar ko'p uchraydi. Bu hol hikmatlarning she'riyatidagi martabasini bir qadar pasaytiradi, albatta. Lekin undagi muqaddas g'oyalar bu kamchiliklami ko'pincha bildiravermaydi.

„Devoni hikmat”da badiiy jihatdan bir qadar zaifliklar borligini mutaxassislar undagi she'rlarning Yassaviy tomonidan emas, ko'proq uning izdosh darveshlari tomonidan yozilgan bo`lishi mumkinligi ehtimoli bilan izohlashga urinadilar. Bu da'volarga eng katta dalil sifatida shu paytgacha „Devon”ning XVII asrdan oldingi qo'lyozma nusxasi topilmaganligini

keltiradilar. To`g`ri, uning eski nusxalari qo`limizda yo`q. Lekin qo`lyozmalari yo`qolib, mazmuni xalq qalbida saqlanib qolgan buyuk san`atkor-lar jahon adabiyotida ko`plab topiladi. Shota Rustaveli, hatto Shekspir asarlarining qo`lyozmalari saqlangan emas. Bu hol ularning buyukligiga soya solgan emas. Qolaversa, Navoiyki hazrati Yassaviya shu qadar yuksak baho berib, shogirdi Sulaymon Boqirg`oniying hikmatlarini alqab tilga olgan ekan, Yassaviyning ham hikmat aytganiga va biz o`rganayotgan asarlar uniki ekaniga shubha qilmasa bo`ladi.

Ehtimol, bu hikmatlarning asosiy qismi shayxul mashoyixning o`zi tomonidan aytilib, atrofidagi as`hoblari tomonidan she'rga solingen va darveshlarga tarqatilgandir. Lekin Yassaviy nomiga nisbat berilgan hikmatlarning katta qismi uning „o`z og`zidan“ chiqqanligiga shubha yo`q. Ayni paytda, bu she`rlarning talay qismini Ahmad Yassaviyning muridlari, izdoshlari uning nomidan to`qib borgan, bu hikmatlarning birgina Yassaviy emas, uning maktabi a`zolari yaratgan bo`lishi mumkinligini ham butunlay inkor qilish qiyin. Negaki, XVII—XIX asrlarda tuzilgan va Chiqishning turli shaharlarida „Devoni hikmat“ nomi bilan chop etilgan bu to`plamlar bir-birlaridan ko`lamiga ko`ra ham, mazmuniga ko`ra ham jiddiy farqlanadi. Chunonchi, „Qul Xoja Ahmad“, „Xoja Ahmad“, „Miskin Ahmad“ kabi taxalluslar bilan berilgan hikmatlar qatorida Azimxo`ja, Faqiriyy, G`aribiyy, Xolis, Hoji Solih, Iqoniyy, Qul Sharifiyy, Sayfiddin, Zaliliyy kabi ko`plab boshqa ijodkorlaming asarları ham uchraydi. Hikmatlarning umumiyl soni hozircha 250 atrofida. Hikmatlar adadi bundan ancha ko`p bo`lishi ham mumkin. Ularning birida Ahmad Yassaviyning 4400 hikmat aytganiga ishora qilinadi:

Qul Xoja Ahmad har bir so`zing dardga darmon,

Toliblarga bayon qilsam, qolmas armon.

To`rt ming to`rt yuz hikmat aydim, haqdan farmon,

Farmon bo`lsa, to o`lguncha so`zlasam man.

Hikmatlarning tili ham XII asr tili emas. Asrlar osha o`zgarib, yangilanib, davrga moslashib borgan. Bu ishni Yassaviy muxlislari — darveshlar qilganlar, albatta. Shularga qaramasdan, „Devoni hikmat“ birgina O`rta Osiyo xalqlari emas, butun turk olami ma`naviyatining bugungi kungacha eskirmay kelayotgan muhim hodisisi bo`lib qoldi. Shimolda tatar-boshqird, g`arbda usmonli, sharqda uyg`ur adabiyotlariga juda katta ta`sir ko`rsatdi. Turkiyalik mutaxassislar mashhur Yunus Emroning „Ilohiylar“ deb atalgan she`rlarining maydonga kelishida Ahmad Yassaviy hikmatlarining hal qiluvchi o`rnini ta`kidlaydilar. Tatar-boshqirdlar Shamsiddin Zakiy, Abdurahim O`tiz Emaniy, Qayum Nosiriy, Rizo Faxriddin kabilar bu ta`sirni e`tirop etadilar.

O`zbek adabiyotida Yassaviy an'anaları samarali izlar qoldirdi. Jumladan, bu an'analar quydagi yo`nalishlarda ko`zga tashlanadi:

1. Mutasavvif shoirning so`fiyona qarashlarini to`la yoki qisman qabul qilish, jahriya qoidalarini bajarish, hikmatlar bitish. Movarounnahrda yashab ijod etgan o`nlab shoirlar tariqatda ham, she`riyatda ham lining izidan borganlar. Bu ro`yxatning boshida xorazmlik Hakim ota – Sulaymon

Boqirg'oni turadi. Mashhur Shayboniyxonning inisi Muhammad Sultonning o'g'li Buxoro xoni Ubaydullaxon „Qul Ubaydiy" taxallusi bilan Yassaviy hikmatlari yo'lida necha o'nlab she'rlar yozgani mutaxassislarga ma'lum.

2. Bir qator shoirlarimiz o'z asarlarida Yassaviy shaxsiga tez-tez murojaat qildilar, she'rlar bag'ishlaydilar, hikmatlаридан iqtiboslar oladilar, ayrim tashbih-u tamsillarini sharhlaydilar. Bu hol, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari adabiyotida ko'zga yaqqol tashlanadi. Masalan, Yusuf Saryomiy buyuk yurdoshi Yassaviy haqida shunday yozadi:

Ey, koshifi haqoyiq asrori sodiqin,
Vey, voqifi daqoyiq, mushkbo yi xoriqin.
Rushd tariqi, hodiyi irshod tolabin,
Ey, qulzumi hidoyat, burhoni oshiqliqin,
Keldim g'ubon dargahinga surgali jabin,
Ey, maxzani karomat-u sultonil orifin.

(Ey, eng ishonchli sirlar haqiqatini bizga ochib berguvchi. Vey, butun vujudidan mushk hidi taralib turgan, eng nozik ma'nolardan xabardor. Toliblarni to'g'ri yo'lga boshlagan yo'lboshchi. Ey, hidoyat (to'g'rilik) dengizi, oshiqlar suyanchig'i. Dargohing tuprog'iga peshonamni surmoq uchun keldim, Ey, karomatlar xazinasi, oriflar sulton.)

3. Yassaviydagи so'fiyona tamsil va ifodalar keyingi ijodkorlarda yangi jilo va ohang topdi. Yassaviy turkiy adabiyotdagи ilk mutasavvif bo'lganligidan, timsollar bir qadar sodda, ifodalar goho notejis, ohanglarda ham saktaliklar uchrab qolar edi. Lekin bu sodda timsollar ko'p o'tmay adabiyotimizda shoirning munosib izdoshlari tomonidan yuksak maqomga ko'tarildi.

4. Prof.A.Fitrat XX asrning 20-yillardayoq „Muxtasar islom tarixi“, „Ahmad Yassaviy“, „Yassaviy mактabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar“ maqolalarida, „O'zbek adabiyoti namunalari“ kitobida o'zbek adabiyoti tarixida tasavvufning nisbatan keng rivojlangan 3 ta maktabini aniqlaydi: Yassaviy, Navoiy va Amir Umarxon maktablari. Ular o'zigacha bo'lgan an'analarni davom ettirganliklari uchun emas, balki o'z davrida va o'zidan keyin ko'plab iste'dodli ijodkorlarni o'ziha ergashtirib bir suluk imkoniyatlarini maktab darajasiga olib chiqqanliklari uchun shunday yuksak baholandi⁴⁴.

Yassaviy hikmatlarining ta'sir va tarqalish ko'lami goh kuchayib, goh susayib, XX asrning inqilobiy to'fonlarigacha yetib keldi. Yangi havolarda eski navolarni kuylagan shoirlarimiz bu davrda ko'proq Yassaviy she'rlarining shakliy xususiyatlaridan foydalandilar. Bugun u yangi zamonning talab va ehtiyojlari, millat va vatan manfaati nuqtayi nazaridan qayta kashf etilmoqda. Qisqa muddatda „Devoni hikmat" bir necha bor bosilib chiqdi. Yassaviyga bag'ishlangan o'nlab she'rlar maydonga keldi. Taniqli yozuvchi Sa'dulla Siyoyev u haqda ikki kitobdan iborat roman yozdi.

⁴⁴ Болтабоев Х. Мир Алишер Навоий Фитрат талкинида // ЎТА, №1, 1992, 17-бет

Yassaviy izdoshlari. Sulaymon Boqirg'oniy asarlari. "Boqirg'on kitobi" mundarijasi.

Sulaymon Boqirg'oniy (XII asr - 1186) – yassaviya maktabining eng yirik vakilidir. U Xorazm viloyati Hazorasp tumani hududida Boqirg'on qishlog'ida tavallud topgan. Uning hayoti haqidagi ma'lumotlar K.G.Zalemanning 1898-yil yozgan „Hakim ota haqidagi afsona“ kitobi hamda Faxriddin Ali Koshifiyning „Rashahot aynul hayot“ (1503) nomli asarida uchraydi. Navoiy „Majolis un-nafois“da Sulaymon otaga shunday ta'rif beradi: „Hakim ota – oti Sulaymondur. Xoja Ahmad Yassaviyning murididur. Hamonoki, Xoja tabha (ovqat) buyurg'ondurlarki, matbahiy (oshpaz) o'tin yetmaydur deb kelgandur. Alar as'hobga degandurlarki, yozidin o'tin terib kelturung va ul zamon yog'in yog'odur ekandur. As'hobkim o'tun teribdurlar, matbahga kelguncha yog'in jihatidin o'tunlar ho'l bo'lg'andur. Hakim ota tergan o'tunlarni to'nig'a chirmab, quruq kelturgandur. Xoja hazratlari degandurlarki: Ey farzand, hakimona ish qilding. Va alarg'a bu laqab ondin qolq'ondur“. Shu tariqa xalq orasida Hakim ota deb ataladi. 15 yoshidan Yassaviyga murid tushib, o'z she'rlarida Yassaviy tariqati g'oyalarini keng va tushunarli tarzda bayon qilgan. Qoraxoni hukmdor Ibrohim II Bug'roxon davrida shuhrat qozonadi, hatto xoqonning qizi Anbar onaga uylanadi. Rivoyat bo'yicha uchta farzandi bo'lgan: Muhammad, Asqar, Xubbi. Yana Oysha ismli qizi ham bo'lgan deyishadi. Sulaymon vafotidan so'ng Anbar ona Yassaviyning 5-xalifi Zangi otaga turmushga chiqqanligi aytildi. Anbar onaning maqbarasi Toshkent viloyatida joylashgan. Ma'rifat – Alloho ni tanish va uning nazariga tushish deb biladi. Inson shaxssi tarbiyasida tariqatni yetakchi o'ringa qo'yadi. Uning bu ruhdagi she'rlari tatar, boshqird xalqlarida ham keng tarqalgan. Jumladan, XIX-XX asr boshlarida „Boqirg'on kitobi“ Qozonda uch marta (1-marta 1846-yil) qayta bosilgan. Tatar maktablarida qo'llanma sifatida foydalilanildi.

Sani darding mango darmondin ortuq,
Sanga qul bo'lganim sultondin ortuq.
Saning yodingni aytsam cho'l ichinda
Bo'lur ul cho'l bo'stondin ortuq.
Saning yoding agar ketsa tilimdin,
Vujudim quriyu, vayrondin ortuq.

“Boqirg'on kitobi”dan “Ismoil qissasi”, “No'mon ibn Sobit qissasi”, “Me'rojnama”, “Oxirzamon qissasi”, “Bibi Maryam qissasi” kabi manzumalar o'rin olgan.

“Ismoil qissasi”da Ibrohim a.s. va Ismoil a.s. o'rtasidagi voqeal yoritiladi. Ismoilning o'g'illik sadoqati tasavvufiy rakursdan yoritib beriladi.

“No'mon ibn Sobit qissasi” hanafiya mazhabini asoschisi Abu Hanifaning otasi No'mon haqida so'z ketadi. O'zganing luqmasiga xiyonat qilmaslik, farzand tarbiyasida ota-oanning o'rni haqida fikr yuritiladi: Haq farmonin tuting, harom shubha yemang va kishin molin olmang.

“Me’rojnama”da Rasululloh s.a.v.ning Arshga bo’lgan sayohati rivoya qilinadi. Sayrning tasavvufiy talqini, har bir holatdan olinadigan hikmat va xulosalar bayon qilinadi.

“Bibi Maryam qissasi” mazkur avliyo shaxsnинг so’nggi kunlari tasviriga bag’ishlangan. Bibi Maryam soliklarga ibrat sifatida namoyon bo’ladi. Rus tilidagi tarjimasi 1895-yil S.M.Matveyev tomonidan amalga oshirilgan.

“Oxirzamon qissasi”da zamonanaing buzilganligi, olimlar va sayidzodalar ilmiga, martabasiga yarasha ish qilmayotganligi kuyunib bayon qilinadi, Buning natijasida oxirzamon belgilari ko’rinayotganligini yozadi. 1897-yil Y.Malov uning „Oxirzamon kitobi“ni rus tiliga tarjima qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Xoja Ahmad Yassaviy ijodining boshqa ijodkorlardan farqlarini aytib bering.
2. Turkiy she’riyatda hikmat janrinining shakllanishi nima bilan bog’liq deb o’ylaysiz?
3. “Devoni hikmat” asarida nechta hikmat mavjud?
4. Yassaviy hikmatlaridgi asosiy timsollar ni aytинг.
5. Qaysi mumtoz adabiyot va zamonaviy adabiyotimiz vakillarida Yassaviyga ergashish kuzatiladi?
6. Yassaviya tariqatining o’ziga xos xususiyatlарini ko’rsating.
7. Sulaymon Boqirg’oniy haqida so’zlab bering.
8. Boqirg’oniy hayoti bilan bog’liq ma’lumotlar qaysi afsona va rivoyatlarni yodga soladi?
9. Boqirg’oniy kitobidagi qissalarni “Qisasi Rabg’uziy”dagi hikoyalarga solishtiring.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Т., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqukulov N. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o’quvchilari uchun darslik). – Т.,2000.
7. Yassaviy. Devoni hikmat. –Т.: Mavarounnahr, 2004.
8. Olim S. Ishq, oshiq va ma’shuq. – Т., 1996.
9. Неъматов Ҳ. Яссавий ҳаётига оид баъзи саналар// ЎТА, №2,1992, 3-8-б.
10. Сулаймон Бокирғоний. Бокирғон китоби (Нашрга тайёрловчилар И.Ҳаққул, С.Рафиддин). – Т., 1991.
11. Хусанова Г. Сулаймон Бокирғоний қиссалари // ЎТА, №3, 2007. 68-70-б.
12. www. ZiyoNET.uz. Internet tarmog’i

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Рустамов Э. Аҳмад Яссавий ҳикматларида тарих ва ҳаёт садоси // ЎТА, 1972 йил 4-5-6-сонлар.
2. Ҳасан Н. Аҳмад Яссавий ҳикматларининг тили ҳакида // ЎТА, 2013, №4. – 77-81-бетлар.
3. Ҳалиева Г. Самойлович туркий адабиёт тадқиқотчisi сифатида // ЎТА, №2, 2012. – 40-43-бетлар.

4. Ҳасан Н. “Насойим ул-муҳаббат”да Яссавий ва унинг издошлари ҳакида // ЎТА, №5, 2010.25-31-бетлар.

TASAVVUFİY TALQINLAR VA BADIY TAFAKKURNING YUKSALISH DAVRI. MADANIY HAYOT

Reja:

1. Davr madaniy hayotiga sharh. Turkistonda tasavvufning vujudga kelishi va tarqalishi. Tasavvuf tarixida irfon bosqichi.
2. Ibrohim Adham, Shaqiq Balxiy va Imom G'azzoliy asarları.
3. Ilk turk mutasavviflari ijodi. Yassaviylik tariqati va uning adabiy manbalari.
4. Kubroviyya tariqati va bu tariqatning badiiy ijodda aks etishi.
5. Adabiy janrlar va ularning taraqqiyoti.

Tayanch so`z va iboralar: *tariqat tushunchasi, qodiriya tariqati, yassaviya tariqati, naqshbandiya tariqati, kubraviya tarqati, chishdiya tariqati, Mansur Halloj, ma'rifat, haqiqat, tasavvufiy istiloh, Ahmad Taroziy, "Funun al-balag'a", Ibn Arabiy.*

Tasavvuf tarixida irfon bosqichi.

Tasavvuf - komil insonlikka intilish, ham ruhan, ham jisman pok bolish, bularga maxsus riyoza bosqichlari orqali yetib borish ta'lidotidir. U diniy va dunyoviy ta'limot bo'lib, undagi asosiy shior bolgan «Mo'minning mo'minga zulmi haromdir», «O'lmasdan turib o'ling» qabilidagi shiorlar Qur'on oyatlariga asoslangan. Abu Rayhon Beruniy «Tasavvuf» so'zining lug'aviy ma'nosini «faylasuf» so'zidagi «suf» so'zi bilan boglaydi. So'fiy so'zi ham «so'f» dan yasalgan, «Tasavvuf», «mutasavvif» so'zi bilan o'zakdoshdir, Ilmda tasavvuf tarixidagi ikki bosqich, zohidlik va orifiik ajratiladi. Zohidlik davriga xos xususiyat Olloh yolda toat-ibodat qilish va farzdir, Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Abdulloh Muborak shu oqim vakillaridir, IX asr ortalaridan oriflik davri boshlanadi. Endilikda xonaqohlar vujudga keladi, tasavvuf maktablari shakllanadi, XIII - XIV asrlarga kelib, unda nazariy-ilmiy jihatdan ham yuksalish davri kuzatiladi.

Tasavvuf insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'lidir. Bu yo'l to'rt qismga ajraladi:

1. Shariat (ma'naviy komillikning ilk bosqichi)
2. Tariqat («yo'l», tasavvufning amaliy qismi). U albatta ustoz (pir, murshid) bilan egallanadi.
3. Ma'rifat («bilmoq», bu bosqichga erishgan zohid dunyoning hamma jismida, har bir voqe-a-hodisada Olloh irodasini, uning sifatlarini ko'ra oladi. Ammo bu hali o'zlashtirishning aql bilan bog'langan bosqichi)
4. Haqiqat (tasavvufning yuqori - oliy bosqichi).

Tasavvufda haqiqat yo'li «Suluk», bu yo'lga kirgan inson «Solik» (Solih) deb birlik, Olloh bilan birlakgish yo'li esa vahdat deb ataladi.

Tasavvuf oqimi o'z adabiyotini ham yuzaga keltirdiki, Muhammad G'azzoliy, Yusuf Hamadoniy (vaf. 1141) singari allomalar uning nazariy asoslarini yaratdilar, Turkiy adabiyotda tasavvuf talimoti Yusuf Xos Hojibning

«Qutadg'u bilig» asaridan boshlab ifodalana va rivojiana boshlagan. Ahmad Yug'nakiy va Ahmad Yassaviylar ham tasavvuf adabiyotining zukko bilimdonlaridir.

Tasavvuf ahli bilishning falsafiy yo'llari – tasavvur, his, mantiqiy tafakkur va hokazolarni ham eslab o'tadilar. Biroq ularning fikricha, aqliy-hissiy bilish zohiri – dunyoviy bilimga kifoya qiladi, xolos. Ilohiyotni anglash uchun esa aql ojjizdir. Ilohiyot ilmi aqlga sig'maydigan, aql o'lchovlaridan baland turadigan ilmdir. Ibn Arabiy aytadiki, Xudo haqida ham aql tili bilan gapirish mumkin, lekin aql kuchi bilan Uni bilish mumkin emas. Aql isbotni talab qiladi, dalil – tajriba bilan ish ko'radi. Vaholanki, Xudoning borligi, zotu sifatlarini dalil orqali isbotlash mushkul. «Ma'rifat Haq tomonidan yuboriladi. Bu mening fikrim emas, balki ilohiy ilhomdir», deb yozadi Ibn Arabiy. Olloh bilan xilvatda qolgan mard insonda shunday holat yuz beradiki, unda Ilmlardan ilhom paydo bo'lib, Uning rahmati bilan yuksaladi. Darveshdagi bu holat oddiy odamlar va isbot-dalil ahli uchun qorong'idir. Bu avliyolarga yuboriladigan laduniy bilim. Boyazid Bistomiy kalom ahliga qarab degan ekan: «Siz o'z ilmlaringizni jonsiz narsalardan olasiz, biz esa abadiy tirik Zotdan olamiz». Boyazid jonsiz narsalar deb moddalar-ashyolarni nazarda tutadi. Laduniy – rabboniy bilim Xo'ja Xizrnning bilimiga qiyos etgulik. Xo'ja Xizr hayot suvi – abadiy tiriklik suvini ichgach, u hamma voqeadan, hamma ahvoldan, hamma kechinmalardan xabardor; narsalar hosiyati va qonuniyatini oldindan biladi, Xudo unga o'z bilimini tuhfa etgan⁴⁵.

Asli Ispaniyada tug'ilib, musulmon olamini kezib chiqqan, o'zining «Futuhoti Makkiya», «Fususul hikam» asarlari bilan tasavvuf falsafasiga ulkan hissa qo'shgan SHayxi kabir Ibn Arabiy (1165–1240) inson bilimlarini uchg'a bo'lgan: birinchisi – aqliy-hissiy bilimlar, ikkinchisi – hol ilmi (holat, mahol ilmi ham deydi u). Uchinchisi – sirru asror ilmi. Birinchi ilm zohiri fanlar bilan shug'ullanadigan kishilar ilmi bo'lsa, ikkinchi ilm hol martabasiga ko'tarilgan so'fiyalar ilmi hisoblanadi, ya'ni vajd holatida kashf etilgan ilm. Uchinchi ilm – avliyolar ilmi. Bu ilm muqaddas ruhlar orqali keladi, shu'la – nur ko'rinishida qalbga kiradi.

Imom G'azzoliy asarlari. Zayniddin Muhammad Abu Hamid binni Muhammad Ahmad G'azzoliy Tusiy muslimon olamida "Hujjatu-l-isлом" unvoni bilan mashhur. U Xurosning Tus shahrida tug'ilgan, bolaligi G'azzola qishlog'ida kechgan. Tusda Ahmad Rodugoniyan, Nishopurda Juvayniydan ta'lim olgan. Bag'dodda to'rt yil mudarrislik qilgan, Suriya, Iskandariya, Andalusiya singari muslimon o'lkalarida yashagan, umrining oxirida o'z qishlog'ida xonaqoh tashkil qilib, o'sha erda vafot etgan.

Imom G'azzoliyning quyidagi asarlari "Qomusu-l-a'lam"da zikr qilingan: "Al-Basit" («Javhar»), "Al-Vasit" («O'rtalik»), "Al-Va'jiz" («Qisqa»),

⁴⁵ Xizr obrazi haqida qarang: Тохир Рашид Хўжа. Хизр образи ва унинг классик шеъриятдаги талкини (XV асрнинг биринчи ярми шеърияти мисолида)/Ўзбек тили ва адабиёти, №2, 1991, 3-8-бетлар.

"Al-Xulosa", "Al-Mustafو" («Saylangan»), "Al-Munhal" («Nihollik»), "Al-Muntahal" («Nihoya»), "Taxofutu-l-falosifa" («Faylasuflarning ixtiloflari»), "Mahaku-n-nazar" («Qarashlarni aniqlash»), "Me'yoru-l-ilм" («Ilм me'yorlari»), "Al-Maqosid" («Maqsadlar»), "Haqiqatu-l-qavlayn" («Ikki so'z haqiqati»), "Ihya al-ulum ad-din" («Diniy ilmlarni jonlantirish»), "Ma'kulot" («Tushunchalar»), "Ajibu-l-qulub" («Ajoyib qalblar») va boshqalar.

Ulug' allomaning "Kimiyyoti saodat" asarining zohiriylar tarjimasi "Dil haqiqati" bo'lib, bu asar musulmonlik unvonining paydo bo'lishidan boshlab to tasavvufning nozik tushuncha va ishoratlari sharhiga bag'ishlangan.

Tasavvufning dastlabki vakillari Boyazid Bastomiy, Mansur Halloj, Muhyiddin Arabiy kabilari tan olinmagan va turli jazolarga tortilganlar. Keyinchalik Imom G'azzoliy yuqoridagi asarlari va Abulqosim Qushayriy kabi olimlar shariat va tariqatni o'zaro muvofiqlashtirib, tasavvuf g'oyalarni tadqiq va targ'ib qilganlar.

Tariqatni tasavvufning amaliy qismi deb ta'riflaydilar. Darhaqiqat shunday, chunki pir-muridlik qoidalari, odobiga riosa etish, solih bajarishi kerak bo'lgan barcha yo'riqlar, irodat va ishorat usullari shu tariqat ichiga kiradi. Tariqat va uning maqomotlari, ma'lumotlarga qaraganda, birinchi marta Zunnun Misriy tomonidan bayon etilgan, so'fiyona holatlar, karomatlarni so'z bilan ifodalagan. Agar Zunnun tasavvufdan birinchi bo'lib «so'z aytgan» bo'lsa, Junayd Bag'dodiy «bu ilmga tartib berib, bast qilib (jamlab), kutub bitdi («Nasoyimul muhabbat»). So'ngra Junaydning kichik zamondoshi SHayx Abubakr Shibliy bu ilmni minbar ustiga olib chiqib, elga oshkor qildi. Birinchi bo'lib muridlarga rahnamolik qilgan ham yuqorida nomlari tilga olingan shayxlar bo'lgan.

XX asr 20-30-yilarida yashab ijod qilgan Miyon Buzruk o'zining 1930-yilda nashr etilgan "O'rta Osiyo va o'zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash" kitobida tasavvufning yuzaga kelishida yunon falsafasi hamda ibroniy, nasroniy, zardushtiy va buddaviylik singari ta'siri kuchli bo'lganini yozadi. Bu qarashni bir qator atoqli olimlar ma'qullamaydilar. Miyon Buzruk tarixda avval boshqa dinda bo'lib, keyinchalik islam didniga o'tgan Ibn us-Sabo kabi olimlar islam dini niqobi ostida buzg'unchi va chirkin g'oyalarni tarqatganligini ham misol tariqasida keltiradi⁴⁶.

Tasavvufiy tushuncha va yashash tarzi asosan tariqat vositasida xalq orasida keng tarqaldi. Bugungi tariqatlarning ko'pi XII asrda yuzaga keldi. Oldingi asrlarda mavjud bo'lib, tasavvufiy asarlarda o'n ikkita deya qabul qilingan tariqatlar, keyingi davrlardagi tariqatlarda mayjud barcha unsurlarga ega bo'lmay, ko'proq mashhur so'fiylar atrofida shakllangan tasavvuf maktablaridir. Hujviriy «Kashful mahjub» asarining uchinchisi bo'limini bu tariqatlarga va ularga mansub so'fiylar ko'proq e'tibor bergen mavzularga

⁴⁶ Bu haqda qarang: Абдулхайров Б. Миён Бузрукнинг ўзбек адабиётида тасаввуф масаласига оид карашлари //ЎТА, 2002, №3. 36-б.

ajratgan, ularni keng miqyosda o'rgangan, islomiy qoidalarga muvofiq va zid tomonlarini izohlagan.

Endi ushbu tariqatlardan mashhurlarini va ularning asoschilarini tanitishga harakat qilamiz:

Keyingi davrlardagi tariqatlar va asoschilar:

1. **Qodiriya tariqati** islom olamida keng tarqalgan tariqatlardan biri. Asoschisi va piri Abulqodir Giyloniy (1160 m.y.v.e.) bo'lib, «g'avsul a'zam», «g'avsul sadalayn» kabi sifatlar bilan tanilgan, U shariat ilmlari va tasavvuf ilmida buyuk olim bo'lib etshadi. Asarlari: «Alkunya li tolibi tariqil haq» (suluk va axloqqa oid), «Fathur Rabbioniy» (72 va'z va 1 zayldan iborat), «Hizbu basharil hayot» (tasavvufiy avroddan iborat) va hokazo. Bu tariqatning markazi Bag'doddadadir.

2. **Yassaviya tariqatining** asoschisi Xoja Ahmad YAssaviy (1166 m.y.v.e.) bo'lib, oddiy xalq ommasi anglaydigan uslubda so'fina hikmatlari she'rlari bilan atrofidagi odamlarni haq yo'lga chaqiradi, ularning majaviyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, Mashhur asari «Devoni hikmat»dir.

Xojayun tariqati deya nom berilgan yassaviya tariqati, avval Sayhun va Toshkent, keyinroq Xorazm, Mavarounahr, Xuroson, Ozarbayjon va hattto Onado'li diyorlarida keng tarqaldi.

3. **Naqshbandiya tariqatining** asoschisi Bahouddin Naqshband (1389 m.y.v.e.) bo'lib, Osiyo va Onado'li zaminida keng tarqalgan. Bu tariqat yassaviya tariqatidan ham kuchliroq nufuzga ega bo'lgan.

4. **Rifoiya** tariqati bugun Yaqin SHarq o'lkalari, Onado'li va Rum elida keng tarqalgan bo'lib, uning asoschisi Ahmad Rifoiy (m.1183 y.v.e.)dir.

5. **Mavleviya** tariqati islom dunyosining eng muhim va juda keng tarqalgan tariqatlaridan biri bo'lgan va Maylono Jaloliddin Rumiy (m.1273 y.v.e.) uning asoschisidir. Rumiyning «Masnaviy», «Devoni kabir» va «Fihi mo» fihi asarlari dunyoda eng mumtoz asarlardan sanalib, boshqa tillarga ham tarjima qilingan.

6. **Suhravardiya** tariqatining asoschisi Shahobiddin Abu Hafs Suhravardiy bo'lib, u sunniy so'fiylikning eng mashhur namoyandalaridan. Uni mashhur qilgan asari «Avoriful maorif» nomli asaridir, Bundan tashqari Suhravardiyning «Jazbul qulub ilk muvasalatil» va «Kashfun nasoyihil imaniya va kashful fazoihil yunoniya» nomli asarlari ham mavjud.

7. **Kubroviya** tariqati. Asoschisi shayx Najmiddin Kubro (m. 1154-1226) bo'lib, tasavvuf tarixidagi eng yorqin siymolardan biridir. eng mashhur asari «Usuli ashara» risolasidir, bu asar barcha tariqatlarga o'z ta'sirini ko'rsatgan. «Favoyihul jamol» asari tasavvuf ruhshunosligi mavzusidadir. Kubraviylik ko'proq O'rta Osiyo, Rusiya va eron mamlakatlarida keng tarqalgan,

Yaqin yillargacha maydonga chiqqan tariqatlarning ro'yxatini tuzgan olim Massignonning yozishicha, Islom tariqatlarining sanog'i 394 ta ekan.

Tasavvufning Sharqda keng tarqalishiga sabab uning arab, fors va turkiy tillarda buyuk bir she'riyatning vujudga keltirishidir. VIII-XI asrlarda Robia Adviya, Mansur Halloj singari ulug' so'fiylar ijodi bilan boshlangan so'fiyona

ash'or X-XII asrlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi, o'ziga xos obrazlar, timsollar olami, alohida ramzlar, uslub va usullar shakllari vujudga keldi.

So`fiy darveshlar, shu tariqa ijod ahliga yaqinlashib bordilar va ikkinchi tarafdan, ijod ahli ham tasavvufga tomon intildilar. So`fiy jamoalarini orasida «rind»lar zohiran o`zlarini bexud, beparvo qilib ko`satuvcchi, botinan esa mutafakkir va zakiy bo`lgan, dunyoning nobarobarligidan,adolatsizliklaridan zada bo`lganlar alohida ajralib turardi, ular bir-biriga rozi dil aytish, hasratlashish uchun yig'inlar uyuştirardilar. Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida «rindi bodaparast»larning axloqini bayon etib, ularni Xudo oshiqlari, Haqning sevgan bandalari deb ta`riflaydi. Rindlar davrasining o`z shoirlari, hikoyachi latifago`ylari, sozandayu mutriblari bo`lgan. She`r va musiqiying inson ruhiga ta'sir etash kuchini sezgan tasavvuf shayxlari xonaqohlardagi yig'inlarda bundan foydalanishga intilganlar. Ayniqsa, samo (arabcha: eshitish) yig'inlarini qizitishda she`r va musiqa juda qo'l kelardi. Shu tariqa xonaqolarda samo` majlislari uyuştirish, she`r va raqs bazmini tashkil etish odat tusiga kiradi.

Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumi, Ibnil Arabiy, Jomiy, Bedillar Sharqning buyuk faylasuflari, lekin ularning barcha irfoniy asarlari she`r bilan yozilgan. Irfoniy asarlarni ham ikki qismiga ajratish mumkin: bir qismi tasavvuf ta`limotini bayon etgan, So`fiyona istilohlar bilan fikr yuratadigan asarlar. Chunonchi, Abulmajid Sanoiyning «Haqiqatul Haqoyiq», Jomiyning «Sharhu ruboiyot», Bedilning «Muhiti a'zam», Sufi Olloyorning «Sabotul ojizin», Sayid Qosimning «Haqiqatnomax» asarlari bunga misoldir. Bu asarlarni tasavvuf darsliklari sifatida qabul qilsa buladi. Chunki mualliflar ushbu ta`limotni nazm orqali tushuntirishni maqsad qilib olganlar.

Ikkinci qism adabiyotda tasavvuf g`oyalari kechinma va hayajonlar, timsol va tamsillar orqali tasvirlanib, talqin qilinadi. Bu asarlarni tasviriy talqin yoki badiiy tasvir (interpretatsiya) deyish mumkin. Abudmajid Samoiyining «Sayrul ibod», Farididdin Attorning «Ilohiynoma», «Bulbulnoma», Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi ma`naviy», Xusrav Dehlaviyning «Matla`ul anvor», Navoiyning «Hayrat ul-abror» va «Lison ut-tayr» asarlari shu xildagi asarlardir. Bu asarlarda So`fiyona - falsafiy ma`nolar, she`riy satrlar, badiiy-ifodali til bilan talqin etilishdan tashqari yana juda ko`p masal va hikoyatlar, ramziy tashbehtar keltirilib, kitobxonga sharhlab berilgan. «Mantiqut tayr» va «Lison ut-tayr» kabi dostonlarda ishtirot etuvchi personajlar ham ramziy: Hudhud pir timsoli bo`lsa, o`ttiz qush solik muridlar timsolidir. Attor va Navoiy tasvirlagan etgi vodiylar esa solik ruhining yetti xil tovlanuvchi manzarasi - Ilohgaga vosil bo`lish bosqichlari, ma`rifat zinalarini bildirib keladi.

«Lisonut tayr»da oltmishdan ortiq har xil hikoyatlar bor. Ularda tariyat va shariat, irfoniy bilish masalalari bilan bogliq bo`lgan, shuningdek inson axloqiga oid masalalar ustida fikr yuritiladi. Hikoyatlar xalq ijodiyoti xazinasidan olingen. Ammo ularidan qelib chiqadigan ibratlari xulosalar («qissadan hissa») So`fiyona ma`nolar talqiniga moslashtiriladi. Masal va hikoyatlar axloqiy mavzular, chunonchi, nafsning yomonligi, dunyoga mehr

quyishning arzimasligi, xasislik falokati, saxiylik sharofati, sadoqat, vafo va hokazolar haqida bahs etadi. Umuman, so'fiyona adabiyotda o'git ohangi, pandu nasihat yetakchilik qiladi. Bu tabiiy. Chunki shayxlar o'z muridlarini suhbat orqali, nasihat qilish bilan tarbiyalaganlar. Aynan ana shu suhbatlarda hikoyatlar, she'riy parchalarda foydalanilgan. Nasihat adabiyotining o'ziga xos jozibasi, ta'sir kuchi va uslubi bor.

"Turk mashoyixlari" tushunchasi Navoiy zamonida "yassaviya tariqatidagi shayxlar" degan sof tasavvufiy ma'noni anglatadigan istiloh edi. Yassaviya shayxlarini "turk mashoyixlari" deyishga sabab esa, yassaviya sof turkona ya'ni, turkiy el-u elatlar orasida keng yoyilgan bir tariqat edi. Shuning uchun "Nafahot ul-uns..." hamda "Nasoyim ul-muhabbat..." ning qaysi sahifasida "turk mashoyixlari" ifodasiga duch kelinsa, ularning bari yassaviya tariqatiga mansub shayxlar deb tushunilishi lozim. O'zi turk qavmidan bo'lsa-yu, boshqa tariqat vakili hisoblansa, bu so'fiy "turk shayxlar" istilohiga kiritilmagan.

Hozirgi O'zbekiston hududida yashab, faoliyat yuritgan Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Najmuddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy kabi avliyolar bugungi xalqimizning buyuk iftixonlaridir.

1049-1140-yillarda Buxoroda yashagan Yusuf Hamadoniy yurtimiz hududida tasavvuf g'oyalarining keng yoyilishiga katta hissa qo'shgan. U katta obro'ga ega bo'lganligi uchun Turon va Xuroson hukmdori Sulton Sanjar 1110-yilda Samarqanddag'i voliysiga maktub yo'llab, Yusuf Hamadoniy holahvolini surishtiradi va ellik ming tanga hadya yuboradi. Uning muridlaridan bo'lgan shayxlardan biri oriflar sultoni Xoja Ahmad Yassaviydir. U zot XII asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisidir. Xoja Ahmad Yassaviyning tasavvuf ta'lomi tarixida tutgan o'rni g'oyatda katta, ta'sir doirasi juda keng edi. Yassaviy tariqati o'z davridayoq deyarli Markaziy Osiyoga yoyila boshlagan. Movarounnahrдан buyuk Turkiston, Oq Edil, Kavkazgacha, Xuroson, Eron, Rumgacha, Badaxshon va SHarqi Turkistongacha kengayib borgan edi. Asrlar davomida Yassaviy tariqati muayyan tarzda yashab keldi va kelmoqda.

Darhaqiqat, IX asrdan ongli ravishda rivojlana boshlagan tasavvuf irfonii XII-XIII asrlarda o'zining oliv bosqichiga ko'tarilib, naqshbandiya tariqatida mukammal nihoya topdi. SHU sababli keyingi asrlarning eng keng tarqalgan (g'arbda Hijozu Yaman, shimolda Bolqonu Volgabo'y, janubda Indoneziyagacha urf bo'lgan) tariqati naqshbandiya bo'ldi. Naqshbandiya yo'li, aytib o'tganimizdek, Bahouddin Naqshband hazratlaridan ancha ilgari Yusuf Hamadoniy va Abduxoliq G'ijduvoni (vafotи 1179)lar tomonidan «Xojagon» suluki sifatida asos olgan bo'lib, uning mashhur o'n bir qoidasidan sakkiztasi o'sha XII asrdayoq shakllangan.

Ahmad Yassaviy to'g'risida dastlabki ma'lumotlar ko'plab ulug'donishmandlarning, jumladan So'fiy Muhammad Donishmand (XII asr), Xoja Muhammad Porso, Alisher Navoiy, Faxriddin Ali Safiy, Hasan Xoja Nisoriy,

Sulton Ahmad Haziniy, Muhammad Tohir Eshon Xorazmiy, G'ulom Sarvar Lohuriy, Hisomuddin Sig'noqiy va boshqalarning asarlarida keltirilgan. Ushbu mualliflar asarlarida Xoja Ahmad Yassaviyni «Oriflar sultoni», «Turkiston piri», «Turkiston ahlining qiblayi duosi» kabi yuksak, sharaflı nomlar bilan atab kelishgan.

“Xoja Ahmad Yassaviy”, deydi filologiya fanlari doktori I.Haqqulov, – turkiy dunyoning eng mashhur va markaziy siymolaridandir, Yassaviy ilk tariqat muassisasi va tasavvuf she’riyati asoschisi sifatida turkiy xalqlarning diniy, axloqiy, irfoniy va ma’naviy hayotiga kuchli ta’sir ko`rsatgan. Ahmad Yassaviy hayotiylik keng tarmoq yozgan yassaviylik tariqati va hikmatnaveslik an’anasi, ayniqsa, O’rta Osiyoda XX asr boshlariga qadar izchil davom etib kelgan. Ahmad Yassaviy ijodi tahqirlangan sho’ro zamonlarida xalqimizning uning ijodiyotidan ajralmaganining sababi ham iymon e’tiqodining sobit qolganidandir. Sho’ro zamonlardagi ta’qib va cheklashlarga qaramasdan uning muborak nomi va she’rlari xalqimizning ko`nglida va xotirasida yashab keldi.

Yassaviydan keyin “Nasabnama”, “Risola dar tarjimai Ahmad Yassaviy”, “Mir’otul qulub”, “Hadiqatul oriffin”, “Manbaul abhor fi riyozi abror”, “Hujjatul abror”, “Javohirul abror min amvojil bihor”, “Jome’ ul-murshidin”, “Lamahot min nafahotil quds”, “Hujjatu zokirin”, “Samarotul mashoyix”, “Silsilai nisbati mashoyixit turk” kabi bir qator qadimiylar asarlarda uning hayoti, ijodi, tariqati hamda ma’rifiy-irfoniy fikr-qarashlariga keng o’rin ajratilgani yassaviylikning har bir davrda ham e’tiborga molik mavzulardan ekani ma’lum bo’ladi.

Markaziy Osiyoda tasavvuf ta’limotining rivojlanishida xorazmlik mutafakkir olim, shoir va vatanparvar shayx Najmiddin Kubro (Ahmad ibn Umar) ham alohida o’rin egallaydi. Naqshbandiya silsilasining o’ndan ziyod mashoyixlari O’zbekiston tuprog’ida dafn etilgan.

Tasavvuf she’riyatidagi ayrim istilohlar

Boy va rang-barang mumtoz she’riyatimizning asl tarovat-u ma’nolarni to’g’ri idrok etmoq uchun tasavvuf ta’limotidan xabardorlik, tasavvuf istilohlarini bilish zarur, Tasavvufdagi eng ko’p qo’llanadigan istilohlar quyidagilar:

1. Ma’shuqa – Olloh, payg’ambarimiz Muhammad alayhissalom, komil inson.

2. Ishq - tasavvuf she’riyatda ishq ikki xil: a) majoziy (insoniy muhabbat) b) boqiy va o’lmas ishq (insonning Ollohga ishqqi).

3. May, sharob - Oliohning ishqisi.

4. Boda - iymon.

5. Soqiy, piri mayxona, piri ishq - ma’naviy ustoz, pir.

6. Jom, Qadah - kamolga yetg'an kishining qalbi.

7. Lab - komil va orif kishining purma’no so’zi.

8. Bo’sa – ma’rifatning sirr-u asrorlaridan bahramandlik vositasи.

9. Vasl ahli - komillikka yetishgan, Haqqa yaqinlashib borayotgan kishi.

10. Darvesh - Haqqa oshiq bo`lgan, uning visoliga erishmoqni o`ziga vazifa qilib qo`ygani tufayli, asosiy maqsadni Allohnini izlashga bag`ishlagan kishi.

11. Butxona, xarobat, mayxona - oqii, donno, kamolotga yetgan kishilarning ilohiyot, Ishq haqida majlis quradigan, majlis quradigan, Ollo nomi muttasil zikr qiladigan joy.

12. Kofir - insonni yomonliklarga undaydigan nafs.

13. Ko`ngil - Ollohnining inson bag`ridagi uyi.

14. Lomakon - jismi yo`q, faqat ruhlargina yashovchi olam.

15. Tajalli - jilvalanish; tasavvufda insonda Aldoh jamolining jilvalanishi.

16. Qalandar - dunyoning barcha huzur-halovati-yu, aysh-ishratidan, orzu-havasidan voz kechib, Haqni izlab, kezib yuruvchi so`fiysiyrat darveshlar va boshq.

17. Ilmul yaqin – bilim oraqlı ishonish. Masalan, deylik, menga tushuntirib aytdilarki, olov issiqlir va u kuydiradi, men bunga ishondim. Tahsiliy bilimga ishora

18. Aynul yaqin – to`liq ilmiy ishonch, tajriba qilib ko`rib ishonish. Men o`zim sinab ko`rdim: olov haqiqatdan ham issiqlir va u kuydiradi. O`z ishtirokidagi tajribaviy bilimni anglatadi

19. Haqqul yaqin – haqiqiy ishonch, ya`ni: men o`zim olovda yondim va olovning yondirish kuchi, xususiyatiga batamom ishondim. o`zi tajriba vositasiga aylanib, haqiqatni anglash bilimidir Bu – Haqqa yetish ilmi. Ko`rinadiki, yuqorida Ibn Arabiy tasnif etgan ilm darajalari bilan hozir ta`rif etganimiz uch bosqich orasida yaqinlik bor.

Alisher Navoiyning «Lisonut tayr» asarida «Parvonalar majmu`i sham’ haqiqati sharhida» («Faqr-u fano vodiysining adosi» bob) degan hikoyat bor. Unda keltirilishicha, parvonalar bir kecha yig`ilishib, sham’ga tolib bo`ladilar; kelishib olib, sham’ning mohiyatini anglamoqchi bo`ladilar. Shunda ulardan biri sham’ga yaqinlashadi, uning munavvar nurini ko`rib, qaytib kelib boshqalarga hikoya qilmoqchi bo`ladi. Ammo parvonalar uning so`zidan hech narsa anglamaydilar, chunki u sham’ nima ekanimi tushuntirib bera olmaydi. SHu zaylda yana bir necha parvona sham’ atrofini aylanib kelib, ko`rganlarini so`zlaydi. Lekin «topmadni mushkul kushod andin dog`i», maqsad amalga oshmaydi.

Navoiy bundan ikkita xulosa chiqargan: biri – Haq nuriga g`arq bo`lib, Uning jamoli haroratida yonmaguncha Haqni anglab bo`lmaydi. Ikkinchisi – Haqqa etgan odam (kuygan parvona kabi) bu sirmi bayon qilib bera olmaydi. Bu – haqqul yaqinning xuddi o`zidir. Ya`ni foniy bo`lish, subyektning ob`ektga aylanishi, solik vujudining batamom yo`qolib, iloh olamiga qo`shilib ketishi.

Adabiy janrlar va ularning taraqqiyoti. She`riyat nazariyasiga oid ilmiy asarlar avval arablarda, keyin forslarda va undan keyin turkiy xalqlarda yaratilgan. Bu jarayonda o`zaro ta`sirlanish, albatta, bo`lgan. Dastlabki yaratilgan risolalarda yagona an’ana mavjud bo`lgan: poetikaga doir kitoblarda

badiiy san'atlarning yuksak namunalari Qur'oni karim va Hadisi sharifdan keltirilgan. Jumladan, arab mumtoz poetikasining poydevori hisoblangan Abdulloh ibn Mu'tazzning "Kitobu-i-badi'" risolasida Qur'on "kitoblarning onasi" deya atalib, misollar shu muqaddas kitobdan keltiriladi. Keyingi davrlarda yaratilgan Nasr binni Hasanning "Mahosinu-l-kalom" ("Go'zal so'zlar"), Qudama ibn Ja'farning "Naqdu-sh-she'r" ("She'r tanqidi") asarlarida ham shu jihat ustuvor hisoblangan.

Bu yo'nalishdagi forsiyda bitilgan risolalarining ibtidosi Umar Rodiyoniyning "Tarjumonu-l-balogs'a" ("Balog'at tarjimon") asari sanaladi. Rashididdin Vatvotning "Hadoyiqu-s-sehr" ("Sehrli bog'lar"), Atoulloh Husayniyning "Badoe'u-s-sanoe" ("San'at yangiliklari") risolalari shu asarning mantiqiy davomchilari hisoblanadi. Shu mazvuga oid ilk turkiy risola Shayx Ahmad Taroziyining "Funun ul-balogs'a" asari hisoblanadi. Bu asar turkiy tildagi poetikaga oid XV asrning nodir namunasidir. Taroziy o'zigacha bo'lgan davrdagi "ilm'i bade'"ga taaluqli asarlarning tajribalarini imkon qadar umumlashtirishga, adabiy mavzu, janr, badiiy san'atlar haqidagi ilmiy xulosalarini kengaytirib borishga intilgan. Risola 1436-1437 yillarda (hijriy 840) yozilgan⁴⁷. Uning topilishi va ilm ahliga e'lon qilinishida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Abduqodir Hayitmetovning hissasi katta. Olim risola haqidagi ilk ilmiy axborotni "Fan va turmush" jurnalining 1994-yil 1-sonida "Taroziy qomusi" nomi bilan bergen edi. Shu yilning 18-mart sonida "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida bu haqdagi ma'lumot "Shayx Ahmad Taroziy: "Funun ul-balogs'a" nomi bilan bosilib chiqadi. Asarning 1994-yildagi yagona tabdil qilingan nashri ham A.Hayitmetov boshchiligidagi amalga oshirilgan.

"Funun ul-balogs'a"ni zamondoshlari "Latoyifi Tavoyif" deb ham atashgan ekan. Asar o'z davridagi adabiy hayot ehtiyoji va talablari asosida yuzaga kelgan. Boisi unga qadar turkiy tilda qalam tebratuvchilar uchun tayanish mumkin bo'lgan biror ilmiy-nazariy manba yo'q edi. Vaholanki, 15-asrda turkiy tilda ash'or bitadigan, ijod qiladigan qalamkashlar soni toboro ko'payib borayotgan edi. Shu ma'noda Taroziyining bu asari o'zbek xalqining ma'naviy va madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'langan edi, deyish mumkin.

Turkiy she'rshunoslik sohasida Shayx Ahmad Taroziyining "Funun ul-balogs'a" risolasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'zbek tilida yaratilgan ilk nazariy manbadir. Shayx Ahmad Taroziyining "Funun ul-balogs'a" risolasi adabiyotimiz tarixida muhim ahamiyatga ega. Turkiy mumtoz she'rshunoslik, umuman, adabiyotshunoslikni o'rganish borasida bu asar eng avvalgisi va eng asosiysi sanaladi. Adabiyotning har uchala tarkibiy qismlari (ilm'i bade', ilmi aruz, ilmi qofiya) haqida Taroziy asari keng ma'lumot beradi. Ayniqsa, uning

⁴⁷ Asarning fotonusxasi 1993-yil E.Umarov tomonidan AQSHdan olib kelingan. U 1581-yil Buxoroda Mir Kulanga hoji tomonidan ko'chirilgan (ÝTA, 1993, №5 – 72-74-6.)

ilmi bade’ga bag‘ishlangan qismi mumtoz adabiyotimiz nazariyasi uchun bosh manbadir. To`g`ri, “Funun ul-balogs”dan oldin ham bu soha bo`yicha o`nlab risolalar yaratilgan edi, biroq ularning barchasi yo arabiylar, yo forsiy tillarda edi. Taroziy risolasi esa shu tipdagisi risolalarning turkiyadagi dastlabkisi bo`ldi va o`zidan keyin o`zbek tilida yaratilgan adabiyotshunoslikka oid har qanday ilmiy asar uchun asos vazifasini o`tadi. “Funun ul-balogs” asari hali tugal o`rganilgan emas. Ushbu kitob fotonusxasi 1993-yili filologiya fanlari doktori Ergash Umarov tomonidan Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti kutubxonasiiga taqdim etilgan. Asarningilm ahliga e`lon qilinishida O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Abduqodir Hayitmetovning hissasi katta. Olim risola haqidagi ilk ilmiy axborotni “Fan va turmush” jurnalining 1994-yil 1-sonida “Taroziy qomusi” nomi bilan bergen edi. Shu yili “O`zbekiston adabiyoti va san`ati” gazetasining 18-mart sonida bu haqdagi ma`lumot “Shayx Ahmad Taroziy: “Funun ul-balogs” nomi bilan bosilib chiqadi. Asarning 1996-yildagi yagona tabdil qilingan nashri ham A.Hayitmetov boshchiligidagi amalga oshirilgan. Bundan tashqari, A. Hayitmetov “Adabiy merosimiz ufqlari” kitobida ham bu haqda ma`lumot bergen. Bu asarning xorijda ham qiziquvchilar bo`lib, AQShdagi Indiana universiteti professori, sharqshunos olim Devin Devis 2005-yilda asar tahliliga bag‘ishlangan “Navoiyning salaflari Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning asarida: XV asrдан buyon Markaziy Osiyo madaniyatshunosligida unutilgan manba” nomli maqola e`lon qilgan. Adabiyotshunos olim, professor H. Boltaboyev “Sharq mumtoz poetikasi” kitobining Adabiy turlari. She`r navlari; She`r tuzilishi. Aruz ilmi; Badiiy san`atlar; Qofiya ilmi nomli boblarida “Funun ul-balogs”dan ko`plab ilmiy ma`lumotlar bergen. Adabiyotshunos I. Adizova “Uvaysiy ijodida janrlar takomili” risolasida “Funun ul-balogs”dan ba`zi ma`lumotlar keltiradi. 2012-yilda Jalolbek Yo`ldoshbekov asar haqida “Funun ul-balogs” asarida mumtoz poetika muammolarining ishlanishi” nomli dissertatsiya yozgan.

Ushbu kitob fotonusxasi 1993-yili filologiya fanlari doktori Ergash Umarov tomonidan Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti kutubxonasiiga taqdim etilgan. “Hijriy 840 — milodiy 1436-37 yillarda yaratilgan “Funun ul-balogs”ning bizga qadar etib kelgan ayni nusxxasi asar yozilganidan 144 yil keyin Buxoroda Mir Kulanki al-Hoji degan kotib tomonidan ko`chirilgan. 1581-yili Taroziyning “Funun ul-balogs”sini ko`chirgan “Mir Kulanki al-Xoji” nomi bilan mashhur kotibning Mir Husayn Husayniy ismi ham mavjud”. “Ushbu qo`lyozmaning asli 139 varaqdan iborat bo`lib, Buyuk Britaniyaning Oksford shahri “Bodean kutubxonasida 0 0792 145 tartib raqami ostida saqlanadi”.

Taroziy o`z davri adabiy muhitidagi kamchiliklarni anglagan holatda shunday deydi: «...Ammo ko`p kishi bu tariqada necha ta`lif qilibturlar va lekin hech kimarsa nazmnинг tamom fununin berarda jam` qilmaytur. Va yana bu sababdin rag`bat havasi g`olib bo`lib, havas dilbarini ko`ngul pardasindan bu tariqa yuz ko`rguzdikim, nusxa qalamg`a keltursakim, nasr va nazmnинг jam`

qavoyid va aqsomig‘a mushtamil bo`lsa, to har kim balog‘atqa moyil va fasohatqa qobil erur, foyda olsa”.

Dastlab, Atoulloh Husayniy va uning risolasi haqida ikki og‘iz so‘z: Atoulloh Husayniy taxminan XV asrning o‘rtalarida Nishopurda tug‘ilib, 1513-yilning oxirida Mashhadda vafot etgan. U oliv ma‘lumotni Hirotda olgan. Navoiy o‘zining “Majolisu-n-nafoyis”ida A. Husayniy haqida shunday deydi: “Mir Atoulloh Nishopurdindur. Andin ilm tahsili uchun shahrg‘a keldi. “Qofiya” va “Mutavassit” o‘qur erdi. Donishmand bo‘lg‘uncha bir nav’ mustahsan maoshqa muvaffaq bo‘ldikim, andin ortuq bo‘lmoq mumkin ermas. Bo vujud- donishmandliq, she‘r-u muammo-vu sanoyi‘da dag‘i mahorat hosil qildi. Muammog‘a ko‘p mashg‘ul bo‘lur erdi. Halo saboq kasratidin anga avqoti vafo qilmas. Ammo sanoyi‘da kitobe tasnif qiliptur “Badoyi‘-i Atoiy”ga mavsumdur. Emidi bayozg‘a bordi, ma‘lum emaskim, bu fanda hargiz hech kishi oncha jomi‘u mufid kitob bitimish bo‘lg‘ay. Bo vujud-i ixtisor, maqlub-i mustaviy san‘atidakim, andin mushkilroq san‘at bo‘lmas, bu bayt ul risolada aning xossa baytidurkim:

Shakardahano g‘ami nadorid,
Dayro daniy-i mug‘ona darkash.

Aning tab‘i diqqatig‘a bu bayt dalil-u bastur. Faqir go‘stoxliq yuzidin Mirg‘a dermenkim, fazoyil-u kamolizingiza ko‘ra darveshligingiz ham bo‘lsa erdi. Bilurkim, musallam tutmasa, sobit qilurmen, zarurattin musallam tutar”⁴⁸.

“Badoyi‘-i Atoiy”, ya‘ni A. Husayniyning “Badoe‘u-s-sanoe” asari fors tilida yozilgan bo‘lib, uning bir necha qo‘lyozma nusxasi bor. Risolaning 1974-yilda Dushanbeda “Irfon” nashriyotida Rahim Musulmonqulov tayyorlagan tojikcha nashri ham mavjud. Bu asar o‘zbek tiliga tarjima qilingan bo‘lib, bu ishni adabiyotshunos Alibek Rustamov amalga oshirgan. Shu tarjima asosida asar 1981-yilda o‘zbek tilida nashr etilgan.

Asar an‘anaviy hamd va na’t qismlari bilan boshlanadi. So‘ng muqaddima keladi. U hammasi bo‘lib yetti bo‘limdan iborat. Dastlabki uch bo‘lim hamd, na’t, muqaddimadan tashqari aruz ilmiga bag‘ishlangan. To‘rtinchı bo‘limdan to‘ kitob oxiriga qadar she‘riy san‘atlar to‘g‘risida gapiriladi. Mualif har bir badiiy tasvir vositasi haqida alohida maxsus to‘xtalishga, ularning har qaysisini ilmiy izohlashga urinadi. Olim she‘riy san‘atlarni uchga bo‘ladi: “Nutq go‘zalliklari uch qism bilan cheklanur, ul jihatdinkim, har go‘zallik yo faqat lafz go‘zalligidur, yo faqat ma‘no go‘zalligidur yoxud lafz-u ma‘no yig‘indisining go‘zalligidur”⁴⁹

Navoiygacha bo‘lgan o‘zbek adabiyotida g‘azal, masnaviy, qasida, tuyuq, qit‘a, ruboiy, marsiya, mustazod, muxammas, fard, tarkibband,

⁴⁸Хусайний Атоуллоҳ. Бадое ус-саноэъ. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги АСН.1981. – В. 3

⁴⁹Хусайний Атоуллоҳ. Бадое ус-саноэъ. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги АСН.1981. 34-б.

tarji'band, murabba' kabi 13 ta lirik janr, munozara, (she'riy) noma, doston, masal kabi liro-epik turga oid janrlar iste'molda bo'lgan⁵⁰.

Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", Zahiriddin Muhammad Boburning "Muxtaras" asarlarida mumtoz adabiyotimizga doir ayrim janrlar haqida so'z ketadiki, ular milliy adabiyotimiz va adabiyotshunosligimiz rivojida alohida pog'ona – daraja vazifasini bajaradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tasavvuf tushunchasiga izoh bering.
2. Ilk davr so'fiy tariqatlari haqida gapiring.
3. Qodiriya tariqatining asoschisi kim?
4. Jaloliddin Rumiy qaysi tariqat asoschisi hisoblanadi?
5. Tasavvuf bosqichlariga izoh bering.
6. Tasavvuf va adabiyotning bog'liqlik jihatlarini sanang.
7. Kubraviya tariqatining o'ziga xos xususiyatlarini sanang.
8. Yassaviya tariqatining o'ziga xos xususiyatlarini sanang.
9. Ahmad Taroziyining "Funun ul-balag'a" adabiyotimizda qanday qimmatga ega?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. -T.: Istiqlol, 1999.
2. G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. -T.: O'zbekiston, 1994.
3. Boltaboyev X., Islom tasavvufi manbalari (ilmiy majmua).-T.: O'qituvchi, 2005.
4. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob. -T.: Yozuvchi, 1996.
5. <http://www.buxoriy.uz>
6. <http://www.e-adabiyot.uz>
7. <http://kh-davron.uz>
8. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi (X—XIX asrlar). - T.: O'zbekiston, 1993.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Ўринбоев Б. Алишер Навоий асарлари матнида сўфизм атамалари. – Тошкент, 1997.
2. Ўринбоев Б. Сўфизм атамалари лугати. – Тошкент, 1997.
3. Ўринбоев Б. Суфизм и архитектурная терминология в тюркских языках. – Ташкент, 1999.
4. Ўринбоев Б. Бадиий матнида тасаввuf атамалари ва уларни тўғри шарҳлашга ўргатиш. – Тошкент, 1999.
5. Ўринбоев Б. Комиллик истилоҳлари. – Тошкент, 2002.
6. Абдуллаева Д.З. Масал адабий истилоҳига доир//Ilmiy xabarnoma. 2012, №3. – 58-63-б.
7. Ҳакқул И. Ҳадис ҳакиқати ва талқин хилма-хиллиги//ЎТА, 1996, №4. – 23-26-б.
8. Ҳакқул И. Тасаввuf ва Махтумкули шеърияти// ЎТА, №3, 2014.11-15-бетлар.

⁵⁰ Тўйчиев У. Алишер Навоий назмida банд тартиботи ва шеър навлари // ЎТА, №4, 1991, 22-бет

9. Эшонбобоев А. Ваҳдат ул-вужуд ва Навоий дунёқараши // ЎТА, №1, 2014. 45-48-бетлар.
10. Абдулхайров Б. Миён Бузрукнинг ўзбек адабиётида тасаввуф масаласига оид карашлари //ЎТА, 2002, №3. – 35-42-б.

NOSIRIDDIN RABG'UZIY IJODI

Reja:

1. Nosiriddin Rabg'uziy hayoti va ijodining manbalari.
2. Adib ijodining o'rGANILISH tarixidan. Payg'ambarlar tarixi asosida yaratilgan asarlar.
3. "Qisasi Rabg'uziy" ("Qisasu-l-anbiyo") asarining tarkibi.
4. Asar tarkibidagi hikoya va mumtoz she'riy janrlar.

Tayanch iboralar: *qissa, "Qisasi anbiyo", Rabg'uziy, To'qbug'abek, nasr, saj', g'azal, bahor madhi, Odam, olam, ramal.*

Mumtoz turkiy adabiyot tarixida alohida mavqega ega bo'lgan adib Rabg'uziyning hayoti haqida ma'lumotlar juda ham kam. Uning asl ismi Nosiriddin bo'lib, Xorazmning Raboti O'g'uz degan joyida tug'ilgan. Rabg'uziy „Qisasi Rabg'uziy" asarining muqaddimasida otasi Burhoniddin O'g'uz Rabotining qozisi bo'lganligini aytib o'tadi. Asarda bu haqda: „...bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqlug', ko'p yozuqlug' Rabot o'g'uzining qozisi Burhon o'gii Nosiruddin...”, -deb qayd etilgan. Asar Nosiruddin To'qbo'g'aning topshirig'i bilan yozilgan. Muallif uni "yigitlar arig'i (poki), ulug' otlig', qutlug' zotlig', ezgu xulq, tom yorig'liq, mo'g'ul sanilig', musulmon odamiylar inonchi, mo'minlar quvonchi, himmati adiz (yuksak), aqli tengiz beg", — deb ta'riflaydi.

Nosiruddin To'qbo'g'abekka bag'ishlangan she'riy madhiyada uning „arslon mengizlik surati", „ko'rklug' sifatlig' surati", „tuz so'zlayur, so'zni uqa" singari sifatlarini keltiradi. Rabg'uziyning boshqa asarlari haqida ma'lumotlar yo'q.

Adib bir she'riy parchada asar hijriy 710-yil hut oyida bir yillik mehnatdan so'ng yozilganligini aytadi. Milodiy hisobga aylantirilsa, 1332-yil fevral-mart oylariga to'g'ri keladi. E. Fozilov „Qisasi Rabg'uziy" asari so'zboshisida bu hisob milodiy 1310-yilga to'g'ri kelishini yozadi.

Asarning tarkibi hamd, na't, muqaddima, lirkik kechinmalar va xotimadan iborat. Bu asar turkiy nasrning eng qadimiylaridan biridir. Unda XIII asr oxiri — XIV asr boshlaridagi turkiy adabiyotning bir qator o'ziga xos xususiyatlari juda yorqin namoyon bo'lgan. Payg'ambarlar haqidagi qissalar Rabg'uziyning olam va odam haqidagi qarashlarini badiiy jihatdan ifodalash uchun vosita bo'lgan. Adib keltirgan qissalardan ayrimlari yoki ayrim parchalari Qur'oni karim va hadislarda keltirilmagan, muallif bir qator mumtoz sarchashmalardan, jumladan, Abu Is'hoq Nishopuriyning "Qisas ul-anbiyo" asaridan foydalangan.

Qissalar asosini tarixiy-ilohiy voqealar tashkil etadi. Ular o'z ildizlari bilan Qur'on va „hadis" larga, insoniyatning yaratilish va rivojlanish tarixiga, xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Ammo bularning ko'pchiligi, birinchi

navbatda, Rabg'uziy badiiy tafakkuri yordamida qayta idrok etiladi, badiiy talqinini topadi. Mavzu doirasiga ko`ra asardagi qissalar juda rang-barang. Olamdag'i butun mavjudot egasi bo`lgan Allohn'i ulug'lash, payg'ambarlar hayotiga doir lavhalarni eslash, ota-onalarni farzand munosabatlari, sevgi va sadoqat, vatan va vatanparvarlik, erk vaadolat, do'stlik va hamjihatlik, urush va tinchlik kabi mavzular shular jumlasidandir. Bular asardagi yetmish ikki qissada o'z ifodasini topgan. Bu qissalarning hajmi turlicha. Masalan, „Qisasi Yusuf“ salkam yuz sahifani tashkil qilsa, „Lut“ haqidagi qissa bir necha sahifadangina iborat.

Ilk qissa olamning yaratilishi haqida bo`lib, unda yakshanbada – yeti falak, dushanbada – samoviy jismilar va ularning tartibi, seshanbada – olam xalqidan qush-qurtlar, farishtalar, chorshanbada – suv, yer, bulutlar, o'simliklar, payshanbada – jannat va do'zaxni, rahmat-u do'zax farishtalari yaratilganligi aytildi. Shanba kuni imkonni ko`lsa-da hech narsa yaratilmagan edi.

Qissalarning ko`pi qahramon haqidagi muayyan xabar bilan boshlanadi, so`ng she'riy madh, keyin asosiy voqealar bayoni keladi. Ba'zi qissalar ichida yana mustaqil hikoya, rivoyat va naqlar ham bor. Masalan, Yusuf qissasida bir necha hikoya, latifa, bayt, g'azal va boshqa janr namunalari uchraydi. Ammo ular asarda olg'a surilgan asosiy g'oyaviy-badiiy maqsad bilan yahlitlikni tashkil etadi. Misol sifatida „Dovud haqida“gi qissa bilan tanishish mumkin.

Qissa Dovudning ta'rifi bilan boshlanadi. So`ng she'riy tavsif beriladi. Undan keyin Dovud payg'ambar haqidagi umumiyyat tasavvurlar bayon etiladi: „Dovud yalavoch (payg'ambar) bani Isroildan erdi. O'n qarindosh erdilar. Otalari Isho' otlig' Dovud qamug'idin (barchasidan) kichik erdi. Tun-kun yig'layur erdi ibodat ichinda“. Ko`rinib turganidek, Rabg'uziy qissada nihoyatda sodda, lo`nda, tushunarli va ta'sirchan ifodalarni topa olgan. Shuning uchun ham bu asar asrlar davomida qo`ldan tushmay o'qildi.

Dovud bilan bog'liq hikoyalarda adib adolat va zulm, hunar egalari, ota-onalarni farzandlar munosabati singari muammolarga asosiy e'tiborni qaratgan. „Aytmishlar, Dovud yalavoch tunla o'zin belgusiz qilib ra'iyatlardin so'rар erdikim, podshoh sizing birla netag muomala qilur? Aytur erdilar: yavloq Ouda) odil turur“.

Bir kecha andog' so`zlayurda Maylo taolo bir farishtani izdi (jo`natdi) bir qurtqa (kampir) surati uza. Andin so`radi: „Podshohingiz netak turur?“ Qurtqa aydi: „Ontasi (shunisi) bor, kishilar molin yeyur“.

Dovud duo qildi: „Iziyo (egam-ey), manga bir harf (hunar) o'rgatgil. Aning birla qazg'achiligi (nasibamni) yeyayin. Xalq mani so`zlamasunlar.

Maylo taolo bir taqachilik (temirchilik) san'atin anta o'gratu berdi. Aymishlar, temur Dovud ilkinda mo'mtek yumshar erdi, netakkim xamir o'zgalar ilkinda“.

Halollikka, o'z mehnati bilan halol kun ko'rishga, boshqalarga zulm qilmaslikka undash hikoyaning asosiy maqsadidir. O'zbek_nasrida ilk marotaba dialoglar Rabg'uziy tomonidan keng qo'llangan. Ana shu dialoglar vositasida asosiy g'oyaviy maqsad yorqin va ta'sirchan ifodalangan.

Rabg'uziy hikoyalarida insonparvarlik, yurtparvarlik, insonni komillik darajasiga ko'tarish, axloqiy poklik, ma'naviy barkamollik sari undash yetakchilik qiladi. Ular orasida til odobi va qalb pokligi ham alohida o`rin tutadi. Bu jihatdan „Luqmon va lining xojasi“ hikoyati ibratlidir: „Luqmong'a xojasi aydi: „ – Borg'il, bir qo'y bo'g'izlab etindin qayu yaxshiroq ersa manga kelturgil“.

Qo'yni bo'g'izladi, tili birla yurakin olib keldi.

Xojasi so'rди: „ – Bularni naluk (nima uchun) kelturding?“

Aydi: „ – Qo'yda tildin, yurakdin yaxshiroq yo'q. Agar yovuz ersa tildin, yurakdin yovuzroq yo'q“.

Tilga e'tibor berish, har bir aytildigan so'z mas'uliyatini ta'kidlash hikoyadagi asosiy g'oyaviy-badiiy niyatdir. Bu yerda donolik, hozirjavoblik ham ulug'langan.

Hikoyalarda xalq og'zaki ijodining ta'siri ham yorqin seziladi. Xususan, latifa janriga xos belgilarni hikoyaga ko'chib o'tgan. Suhbatning dialog asosida olib borilishi, soddalik, donishmandlik, topqirlik, hozirjavoblik fazilatlarining ustuvorligi, ifodalarning qisqa, aniq, lo'ndaligi og'zaki ijoddan ta'sirlanish natijasidir.

Rabg'uziy hikoyalarining asosini ko'pincha real hayotiy voqeа-hodisalar tashkil etadi. Ulardagi asosiy fikrni ifodalash uchun mifologik, afsonaviy-xayoliy yoki badiiy mantiq taqozo etadigan boshqa bir bayon uslubi tanlab olinadi. Masalan, insonlarning mast holda yurishini, umuman o'tkir ichimliklar ichishni qoralash maqsadi uchun „Uzum hikoyati“ keltirilgan. Undagi asosiy qahramon Shaytondir. U to'g'ridan-to'g'ri „Shaytoni mal'un“ deb ta'riflanadi. „Mal'un“ – „haydalgan, la'natlangan“ demak. Ana shu mal'un uzumning urug'ini o'g'irlagan. Bu hol oshkora bo'lib qolgach, uni Nuh payg'ambar huzuriga olib kelishadi. Shayton ayhini bo'yniga oladi-yu, lekin urug'ni qaytarib berishdan oldin uni uch marta sug'orishga imkon berishni so'raydi va rozjlik oladi. Chog'ir (ichkilik)ning paydo bo'lishi shu tajrzda shayton nomi bilan bog'lanadi. Chog'inichgan odamning holati harii nihoyatda ta'sirchan o'xshatishlar bilan tasvirlanadi. Buning uchun tulki, yo'lbars, to'ng'iz timsollaridan foydalilanilgan.

Hikoyada Nuh payg'ambarningulug'ligini ko'rsatuvchi ko'plab dalillar keltirilgan. Xususan, shinni va sirkaning paydo bo'lishi bevosita ana shu payg'ambar faoliyati bilan bog'liq ekanı tasvirlangan.

Rabg'uziy hikoyalarida qator dunyoviy hodisalarining paydo bo'lishi, ularning ilohiyat bilan aloqasi o'ziga xos tarzda izohlanadi.

Bu jihatdan „Ilon va qarlug'och“ hikoyati xarakterlidir. Unda mushuk bilan sichqon, ilon bilan baqa, ilon bilan qarlug'och (qaldirg'och) hamda ari, inson va qushlar hamda boshqa hayvonot olami orasidagi o'ziga xos mundsabatlar izohlanadi, badiiy tadqiq etiladi.

Namrud haqidagi hikoyatda inson xayolotining imkonlari madh etiladi. Unda Namrudning osmon mamlakatiga chiqishi tasvirlangan. Hikoyada o'sha davr kishilarining osmon haqidagi tasavvurlari ham o'z ifodasini topgan. Ayni paytda hikoya mazmuni badiiy jihatdan to'la asoslangan va shuning uchun ham

kishida zavq uyg'otadi. Shu bilan, birga, hikoyada shuhratparastlik, takabburlik kabi illatlar qattiq qoralanadi. Erishgan muvaffaqiyatlardan gang qolgan Namrud hech kimni pisand qilmaydigan kimsaga aylanadi, hatto xudoni ham tan olmaydi. Oqibatda, u qattiq jazolanadi, og'ir dardga chalinib, xor-zorlikda halok bo'ladi. Bu ibratli hikoya har qanday o'quvchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Rabg'uziy qissalari va hikoyalarida axloqiy-ta'limi qarashlarni targ'ib qilish yetakchi o'rinn tutadi. Deyarli har bir hikoyada shunday qarashlar aks etgan. Sulaymonning qarinchqa (chumoli) bilan so'zlashgani hikoyasida ham bu hol kuzatiladi. Sulaymon alayhissalom – Dovud payg'ambarning o'n ikinchi, kenja o'gii. U ham boshqa akalariday „olim, faqih, oqil“ yigit edi. Dovudning podshohligi unga meros qoldi. Ammo otasiga o'xshab o'z hunarini hech qo'ymas edi. U tol novdalarini yig'ib, savat to'qib sotardi. O'zbek adabiyotida Dovud va Sulaymon payg'ambarlar timsoli ko'p tasvirlanadi. Ayniqsa, „taxti Sulaymon“ iborasi ko'p qo'llanadi. Rabg'uziyning yozishicha: „Taxti bir yig'och yer ichinda erdi. Ul taxtini oltun, kumush birla qilmish erdi“.

Sulaymonning chumolilar podshosi bilan suhbat hikoyasi katta ma'rifiy va axloqiy-ta'limi ahamiyatga molik. Unda kishilik jamiyatiga xos bo'lgan ayrim illat va kamchiliklar ustida so'z boradi. Hikoyada Sulaymon katta mavqega ega bo'lgan, manman, kibrli hukmdor sifatida gavdalanadi. Aksincha, qarinchqa – chumolilar podshosi dono, tadbirkor, xalq g'amini yeydigan hukmdor, ma'rifatparvar, olim, orif sifatida ko'zga tashlanadi. Rabg'uziy shaxs kamoloti faqat jismoniy sifatlar bilan belgilanmasligini („qarinchqalarning Ulug'i oqsoq erdi“), buning uchun aqliy-ma'naviy belgililar mezon bo'lishini ta'kidlaydi.

Nosiruddin Rabg'uziy mahoratlari nosirgina emas, nozikta'b shoir hamdir. „Qisasi Rabg'uziy“dagi qissa va hikoyatlar orasida o'nlab she'rlar ham mavjud. Bahor vasfiga bag'ishlangan birinchi turkiy g'azal ham Rabg'uziy qalamiga mansub. U shunday boshlanadi:

Kun hamalga kirdi ersa, keldi olam navro'zi,
Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi
(Buz – muz).

So'ng olamning go'zal bir manzara kasb etgani, atrofning go'zallahgani tavsiflanadi:

Kun kelu ming ko'rki ortib tirilur o'lmish jahon,
Tong badizlab naqshi birla bezanur bu yer yuzi.

Tasvirda jonlantirish, sifatlash va o'xshatishlar asosiy o'rinn tutadi. Muhimi, ularda Rabg'uziyning tasavvur kuchi va badiiy mahorati ochiq ko'rinadi:

... O'rlasa bulutlari gulchirar bog'-u bo'ston,
Tol yig'ochlar yeng solishur o'ynayurtek qo'y-qo'zi.
... Lola sag'roqin icharda sayrar usrub sanduvach,
Turna un tortib o'tarda sakrashur baqlan, qo'zi.
Ko'kda o'ynar, qo'l solishur quq'u, g'oz, qil, qarlug'och,
Yerda yugurub juft olishur os, tiyin, kish, qunduzi.

Tol yig'ochlar minbarinda to'ti qush majlis tutar,
Qumri, bulbul muqri bo'lub un tuzar tun-kunduzi.

...Huri ayn ujmoh ichinda yeng solib tahsin qilur,
Yoz uza mundog' g'azallar aymishdi Nosir Rabg'uziy.

O'zbek adabiyotidagi bu ilk g'azalda Rabg'uziy janrning barcha shakliy-badiiy talablari mukammal darajada rioya etgan. She'rning matla'sidan maqta'sigacha navro'z ta'rif-tavsifi aks ettiriladi. **Navro'zi, buzi, yuzi, yozi, tuzi, qo'y-qo'zi, juzi, qo'zi, qunduzi, kunduzi, yulduzi, Rabg'uziy** so'zlaridan tashkil topgan qofiyalar tizimi turkiy til tarovatini ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lgan. Maqta'da ilk bor taxallus ishlataligan. Vazn ham o'ynoqi. G'azal uchun turkiy adabiyotda keyinchalik eng ko'p qo'llangan vazn – ramal tanlab olingan.

Kun ha-mal-ga kir-di er-sa, kel-di o-lam nav-ro'-zi,
— v — — v — — v — — v —
foilotun foilotun foilotun foilun
Kech-di bah-man zam-ha-rir qish qol-ma-di qo-ri, bu-zi
— v — — v - - - v - - - v -
foilotun foilotun foilotun foilun

Ko'rinib turganidek, **ramal bahrining** rukni foilotun ohanglariga tayanadi. Bir bayt (ikki rmisra)da bu rukn sakkiz marta qo'llangan uchun musamman nomini oladi. „Musamman" arabcha so'z bo'lib, sakkiz degan ma'honi bildiradi. Oxirgi rukn avvalgilaridan qisqaroq, unda bir hijo kam. Uning ushbu shakli **mahzuf** deyiladi. Vaznning to'liq nomi ramali **musammani mahzufdir**.

G'azalning barcha baytlari o'zaro mantiqiy bir ip (navro'z) bilan bog'langan. Ana shu ichki bog'liqlik g'azal yahlitligini ta'minlagan. Dastlabki bayt umumiy axborot berishga yo'naltirilgan: qishning o'rniga bahorning kelishi ko'rsatilgan. Bunda muallif munosabatining ochiq ifodalaniishi e'tiborni tortadi. Bahorga nisbatan „olam navro'zi" ifodasi qo'llansa, qishga nisbatan „bahman" (ayoz, qahraton, izg'irin) „zamharir" (qirovli, qahraton, qattiq sovuq) sifatlashlari tanlangan. Keyingi baytlar bahorning xususiy jihatlarini tasvirlashni ko'zda tutadi. Dastlab dunyoning yangidan chiroy ochgani („tirilur bu yer yuzi") qalamga olinadi.

Osmon va yerdagi o'zgarishlarni aks ettirish navbatdagi bayt qamroviga kiradi. Unda bulut va daraxtlarning o'ziga xos manzarasi ko'rsatiladi. *Lola, bulbul, turna, qo'zi* so'zlari bahorning turli belgilarini ifodalash vositasida bo'lgan. „Yer-osmon" ziddigi asosida bahorning o'ziga xos tasvirini berish keyingi baytda ham davom etadi. Bahor osmonida qushlarning ko'payishi quq'u (oqqush), g'oz, qil (qilquyruq), qarlug'och (qaldirg'och) vositasida ko'rsatsila, yerdagi jonivo'rlar harakatining jonlanishi os (oq suvsar), tiyin (olmaxon), kish (qunduzning bir turi), qunduz singari hayvonlar timsollari vositasida tasvirlangan.

Qadimgi turkiy tilda „yig'och”, „og'och” so'zlari, asosan, „daraxt” tushunchasini ifodalagan. Navbatdag'i baytda tilga olingan „tol yig'octilar minbarinda” (tol daraxtning shoxlarida) ifodasi xuddi shu ma'noni yuzaga chiqaradi. Bu baytda bir qator qushlar (to'ti, qumri, bulbul)ning xonishi – sayrashi orqali bahor faslining tarovati yana bir bor ta'sirli yo'sinda tasvirlangan.

Asarning badiiy xususiyatlari. Qissa – epik janrga mansub. Unda muayyan voqeа-hodisalarning izchil tasviri, ularda ishtirok etuvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirish yetakchilik qiladi. Qissalar hajmiga ko'ra ancha yirik bo'ladi. Qissalarning yirikligi tasvirlanayotgan voqeа-hodisalar ko'lami, ishtirokchilar sonida ham ko'rindi. Qissalarda bir necha sujet yo'nalihlari bo'lishi mumkin. Asar qurilmasi ham sujetning shu xususiyatiga bogiiq bo'ladi. Rabg'uziy qissalarida qahramonlar voqeа-hodisalar rivoji davomida o'zligini, o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib borishadi.

Sulaymon payg'ambar, Luqmoni hakim, Dovud payg'ambar bilan bog'liq qissalarda xalq og'zaki ijodining ta'siri yaqqol ko'rindi. Tasvirdagi mubolag'a, xayolot (fantastika)ga keng o'rin berilgani, sehrli hodisalar tavsifi, bayondagi ertakona ohang bevosita og'zaki ijod ta'sirida yuzaga kelgan. Hikoyatlarda ham og'zaki ijodning kuchli ta'siri seziladi. Ularda hatto latifa janriga xos tasvir usullari ham ko'zga tashlanadi.

Qissalar tarkibida hikoyatlar ham uchraydi. Ular qissalardagi muayyan voqeа-hodisalar yoki alohida qahramonlarga xos fazilatlarni izohlash vazifasini bajaradi. Bu hikoyatlar ham nasrda, ham nazmda bitilgan bo'lib, hajmi juda ixchamligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra ularning sujeti ham anchayin sodda. Hikoyat uchun faqat bir epizod tanlab olinadi, voqealarning bundan oldingi yoki keyingi rivojiga ahamiyat berilmaydi. Hikoyatlarda qahramonlarning tabiatiga xos muayyan xususiyatlar ko'proq ular amalga oshirgan ish, faoliyat orqali aks ettiriladi. Bunda, asosan, ta'rif-tavsiif usuli yetakchilik qiladi. Ularda hikoyachilikning keyingi davrlarida ko'zga tashlanadigan batafsil tasvir kurtak holidagina uchraydi.

“Uzum hikoyati”, „Ilon va qarlug'och” hikoyatlari uchun dialoglar ham xos. Har ikki hikoyatda ham dialdglar bor. Ammo keyingisida u asosiy o'rin tutadi. Dialoglarning mavqeи jihatidan „Sulaymon qarinchqa bilan so'zlashgani” hikoyati muhimdir, chunki u to'lig'icha ikki tomonning so'zlashuvi, savol-javoblariga * tayanadi. Albatta, ularda muallif izohi yoki bayoni ham mavjud. Muallif bayoni hikoyatlarda turli darajada namoyon bo'ladi. U „Sulaymon qarinchqa bilan so'zlashgani”da ozroq o'rin tutsa, boshqa hikoyatlarda ancha kattaroq, „Namrud hikoyati”da esa asosiy o'rinni egallaydi.

Umuman, „Qisasi Rabg'uziy” turk badiiy nasrinining ilk namunalaridan biri sifatida adabiyotimizda o'ziga xos o'ringa ega. Unda adib Nosiruddin Rabg'uziyning yuksak badiiy mahorati yorqin namoyon bo'lgan. „Qisasi Rabg'uziy” o'zining ma'rifiy-tarbiyaviy hamda badiiy-estetik ahamiyati bilan hozirgi aviodlar ma'naviy kamoloti uchun ham qadrlidir.

Asar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Toshkent va Qozon litografiyalarda bir necha marta nashr qilingan. Asarning to'liq matni ilk marta 1859-yil rus turkiyshunos olimi N.I.Ilminskiy tomonidan Qozon shahrida chop etilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Rabg'uziy qayerda tug'ilgan?
2. «Qissasi Rabg'uziy» qanday asar? Asarning yaratilishida «Qur'on»ning qanday ta'siri bor?
3. Rabg'uziy qissalari qaysi mavzularda bahs yuritadi?
4. Qissalar kompozitsiyasi haqida nimalar deya olasiz?
5. «Qissasi Rabg'uziy»ning xalq orasida keng tarqalishiga qaysi omillar sabab bo'lgan?
6. Rabg'uziyning shoirlik mahorati haqida gapirib bering.
7. Dovud payg'ambar bilan bog'liq qissada qanday muammolar ko'tarilgan?
8. «Luqmon va uning xojas» hikoyatida nima haqida bahs yuritiladi?
9. Rabg'uziy asarlarida xalq og zaki ijodining ta'siri qaysi o'rnlarda ochiq ko'rindi?
10. Rabg'uziy hikoyatlarining asosini ko'pincha real hayotiy voqealar tashkil etadi, deyish mumkinmi? Buni siz qanday izohlagan bo'lar edingiz?
11. Hikoyatlar tilidagi qanday o'ziga xosliklar e'tiborni tortadi? Ularda leksik, morfologik va uslubiy jihatdan qanday ayirmalar mavjud?
12. Rabg'uziy g'azalida bahorning kelishi qaysi belgilari asosida ko'rsatilgan?

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqukulov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o'quvchilari uchun darslik). – Т., 2000.
7. Rabg'uziy Nosiruddin. Qisasi Rabg'uziy. – Toshkent, 1993.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Нодирхон Ҳасан. “Қисаси Рабгузий”да Юсуф пайғамбар образи талқини//ЎТА, 1996, №4. – 26-30-б.
2. Курбаниёзов М. “Қисаси Рабгузий”да фольклоризмлар // ЎТА, №3, 2016. – 69-71-бетлар.
3. Шукурова З. “Қисаси Рабгузий”да маколлар // ЎТА, №2, 2012. 9-98-бетлар.
4. Шукурова З. “Қисаси Рабгузий”да эртак мотивлари // ТАТ, №3, 2010. 36-40-б.
5. Шукурова З. Рабгузийнинг «Қисасул анбиё» асари нусхалари ҳакида// ТАТ, №9, 2010. 76-80-б.
6. Шукурова З. “Қисаси Рабгузий”да туш мотиви // ТАТ, №7, 2011. 80-85-б.

SAYFI SAROYI IJODI

Reja:

1. Sayfi Saroyi ijodi.
2. Shoир lirikasining mundarijasi va badiiy xususiyatlari.
3. “Suhayl va Guldursun” dostoni.
4. “Guliston bi-t-turkiy” asari. Ma’rifiy-ta’limiy adabiyot.

Tayanch iboralar: *Sayfi Saroyi, g’azal, talmeh, doston, tarjima, didaktik asar, ma’rifiy-ta’limiy adabiyot, Sa’diy Sheroziy, tashbeh, irsolı masal, tarse’, aruz, Temu, To’xtamishxon, ramal, taqte’*

Sayfi Saroyi ijodi.

Sayfi Saroyi – o’zbek adabiyoti tarixida alohida mavqega ega bo’lgan yirik adiblardan. U 1321- yilda Xorazmdagi Qamishli qishlog’ida tug’ilgan. Ammo shu nom Volga bo’yida ham juda ko’p uchraydi. Tatar olimi Yu.X.Minnegulov shoirni “turk-tatar adabiy tilining rivojiga ulush qo’shgan” ijodkor sifatida baholab, Donbas va Uralda tug’ilgan degan fikrni o’rtaga tashlaydi. N.Mallayev Xorazmnning shu nomdagi qishlog’ida tug’ilgan degan fikrni ilgari suradi. U Qamishlidan bilimini oshirish uchun Saroyga keladi. Saroy – Oltin o’rda davlatining poytaxtidir. Muhammad ibn Arabshohning yozishicha, «Saroy tutgan o’rni va xalqining juda ko’pligi bilan eng katta shaharlarning birisi edi. U fan markaziga aylandi. Oz vaqt ichida bu yerda ko’plab atoqli, mashhur kishilar to’plandi». Ular orasida Qutbiddin ar-Roziy, Mas’ud Taftazoniy, Kamo-liddin at-Turkmaniy, Hofiz Muhammad ibn Bazzoziylar bor edi. Shuningdek, mashhur shoir Kamoliddin Xo’jan-diyining ham XIV asr oxirlarida Saroyda yashab ijod etganligi yaxshi ma’lum.

Shoir shu yerda yashab turgan davrida «Saroyi» degan taxallusni olgan. Sayfi – uning ismi bo’lib, «qilich» degan ma’noni bildiradi. Umrining oxirlarida u Oltin o’rdadan Misr – Shomga ketgan va o’sha yerda yashagan.

O’sib tuprog’im uzra nayzalar, men evdin ayildim,
Vatandin benishon o’ldim-da, o’zga yurtga evrildim.

Nechun menga falak jabr ayladi, qanday gunohim bor?

Iloho, ayla kam jabring, men elga sodiq ul erdim, –

kabi misralar shu qismatga ishora. U o’z yurtidan ketishni «falak jabr ayladi» deb izohlamoqda. «Tuprog’im uzra nayzalar o’sdi» degan jumla zamirida Chingizzon istilosining oqibatlari nazarga olinmoqda.

“Suhayl va Guldursun” asarida quyidagi avtobiografik satrlar uchraydi:

Temur Urganja tortib keldi lashkar,

Ko’rub ko’z – ko’r, bo’lib qoldi quloq kar.

Qo’zutti jang bila olamda to’fon,

Oqitti suv tekin yer uzra ko’p qon.

Ayniqsa, shoirni To'xtamishning o'limi qattiq iztirobga soladi. O'zining «Guliston bit-turkiy» («Turkiy guliston») asarini u Misr amiri Batxas bekka bag'ishlagan edi. Asar 1391-yilda yozilgan. Shayx Sa'diy asarlarini tarjima qilish shoirdan yuksak tayyorgarlik talab qiladi, shu tufayli Sayfi Saroyining forsiy tildagi asarlari ham ko'p bo'lganini mantiq talab qildi. Asar muqaddimasida aytilishicha, bir kuni shoirlar va olimlar majlisida bir kishi unga Sa'diyning "Guliston" asariga javob yozish taklifini bildiradi. Asarda Saroyi o'z tarjimasini g'arib deb ataydi.

«Suhayl va Guldursun» dostoni 1394-yilda yozilgan. Adib taxminan 1396-yilda vafot etgan.

Shoir lirikasining mundarijasi va badiii xususiyatlari.

Sayfi Saroyining o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bebahodir. Ayniqsa, g'azal janrida u mahoratini namoyish etgan. o'zidan oldin yashagan g'azalnavis shoirlar ijodini o'rgangan adib:

Jahon shoirlari, ey gulshani bog',

Kimi bulbul durur so'zda, kimi zog', –

deb yozarkan, ijod maydonini bog' gulshaniga, shoirlarni esa shu bog'dagi qushlarga o'xshatadi. Albatta, bulbul va zog' obrazlari orqali adib qanday shoirlarni ko'zda tutayotgani ayon. U kamtarlik bilan shunday yozadi:

Ularning ush biri Sayfi Saroyi,

Jahon oriflarining xoki poyi.

Ani sen jumla shoir kamtari bil,

Qamar yuzg'a hamisha mushtari bil.

G'azallarda shoirning o'ziga xos zavqi, betakror tasvir usullari ochiq ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, go'zal yor yuzining oyga nisbat berilishi g'azalchilik tarixida qadim an'anaga ega. «Topilmas husn mulkinda» g'azalida Sayfi Saroyi ham shu an'anaga sodiq qolish bilan birga bu o'xshatishning yangi bir qirralarini kashf etadi:

Topilmas husn mulkinda senga teng bir qamar manzar,

Na manzar? Manzari shohid. Na shohid? Shohidi dilbar.

(Husn daryosida senga teng bo'lgan oy yuzli go'zal topilmaydi. Ya 'ni sen tengsiz go'zalsan, demoqda shoir. Ammo bugina emas, bu oy yuz faqat go'zai ma'shuqaningga yuzi. Bu ma'shuqa go'zal va dilbardir.)

Keyingi bayt ana shu go'zallik sababini izohlashga qaratilgan, ya 'ni beqiyos go'zallik sohibi bo'lgan Yusufning jamolini Haq senga in'om qilgan. Bu in'om buyuk ne'mat, katta davlat bo'lib, ushbu davlat iftixon qilsa arziydigان darajadadir.

Ana shundan keyin shoir ma'shuqaning ma'naviy xislatlari tasviriga to'xtab o'tadi. Uning so'zлari nihoyatda nozik va qimmatli, shuning uchun ham dur-u gavharlarga qiyoslanadi. Uning xulqi yoqimli («shakardan totli»), muruvvati ham ko'ngildagiday («karanda xotiring matlab»). Shuning uchun ham bunday go'zal yor bilan hamsuhbat bo'lgan oshiq o'zini eng buyuk davlatmand martabasida ko'ra oladi. Zero, «Husn shavq-u zavqini ko'ngil to'tilar topsa», bundan ortiq lazzat bo'lishi mumkinmi?

Ushbu g'azalda istiora, tashbeh, takror, talmeh, tanosib, ruju kabi bir qator she'riy san'atlar qo'llangan. Ayniqsa, shoir o'z tashbeh va tavsiflarida bir fikrni go'yo o'rtaga qo'yib, so'ng uni ketma-ket inkor qilish bilan yor go'zalligining o'ziga xos jihatlarini yangidan tasdiqlash yo'lini topgan.

Sayfi Saroyi masnaviyatlari ham alohida mavqega ega. Bu jihatdan «Vasf ul-shuar» (Shoirlar vasfi) she'ri ahamiyatlidir. Ushbu masnaviyda adib o'zining adabiy-estetik qarashlarini bayon etadi. U ijodkorlarning turli guruhlari mayjud ekanligini (bulbul, zog'), shunga muvofiq ularning taqlidchi (to'ti) yoki mustaqil ijodkor bo'lishi va boshqa xususiyatlar haqida to'xtab o'tadi. Buni adabiy tanqidchilikning o'ziga xos bir ko'rinishi sifatida ham qabul qilish mumkin.

“Suhayl va Guldursun” dostoni.

O'zbek dostonchiligi ravnaqi tarixi ham Sayfi Saroyining nomi bilan ziynatlangan. Uning «Suhayl va Guldursun» nomli dostoni ana shu an'anani boyitadi. Doston 82 bayt – 164 misradan iborat.

Muallif doston voqealarining tarixiy asoslari borligini shunday ta'kidlaydi:

Emas afsona, chin ushbu bitilmish,
Bu chin afsonatek ishqda yetilmish.

Demak, doston mavzusi ham ishq-muhabbat bilan bog'liq. Voqealar Temurning Urganchga lashkar tortib kelishi bilan boshlanadi. Bu yerdagi urush manzaralari tasviri o'z realligi va ta'sir kuchi bilan ajralib turadi. Jang asnosida Suhayl asirga tushib qoladi. Shoh qizi – Guldursun Suhaylni ko'rib, uni sevib qoladi.

Guldursun zindonbandlarga pand berib, ularni mast qilib qo'ygach, Suhayl bilan qochishadi.

Alar qo`ydi ikkisi yo'l sari poy,
Boqib turg'onda yo'lg'a zar sochib oy. So'ng:
Alar ko'p yurdi-yu sahrog'i kirdi,
Gunashdin sahro ichra do'zax erdi.
Yo'q erdi suv, yemakka anda o'tmaq,
Agar bo`lganda ham aqchasi lak-lak.

Ana shu qiyin holda ochlik va tashnalikdan Guldursun hushini yo'qotadi.

Suhayl bordi toparg'a suvg'a, dong'a,
Vale darmon berolmay qoldi jong'a.

Yorsiz hayot mazmuni qolmasligini idrok etgan Suhayl o'ziga tig' uradi va halok bo`ladi.

Alar uzra to'kildi, ko'mdi tuproq,
Bu sirmi tanho sahro bildi ko'proq.

Ana shu voqealar bayonidan so'ng shoir buyuk bir ehtiros bilan bunday ulug' va qudratli muhabbat egalarini ulug'laydi.

O'lurmou sevgi ham bil, shundin ortuq,
Ki ikkisi qilur jonini tortuq.

Dostonda har ikki qahramon – Suhayl ham, Guldursun ham pokiza va kuchli muhabbat egalari sifatida ko`rinadi. Ulardagi ishonch va e'tiqod samimiyyati, ruh pokizaligi, mardonavorlik, kelajakka ishonch adib tomonidan nihoyatda ta'sirli, ishonarli tarzda tasvir etilgan. Dostondagi tasvirlar ko`proq qahramonlarning ichki dunyosini yoritishga yo`naltirilgan. Hatto o`rni-o`rni bilan uchraydigan tabiat manzara-lari tasviri ham shu maqsadni kuchaytirib ta'kidlashi bilan ajralib turadi.

Umuman, doston pok muhabbat tarannumiga bag`ishlangan.

Xotin sodiq, ani sevgil, aziz er,

Har og`ir ishda ham doim seni der.

Unga do'st bo'l, uni sevgil, ko`ngul ber,

Uning so`z bahridin gavharlarin ter.

Doston hazaji musaddasi maqsur (mafoiyun, mafo-iylun, fauvlun) vaznida yozilgan.

“Guliston bi-t-turkiy” asari. Ma’rifiy-ta’limiy adabiyot.

Sayfi Saroyi benazir tarjimon hamdir. Adib Sa'diy Sheroziyining mashhur «Guliston» asarini «Guliston bit-turkiy» nomi bilan o`zbekchallashtirgan. Shu asosda u o`zbek tilining ichki imkoniyatlari naqadar boyligini yana bir marta namoyish etdi⁵¹.

«Guliston bit-turkiy» hikoyatlari inson ma’naviyatim boyitishi, turli ezgulik va yaxshi axloqiy sifatlarni ulug`lab, yomonlik va yolg`on xulq-atvorni tanqid qilishi, qoralashi bilan ibratlidir.

Damashqdagi jome’ ichida bo`lgan voqeа bayonida adib ezgulik qudratini nihoyatda go`zal va sodda tarzda ifoda etadi. «Zulm urug`ini ekib xayr istaganlar o`zlarini jahannam o`tiga yoqadilar» deyiladi, hikoya so`ngida.

Keyingi hikoyat ham zulm va adolat haqida. Zolim kishi-ning «mening haqqimga duo qil» deyishi muqobilida faqir kishi: «lloho, buning jonini olgil», deb duo qildi. Shunda zolim Hajjoj ibn Yusuf: «Bu qanaqa duo?» – deb so`raydi. Bunga javoban faqir: «Bu shunday xayrli duoki, u senga ham, barcha musulmonlarga ham naf keltiradi», – deydi. Demak, zolim hukmdor hech kimga naf bermaydi. Undan raiyat azob ko`radi, xolos.

Hotami Toyi hikoyatida esa, muruvvat, saxovat olqish-lanadi, kamtarlik, nafsini tiyish ulug`lanadi.

Sahboni Voil haqidagi hikoya esa nutq odobi mavzusiga bag`ishlangan.

Bularning hammasi inson kamoloti uchun xizmat qiladi. Ularning ahamiyati hozirgacha ham kamaygani yo`q. Bunday nodir yodgorliklar bizning jamiyatimizga ham xizmat qilaveradi.

⁵¹ Sa'diy “Guliston”ining yana bir tarjimasi hijriy 800 – milodiylar 1397-1398-yillarda sayramlik Ispijobiy degan shaxs tomonidan ham amalga oshirilgan bo`lib, Mironshohning o`g`li Muhammad Sultonga bag`ishlangan. Qo`lyozma asl nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi. Tarjima haqida Yanos Ekman, Zaki Validiy Tog`on (London va Tehrondagi islomiy qo`lyozmlardan ba`zilariga doir, 1961)lar maqolalar yozgan. Tarjima so`zma-so`z emas, mazmuniga ko`ra amalga oshirilgan. (O`TA, 1993, №5 – 72-74-6.)

Shoir ijodini N.A.Davronov, V.Rahmonov, J.Sharipov kabi olimlar o`rganganlar.

Savol va topshiriqlar:

1. Sayfi Saroyi hayoti haqida gapirib bering.
2. Sayfi Saroyi yashagan davr O`zbekiston tarixining qaysi davriga to`g`ri keladi?
3. Siyosiy taloto`plar fan va madaniyatning rivojlanishiga qanday ta`sir ko`rsatadi?
4. “Guliston bi-t-turkiy”dagi hikoyatlardan aytинг va xulasa bering.
5. Sayfi Saroyi g`azallaridan yodlang va tahlil qiling.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqulov N. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o`quvchilari uchun darslik). – Т., 2000.

HAYDAR XORAZMIY IJODI

Reja:

1. Haydar Xorazmiy ijodi.
2. Shoir hayoti va ijodining manbalari.
3. “Maxzanu-l-asror” dostoni va Nizomiy ijodiga munosabat.
4. Dostonning kompozitsion qurilishi va sujeti.
5. “Gul va Navro’z” dostoni

Tayanch iboralar: *Sayfi Saroyi, g’azal, talmeh, doston, tarjima, tashbeh, irlsol masal, tarse’, aruz, ramal, taqte’*

Haydar Xorazmiy haqida zamondoshlari:

«Sulton Iskandar hukmronligida fozil kishilardan Mavlono Muiniddin Natanziy va Mavlono Haydarlar bor ekan. Mavlono Haydarning turkiy va forsiy tillarda bitgan yaxshi she’rlari bor va u Nizomiyning «Mahzan ul-asror» iga o’zbek tilida javob yozib, uni shahzoda Iskandar otiga bag’ishladi».

Davlatshoh Samarcandiy

«Sulton Iskandar Sheroyi ham (Temurga) nabiradur. Saltanat tajammulini, derlarkim, salotindin ozi oncha qilmish bo’lg’ay. Yetti yo sakkiz yilliq saltanatida go’yoki uch ganj topibdur. Mavlono Haydar turkiygo’yaning modihi ekandur. Bu aning masnaviyisidindurkim:

Himmat elidur yadi bayzo degan,

Er nafasidur dami Iso degan».

Alisher Navoiy

Turk zuhuridur ajunda bu kun

Boshla ulug’ yir bila turkona un.

Haydar Xorazmiy ijodi.

Haydar Xorazmiy XIV asr oxirlarida tavallud topib, XV asrning birinchi yarmida yashab o’tgan. U Xorazmda tug’ilib qachonlardir Fors viloyatiga kelib qoladi, N.Mallayev “Maxzanul asror” asarining yozilish tarixini 1409-1414-yillarda deb taxmin qiladi. Shunisi ma’lumki, endilikda Haydar Xorazmiy qalamiga mansubligi isbotlangan «Gul va Navro’z» dostoni Sulton Iskandar (Amir Temurning nabirasi)ning farmoni bilan 1411- yilda yozilgan. Bu ma’lumot Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asarida, Taroziyining “Funun u-balok’a”, Boburning “Aruz risolasi”da uchraydi. Shuningdek, Navoiy uning «tab’i nazm» ekanini ta’kidlab, bir tuyug’ini keltiradi:

To’lun oyg’ a nisbat ettim yorumni,

Ul xijolatdin kam o’ldi yorumni.

Tori mo’yungning zakotin men beray,

Yo Misrni, yo Halabni, yo Rumi.

Alisher Navoiy bu tuyuqni Abubakr Mirzoning bir tuyug'i bilan qiyoslab, «bu turkonaroqdur», – deydi. Tuyuq mazmuni shunday:

Yorimni to'lin oyga o'xshatgan edim, U (oy) xijolat bo 'Iganidan yarimiga kamaydi. Sochingning tolasi uchun zakotni men beraman, Buning uchun e Misrni, yo Halabni, yo Rumni (berish mumkin).

Bu yerdag'i so'z o'yini qofiyadagi so'zlar bilan bog'liq: yorimni, yarimi, yo Rumni so'zlarining shakl va talaffuzdagi yaqinligi shu imkoniyatni yuzaga keltirgan. Ana shu misolning o'ziyoq Haydar Xorazmiyning nihoyatda mahoratlari shoir bo'lganidan dalolat berib turibdi. Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ham uning she'rлarini tahlil qilib o'tadi.

Haydar Xorazmiy forsiy va turkiy tilda ijod qilgan. Undan bizga qadar «Gulshan ul-asror» hamda «Gul va Navro'z» dostonlari yetib kelgan.

Shoir hayoti va ijodining manbalari.

Shoir ijodini E.E.Bertels, H.Zaripov, A.Abdug'ofurov, B.Valixo'jayev, E.Rustamov, J.Sharipov, A.Hayitmetov, N.Abdullahayev kabilar o'rganganlar. N.Abdullahayev "Maxzan ul-asror"ning qiyosiy matnnini tayyorlab, Ganjaviy dostoni bilan chog'ishtirib chiqdi (1974).

"Maxzanu-l-asror" dostoni va Nizomiy ijodiga munosabat.

«Gulshan ul-asror» – falsafiy-ta'limiy doston. Zahiriddin Muhammad Bobur «Muxtasar» risolasida bu haqda shunday yozadi:

«Yana Mavlono Haydar Xorazmiy turkiygo'yning «Gulshan ul-asror»idur, pand-u nasihatga yaxshi abyoti bor, nechukkim debtur:

Er kishiga himmat agar bo'lsa yor,

Oqibat ul amr murodin topar.

Har kishiga himmat agar tush bo'lur,

Ko'kni talashquchi uchar qush bo'lur.

Har g'alat er o'g'lig'a bir pand erur,

Kim g'alatin bilsa xiradmand erur».

Bu yerda Bobur Haydar Xorazmiy she'riyatida pand-u nasihat – o'git ustuvorligini ham ko'rsatmoqda.

Birinchi bayt himmatli kishini ulug'lashga bag'ishlangan. Bunday kishining o'z maqsadiga yetishi muqarrarligi ta'kidlanmoqda. Ular uchun hamma imkonlar ochiq ekanligi keyingi baytning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Xato (g'alat)lardan to'g'ri xulosa chiqarish mard kishining odati bo'lmos'i kerak. Shundagina u donishmandlik maqo-miga yetadi. Oxirgi bayt ayni ana shu aqidani o'zida mujassamlashtirmoqda.

Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" dostoni 59 bobdan iborat. Masnaviyining ilk 18 fasli an'anaviy muqaddima (tavhid, munojot, na't, me'roj voqeasi, 4 ta ta'rif, Faxriddin bahromshoh madhi, Bahromshohga xiitob va ta'zim, kitob tartibi, so'z haqida, nazmning afzalligi kabi qismlar), 20 maqolat va 20 hikoyatdan iborat.

"Gulshan ul-asror" ham sari' bahrida yozilgan bo'lib, 639 baytdan iborat. 23 bob: 7 fasli – muqaddima (hamd, na't, 4 sahaba madhi, Sulton

Iskandar madhi, o'zining yasfi holi), 16 bob – asosiy qism (mav'iza, maqolat va hikoyatlar). Dostonda aniq, yagona bir sujet mayjud emas. U maqolat, mav'iza (nasihat) va alohida hikoyatlardan iborat.

Asardagi ibratli parchalardan biri «Temurbek haqida hikoyat»dir.

Unda aytishicha Temurbek:

Bir iligi, bir ayog'i mubtalo,

Qoldi g'aribiliqtu bu dushman aro.

(ya'ni bir qo'li, biroyog'i shikastlanib, dushman orasida qiyin ahvolda qoldi. U umidsizlanib yotgan edi.)

Ko'rdiki bir mo'r ayog'i, ali yo'q, Bo'ksasi majruh-u yorim beli yo'q. Keldi-yu ul tomg'a yovushti ravon, Sa'y hamon erdi, yiqilmoq hamon. Ushbu yiqilg'ong'a to'ngulmadi mo'r, Yormanib ul tomg'a yana qildi zo'r. Chiqtı yorim yo'lg'a yovushquncha tund, Tirmog'i sustaydi, tishi bo'ldi kund. Tushti yana bosh quyi ul tomdin, Keldi-yu yopushti yana nokomin. Olti-yeti qatla tusha yarmana, Chiqtı o'shul tom boshina tirmana. Bo'ldi o'shul ramz bila ko'ngli shod! Kuchlanib ul dam yuraki jo'sh etib, Zaxmati xush bo'lg'ucha xomo'sh etib... Tutti jahon mulkiyatini yak qalam, Urdi yeti kishvar ichinda alam! Kimgaki himmat nazari tush bo'lur, Ko'kni talashquchi uchar qush bo'lur. Hikmat ila davlat etagin tutar, Er kishi himmat ila ishg'a yetar.

Ko'rinib turibdiki, hikoyada insondagi sabr va bardosh, qunt va chidam ulug'lanmoqda. Chumoli timsolida ana shunday ezzuliklar, asl maqsad yo'lidagi astoydil harakatning oxiri albatta xayrli bo'lishini ishonarli va ta'sirli ko'rsatib berish orqali, Amir Temurdek buyuk bir sarkardadagi umid va ishonch, qafiyatlilik, muvaffaqiyatsizlikdan cho'chimaslik kabi fazilatlari madh etilmoqda. Ana shu fazilatlari, mus-tahkam irodasi tufayli u jahonga mashhur davlat arbobi, yengilmas sarkarda bo'lib yetishdi. Asarda ilgari surilgan hayotiy g'oyalar, shubhasiz, zamondoshlarimiz, xususan, bugungi yoshlarni uchun ham ibrat manbayi bo'la oladi.

“Bo'z to'quvchi va bazzoz” hikoyatida (43 bayt) g'ayb ilmidan xabardon bir darveshning bozorda bir bazzozning ikkiyuzlamachilik ila savdo qilayotganini ko'rib qoladi. Bazzoz nochor kampirning bo'zini yerga urib, past narxda oladi, sotishda esa ta'rifini keltirib eng qimmat narxga sotadi. Hikoya darveshning bazzozga achchiq kinoyali o'giti, o'limi va bazzozning tavbasini bilan tugaydi.

“Hotam Toyi” hikoyatida esa saxovat ulug'lanadi. Emishki, bir karvon tunda charchab bir maqbarada tunashga majbur bo'ladi. Bilishsa, mashhur Hotam Toyining maqbarasi ekan. Toliquqan va boridan surilgan karvondagi yigitlardan biri qabrga: “Ey Hotam Toyi, seni saxiy deb eshitamiz. Dargohingga keldik, bizni mehmon qilmaysanmi?” – deya surbetlarcha murojaat qiladi. Shu vaqtida karvondagi tuyalardan biri o'zidan o'zi kasal bo'lib, bo'g'izlashga majbur bo'lishadi. Ertalab Hotam Toyining ukasi bir tuya olib kelib, akasini tushida ko'rganini aytadi.

”Gulshan ul-asror” asaridan parchalar ”Asrlar nidosi”(1982), ”Navoiyning nigohi tushgan” (1986), ”Muborak maktublar”(1987) kabi kitoblarda keltirilgan.

«Gul va Navro’z» dostoni.

«Gul va Navro’z» dostoni dastlab Mavlono Lutfiyga nisbat berib kelindi. Lekin ko’pgina manbalar bu asar Haydar Xorazmiy qalamiga mansub ekanligini tasdiqladi. Bu masala to’la hal etilmagan. R.Vohidov, H.Eshonqulovlar uni Lutfiyga doir ma’lumotlarda keltirildilar.

A.Hayitmetov Ahmad taroziyning “Funun al-balogs” asari qo’lyozmasiga asoslanib, uni Haydar Xorazmiya nisbat beradi.

Alisher Navoiy va Davlatshoh Samarcandiy adibning turkiy va forsiy tilda ijod etgani, Shayx Nizomiy Ganjaviyning «Mahzan ul-asror» dostoniga o’zbekcha javob yozgani haqidagi ma’lumotlarni bayon etishgan.

«Gul va Navro’z» – muhabbat dostoni. Asarning nomi ham ramziy ma’noni ifoda etadi. Zero, Navro’z – bahorning, gul esa tabiatning ramzi sifatida qadim-qadimdan kuylanib kelgan. Haydar Xorazmiy ta’rificha:

Ki Navshod elida bor erdi bir shoh, Kelurdin voqif-u ketgandin ogoh. Oti Farrux, o’zi farxunda axtar, Aning hukmida ul iqlim-u kishvar.

Garchi u «farxunda axtar» – yulduzi saodatli bo’lishiga qaramay, «bir o’g’ilga orzumand» edi.

Yangi yilning boshida, ya’ni Navro’z kunida oilada kutilgan farzand dunyoga keldi, unga Navro’z deb nom berishdi. Navro’z o’tkir aql va nozik did egasi edi: Kichik yoshdan qamuq fanlarni bildi, Ko’pin o’z aqli birla fahm qildi. Navro’z voyaga yetadi. Kunlarning birida tushida u go’zal qizni ko’radi. Navro’zning:

Yitursam men seni qaydin tiloyin?
So`raganni so`rab qaydan biloyin? –
degan savoliga qiz:
Otim Guldur, vale Farhordinmen,
Ne ul gulki degaysen, xordinmen, –
deb javob beradi.

Bu mamlakat haqidagi mufassal ma’lumotni Bulbul keltiradi. Nihoyat Navro’z Gulni izlab topadi. Gul Chin xoqo-niga uzatilayotgan edi. Ikkalasi kemada qochib ulgurishadi, biroq dengiz falokati tufayli Navro’z Yamanga, Gul Adanga borib qoladi. Adan shohi Badi’ Gulni, Yaman shohi Rafi’ Navro’zni o’z qo’shinlariga boshliq qilib tayinlaydilar. Ular o’zaro jangga kirishadilar. Jangning eng dahshatlari onlarida Gul va Navro’z bir-birlarini tanib qolishadi. Adovat do’stlikka aylanadi. Shohlar orasidagi yovuzlik va jaholat ikki ezgu qalb egasi sharofatini bilan yaqinlik va do’stlikka aylanadi.

Xuddi shu paytda Navro’z va Gulni – o’z farzandlarini izlab yurgan otalari kelib qoladilar. Ular o’zaro fikrashib, to’rt mamlakatni birlashtirishga, o’zaro ittifoq va ahillikda yashashga azm-u qaror qilishadi.

Bu feodal tarqoqlik va o’zaro urushlar avj olayotgan XTV–XV asr sharoiti uchun nihoyatda muhim ijtimoiy aha-miyatga ega bo’lgan g’oya edi.

Xuddi shu davrda Mavarounnahr va Xurosonda Temur barpo etgan buyuk markazlashgan davlat mayda bo'laklarga bo'linayotgan, Temuriy shahzodalarning o'zaro adovat va boshboshoqliklari avj olayotgan edi. Asarda aynan shu mavzuning aks ettirilishi sharoit taqozosi bilan yuzaga kelgan, deb atyish mumkin.

Dostondagi tasvirlar yuksak badiiyligi bilan ajralib turadi. Birgina Gul qiyofasini kuzataylik:

Bute, ne but, magar huri parizod,
Tani nozik, bo'y়i chun sarvi ozod.

So'ng soch, ko'z, qosh, lab tasviri keladi. Shoir shu asosda Gulning betakror qiyofasini chizadi, ayni paytda Navro'z ruhiyatida bo'layotgan o'zgarishlar ham real tasvirlanadi.

Asarda Yaldo, Shayx Najdiy, Baxman singari salbiy obrazlar ham bor. Ular yaxshilik, olижаноблик, go'zallikka qarshi yovuz kuchlar sifatida tasvirlanadi. Bu obrazlar orqali egzilik va jaholat o'rtaсидаги kurash va ziddiyatlar ko'lami kengaytiriladi.

Adib har bir so'zga alohida e'tibor beradi. Hatto asar qahramonlarining nomi ham maxsus tanlangani bejiz emas. E'tibor bering:

Farrux – go'zal, baxtli, muborak, qutlug' yuzli.

Navro 'z – yangi kun, ya'ni yangi yil boshlanishidagi dastlabki kun.

Navshod – xalqining go'zalligi va chiroyi bilan mashhur bo'lgan shahar nomi.

Mushkin – mushk hidli.

Farhor – orasta, chiroyli va shinam joy (uning Gul tug'ilgan mamlakat sifatida talqin qilinishi bejiz emas, zero gul bor joyda orastalik, go'zallik bor).

Raf'i – olivy, baland.

Baxman – qishning eng ayozli kunlari.

Yaldo – qish mavsumidagi eng sovuq, uzun va qorong'i kecha.

Najd – yerning baland qismi, to'siq.

Adib har bir obraz tasvirida o'ziga xos badiiy vositalarni qo'llashga harakat qiladi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi an'analaridan foydalanish, voqealar bayonidagi xayoliy tasvir unsurlari, tush ko'rish, qahramonlar sarguzashtlaridagi g'ayri-oddiylik, bayonda mubolag'aning ustunligi kabilar shular jumlasiga kiradi.

Shuningdek, dostonda istiora, mubolag'a, tashxis, jonlantirish, ta'did, tashbeh kabi badiiy vositalar katta o'rind tutadi. Masalan «axtarı baxt», «saodat sha'mi», «sharaf burji», «murodim sham'i» kabi istioralarni eslash mumkin.

Asarda, ayniqsa, ta'did ko'p o'rinda qo'llangan. Ta'did fikr rivoji, ketma-ketlik, tadrijiylikni anglatadi. U grammatisq qurilmalarning bir xil shaklidan uzziy foydalanish orqali ham yuzaga chiqishi mumkin:

Oti Farrux, o'zi farxunda axtar, Aning hukminda ul iqlimi kishvar. Qamuq olamda adl-u dodi mashhur, Cherigi benihoyat, mulki ma'mur.

Bu yerda Navshod elining podshosi Navro'zning otasi haqidagi ma'lumotlar qalamga olingan. Parchada Farruxga xos bo'lgan xususiyatlar

go`yoki «sanab» o`tilyapti, uning fazilatlari ketma-ket, izchillikda ko`rsatib berilyapti.

Yoki:

Tugandi sabri, oromi, qarori,
Yig`i ko`p bo`ldi, haddin oshdi zori.

Bu misralarda ta`did Navro`zning ruhiy holatidagi o`zgarishlarni jonli ko`rsatish uchun qo`l kelgan.

Tashbehlar ham asardagi muayyan voqeal-hodisalar, ayniqsa, qahramonlar ruhiyatini aniqroq, ta`sirliroq gavdalantirishga yordam bergan:

Agar jonsen, neteg tandin yiroqsen,
Qorong`u ko`nglimiz ichra chiroqsen.

Bu yerda Gul qorong`u ko`ngil ichidagi chiroqqa o`xshatilmoqda.

Yoki:

Chu Farhor otini shah go`sh qildi,
Ichi qaynar qozondek jo`sh qildi.

Navro`z Gulni tushida ko`rganidan keyin uning ishtiyoqi bilan kuyib-yonib yurgan edi. Bulbul keltirgan xabar tufayli uning ruhiyatida bo`lgan o`zgarish shu o`xshatish orqali tasvirlanmoqda. Qolaversa, adibning har bir so`zi ham nihoyatda tanlangan, saralangan. Hozirgi misolimizda ham kuyib-o`rtangan odam vujudining qaynar qozonga o`xshati-lishi nihoyatda yangi va ohori to`kilmagan badiiy topilmadir. Go`shJo`sh so`zlarining qofiyalanishi, qildi so`zming radifda takrorlanishi she`riy misralar ohangdorligini juda kuchaytirgan. Dostonda ana shunday ohangdorlikka alohida e`tibor berilganini kuzatish mumkin. Masalan, har misrada oltitadan so`z qoilangan. Ana shularning beshtasi o`zaro yo qofiyadosh, yo ohangdoshdir: surar, quchar, noz birla, roz birla.

Mumtoz adabiyotimizda bunday san`at tarse` deyiladi. «Tarse» so`zining ma`nosи «ipga marjon tizish» demakdir. Quyidagi bayt ham shu san`at bilan ziynatlangan.

Gahe eltub ayyog`ini o`ziga, Gahe surtub iligini ko`ziga.

Bularning hammasi Haydar Xorazmiyning o`zbek mumtoz adabiyoti tarixida o`ziga xos o`rin tutganligidan dalolat beradi. U o`zining turkiy va forsiy tildagi asarlari, «Gulshan ul-asror», «Gul va Navro`z» dostonlari bilan mashhur bo`ldi. Adibning o`zbek tili ichki imkoniyatlarini, uning boyligini ko`rsatishga bo`lgan urinislari besamar ketmadi. Zero, bu asarlar hozir ham elimiz ardog` idadir.

Savol va topshiriqlar:

1. Haydar Xorazmiy yashagan davr O`zbekiston tarixining qaysi davriga to`g`ri keladi?
2. Siyosiy taloto`plar fan va madaniyatning rivojlanishiga qanday ta`sir ko`rsatadi?
3. Haydar Xorazmiy asarlari tiliga baho bering.

4. “Maxzan ul-asror” asaridagi hikoyalarga tavsif bering.
5. “Gul va Navro’z” asari haqida ma’lumot bering.
6. Haydar Xorazmiy g’azallaridan yodlang va tahlil qilib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqulov N. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o’quvchilari uchun darslik). – T., 2000.
7. Faffarov N. “Гулшан ул-асрор” нашрлари ҳакида//ЎТА, №2, 1993. 52-53-бетлар.

XORAZMIY VA UNING “MUHABBATNOMA” ASARI

Reja:

1. Xorazmiy va uning “Muhabbatnoma”si.
2. Asar tarkibi va janr xususiyatlari.
3. Noma janri va uning taraqqiyoti

Tayanch so`z va iboralar: *noma, qit'a, fard, Muhammad Xo'jabek, “Dahnama”, zullisonayn, “Taashshuqnomá”, hasbi hol, tadrij, talmeh, sifatlash.*

Xorazmiy va uning “Muhabbatnoma”si.

«Muhabbatnoma» degan yagona asari yetib kelgan Xorazmiyning taxallusi o’z asarlarida qayd etilgan. Asarning yozilishiga Muhammad Xo’jabeķ tashabbuskor bo’lgan. Adib uni «davlat humoyi» deb ta’riflagan.

Muhammad Xo’jabeķ qo`ng’irot urug’idan bo`lib, kichikligidan davlat ishlariga kirgan. Bir o’rinda u Oltin o’rda xoni Jonibek bilan qiyoslanadi:

*Uza jonsiz tan erdi mulk sensiz,
Shahanshoh Jonibekxonga yetansiz.*

Boshqa joyda esa u «sohibqiron» deb tavsiflanadi. Asar 1353- yilda yozilgan. Jonibekxonning Oltin o’rdadagi hukmronlik qilgan 1342–1375-yillarga to`g’ri keladi. Demak, Muhammad Xo’jabeķ Jonibekning qo’l ostidagi a’yonlaridan, ehtimol, harbiy sarkardalaridan biri bo’lganga o’xshaydi. Adib asar yaratilgan joyni ham eslatadi:

«Muhabbatnoma» so`zin munda ayttim,

Qomug’in Sir yaqosinda bitidim.

N.M. Mallayev bu Sig’noq shahri ekanligini aytadi.

«Bayoni voqein aytur» bobida ko’rsatilishicha adib ikki tilda ijod qilgan.

Ko `ngul bahrinda ko `p gavharlarling bor,

Ochunda porsiy daftarlaring bor,

mislari uning forsiy she’rlari ham mashhur bo’lganligini ko`rsatadi.

Demak, asar shoirning turkiy tildagi ilk asaridir.

N.Mallayev “Muhabbatnoma”ga ilova qilingan she’riy hikoyatni tahlil qilib, shoirning Sharq mamlakatlariga sayohatga chiqqanligini, Rum va Tayfundan o’tib, bir do’sti bilan Shomga borganligini xabar beradi. Bundan tashqari, Sayfi Saroyi tarjima qilgan “Guliston”ning Leyden nusxasida Xorazmiy taxallusli shoirning she’ri uchraydi:

Dunyo senga qolurmi Sulaymonga qolmadi?

Ulkim anga musaxxar edu dev-u ham pari.

Xorazmiyning agar tani tuproq bo `lsa ham,

Otin tiri tutar jahon ichra so`zları.

Asar tarkibi va janr xususiyatlari.

«Muhabbatnama» o`n bobdan iborat. Unda g`azal, nom, soqynoma, munojot, qit'a, masnaviy, fard kabi janrlar jamlangan. Muallif o`z fikrlarini nomalar tarzida bitadi. Asar va shoir hayotiga qiziqish A.M.Samoylovich, M.F.Ko`pruluzoda, A.M.Shcherbak kabi xorijiy tadqiqotchilarni, S.Qosimov (1950 nomzodlik), N.Mallayevlarni o`ziga jalb etgan.

Fors-tojik adabiyotida nom janrining ilk nom namunasini Faxriddin Gurgoniyning “Vis va Romin” dostonida uchratamiz. Unda zardushtiylik diniga xos dunyoqarash, urf-odatlar sezilib turadi. Unda Vis tilidan yozilgan o`n nom “Dahnama” sarlavhasi ostida alohida beriladi. Keyinchalik Avhadiy, Kirmoniy, ibn Imodlarning yetuk nomalari vujudga keldi. Avhadiy “Dahnama”si 1306-1307 yillar yozilgan bo`lib, oshiq va ma’shuq tilidan yozilgan 10 nomadan iborat. Xoja Imodiddin Kirmoniyning 1322-yil yaratilgan “Muhabbatnomayi sohibdilon” yoki “Dahnama”si ham oshiq-ma’shuqlar xatlari shaklida yaratilgan.

Noma janrining o`zbek adabiyotida shakllanishi va rivoji Xorazmiy nomi bilan bog`liq. Nomalar oshiqning o`z ma’shuqasiga dil izhorlari tarzida yozilgan. Ularda ma’shuqa ta’rifi asosiy o`rin tutadi. Birinchi nomaning dastlabki misralariyoq xuddi shu tarzda boshlangan. Ma’shuqaning ko`rki tengsiz. U ko`rkilarning podshohi, uning go`zalligi haqidagi madh («husnung sipohi») olamni tutgan. Ma’shuqa – pariruxsorlarning ham go`zali – ko`rkaboyi.

Yuz, qosh, ko`z, xol, bo`y (qad) tasvirlari nihoyatda xilma-xil holatlarda juda go`zal va yorqin timsollarda chiziladi:

*Turubdur ko`zda qaddingiz xayoli,
Aningdekkim suv uzra tol niholi.*

Lirik qahramon nazarida ma’shuqa go`zallik, latofat va nazokatda tengsiz. U olamdagi eng aziz va mo’tabar inson. Mumtoz adabiyotimizda bo`lganidek, Xorazmiy tasvirida harn ma’shuqa beparvo, qahri qattiq, jafokor va hatto bevafodir. Shuning uchun ham ma’shuqa «nomehribon», «ahdi baqosiz»:

*Qamuq yoqut erinli, so`zi durlar,
Vafosizlikni sizdan o`rganurlar.
Biroq oshiq ko`ngil izhorida sobit, u o`z ishqiga sodiq. Fikrida qat’iy:
Davr sizning durur davron borincha,
Qulungizmen tanimda jon borincha....
Kishi qayda o`larin bilsa bo`lmas,
Haqiqat yoridan ayrilsa bo`lmas.*

Hatto:

*Ayturmen, yuz nechakim kelsa mehnat,
Jafo sizdin, tag`i bizdin muhabbat.*

Umuman, asarda haqiqiy go`zallikni ta’rif va tavsif etish, insoniy muhabbat tuyg`ularini samimiyl ifodalash, inson qalbidagi nozik kechinmalarni qalamga olish asosiy o`rin tutadi. Bu goh ma’shuqa va saboga murojaat, goh oshiq qalb izhori tarzida namoyon bo`ladi. Ularning barchasiga xos xislat –

yuksak badiiyatdir. Adibning o'xshatish va sifatlashlaridan boshlab, tanlagan vazni, janri, qofiya va radiflarigacha ana shunday nozik badiiyatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Agar desam seni Rustam, yorarsen,

Qiliching birla saflarni yorarsen.

Muhammad Xo'jabek madhiga bag'ishlangan bu parchada ta'riflanayotgan kishi Rustamga o'xshatilmoxda. Birinchi misra oxiridagi «yorarsen»—yaraysan, loyiqsan, arzuguliksan ma'nolarini beradi. Keyingi misradagi shu so'z esa «yormoq», «bo'lib tashlamoq» ma'nolariga ega. Bunday tajnisli qofiyalar adibning og'zaki an'analar bilan yaqindan tanishligini ko'rsatadi. Bugina emas, xalqona kinoya va qochirimlar, an'anaviy tasvir vositalari, xususan, mubolag'a va o'xshatishlarning ko'pligi ham bu fikrni quvvatlaydi.

Noma janri va uning taraqqiyoti.

Xorazmiyning «Muhabbatnomasi»si o'zbek adabiyotidagi yirik voqealardan bo'ldi. Uning ta'sirida keyingi asrlarda ham bir qator asarlar yuzaga keldi. Xo'jandiyning «Latofatnomasi», Said Ahmadning «Taashshuqnomasi» asarlari shular jumlasidandir.

Xorazmiy – zullisonayn shoir. Ikki tilda ijod qiladigan adiblar zullisonayn deyiladi. Adib asarning ikki bobini forsiy tilda yaratgan:

Qiloyin ikki bobin porsi ham,

Kim atlas to'n yarashur bo'lsa ma'lam.

Asar 11 noma bo`lgach, 4,-8,-11-nomalar fors tilida yozilgan. Xorazmiy o'zbek adabiyotida g'azal janrining rivojiga munosib hissa qo'shgan adibdir. Uning g'azallari ishq-muhabbatni tarannum etadi. Xorazmiy tasvirida «yor» go'zallikning noyob timsolidir:

Yuzungda ko'rdum, ey jon, bayram oyin,

Munung shukronasi qurban bo'loyin.

«Yuzda bayram oyini ko'rish» badiiy kashfiyot. Xorazmiy-gacha bo`lgan davrda bunday tasvirni ko'rish mumkin emas. Adib ma'shuqa yuzini bayram oyiga o'xshatyapti. Bayramdagagi holat va ko'tarinki kayfiyat shu tasvirga asos bo`lgan. Bayram qurbanlik talab qiladi. Qurbanlik ham tayyor. Bu – lirik qahramon. Misralarda boshqa ma'no ham bor. Qahramon «yuzda bayram oyini» ko'rmoqda. Yangi oyning shakli qosh bilan uyg'un. Odatga ko'ra yangi oy ko'rinishi bilan unga yetishganlik uchun shukronalar qilinadi. Baytda ana shu ko'chma ma'no ham mavjud.

Adib go'zal mahbuba yuzini madh etishda davom etadi. Yorning yuzi shu qadar munavvarki, hatto, «agar kun tug'masa (chiqmasa) ham» shu nuring o'zi olamni yoritaveradi:

Agar kun tug'masa ham yoqtu qilg'ay,

Yuzung nuri bu dunyoning saroyin.

Bu o'rinda ma'nosiga ko'ra bir-birini taqozo etadigan «kun», «yoqtu», «nur», «dunyo saroyi» so'zlarining keltirilishi bir mantiqiy izchillikni tashkil etmoqda. Qolaversa, bu tasvir birinchi baytdagi fikrni yanada rivojlantirmoqda.

Yor go`zalligi oldida o`z donishmandligi hamda barcha mo`jizalardan xabardorligiga qaramay, hatto Aflatun ham hayron-u lol bo`lib qoladi:

Gar Aflatun sening ishqingga tushsa,

Berur elga qamuq tadbir-u royin.

Mumtoz adabiyotimzida shirinso`zlik, so`zamollik shakar va to`ti bilan qiyoslanadi. Xorazmiyda ham shu timsollar mavjud:

Shakartek til bila to`ti tilingiz

Necha kun sayd etar jonlar humoyin.

Humo – afsonaviy qush. Unga duch kelish yoki uni qo`lga kiritish nihoyatda qiyin. Ammo go`zalning shakardek tili bunday qushlarni «necha kun sayd etadi».

Xorazmiy go`zallikni o`zicha tushunadi, o`zicha talqin etadi. Shunga ko`ra ham ta`rifda, «latofat to`nining bichiqchisi» saodat bilan baxt sifatida gavdalantiriladi.

Saodat birla baxt ikkisi bichti,

Bo`yungiza latofatning buqoyin.

Shoir uchun go`zallikni ta`riflash, uni madh etish va targ`ib qilish baxtdir. U xuddi shu maqsadda yordan ruxsat so`raydi:

Ijozat bersangiz, tong yoqtusidek,

Jahonga husnungiz joving yoyoyin.

«Tong yog`dusidek» o`xshatishi bu o`rinda ikki xil talqin qilinishi mumkin. Birinchisi, ma`shuqaning husni tong yog`dusidek go`zal, benazirdir. Ikkinechisi esa tong yog`dusi dunyoga taralganidek yor husni shuhratini yoyishdir. Bu so`z o`yini juda o`rniga tushgan.

Oxirgi baytdagi iltijo ham so`z o`yiniga tayanadi:

Siza deb keldi Xorazmiyni asrang,

Kim asrarlar qamuq shahlar gadoyin.

Lirik qahramon yorga o`z mehri, sadoqatini ifodalab keldi. Buning evaziga esa uning birgina o`tinchi bor: Sizni deb keldimi, siz ham uni avaylang, asrang. Hatto shohlar ham o`z saroy-laridagi gadolarni avaylashadi, ularga g`amxo`rlik ko`rsatishadi. Bu bilan shoir ma`shuqani shohga, lirik qahramon – oshiqni esa gadoga o`xshatmoqda.

G`azal 7 baytdan iborat. Baytlar o`zaro mantiqiy iz-chilikka ega. Bunda ko`proq fikriy tadrijiylik bor. G`azalning dastlabki bayti matla', oxirgi bayti maqta` deyiladi. Matla'ning har ikki misrasi o`zaro qofiyalanadi. Keyingi baytlarning faqat juft misralaridagi birinchi bayt misralari qofiyadosh bo`ladi (a-a, b-a, d-a, e-a, f-a, g-a, h-a). G`azaldagi qofiyadosh so`zlar: oyin, bo`loyin, saroyin, royin, humoyin, buqoyin, yoyoyin, gadoyin.

G`azalning oxirgi baytida, maqta`da, odatda, taxallus qo`llanadi. «Xorazmiy» so`zi ana shu taxallusni ifodalaydi. G`azal aruzda bitilgan.

Yu-zung-da ko `r du-mey jon bay- ra-mo-yin

.. v - - V - - - V - -

Mu-nung shuk-ro-	na-si qur-bon	bo` - lo-yin
. V - - -	V	V - -
Ma-fo-iy-lun	ma-fo-iy-lun	fa-uv-lun
A-gar kun tug'	ma-sa ham yoq-	tu qil-g'ay
y _ _ _ V - - -	V - -	
Yu-zung nu-ri	bu dun-yo-ning	sa-ro-yin
V	V - - -	V - -
Ma-fo-iy-lun	ma-fo-iy-lun	fa-uv-lun

Bu yerda misralar 11 bo`g`indan iborat. Ammo bo`g`in-larning sonigina emas, balki sifati ham bir xildir. Ular ikki marta to`rt bo`g`indan va bir marta 3 bo`g`indan tuzilgan ruknlar takroriga tayanadi. Bo`g`inlarning o`zaro ketma-ketligida ham bir xillik bor. Ular bir qisqa va ikki uzun bo`g`in takroriga tayanadi.

Bunday vazn tuzilishi mafoiylyn mafoiylyn fauvlyn ohangida o`qiladi. Bu vazn nomi hazajdir. Bir rukn (v) baytda olti marta qo`llangan uchun u hazaji musaddas bo`ladi. Ammo oxirgi rukndagi bir bo`g`in qisqargani uchun unga mahzuf nomi berilgan. Demak, g`azalda qo`llangan vaznning to`liq nomi hazaji musaddasi mahzufdir. Asar to`lig`icha shu vaznda yaratilgan.

Xorazmiyning tili nihoyatda shirali. U o`zbek tilining nozik va nafis ichki imkoniyatlarini muhabbat bilan namoyish eta olgan. «Shakartek til», «tong yoqtusitek», «tan ichra jon», «arslon yurak», shuningdek, «oldini tutmoq», «oldin kechmoq», «yer o`pmoq», «elga bermoq» kabi ifodalar Xorazmiy tilining nafosatini belgilab beradi. Asarda Faridun, Sulaymon, Masih, Yusuf, Hotami Toy, Rustam, Ali, Muhammad Xo`jabek singari tarixiy hamda afsonaviy nomlar uchraydi. Muallif o`rn-i o`rn bilan arabcha va forscha so`zlardan ham ustalik bilan foydalanadi.

“Muhabbatnoma”ning 2 ta qo`lyozma nusxasi bor. Uyg`ur yozuvidagi qo`lyozma 1432-yil (835)da Yazd shahrida Mir Jaloliddin degan kishining topshirig`i bilan Boqi Mansur baxshi tomonidan ko`chirilgan bo`lib, unda “Siroj ul-qulub”, “Masala kitobi”, “Rohat ul-qulub” kabi didaktik asarlar, Lutfiyning 4 ta g`azali ham keltirilgan. Arab yozuvidagi nusxa 1508-1509-yillar (914)da ko`chirilgan bo`lib, ilovasida “hikoyat” asari berilgan. Ular jami 473 baytdan iborat. “Muhabbatnoma”da noma, masnaviy, qit`a, madhiya kabi janrlar uchraydi.

Shuning uchun ham «Muhabbatnoma» o`zbek tili tarixini o`rganish uchun ham boy manba bo`la oladi. Uning o`sha davr tilining badiiy yodgorligi sifatidagi qadri balanddir.

XV asrning 1-yarmida yashab ijod qilgan Yusuf Amiri Xorazmiyga ergashib ”Dahnoma” asarini yozgan. Yusuf Amiri haqida Navoiy ”Majolis un-nafois”ning 1-majlisida shunday yozadi: ”Mavlono Amiri turkiy erdi va turkcha she’ri yaxshi voqe` bo`lubdur, ammo shuhrat tutmaydur va bu bayt aning ”Dahnoma”sidindur:

Ne yemakdin, ne uyqudin solib so'z,
Yemakdin to'yub, uyqudin yumub ko'z".

Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" asarida Amiriy Shohruk Mirzo zamonida shuhrat tutgani va Boysunqur Mirzoga qasidalar bag'ishlangani aytildi.

Amiriy "Dahnama"si muqaddima, asosiy qism va xotimadan iboratdurd. Muqaddimada *munojot, na't, Sulton Boysung'ur madhi, Xorun ar-Rashid hikoyati, dar sababi nazmi kitob, pesh omadane sohibjamole dar roh* qismlaridan iborat bo'lib, jami 157 baytni tashkil etadi. Asosiy qism 10 noma, 10 ga'zal, 10 farddan iborat (6714 bayt). Unda ma'shuqaning xati ham o'rinn olgan. Asar xotimasi 36 bayt bo'lib, unda Boysung'ur Mirzo maqtalib, shoirning o'zi "she'r mulkinining Amiri" deb maqtaladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Noma janrining xususiyatlarini sanang..
2. Noma janrining paydo bo`lishi qaysi xalq adabiyoti bilan bog'liq?
3. Xorazmiy noma janri taraqqiyotida qanday burilishlar yasadi?
4. Xorazmiy va uning izdoshlari nomalarida qanday farqlar bor deb o'ylaysiz?
5. "Muhabbatnoma"ning badiiy xususiyatlarini sanang.
6. Xorazmiy badiiy mahoratiga baho bering.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqulov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o'quvchilari uchun darslik). – Т., 2000.
7. Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри – Т.:Фан, 1992.
8. Бектемиров Х. Исследование языка произведений Йусуфа Амири. Дисс. канд. фил. наук. – Тошкент, 1973.
9. Бектемиров Х.Ю. Амирий ва унинг асарлари ҳакида баъзи маълумотлар//Ўзбек адабиёти тарихи масалалари. - Тошкент, 1976.
10. Жамолова М. Юсуф Амирий ва унинг «Дахнома»си// ЎТА, №1,1992, 44-49-бетлар.
11. Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – Москва, 1963.
12. Абдувохидова М. Ўзбек адабиётида мунозара. – Тошкент, 1984.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Халиева Г. Самойлович туркий адабиёт тадқикотчиси сифатида // ЎТА, №2, 2012. – 40-43-бетлар.
2. Очилов Э.Ўзбек адабиётшунослигида рубоийнинг ўрганилиши // ЎТА, №6, 2005. 19-32-бетлар.

DURBEK IJODI

Reja:

1. Durbek ijodi.
2. “Yusuf va Zulayho” dostoni. Doston muallifligi masalasi.
3. Badiiy adabiyotda “Qissayi Yusuf” syujeti.

Tayanch so`z va iboralar: *badiiy tarjima, ijodiy tarjima, milliylik, aruz, hazaj, abjad, Yusuf, “Qisas ul-anbiyo”, talmeh.*

«Yusuf va Zulayho» Sharqda mashhur bo`lgan qadimiy qissalardan biridir. Bu ikki oshiq va ma’shuqa haqida ko’plab ertak, rivoyat, afsona, hikoya, qissa va dostonlar yaratilgan. Bu sujet yahudiy, arab, fors va turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Arab, fors-tojik tillarida Firdavsiy, Shahobiddin Am’ak, Saolibiy, Kisoiy, Jomiy, turkiy tilda esa shoir Ali, Nosiruddin Rabg’uziy ham bu mavzuga murojaat qilishgan. Sharq adabiytida bu mavzuda 150ga yaqin ijodkor asar yozgan⁵² bo’lsa, turkiy tildagi “Yusuf va Zulayho”larning o’zi 45 dan ortiq⁵³.

Shubhasiz, ular orasida Durbekning «Yusuf va Zulayho» dostoni alohida o’rin tutadi. Adabiyotshunos E.Rustamov Durbek dostonini Abdulloh Ansoriyning forsiy tilda yozilgan “Anis ul-muridin va shamsul-majolis” bilan qiyoslab chiqib, Durbekning asariga mazkur asar asos bo’lganini ta’kidlaydi⁵⁴. Biroq “Anis ul-muridin”da aniq sujet chizig’i ko’rinmaydi. Durbek boshqa manbalarga (avvalo, Qur’onga, shuningdek, “Qisas ul-anbiyo”ga) ham murojaat qilgan ko’rinadi. Ba’zi manbalarda muallif ismi Ulug’bek yoki Homidiy Balxiy ekanligi aytildi. Akademik B.Valixo’jayev tadqiqotlari, Abduhamid Po’lotiy shaxsiy kutubxonasidagi nusxada “Ayladi bu qissani Durbek nazm” satrining mavjudligi Durbek variantini mustahkamlaydi. Doston muqaddimasida ta’kidlanishicha, asar Balx shahrida yaratilgan. Shoir Balx haqida shunday yozadi:

Balx erur dahrgaumm ul-bilod,
Mazhari islom-u taqi adl-u dod.
Jumla akobirning edi manzili,
Sokin erur anda nabiy-u vali.

⁵² История узбекской литературы. В 2-х томах. Том 1. – Ташкент, 1987. С.169.

⁵³ Короллы Х.Г. Сюжет о Юсуфе и Зулайхе в тюркских литературах//СВ, 1975, №3.

⁵⁴ Рустамов Э.Р. Некоторые вопросы сравнительного изучения узбекской литературы XV века с другими восточными литературами (туркские и персидско-таджикская). ДД. – Москва-Ташкент, 1966.

Umm ul-bilod – shaharlarning onasi demakdir. Shoir bu bilan o’z shahrining nufuzuni ta’kidlamoqda. Keyingi misralar ham shahar ta’rifiga bag’ishlangan.

Ana shunday go’zal va mo’tabar shahar qamal ichida qoladi. Uning xalqi zulmga giriftor bo’ladi:

Qal’ayi Balx o’ldi chu darvozaband,

Poyayi zulm o’ldi bag’oyat baland.

Muallif tazod san’atti yordamida shaharning ichi va tashqarisi tasvirini beradi. Bu san’attan Balx qamali tasvirida keng foydalanilgan:

Shahr chu do’zax kibi zindon edi,

Tashqari bir ravzayi rizvon edi.

Tashqari edi bori noz-u naim,

Shahr ichida erdi azobi alim...

Ana shu jarayonda xalq nihoyatda og’ir sharoitlarni boshdan kechiradi. Doston muqaddimasida xalq iztiroblari tasviri ham nihoyatda jonli, ta’sirli qilib chizilgan.

Xalq bu shahr ichra ba zindon edi,

Mehnat o’tidin bari biryon edi.

Demak, shaharning o’zi butun boshli zindonga aylangan, u yerdagi mehnat, ya’ni qiyinchilik, azob, mashaqqatlar olovı xalqni kuydirib tashlamoqda. Shuning uchun ham:

Uchar edu ko`zlaridin naqshi non,

Ko`z yoshi erdi magar obi ravon.

Muhimi, muallif ushbu voqealarda o’zining shaxsan ishtirok etganini ham ta’kidlaydi:

Bandaalar birla giriftor edim,

Barchasidin voqifi asror edim.

Shu o’rinda muallif ko’p kitoblar ko’rganini, Qur’oni karimdagii “Yusuf” surasi, ko’p qissalar bilan tanish ekanligini, ayniqsa, forsiy «Qissasi Yusufga alohida «mayli jon» ko’rsatganini ta’kidlaydi, o’ziga bevosita jiddiy ijobjiy ta’sir ko’rsatgan manba haqida esa shunday ma’lumot beradi:

Nasr edi bu qissa dag’i forsiy,

Edi anga jon ko’zi nazzoras.

Demak, adibning qo’lidagi manba fors tilida bo’lgan.

Bor edi ko’ngulda burundin bu azm,

Turki tili birlam-u qilsam bu nazm.

Dostonda aytishicha, Mag’rib (G’arb)da nomi dunyoga ketgan shoh bo’lib, uning ismi Taymus edi:

Kofir edi ul, vale odil o’zi,

Bo’lmas edi ikki oning bir so’zi.

Taymus shohning nihoyatda go’zal qizi bor edi. Dostonda uring siymosi shunday chiziladi:

Bir qizi bor erdi mahi xovariy,

Orazig’ a shams-u qamar mushtariy.

Yuzi quyosh erdi, vale bezavol,
Barcha funun bobida sohib kamol.
Hosili umri edi ul shohning,
Oti Zulayho edi ul mohning.
Xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan asarlardagi kabi dostonda ham
Zulayho tushida Yusufni ko'radi:

Dedi Zulayhoki: «Ayo gulbadan,
Menga de otingni nedur? Qaydasan?
Qayda tilay yo`qlasam oxir seni»,
«Munda toparsan chun tilasang meni—
Dediki: Yusufdir otim, guluzor,
Men erurman Misr elida Shahriyor»...

Ana shu tush sababli Zulayho ishq o'tida o'rtana boshlaydi. Nihoyat, u tushidan onasini xabardor qiladi. Onasi esa bu xabarni otasiga – Taymus shohga yetkazadi. Taymus shoh orasi 6 oylik yo'l bo'lgan Misrga – Yusufning eliga elchilar yuboradi. Zulayhoni ham Misrga kuzatishadi. Zulayho tantana bilan kutib olinadi-yu Misr Aziziga turmushga chiqishga majbur bo`ladi. Bunda enagasi muhim rol o`ynaydi. U ota-onasi obro`sini o`laydi. Bu vaqtida Kan'on yurtida Yusuf aka-ukalari orasidagi nizolar qurbanli bo`ladi. Uni qul o'rnda sotib yuboradilar. Yahudo boshliq akalar otalari Ya'qubga "bo'ri yedi" deb ko`ylakni olib borishadi. Yusufni Moliki tojirga sotadilar. Qul bo'lgan Yusuf Misr Aziziga sotiladi. Zulayho Yusufni ilk bor ko'shkda ko`rib qoladi, asarda tasvirlanishicha, u «tuproq ustiga xuddi o'liklar kabi tushdi». Zulayhoda besabrilik, Yusufda andisha, enagada qat'iyilik kuzatiladi.

Enaga Yusufning gaplarini Zulayhoga yetkazadi hamda uni ishq yo'lida sabr-u bardoshli bo`lishga chaqiradi:

Sabr bila tengri berur komi dil,
Sabr qil-u, sabr qil-u, sabr qil.

Misr Azizi Yusufg farzanddek qaran Zulayhoga xizmatkorlikka beradi. Keyinchalik Misr shohi Rayyon davlatni boshqrishni tadbirkor Yusufga topshiradi. U zindonbandlarni ozod qiladi, 6 yil bug'doy hosilini yig'adi, 6 yil ocharchilikda bu qo'l keladi. Misr Azizi vafot etgach, Yusuf Zulayhoga uylanadi. O'z yurtlarida nochorlikdan qiynalgan akalar yordam so'rab o'zlaribilmagan holda Yusuf oyog'i ostiga keladilar.

Dostondagi asosiy qahramonlar Zulayho bilan Yusufdir. Ammo ishq bobida Zulayho faolroq namoyon bo`ladi. U tashabbuskor va jur'atli qiz. Ayni paytda vafodor ma'shuqadir. Dostonda Zulayhoning ichki kechinmalari, qalb iztiroblariga alohida e'tibor berilgan:

Dostonda enaga obrazi ham yorqin tasvirlangan. U mehribon, jonkuyar, uyat-andishali, sermulohaza va tadbirkor ayol qiyofasida ko'rindi. Zulayho ishq o'tida kuyib, yonib turgan paytda enaga unga tasalli beradi.

Zulayho sabrsizlik, irodasizlik qilgan paytlarida enaga unga onalik nasihatlarini qilib, sabr va bardoshga undaydi. U Zulayhodagi or-nomus, iffat

va hayo singari fazilatlarga dog' tushmasligini istaydi va bu yo'lida o'z mehrini ayamaydi.

Yana bir qahramon Bashir taqdiri azal adolatliligi namunasidir. U Yusufning emikdoshi bo'lib, Yusufning onasi o'lganda, Ya'qubning cho'risini emgan edi. Bu ayoldan Bashir tug'iladi. Ya'qub onanining oh-nolalariga qaramay bolani qul qilib sotib yuboradi. Xuudi shu musibat keyinchalik Ya'qub bosiga hm tushadi.

Durbekning mazkur asarida asosan ikki yo'naliishdagi ishq kuyylanadi: ota va og'il o'rtasudagi va Yusuf bilan Zulayho o'rtasidagi⁵⁵.

Doston badiiy jihatdan go'zal va jozibalidir. Undagi tasvirlar nihoyatda tabiiy, jonli va zavqli. Asarning o'qilish ohangi ham yengil, u muftailun, muftailun, foilun vaznida yozilgan. Bu vazn aruzda sari' bahri deyildi. Uning tuzilish shakli — v v —, — v v —, — v — dir. Barcha dostonlar kabi «Yusuf va Zulayho» ham masnaviy shaklida yozilgan. Masnaviydagি qofiya shakli a-a, b-b, d-d, e-e,... tarzida bo`ladi.

Demak, bir baytda oltita rukn ishlataliyapti. Ulardan to'rttasi solim, ikkitasi maqsurdur. Shunga ko'ra bu vazn sari' musaddasi maqsur deb nomlanadi. Undagi qofiyalar esa guluzor, shahriyor; g'am, dambadam; qilib, nasib so`zlaridan iborat.

Dostonda turli badiiy-tasviriy vositalardan keng qo'llangan. Ayniqsa, muallif bayoni qatorida qahramonlar nutqi, monolog, dialog kabi shakllardan ham mohirlik bilan foyda-lanilgan.

Bularning barchasi asar badiiyligini kuchaytirgan. Shuning uchun ham salkam 600 yilki, bu doston xalqimiz ardog'ida. Asar hijriy 812, melodiy 1409-yilda yozilganligi haqida kitobning o'zida shunday ma'lumot bor:

«Zod» edi tarix taqi «he» yu «dol»,

Muddati hijriydan o'tub moh-u sol.

Qadimda abjad bisobi bo'lgan. Unga ko'ra arab alifbosidagi har bir harf o'zining miqdoriy ko'rsatkichiga ham ega bo'lgan, ya'ni har bir harf ayni paytda muayyan raqam (son)ni anglatgan.

Bu yerda eslatilgan harflar «zod» – 800, «he» – 8 va «dol»-4 ni bildiradi. Bu hijriy $800+8+4=812$ bo'lib, bu sana asar yozilgan yilni bildiradi.

Asar E.E.Bertels, V.V.Bartold, D.T.Voronovskiy, N.M.Mallayev, B.Valixo jayev, E.Fozilov, F.Sulaymonova kabilar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Javqon Lapasov "Yusuf va Zulayho" dostoni morfologiysi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Professor A.Fitrat ilk bor "O'zbek adabiyoti namunalari" (Samarqand,1929) kitobida parchalar e'lon qilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Adabiyotimizda hayot yo'li noma'lum qanday shoirlarni bilasiz?

⁵⁵ Курбонов А. "Юсуф ва Зулайҳо" киссасининг ижодий талкинлари//ЎТА, 1997, №1. – 47-50-б.

2. Ayting-chi, asarlar muallif qanday yo'l bilan aniqlanadi?
3. Asarlar muallifini aniqlash va uning matnini tiklash adabiyotshunoslikning qaysi bo'limi doirasiga kiradi?
4. Asarlarda adib avtobiografiyasi qanday o'rirlarda singdirib yuboriladi?
5. Yusuf va Zulayho haqidagi yana qanday asarlarni bilasiz? Ularning barchasida sujet bir xilmi?
6. Tush lavhalari mumtoz adabiyotimizda qanday o'ringa ega?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Т., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqulov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o'quvchilari uchun darslik). – Т., 2000.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Рабгузий. Қисаси Рабгузий. 1-,2-жилд. – Т.: Ёзувчи, 1990.
2. Бобоҷонова Н. “Юсуф ва Зулайҳо” қиссасида қудуқ мотиви // ЎТА, №3, 2014. 40-46-бетлар.
3. Иброҳимова Э. Жомий талкинида Зулайҳо образи // Адабий мерос. №2, 1990.

QUTB IJODI

Reja:

1. Qutb hayoti va ijodining manbalari.
2. "Xisrav va Shirin" dostonining yaratilish tarixi, nusxalari.
3. Asar sujeti, voqealar silsilasi va asosiy qahramonlari.

Tayanch so'z va iboralar: *badiiy tarjima, ijodiy tarjima, milliylik, aruz, hazaj, abjad, "Panj ganj", Tanibek, Shirin.*

Qutb hayoti va ijodining manbalari.

Qutb Xorazmiy o'zbek mumtoz adabiyotida "Qutadg'u bilig" va "Hibatul-haqoqiyq'dan so'ng "Xusrav va Shirin" nomli yirik hajmli masnaviy yaratgan iste'dodli shoirdir.

Shoirning boy ma'nnaviy-adabiy merosidan ana shu tarjima dostongina bizga qadar etib kelgan. Mazkur asar taniqli ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning "Panj ganj" idan o'rın olgan "Xusrav va Shirin" dostoni asosida vujudga kelgan bo'lib. unda Qutb Xorazmiy ning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-talimiy, irfoniy-ilohiy qarashlari o'z ifodasini lopgan. Shoir Nizomiy Ganjaviy dostonini o'zbek tiliga muvaffaqiyatli o'girish barobarida, unga jiddiy yangiliklar kiritib, erkin-ijodiy tarjimaning mumtoz namunasini meros qoldirdi.

Qutb Xorazmiyning hayoti va faoliyati haqida "Xusrav va Shirin" dostonidagi ayrim ishoralar orqali ma'lum tasavvurlar hosil qilishimiz mumkin. Dostondan anglashilishicha, shoir Xorazmda tug'ilgan. Shuning uchun aksariyat mumtoz she'rlarda u Qutb Xorazmiy tarzida e'tirof etiladi. Doston muqaddimasidagi ma'lumotlarga ko'ra shoir XIV asming o'rtalarida yashab ijod etgan.

"Xisrav va Shirin" dostonining yaratilish tarixi, nusxalari.

Qutb Xorazmiy "Xusrav va Shirin" dostoni Oltin O'rda poytaxti Sig'naq shahrida O'zbekxonning o'g'li Tanibek va uning xotini malika Xonmalikka bag'ishlab yozadi. Tarjima - dostonning yaratilish sanasi manbalarda turlicha talqin etiladi. Jumladan, Tanibekning qisqa muddatlik hukmronligi 1340-yilga to'g'ri kelganligi bois ilmiy adabiyotlarda dostonning aynan shu yili yozilganligi qayd etiladi. Sharqshunos A.Tohirjonov esa asar tarkibida kelgan bag'ishlovda Tanibek shahzoda tarzida tilga olinganligiga asoslanib, ayni raqamni inkor etadi hamda "Xusrav va Shirin" ni 1330-1336 yillar orasida yozilgan, deb ta'kidlaydi (O'zbek adabiyoti tarixi. 1-tom, Toshkent. 1978, 202-bet). Shuningdek, "Tazkirayi Qayumiy"da shunday ma'lumot beriladi: "Muhammad O'zbekxon va uning o'g'llari Tanibek va kichik o'g'li Jonibek va padarkush Berdibeklar vaqtida Qutb Xorazmiy saroy doirasida edi.

O'z akasi Tanibekni o'ldirib, xon bo'lmish otasi Jonibekni o'ldirib, ular o'rniga Berdibekning o'ltirishi voqealariga Qutb Xorazmiy shohid edi.

Muhammad O'zbekxon 1342-yilda vafot etmishe edi. O'rniga xon bo'l mish Tanibekning xon bo'lishi ila va uning xotunining nomiga atab turkiyicha dostonning yoza boshlagan edi" (Po'latjon Domulla Qayumov, "Tazkirayi Qayumiyy. Toshkent. 1998, 42-bet).

Ko'rinaridiki, dostonning yozilgan davrini aniqlashdagi chalkashliklarga Tanibekning taxtga o'tirgan sanasidagi noaniqliklar (1340. 1342) sabab bo'lib kelmoqda. Shuningdek, dostonning muqaddimaviy kirish fasllari tarkibida "Shahzoda Tanibek madhi" deb nomlangan maxsus bobning borligiga ham shubhalar uchun yo'l ochib bergen bo'lishi mumkin. Qutb Xorazmiy doslonning "Kitob nazm qilmoqqa sabab bayon ayur" bobida quyidagi misralarni keltiradi:

Necha yil bo'ldi jonim uskar erdi,
Ko'ngulda ushbu andisha bor erdi.
Netak shoh tabg'inga borgaman teb
Bu konglum qazg'usinig targ'aman teb..
Ko'rub ko'nglum kim asru rag'batim bor,
Buyurdi kim qatig'lom emdi ey, yor,
Ravon ey, Qutb, tarkin kech bo'lur bil,
Ne bilg'aylae seni so'zlalmasang til.
Nizomiy nazmi yanglig' tuz so'zungni
Ani bilgut, xuningg'a bu o'zingni.
Xonim birla malika otinga bir,
Kitobe qilg'ug'a qil, tedi tadbir.

Ko'chirilgan iqtibosdan anglashiladiki, Qutb Xorazmiy necha yillardan beri Nizomiy Ganjaviy dostonini o'zbekchaga tarjima qilishni ko'ngliga tugib yurgan. Shohning oldiga borib ijodiy niyatini unga aytish orzusi ham shoir qalbida yashagan. Shunda Qutbning yaqin do'stlaridan biri unga jo'yali maslahat berib, bu ishni tezroq bajarish kerakligini aytadi yuqoridaq parchada «Xonim birla malika otinga bir» misrasni ham shunday xulosaga kelish uchun asos bo'ladı.

Qutb "Xusrav va Shirin" dostonining hozircha yagona qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, u Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Bu nusxa 1383-1384 yillarda amir Qutlu Qujanining tavsiyasi bilai kotib Barka Faqih ibni Barokaz Edg'u Qipchoqiy tomonidan Misrda ko'chirilgan. "Xusrav va Shirin" dostonining ushbu nusxasi 4740 baytdan iborat bo'lib shundan 4685 bayti bevosita Qutb Xorazmiy qalamiga mansubdir. Qolgan bir yuz o'n misra esa kotib tomonidan asarga ilova qilingan. Doston 91 bobdan tarkib topadi. Asar asliyati yuz bobdan iborat bo'lib, olti mingdan ziyodroq baytni o'z ichiga oladi. Qutb Xorazmiy Nizomiy Ganjaviy dostonining ayrim boblarini ixchamlashtiradi. Jumladan, Xusravning Rum qaysari huzuriga borib, undan madad olib qaytishi, so'ng'ra esa Bahrom cho'binni mavh etishi bilan bog'liq voqealar Nizomiy Ganjaviy dostonida ikki bobda bayon etilgan bo'lsa, Qutb Xorazmiy ularni qo'shib yuboradi. Bularidan tashqari, Xusravning otashkadaga ketishi hamda u yerda o'g'li Sheruya tomonidan qatl etilishi tafsilotlari ham

asliyatda ikki bobda ifodalangan bo`lsa, tarjimada ular birlashtiriladi. Qutb Xorazmiy dostonining an'anaviy "Hamd", "Na't", "Munojot" singari fasllari Nizomiy Ganjaviy dostonidagidek 5 bobni tashkil qiladi. Keyin esa "Shahzoda Tanibekxon madhi", "Malika marhuma Xonmalik madhi". "Kitob nazm qilmoqqa sabab bayon ayur" boblaridan so`ng "Xusrav va Shirin hikoyatining avvali" sarlavhasi bilan asosiy voqealar tafsiloti boshlanadi.

Qutb Xorazmiyning "Xusrav va Shirin" dostoni turli adabiy majmualar va darsliklardan o`rin olgan. Dastlab, 1948 yilda ulug` ozarbajyon shoiri Nizomiy Ganjaviy tug'ilgan kunining 800 yilligiga bag`ishlab Toshkentda nashr etilgan "Guldasta" to`plamida dostondan parchalar e'lon qilindi (Guldasta, to`plam. Tuzuvchi Hodi Zarif. Toshkent. 1947). Shuningdek, "O`zbek adabiyoti" kitobidan ham ayrim parchalar o`rin olgan (O`zbek adabiyoti , 4 tomlik: Toshkent, 1959, 118-161 betlar),. Dostonning nashr etish va ilmiy o`rganishda polyak olimi A.Zayonovsovskiy, hamda taniqli sharqshunoslar Begdede, H.Zarif. N.Davron. N.Mallaev. A.Tohirjonov va boshqalarning hissalarini kattadir.

Asar sujeti, voqealar silsilasi va asosiy qahramonlari.

Asarning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Sosoni shohlardan Xurmuz keksayib qolgach, Xusrav ismli o`g'il ko`radi. Yusufdekk ko`rkam jamolli bo`lgan shahzoda jismonan ancha baquvvat bo`lib, tezda ulg`ayadi. U yoshlikdan hukmdorlik qoidalari, sipohiylik va turli ilmlarni o`rganadi. Yoshlikdan o`z xohishiga ko`ra ish yuritishga o`rgangan Xusrav bir paytlar mamlakatda otasi tomonidan adolat-intizom o`rnatish borasida qabul qilingan farmonga xilof harakatlar qiladi. Buning uchun otasi g`azabiga duchor bo`lgan shahzoda tavba-tazarrular bilan arang qutuladi. Xusravning do`stlari orasida Shopur ismli bir jahongashta musavvir ham bor edi. U Xusravga Barda malikasi Shirin haqida so`zlab beradi. Xusrav esa Mehinbonuning jiyani malika Shirinni g`oyibona sevib qoladi. Uning tinchi, oromi yo`qoladi. Xusrav Shirinni izlab topish niyatida Shopurni Bardaga jo`natadi. Shopur Armanistonga etib boradi va Shirin sayr qilib yurgan bog`dagi bir daraxtga Xusravning suratini osib qo`yadi. Baquvvat yigit suratini ko`rgan Shirin unga oshiqlib bo`lib qoladi. Shopur Shirin bilan uchrashib unga Xusrav haqida gapirib beradi hamda sovg`a sifatida Xusrav bergan uzukni Shiringa etkazadi. Shirin Mehinbonuning ruxsatsiz Madoyinga yo`l oladi. Biroq u yerdagi shoh saroyida ro`y bergen fitna hamda Hurmuz bilan Xusravning o`zaroziddiyatlari sevishganlarni ancha tashvishga solib qo`yadi. Xusrav saroydan qochib ketishga majbur bo`ladi va panoh izlab Barda tomoniga yo`l oladi. Madoyinda Xusrav yo`qligini eshitgach, Shirin ham Bardaga qaytadi. Biroq Shirin Xusravning Bardaga yo`l oglani xabarini eshitib, Madoyindan Bardaga qaytadi. Shu orada shoh vafot etadi. Xusrav ota taxtini egallash niyatida yana Madoyinga qaytishga majbur bo`ladi. Biroq Hurmuzming taxtini uning uzoq qarindoshlaridan biri, lashkarboshi Bahrom Cho`bin egallashga ulguradi. Shuning uchun Xusrav yana Armanistonga qaytishga qaror qiladi. Shirin to`yga shoshilmaslikni, avval Eron taxtini qo`lga

kiritib, mamlakatda osoyishtalik qaror topishiga erishishni maslahat beradi. Xusrav Bahrom Cho'binni engishi uchun Rum qaysaridan madad so'rabboradi va uning katta yordami bilan Bahrom Cho'binni tor-mor keltirishga muvaffaq bo'ladi va u Rum malikasi Maryamga uylanishga majbur bo'ladi. Xusrav Eron taxtini egallaganda, Mehinbonu vafot etgan edi. Shirin esa Armaniston o'lkasini idora eta boshlaydi. Dostonda Shirinning Madoyinga kelishi, uning istagi bilan sut arig'i qazishga kirishgan Farhodning oshiqona sarguzashtlari, fidoyi hunarmand va ishq shaydosining Xusrav tomonidan makr bilan mahv etilishi tafsilotlari ancha mufassal badiiy ifodasini topgan. Asarda tasvirlanishicha, Shiringa xizmat qilib yurgan Farhod uni sevib qoladi. Bundan rashk qilgan Xusrav Farhodni yo'qotish payiga tushadi. Unga Besutun tog'idan tuyruk ochib qo'shimim qarorgohiga yo'l ochsang, Shirin senga bo'lsin, deya shart qo'yadi. Farhod bunday xavfli topshiriqni ishq yo'lida muvaffaqiyatlari bajara boshlaydi. Bundan xabardor bo'lgan Xisrov makr-hiyla yo'lini tutadi. Farhodning oldiga bir makkor kampirni yuborib. "Shirin o'ldi"-, degan shum xabarni etkazadi Aldangan Farhod bunday ko'rgulikka chiday olmay, o'zini o'zi o'ldiradi. Bu orada Maryam ham vafot etadi. Xusrav isfahonlik Shakar degan qizga uylanadi. Ammo u ham uzoq yashamaydi. Shundan so'ng Xusrav qilgan xatolarini, unga bo'lgan muhabbatini eslaydi, undan kechirim so'raydi. Shiringa uylangandan keyin, u saroyiga olimlarni da'vat etib, dunyo va uning jumboqlari haqida suhbatlar quradi, adolatli farmonlar qabul qiladi. Biroq mamlakat osoyishtaligi, sevishganlarning totli hayoti uzoqqa cho'zilmaydi. Xusravning Maryamdan tug'ilgan o'g'li Sheruya saroy amaldorlari bilan til biriktirib, fitna uyuştiradi va otasini o'ldiradi. Otasining qotili bo'lgan Sheruya Shiringa uylanmoqchi bo'ladi. Biroq Shirin Xusravga bo'lgan muhabbatini oyoqosti qilmaydi. Qo'l ostidagi qullarini ozod etib, boyliklarini bechoralarga ulashib beradi va Xusravning qabri ustida o'zini o'zi halok eladi.

Sharq xalqlari adabiyotida Xusrav va Shirin nomi bilan bog'liq qissa uzoq tarixga ega sayyor sujetlardan biridir. Bu mavzu yozma badiiy adabiyotda Qutb Xorazmiy gacha bo'lgan davrda ham qayta-qayta ishlangan. Dastlab ayni voqealar tizmasi Firdavsiy "Shohnoma" sida Xusrav hikoyati tarzida uchrasa, keyinchalik Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviylar tomonidan pishiq ishlandi. Ba'zi tadqiqotchilar Qutb Xorazmiy dostonini qayd qilishdan cho'chiydilar. Holbuki, asar muqaddimasida mana bu bayt oydinlik kiritadi:

Qozondek qaynab shu savdo pishurdum,
Nizomiy bolidan halvo pishurdim.

Misralar mag'zidagi ma'nno ortiqechea talqinlarga muhtojlik sezmaydi. Bolsiz halvo bo'lmaganidek, Nizomiy Ganjaviy dostonisiz Qutb asarini ham tasavvur qilish dushvordir. "Xusrav va Shirin" dostonida Qutb Xorazmiy yashagan davr hayoti lavhalari o'zining badiy ifodasini topgan. XV asr birinchi yarmida Oltin O'rda ahlinining ko'pchiligi, ovchilik va chorvachilik bilan shug'ullanar edi. Shu Qutb Xorazmiy Nizomiy Ganjaviy dostonidan farqli o'laroq o'z asarida shahar hayoti bilan birga chorvachilik hamda ovchilik bilan bog'liq lavhalar tasviriga urg'u beradi. Shuningdek, Qutb dostonida Xusrav

Armanistonga birinchi marta yo'l olganida Mehinbonu uni hashamatli saroyda emas, balki maysazor bir dalada kutib olib, ziyofat beradi. Bir qarashda maydaychuya bo'lib ko'ringan va asliyatda uchramaydigan bunday lavhalar Qutb dostoniga zamon nafasini turkiy xalqlar tabiatiga xos rasm-rusum-u udumlarni olib kirgan. Muallif o'z ona xalqi va adabiyoti manfaati yo'lida sadoqat bilan xizmat qilgan. Turkigo'y larga mo'ljallangan asar shu xalq zavq-shavqi, ruhiy-ma'naviy dunyosiga muvofiqlashtirilgan. Qutb Xorazmiy saroy tantanalar, marosimlari vazifalari tasvirini ham o'z davriga oid yangi manzaralar evaziga boyitgan. Jumladan, Qutb dostonida may qimiz bilan almashtiriladi. Bazmlarda qo'buz asosiy cholg'u asbobi sifatida ko'zga tashlanadi. Saroydag'i cholg'uchilarining barchasi qo'bizchilar nomi bilan taqdim etiladi. Qutb o'z dostonida xotin-qizlar obrazini bir muncha mukammallashtiradi. U xotin-qizlarning tashqi qiyofasini turkona va batafsil ko'rsatadi. Dostonda ular xuddi erkaklardek qilich-qalqon osib olgan tarzda otta yurishda ham ulardan qolishmaydigan bir qiyofada tasvirlanadi. Qutb dostonida nazarga tashlanmaydigan shunga o'xshash bir qancha lavhalar mavjudki, ular asar badiiyatida singdirishday vazifani ham ado etgan. Tabiiyki, shoir bunday murakkab ijodiy jarayonda o'zbek tiliming boy imkoniyatlari. xalq og'zaki ijodi xazinasini durdonalaridan mahorat bilan foydalangan.

"Xusrav va Shirin" dostonining muqaddimasida kelgan "Shahzoda Tanibekxon madhi", "Malika marhuma Xonmalik madhi" va "Kitob nazm qilmoqqa sabab bayon ayur" kabi fasllari Qutb Xorazmiyning mustaqil ijodi mahsulidir. Dostonda markaziy o'rinda turgan masalalardan yana biri ishq talqinidir. Shoirning bu boradagi falsafiy-iijtimoiy, ilohiy-irfoniy qarashlari uning o'z zamonasining yetuk donishmandi, salohiyalli ma'naviy arbobi ekanligidan shahodat beradi:

Falak mehrobi ishq ermish xush angla,
Oshiqlarning so'zin ishq birla tingla.
Kishikim oshiq ermas joni yo'q bil,
O'lukni bormu der ochunda oqil?
Agar it ko'ngliga haq ishqji kirma.
Kevlur ul tilga, kelmaz ursa sursa
Agar bo'lmasa oshiq marxi badrom,
Ne sargardon yurir qilg'a edi orom.
Oshiq bo'lmasa ushbu yetti qat yer.
Nedin muncha xaloyiq, zaxmini yer.
Dengizlar oshiq ermas ersa bir so'r,
Nedin qaynar, ne g'ururushlar qilur ko'r?
Qayuning kim bu olam ichra ko'rdum,
Nedin mutek tiyu aqlimga so'rdum.
Ayur: ishq birla tirik ushbu olam.
Agar ishq bo'lmasa bo'lmas erdi odam,
Jonim ishqdin farah topdi esa bildim.
Ko'ngul berdim, eringa ishq oldim.

Bu ishqim birla boshlab dostonni,
Salo teb ishqqa undadim jahonni.

Qutb Xorazmiy ishq haqidagi falsafiy fikrlarini bayon etarkan, ularni xayoliy lavhalar bilan tasdiqlashga harakat qiladi. Bunda shoirning tajohilu orif, tamsil, tashbeh, mubolag'a singari badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanganligi ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, o'sha fikrlarning o'quvchini mushohada yuritishiga undashi alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir aqidasicha, borlikdan, olami kubrodagi barcha narsalar maxluqot, nabotot Haqning oshig'idir. Hatto it agar haq ishqining shavdosi bo'lsa u tilga kiradi, uni qanchalik urib, sursang ham u bu yo'lidan qaytmaydi. Yetti qat yer, haq oshig'i bo'lganligi bois xaloyiq zaxmini ko'taradi. Dengizlar ham oshiq bo'lmasalar edi, bunchalik qaynab junbushga kelmas edilar. Bunday muqoyasaviy badiiy lavhalar dostonda yana talaygina topiladi. Biroq o'sha misollardan chiqadigan xulosa rangdir. Olam, undagi barcha mavjudotlarning negizini ishq tashkil etadi.

Qutb Xorazmiy tarjima jarayonida Nizomiy Ganjaviy dostonining asl mazmun-mohiyatini, uning g'oyaviy - badiiy yuksakligini imkon qadar saqlab qolishga intilgan va aytish joizki, aksariyat boblarda u bunga erishgan.

Dostondagi markaziy obrazlardan biri Shirindir. Uning timsoldida xalq osoyishtaligi, obodonligi uchun tinimsiz kurashgan, sevgisiga vafodor, sadoqatli ayloning betakror olilianob fazilatlari mujassamlashgan. Shirin nafaqat Armanistondagi faoliyati, o'zining samimiyati, vafosi, tadbirkorligi bilan, balki Eronda ham mamlakatniadolat bilan boshqarish borasidagi ibratli sa'y-harakatlari bilan ham o'quvchi e'tiborini tortadi. Dostondagi Farhod obrazi Shirindagi go'zal fazilatlarini yanada to'laroq namoyon qilishga xizmat qildirilgan. Shirining sut oquvchi ariq va katta hovuzl barpo qilish yo'lidagi niyatini, Farhod amalgaga oshirishga kirishadi. Gap shundaki, Xusrav, Shirin, Farhod nomlari bilan bog'liq voqealar asosida Alisher Navoiyiga qadar yaratilgan deyarli barcha asarlarda shu lavha (sut arig'i va hovuzi) saqlanadi. Ulug'o'zbek shoiringina unga ijtimoiy xalqchil mohiyat bag'ishladi. Qutb asari negizida tarjima yotganligi uchun ham u mavjud an'anani buza olmaydi va shu masalaga quyidagi baytlarni bag'ishlaydi:

Ko'rub Shirinning oy yanglig' yuzini.

Munavvar qildi ul yuzdin ko'zini.

Keturmish erdi bora sut birga,

Ol ich yonimga tedi, to'kma yerga.

Olib Shirin elindin sutni Farhod,

Shakartek ichti, Shirin aydi: - Xush bod!

Ayitti-Soqi sansan bu erur xush,

Sut ermaz, og'u bo'lsa qilg'aman no'sh.

Farhod bu so'zlari bilan Shirinka nisbatan samimiyy munosabatini izhor qiladi. Biroq Shirin o'z ahdini buzmaydi. Xusrav esa anchabeqaror bir inson qiyofasida namoyon bo'ladi. U ba'zan ishqqa berilsa, gohida oshiqlikni ham unutib qo'yadi. U ba'zan sadoqatli oshiq,adolatli podsho qiyofasida namoyon

bo'lsa, gohida esa Shakarga mahliyo bo'lib qoladi. Qutb Xorazmiy Nizomiy Ganjaviy dostonini juda ravon bir uslubda, o'zbek tili imkoniyatlaridan keng istifoda elgan holda tarjima qildi. Fikrimizni asarning "Xusrav Hurmuzdan qochib Armanga borurda chashmada Shiringa yo'liqqani" sarlavhasi ostida berilgan quyidagi bayllar dalillaydi.

Ko'rub shoh chashma ichra gul yuzni,
Yuzindin hech kelarmaz bo'ldi ko'zni.
Qaroqlar ko'nglini oning qaroriki,
Yurakin kuydurur nortek yanoqi.
Boqib oning bilur yanglig' taninga
Bulurdin o'l yoqildi shoh joningga.
Ul oy g'ofil bu Xusrav boqqanindin.
Bo'lub mashg'ul tarayur erdi sochin.
Kishi kelmasmu teb ko'nglinga tushdi.
Boqib nogah ko'zi Xusravga tushdi.
Ko'zin surtib nazar yuzinga soldi.
Ko'rib kuntex yuzin hayron qoldi.
Qatig' boqra Shirin uyaldi,
Ne qilg'u emdi teb andisha qildi.
Qochib bechora, izlab chora topdi.
Bulut yanglig' sochin oy uzra opti.

Parchada Qutb so'z san'atining katta naqqoshi qiyofasida nazarga tashlanadi. U go'zal manzaralar chizadi. O'z tasviridagi qahramon tashqi qiyofasi ko'rkmaligi bilan bog'liq lavhalarni jonli ta'sirli ifodalash uchun vosita izlaydi, shari'ati islomiyaga xilof kelmaydigan yo'llar izlaydi. Shirinning suvda tanho, harir libosda cho'milishi jarayoni unga ma'qul keladi. Yupqa libos ho'l badanga yopishib. uning "sir" ini oshkor qilib qo'yadi. Bunday nafis manzara esa Xusravni ham sabr quyushqonidan chiqaradi. Biroq shar'iy talablar uni "jilovlab" qo'yadi... Qutb Xorazmiyning "Xusrav va Shirin" dostoni ikki qardosh xalq - o'zbek va ozarbayjon xalqlarining ildizi olis tarix qatlaridan boshlanadigan iqtisodiy-siyosiy hamda adabiy-madaniy aloqalari zaminida vujudga keldi. Shoir o'zbek adabiyoli tarixida tarjimachilikning rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shilgan ushbu dostoni bilan yangi bir an'anaga asos soldi. Muhibi, Qutb Xorazmiyning bu dargohga qo'yan qutlug' qadami yagona va oxirgi bo'lmadi. Keyinchalik Nizomiy Ganjaviy forsiy dostonlarini o'zbek kitobxonlariga yetkazish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Haydar Xorazmiy "Maxzanul-asror" dostonini erkin ijodiy tarjima qilgan bo'lsa, Ogahiy "Haft paykar" dostonining nasriy bayonda o'zbekchalashtirdi.

Qutb Xorazmiyning "Xusrav va Shirin" dostoni o'zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tilining noyob durdonasi sifatida ma'naviy xazinamizga qo'shilgan muhim yodgorlikdir.

Nazorat uchun savollar:

- 1.O’zbek adabiyotida tarjimachilik an’anasi haqida so’zlab bering.
- 2.Erkin tarjima deganda nimani tushunasiz?
- 3.Qutb “Xusrav va Shirin” dostonida qanday ijodiylik namunalarini ko’ramiz?
- 4.Xusrav obraziga baho bering. Uni biz bilgan Farhod obraziga qiyoslang.
- 5.Qutbning badiiy mahoratiga baho bering.

Foydalanimigan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqulov N. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o’quvchilari uchun darslik). – T., 2000.

ATOIY IJODI

Reja:

1. Atoyi ijodiy merosining o`rganilish tarixidan.
2. Atoyining lirik merosi.
3. Lirikasining mavzular ko`lami va timsollar olami.
4. Atoyi she`riyatida majoz va haqiqat.

Tayanch so`z va iboralar: *radif, “turkona” aytmoq, tashxis, husni ta'lil, litota, mubolag'a, qasida, irlsol masal, tamsil*

Atoyi ijodiy merosining o`rganilish tarixidan.

O'n beshinchi asrning mashhur shoirlaridan, Alisher Navoiygacha bo`lgan o`zbek a'dabiyotining iste'dodli vakillaridan biri Atoyidir. Uning she'rlari o`z davrida Movarounnahr hamda Xurosonda shuhrat topganligi ma'lum. Buyuk Navoiy „Majolis un-nafois“ („Nafis majlislar“) kitobida uning she'rlariga yuqori baho bergan: “Mavlono toyi Balxda bo`lur erdi. Ismoil ota farzandlaridandur, darveshvash va xushxulq, munbasit (shod-xurram) kishi erdi. O`z zamonasida she`ri atrok (turkiylar) orasida shuhrat tutti. Bu matla aningdurkim:

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o`lturur,
G`oyati nozukligindin suv bila yutsa bo`lur.

Qofiyasida aybg`inas bor. Ammo Mavlono ko`p turkona (sodda, ravon) ayтур erdi. Qofiya ehtiyotiga muqayyad ermas erdi. Qabri Balx navohisinda⁵⁶. Demak, Ahmad Yassaviyning Ibrohim degan ukasi bo`lib, Ismoil ota shu insonning o`g`li, Atoiy esa uning avlodlaridan ekan. Atoiy Ulug`bek Mirzo saroyida xizmat qilganligi aytildi. Husayn Voiz Koshifiy "Rashahot" Ismoil ota Sayyid otaning katta xalifasi ya yaqin kishilaridan ekanligini qayd etadi⁵⁷.

Atoiy ijodini G.G`ulom⁵⁸, A.Hayitmetov⁵⁹, M.Mirzayev, E.Rustamov⁶⁰, H.Akobirovalar, shuningdek, A.N.Samoylovich, kabi olimlar o`rgangan. H.Zaripov Atoiy g`azallaridan 88 tasini to`plab nashr ettirgan⁶¹.

Atoyining lirik merosi.

Atoyi o`z she'rlarida nozik xayol, sinchkov nigoh, baland did egasi ekanligini namoyish etadi. Go`zal, esda qoladigan o`xshatishlar, kutilmagan mubolag`ali tasvirlar yaratadi. Bir g`azalida go`zal yor xokisor oshiqning yuziga oyoq bosgan ekan, oyog`i og`ribdi, „yuzing buncha bo`yradek dag`al

⁵⁶ Рафитдинов С. Яна Атойи таҳаллуси ҳақида //Ўзбек тили ва адабиёти, №3, 1991. – 41-б.

⁵⁷ Фулом F. Атоий эмас, Отойи//Ўзбекистон маданийати, 1959. 21-январь сони.

⁵⁸ Хайтметов А. Мерос ва ихлос. – Тошкент, 1985.

⁵⁹ Bu haqda qarang: Ҳомидий X. Эргаш Рустамов. // ЎТА, №4, 2015. 113-118-бетлар.

⁶⁰ Ҳоди Зариф. Навоий замондошлари. – Тошкент, 1948. – 77-111-бетлар.

bo'lmasa" deb nozlanibdi. Yorning oyog'i shu qadar nozik va go'zal ekanki, uning oldida oshiqning yuzi bo'yraga o'xsharkan. Ikkinchil bir she'rida esa, yorini sog'ingan oshiqning ko'zidan yosh emas daryo oqayotgani, u kipriklaridan sol yasab, mana shu daryoda suzayotgani manzarasi chiziladi. Shoир yorini ulug'lovchi, fidoyilikni ko'rsatuvchi betakror satrlar bitadi. Masalan, „Begim" radifli she'ridau kipriklarini supurgi (Jorib), yuzini xokandoz qilishga tayyor, yor xizmatiga olinsa bo'lgani. Hatto yoruyoqda tursjn, uning farroshi „qul"likka qabul qilsa ham o'zini baxtli hisoblaydi. Atoyi yor obrazini mana shunday yuksakklikka ko'taradi.

Atoyining hayot yo'li, shaxsiyati haqida ma'lumotlar deyarli yo'q. U asli Ahmad Yassaviylar nasabiga mansub bo'lgan Ismoil Ota avlodlaridan. Alisher Navoiyinixig ma'lumot berishicha, Balxda yashagan. Mirzo Ulug'bek saroyida xizmat qilgan. Hozirgi Qozog'istonning Turbat qishlog'ida unga nisbat berilgan qabr bor. Chamasi, uning hayoti Sayram, Balx, Samarqand, Hirot shaharlarida kechgan. Taxallusini mashhur shayx ota-bobolariga ishora qilib, „Ato" („Ota") deb olgan. Bizga bir devoni yetib kelgan bo'lib, u 260 g'azalni o'z ichiga oladi. G'azallari — zamondoshlarinikiga qaraganda sonda. O'sha vaqtarda she'riyatda chiyratmay, to'g'ri, oddiy ifoda yo'sinidan foydalanishni „turkona" deganlar. Navoiy Atoyini „turkona aytur edi" deb ta'riflaydi.

Lirikasining mavzular ko'lami va timsollar olami.

She'lari ko'proq ishq-muhabbat haqida. Shoир yorning qaddi-qomatini, yuzi, ko'zi, qoshi, sochi, kipriklarini, og'zi, labi, xoli kabilarni ta'rif-tavsif etadi. Ularni sifatlash orqali yorning go'zallikda tengsiz timsolini chizadi. Har daqiqada o'zining ma'shuqaga bo'lgan sevgi-sadoqatini izhor etib boradi. O'zini „qul", yorni „shoh" ko'rsatish orqali bir tomondan, go'zal yorga sevgi-sadoqatini bildirsa, ikkinchi tomondan, bu sevgining tengsizligini („shoh"—„qul") ta'kidlab turadi. Bu ma'shuqa go'zallikda deyarli hamisha nuqson siz, har jihatdan mukammal bir siymo sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, ko'pincha, uning jamoli Alloh jamolini esga tushiradi. Shoир goho „husn" ni „Mushaf" (Qur'on!).)ga, "meng" („xol")ni oyatga o'xshatib, yor go'zalligini tasvirlashdan maqsad Alloh ekanligiga ishora ham qiladi. Shunday o'rnlarda shoир ishqining ilohiy ekanligi anglashiladi:

Ey mushafi husnung'a menging nuqtasi oyat,

Islomi eliga bo'ldi yuzing nuri hidoyat.

Baytda yor yuzi Mus'haf — Qur'onga o'xshatilgan. Buning zamirida muqaddaslikka ishora bor. Oyat Qur'on suralarining tugal ma'noli jumlesi. Tugagan jumlaga nuqta qo'yiladi. Shoир yorning yuzidagi meng (xol)ni ayni shu ma'noda qo'llamoqda. Keyingi baytda ma'shuqa hur va malaklarga o'xshatiladi va g'azalda dunyoviy run kuchayadi. Shoирning mahorati shundaki, ilohiy tushunchalar qo'llanishi bilan dunyoviy, dunyoviy tushunchalar keltirilishi orqali ilohiy ma'no anglatiladi:

Sen humusen yo malak, ey turfayi davron,

Ne husnungga bor hadde-yu, ne lutfunga g'oyat.

Ha, ma'shuqa go'zalligiga chek-u chegara yo'q. Hatto, ko'plab qissalarda go'zallik timsoli sifatida tasvirlangan Yusuf ham unga teng kelolmaydi:

Gar husn budurkim, sanga bor, kes bu tilimni,

Yusuf so'zidin qilsam agar zarra hikoyat.

Yorning zulfi ham, ko'zi ham go'zal. Ammo ular oshiq joniga qasd qiladi, uni qiyaydi, o'rtaydi. Shu holat Atoiy tomonidan quyidagicha ifodalangan:

Zulfung madidin qiladur jong'a ko'zung qasd,

Chin lashkari kofirg'a qilur ore himoyat.

Bu o'rinda Chin lashkari va kofirning eslatilishi tasodifiy emas. Odatda, Chiqish she'riyatida zulf chin lashkariga o'xshatiladi. Shoир shu an'anadan foydalanim, tasvir go'zalligiga erishmoqda.

Oshiq yor go'zalligidan, uning o'zidan shu darajada ruh-lanadiki, hatto joni chiqsa, halok bo'lsa ham yor labidan bir najot bo'lsa, u yana tirila oladi. Keyingi ikki bayt ana shu haqda. G'azal Qur'on nomini eslashed bilan boshiangan edi. G'azal davomida Yusuf, Iso nomlarining keltirilishi shoир ko'zda tutgan mantiqning yuzaga chiqishiga imkon bergen.

Shoirning qator she'rlarida hayotiy yor, dunyoviy ishq, ya'ni insonning insonga bo'lgan muhabbatni ko'zda utilganini ham ko'rish mumkin.

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o`lturur,

G'oyati nozikligirrdin suv bila yutsa bo'lur

baytida nozik nihol qiz tasvir etilayotganiga shubha yo'q. She'rda ma'shuqa shu qadar nozik, shunchalar go'zal qiz sifatida tasvirlanadiki, go'yo uni bir qoshiq suv bilan yutib yuborish mumkinday. Atoyi xalq iboralarini g'oyat yaxshi biladi va undan o'rinni foydalana oladi. G'azalning maqtasida ham shu hol sezilib turibdi. Qizning go'zalligi, tiniqligi, pokizaligi shunchalikki, u qo'lini suvda yuvib tozalamaydi, balki qo'lini yuvib suvni poklaydi:

Ul ilikkim suvdin oriqtur, yumas oni suvda,

Balki suvni pok bo'lsin deb iligi birla yur.

Oshiq suv yoqasida paridek o'ltirgan tengsiz go'zalga qarab, hayrat bilan „suv qizi", ya'ni suv parisining „goh-goh ko'zga ko'rinishi"ga imon keltiradi. G'azal maqta'sida shoир o'zining ibodati ham yor husnini ko'rishning tavallosidan iboratligini bildiradi. Atoyining ushbu g'azaligacha yor ko'ngliga g'ulg'ula solgan sanam timsoli bu qadar jonli, ta'sirchan va ayni vaqtida ilohiy yo'sinda tasvirlanmagan cdi.

Shoirning badiiy yetuk she'rlaridan biri ..Jamoling vasfini qildim chamanda, Qizardi gul uyottin anjumanda" matla'li g'azalidir. Birinchi baytda ajoyib bir manzara chizilgan: shoир gulzorga kiribdi. Anvoysi gullar charx urib, ochilib yotibdi. Yo'q-yo'q, bu shunchaki gulzor emas, gullarning anjumani—yig'ilishi, har bir gul o'zini namoyish etadi, ko'z-ko'z qiladi. Shoир ushbu anjumanda yorning yuzini ta'riflabdi. Gullar xijolatdan—uyatdan qizarib ketibdi. Aslida ular qizil emas edilar, ma'shuqaga qaraganda xunukroq ekan

liklaridan uyalib qizardilar. She'nda qizarishning o`z va ko`chma ma'nolaridan samarali foydalanilgan. Ikkinchidan, gulga insoniy sifatlar beriladi, shaxslantiriladi. Chunonchi, gulzorming anjumanga o`xshatilishi, gulning uyatdan qizarishi kabi. Bu tashxis san'atiga xos xususiyatdir. Birinchi bayt yorning jamoli ta'rifida edi. Ikkinchchi bayt yorning labi va og'zi ta'rifida:

Tamanno qilg'ali la'lingni ko`nglum,

Kishi bilmas oni kim, qoldi qanda.

Bu baytda ko`nglim sening la'lilabingni orzu qilgan edi, istab topolmadi, degan mazmun ifodalangan. Yorning labi qon kabi qip-qizil bo`lgani uchun ham qizil qimmatbahoh tosh — la'lga o`xshatiladi. Chiqishda o`ymoqdakkina, kichik og'izli qizlar go`zal hisoblangan. Oshiq o`zicha yorning og'zini ko`rmoqchi, labiga yetishmoqchi edi. Lekin u shunchalar kichik ekanki, qayerdaligini hech kim bilmadi! Keyingi baytlarda tasvir o`zgaYadi. Ta'rif e'tirof va shikoyat bilan almashadi. Lirik qahramon dil izhoriga o`tadi, ishq va sadoqatini bildirishga tushib ketadi:

Chu jonimdin aziz jonona sensen,

Kerakmas jon manga sensiz badanda.

Manga ul dunyoda jannat ne hojat,

Eshiging tuprog'i basdur kafanda.

Lirik qahramon yorini jonidan aziz tutmoqda. U dunyodagi jannatdan yor eshigining tufrog'ini afzal bilmoxda. Beshinchi baytda talmeh bor. Shoир yorini „Yusufi husn“ deb ta'riflab, Ya'qubning ahvoliga tushib qolishdan xavotir olmoqda. Yusuf haqidagi rivoyatlarga ko`ra, u — Ya'qubning sevikli o`g`li. Akalari bunga hasad qilib, otasi oldidan aldab dalaga olib chiqadilar va quduqqa tashlaydilar. So`ng „Bo`ri yedi!“ — deb yolg'on ovoza tarqatadilar. O`g`li hajrida Ya'qubning ko`zlari ko'r bo`ladi. Mumtoz adabiyotimizda Ya'qubning ayrılıqdagi hayoti „Bayt ul-hazan“ (g'äm uyi) sifatida tilga olinadi. Yusuf tashlangan quduq esa, uning husni tufayli yorishib turar edi. Mumtoz she'riyatimizda ko`p ishlatiladigan „chohi zaqan“ (iyak ostidagi chuqurcha) shunga ishora qildi:

Solib borma meni ey, Yusufi husn,

Bukun Ya'qubtek baytul-hazanda.

Oltinchi baytda „uzun“ va „uzmasman“ so`zlaridagi o`zakdosh „uz“ takrorida ham xislat bor. Buni ishtiyoq san'ati deydilar. Buning ustiga, sochdan qilingan qilto`r oshiqni o`z tuzog'iga oglani ham anglashiladi. Oshiq shu qadar xoksor va yalinchoqki, ma'shuqaning „ayog'i qanda bo`lsa, oshiqning boshi“ anda. Ya`ni u suyulkisi tashlagan qadamga bosh uradi. Bu o`rinda zidlik — tazod san'atidan foydalanadi:

Uzun sochingdin uzmasmen ko`ngulni,

Ayog'ing qanda bo`lsa boshim anda.

She'ning maqta'si g'oyat samimi bir tuyg'u ifodasi bilan yakun topgan: odamlar oshiqqa yuksak mansab-martabaLar tilaydilar, lekin Atoyi „sarvi ozod“ga banda, ya`ni qul. Buni u o`zi istaydi. Shu o`rinda qizning go`zal qaddi-qomati „sarvi ozod“ orqali berilganini ko`rish mumkin. Mumtoz

adabiyotda qad hamisha sarvga o'xshatilib kelingan. „Ozod" so'zi lug'atlarda tik, chiroyli o'sgan sarvga aniqlovchi sifatida qo'llanilgan. Umumiy ma'nosi xushqomat go'zalga to'g'ri keladi. Lekin bu muhim emas, muhimi sarvning „ozodligi bilan oshiqning „banda", ya'ni qul ekani qarshilantirib tasvirlanayotganida:

Tilar el mansabi oliv va lekin,
Atoyi, sarvi ozodingg'a banda.

Atoyi she'rlarida tazod — qarshilantirish san'atidan mahorat bilan foydalanadi. Chunonchi, „Soching chun laylat ul-qadr-u yuzing chun subhi sodiqdur" misrasi bilan boshlanadigan g'azalida ham shu san'atni ustalik bilan qo'llab, ta'sirli badiiy samaraga erishganligini ko'rish mumkin. Shoир yorning qop-qora sochini laylat ul-qadrga, oppoq yuzini esa subhi sodiqqa o'xshatadi. Bir-birini inkor etuvchi ikki tushuncha ustalik bilan qo'llangani uchun ham sanamning tengsiz chiroyini to'ldirishga xizmat qiladi.

Manga sensiz tirilgandin o'lim yuz qatla ortuqdur,
Bu so'zda, haq bilur, ko'nglum tilim birla muvofiqtur
deydi shoир shu g'azalning uchinchi baytida. Samimiy iqror she'rning ta'sir darajasini oshirgan. Shoирning oshiqligi shu darajadaki, u ma'shuqasiz hayotdan o'limni afzal biladi va bu gapni chin dildan izhor etadi.

Atoyi „Netti, ne bo'lidi?" radifli g'azalida ma'shuqa achchiq-tiziqlaridan, nozlaridan hayratga tushgan oshiq holatini ifoda etadi. U yor g'azabiga duchor bo'lidi, lekin aybi ne ekanini bilmaydi. Shu bois uni savollar qiyaydi. Atoyi mumtoz she'riyatimizga alohida olingan inson ruhiyati tasvirini kirita bilgan shoirdir:

Ey orazi shamsu qamarim, netti, ne bo'lidi?
Vey tishlari durru guharim, netti, ne bo'lidi?
Oshiq o'zini gunohkor sanaydi. Ammo aybi nimadaligidan xabari yo'q.
U ma'shuqa meni rashk etayotirmikan degan o'nya boradi:

Sen bor ekan o'zga kishiga nazar etsam,
Chiqsun bu mening diyalarim, netti, ne bo'lidi?

Lirik qahramon — chorasisiz, u ishq yo'lida qurban bo'lishga tayyor. Shu bois qay tarzda, qanday yo'l bilan o'ldirilishi umi ko'pda qiziqtirmaydi. Uning jon saqlash uchun yor qoshidan ketgisi yo'q:

Gah javr bilan o'ltur meni, gah noz ila sendin,
Haqqoki, mening yo'q guzarim, netti, ne bo'lidi?

Atoyi ko'ngil nolishlari, ruh to'lg'onishlari, qalb iztiroblari tasvirini turkiy she'riyatga go'zal va ta'sirchan yo'sinda olib kirkgan shoirdir. Unda samimiy tuyg'ular yuksak san'atkorlik bilan ko'rsatilgani uchun ham hanuzgacha she'rxonlar qalbiga ta'sir etib kelmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Atoiy shaxsiyati haqida gapiring.
2. Atoiy she'rlarida o'z ajdodi – Ahmad Yassaviy tariqati ruhi seziladimi?
3. Atoiy she'rlaridagi o'ziga xoslik nimada?
4. Navoiy shoир Atoiyga qanday baho beradi?

5. Shoир she'riyatida yor timsoli qanday gavdalanadi?

6. Atoiy taxallusiga izoh bering.

7. Atoiy yashagan zamonga tavsif bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqulov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o'quvchilari uchun darslik). – T.,2000.

SAKKOKIY IJODI

Reja:

1. Sakkokiy hayoti va ijodining o`rganilish tarixi.
2. Sakkokiy adabiy merosi.
3. Turkiy qasidachilik taraqqiyotida Sakkokiyning o`rni.
4. Sakkokiy lirikasining mavzulari va timsollar tizimi.

Tayanch so'z va iboralar: *Sakkokiy, „Xutbayi davovin”, qasida, g’azal, sakkok, turkona, Mirzo Ulug’bek, aruz.*

Sakkokiy hayoti va ijodining o`rganilish tarixi.

Sakkokiy haqidagi ma'lumotlar shoirlarning o'z devoni, Navoyning "Majolis un-nafois", "Xutbayi davovin" (shoir asarları xotima-duo qismlarining umumiy nomi) asarlarida uchraydi. "Xutbayi davovin"da "Uyg'ur iboratining fusahosidin va turk alfovining bulag'osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiykim, birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda bag'oyat va birining latif g'azaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurus ham devonlari mavjud bo'lg'ay" – deya ta'riflanadi.

Mavlono Yaqiniy uni "turk (o'zbek) shoirlarining mujtahidi (g'ayratlisi)" - deb ataydi.

Taxallusiga ko'ra, Sakkokiy pichqoqlik oilasida tug'ilib, voyaga yetgan, XV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan iste'dodli shoirlardan. Navoiy uni „Turk alfozi (so'zları)ning bulag'o (balog'atga erishgan)laridan" deb baholaydi. Sakkokiyning qachon tug'ilgani va qachon vafot etgani ham ma'lum emas. Ammo XIV asrning oxirlarida tug'ilgan, degan taxmin bor. Chunki uning yozgan asarları orasida bir necha qasidalar mavjud bo'lib, ular Xalil Sulton, Arslon Xo'ja Tarxon (4ta), Xo'ja Muhammad Porso va Mirzo Ulug'bek (4 ta) singari tarixiy shaxslarga bag'ishlangan.

Ma'lumki, Xalil Sultonning hukmronlik qilgan davri 1405-1409-yillarga to'g'ri keladi. N.M.Mallayev bu qasida 810 hijriy yilda yozilganini, bu vaqtida shoir 30 yoshlarda bo'lganini taxmin qiladi. Arslon Xo'ja Tarxon Ahmad Yughakiyning „Hibatul-haqoyiq" asarini ko'chirtilgan shaxs sifatida tarixda qolgan. Bu voqeя 1444- yilda Samarqandda bo'lgan edi. Mirzo Ulug'bekning hayotiga oid sanalar esa 1394-1449- yillarni o'z ichiga oladi. Agar qasida yozishning ancha murakkabligini, buning uchun muayyan ijodiy tajriba zarurligini e'tiborga olsak, Xalil Sultonga bag'ishlangan qasida yozilgan paytlarda (1405—1409-yillar) Sakkokiyning qalami anchagini charxlanganini ko'rish mumkin. Demak, Sakkokiy XIV asrning ikkinchi yarmida, ehtimol, oxirgi choragida tug'ilgan.

Navoiy „Majolisun nafois" asarida uning Movarounnahrdan ekanligini aytadi. Fikrini davom ettirib, „Samarqand ahli onga ko'p mu'taqiddurlar (e'tiqod qo'yanlar) va bag'oyat ta'rifin qilurlar", deb yozadi. Demak, shoir ko'proq Samarqandda yashagan va samarqandliklarning sevimli shoiri bo'lgan.

Navoiy shoirning qasidachiligi haqida ma'lumot bermaydi. Jumladan, Navoiy o'z ustozi Lutfiyning ham 4 ta turkiy madh qasidasi borligi haqida ham yozmaydi. Sakkokiyning she'rlarida Ulug'bek vafotiga oid ma'lumot uchramaydi. Shunga ko'ra, u Ulug'bek o'limidan oldin vafot etgan bo'lishi kerak, degan taxminlar bor. Chamasi, Samarqandda uning ta'rifi juda ham baland bo'lgan.

Sakkokiy faqatgina Samarqandda yashamagan. Chunki uning ayrim qasidalari Arslonxo`ja Tarxonga bag'ishlangan. Arslonxo`ja Tarxon esa, Turkiston shahrining shimoli-sharqiylar qismida joylashgan, hozirda xarobalari saqlanib qolgan Savron shahrining hokimi bo'lgan. Shoirning tarjimayi holiga oid o'z asarlaridan va zamondoshlari xotiralaridan kelib chiqadigan ma'lumotlar shulargina, xolos.

Sakkokiy adabiy merosi.

Sakkokiy she'rlari devon holida yetib kelgan. Bu devonning turli davrda ko'chirilgan bir necha nusxalari bor⁶¹. Lekin, mutaxassislarining fikriga qaraganda, ularning birortasi ham to'liq emas. „Alif'dan „nun" gacha bo'lgan harflar, so'ng „vov" bilan tugallanuvchi g'azallar yo'q va bularning taqdiri noma'lum. Shu tariqa, uning o'n bir qasidasi va qirqtacha g'azali yetib kelgan. Jami qasidalar 407 bayt yoki 814 misrani tashkil qiladi [7]. Lekin shu saqlanib qolgan asarlarining o'zi ham uning anchagini yuksak she'riy iqtidoridan dalolat beradi.

Sakkokiy qasidalari o'z davrida Samarqand va Turkistonda bo'lgan voqealar, tarixiy hodisalar, Ulug'bek Mirzoning adl-u saxosi, bu davrdagi mamlakat farovonligi va o'zining ahvoldidan hikoya qiladi. Sakkokiy g'azallarining bosh mavzusi – muhabbat. Shoir yorini haroratli so'zlar bilan ta'rif etadi. Uning husnini hech narsaga qiyos eta olmaydi. Uning yuzi, qosh-u ko'zi jahondagi barcha narsalardan go'zal. Uning qaddi-qomatini hech bir sarvga qiyoslab bo'lmaydi. U mukammallikka timsoldir. Shu tariqa, yuz– gul, ko'z–ohu ko'zi qiyoslari shoir she'rlarida ajib bir manzara yaratadi:

Yuzungni ko'rsa, qilur gul o'zini yuz pora,

Xo'tan yozisida ohu ko'zungdin ovora.

Yor shu qadar suluVKI, gul uning yuzini ko'rsa, uyat va nomusdan, o'zini pora-pora qiladi. Ko'zlarining chiroyi uning go'zal ko'zlariga teng kelolmaganidan ohular Xo'tan sahrolarida ovora-yu sarson kezib yurishibdi. Atoyida gul xijolat bo'lib, uyatdan qizargan edi, bu yerda u o'zini pora-pora qilmoqda. Atoyida „ohulayn (ikki ohusifat) ko'zlar" edi. Sakkokiyda ohuning ko'zi yor ko'zi oldida muqoyasaga chiday olmagani sabab, u Xo'tan sahrosida yuribdi. Nega Xo'tan sahrosi? Chamasi, bir vaqtlar Adanda dur, Badaxshonda la'l ko'p bo'lganidek, Xo'tan sahrolarida ham ohu–kiyiklar serob bo'lgan

⁶¹ Sakkokiy devonlaridan birining fotonusxasi 1993-yil E.Umarov tomonidan AQSHdan olib kelingan. Asl nusxa Britaniya muzeyida saqlanadi. Bu nusxa "Devon"ning so'nggi kichik qismidir. (ÝTA, 1993, №5 – 72-74-6.)

ko`rinadi. Chunki bu o`xshatish mumtoz adabiyotda juda qadimdan keladi. Yor og`zining ta'rifni undan ham g`aroyib:

Ko`ngul shakar bikin og`zing ko`rub adam bo`ldi,

Ayitmading bir og`iz: Ey, faqiri hech kora.

Atoyida og`iz kichikligi, uni ko`rmoqchi bo`lib, qidirib topmadim, degan mubolag`ali kichraytirish bilan berilgan bo`lsa, Sakkokiyda bu tasvir yanada kuchaytiriladi. Avvalo, bu yerda yor og`zi – shakar og`iz. Ikkinchidan, uning kichikligini „yo`q" darajada deb, ta'riflash shoir uchun juda sodda, odmi tuyuladi.

Shu sababli, u tashqi ko`rinishni qo`yib, ruhiyatga urg`u beradi. Uning yordamida manzara yaratmoqchi bo`ladi. Ya`ni: ko`ngul shakarday og`zingni ko`rib, o`zini yo`qotdi – „adam bo`ldi". Demak, birinchidan, oshiq yorning shakar og`zini ko`rdi-yu, ko`ngli ketdi. Ikkinchidan, „adam" so`zining og`iz bilan yonma-yon ishlatalishining o`zidayoq, she`rxonda muayyan fikriy silsila hosil qiladi va og`iz g`oyat kichikligini o`z-o`zidan anglatib turadi.

Bale, bu ranj-u baloni men ixtiyor etdim,

O`zumga ishni o`sum qildim, emdi ne chora?!

Oldingi ikki baytda tashbih (o`xshatish) yetakchi o`rinda edi. Bu ikki satrda murakkab o`xshatish va sifatlashlar yo`q. Lirik qahramon bu balo va mashaqqatni o`z ixtiyori bilan zimmasiga olganini, o`ziga o`zi qilganini, endi chora topolmay turganiga samimiyligi qorligi bilan ko`ngilni rom qiladi. Mana shu samimiylilik, e'tirof, kishini o`ziga bog`lab oladi.

To`rtinchi baytdagi oshiq holati tasviri yorga murojaat yordamida yoritiladi:

Ko`zum yoshig`a nazar qil, ko`ngul bo`lur ravshan,

Ey sarvinoz, oqar suvg`a qilsa nazzora.

Oshiqning: „Ey sarvinoz, sen mening ko`z yoshlarimga bir nazar sol. Oqar suvgaga qarasa, ko`ngil ravshan bo`ladi, deydilar-ku", — tarzidagi murojaatida yorga intizorlik yo`lida uning ko`z yoshlari ariqdagi oqar suv misoli to`kilgani ta`sirli ifodalangan. Bu o`rinda, birinchidan, tashbihning ifrot (o`ta mubolag`ali) ko`rinishidan foydalilanigan. Ikkinchidan, shoir unga monand ravishda „Oqar suvgaga qaralsa, ko`ngil ravshan bo`ladi", — degan chiroyli bir maqolni ishlattyapti. Maqol ham yor (manzura)ni o`z ahvoldidan ogoh qilish, ham undan iltifot kutish (ko`ngil ravshan bo`lishi) umidini anglatmoqda. Irsoli masal san`ati bu yerda juda qo`l kelgan.

Sakkokiy she`riyati, yuqorida ko`rganimizdek, u qadar sodda emas. Quyuq tasvirlar, ko`p qavatli o`xshatishlar tez-tez uchraydi: „Ey jon" radifi g`azaldan quyidagi baytni ko`raylik:

Agar Rum ahlina zulfung habashning askarin salsa,

Ko`ngul ilginda ul soat topilmas hech omon, ey jon.

Yuzaki qaraganda, Rum viloyatiga habash askarlarf kiritilsa, tirik bir jon qolmaydi, deyilayotgandek tuyuladi. Lekin mumtoz she`riyat bilan ozgina tanish bo`lgan kishi bir qarashdanoq gap yuz bilan soch haqida ketayotganligini fahmlaydi. Chunki mumtoz adabiyotda rum oq rangni, habash esa, o`z

ma'nosida qora tanli millatni anglatsa, ko'chma ma'noda qora rangni anglatadi. Demak, baytning asosiy ma'nosi: Agar oq yuzingga qora sochlaring yoyilsa, o'sha soatdayoq ko'ngil mag'lub bo'ladi.

Mazkur g'azalning vazni ham yaxshi tanlangan. Turkiy g'azalda ko'p uchraydigan hazaj bahrida. Hazajning ham sakkiz ruknli solim (to'la) vaznida:

Agar Rum ah/lina zulfung/ habashning as/karin solsa,

v — — — |v — — — |v — — — v — — —

Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Ko'ngul ilgin/da ul soat /topilmas hech/ amon, ey jon.

Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Sakkokiy kundalik hayotiy hodisa va tabiiy jarayonlardan foydalangan holda favqulodda badiiy manzaralar chizishga mohir. Chunonchi:

Yuzungni qilur toza ko'zum yoshi-yu ohim,

Gul toza bo'lur topsa bale ob-u havoni

tarzidagi tasvir shoир nazarining o'zgachaligini ko'rsatadi. Chindan ham g'azal matla'sida yorning gul yuzli ekani aytildi. Shu obraz butun asar davomida rivojlantirib borildi. Toza havo olib, tiniq suvgaga qonib o'sgan gul toza bo'lgani kabi, oshiq to'kkani ko'z yoshlar-u urgan ohlar sababli yor yuzi bu qadar toza hamda tiniq ekani tasvirlanadi.

Shoirning „Kim ermas ul oy mubtalosi" deb boshlanadigan g'azalida ham oshiq iztirobleri, visol ilinji, hijron azobining quyuq tasviri berilgan. Lirik qahramon ko'ngil qo'yan chog'dayoq muhabbat dardidan „o'lmaidan o'zga davo" yo'qligini biladi. Lekin ko'ngil dardiga chora yo'q. Unga buyurib bo'lmaydi. Sakkokiy g'azalidagi yor – shunchaki mavhum obraz emas, balki aniq jonli odam. Shu bois shoир uning millatini ham ko'rsatib yozadi:

Kim ko'rsa aning yuzini aytur,

Ne turfa erur bu turk balosi?

Mumtoz adabiyotda turk so'zi millat nomidari tashqari go'zal, tezkor ma'nolarini ham anglatgan. Shoир so'zdagi ana shu ichki qo'shimcha imkoniyatdan mohirona foydalananadi. Ma'shuqa go'zalgina emas, balki turkcha qo'shiqlar aytguvchi istedod egasi ham. Bu hol g'azaldagi:

Turkona ir irlag'uncha oning, Kuydurdi meni yalay-bulosi

satrlaridan anglashilib turadi. Shoир turk qo'shiqlarining xususiyatlarini yaxshi biladi va ma'shuqa siyratini ifodalashda undan o'rinni foydalananadi. Ehtimol, „yalay-bulo" „yal-yali", „alyor" kabi misralar so'ngida keluvchi qo'shiqqa muayyan zarb, ohang beradigan so'zlardan bo'lgandir.

Sakkokiyning tasviriga ko'ra ma'shuqaning yuzi shu darajada go'zalki, tiniqligi bilan maqtanadigan ko'zgu qizning yuzini ko'rgach, o'zining safosi - tiniqligi yo'qligiga iqror bo'ladi. Shoир bu baytda qiz bola ruhiyatini puxta bilishi va hayotiy detallardan chiroyli tamsillar yaratishini namoyish etgan. Ma'lumki, qiz1 bola oynaga qarashni xush ko'radi. Yana ham ma'lumki, kundalik turmushda ishlatiladigan narsalar ichida oynadan tiniqroq buyum yo'q. Qiz yuzi tiniqligi bilan ko'zgu ravshanligi bu qadar o'rinni

chog'ishtirilgan va yuqori badiiy natijaga erishilgan holatlar mumtoz she'riyatda ham unchalar ko'p emas.

Turkiy qasidachilik taraqqiyotida Sakkokiyning o'rni.

Sakkokiy faqat g'azallari emas, qasidalar bilan ham shuhrat topdi. Uning bizga ma'lum o'n bir qasidasidan to'rttasi Ulug'bekka bag'ishlangan. Qolganlari Xalil Sulton, Xo'ja Muhammad Porso, Arslonxo'ja Tarxonlar haqida. Jumladan, Ulug'bek haqidagi „Jahondin ketti tashvishi" deb boshlanadigan qasidasida shoir Mirzo Ulug'bekning taxtga chiqishini muborakbody etadi, hukmdor shaxsiyatidagi adolat-u jangchilik jihatlari tavsifiga alohida e'tibor qiladi. Uning ovozasini „Sulaymoni zamon"ga, adolatini „No shiravon"ga, mehribonligini „ato"ga qiyos etadi. Birso'z bilan „shohi dono" deb ta'riflaydi. Shoir quruq maqtash yo'lidan bormay, tuyg'ularini obrazli tarzda ifodalashga intiladi:

Kerak jon bulbuli tun-kun navodin tinmasa har dam,

Chu do'stlariga xurram yoz, adularg'a xazon keldi.

Jon bulbuli kecha-kunduz sevinchni kuylab charchamasligi kerak, negaki, jonga rohat zamon keldi. Shohning tarafdarlariga to'kin yoz kelgan bo'lsa, dushmanlariga avji xazon — kuz kelganligi o'ta ta'sirli yo'sinda tasvirlangan. Shoir elning farovonligi hukmdorga bog'liqligini mumtoz turk she'riyatida shakllangan an'anaga asoslangan tarzda ifoda etadi:

Raiyat qo'y erur, sulton anga cho'pon yo bo'ri,

Bo'ri o'lga-yu qo'y tingay, chu Musotek shubon keldi.

Yomon, zolim sftioh — o'z fuqarolariga go'yoki bir bo'ri. U o'lmay, qo'yga omonlik bo'limganidek, shoh ham taxtdan ketmaguncha tasarrufidagilarga tinchlik bermaydi. Ulug'bek Mirzoning taxtga o'tirishi bo'rining o'limi va qo'ylarga, ya'ni elga rahmdilligi bilan mashhur Muso alayhissalomdek kishining cho'ponlik qilayotganligiga o'xshatiladi.

Sakkokiy Ulug'bekdagisi oliyanoblik sifatlari tasodifiy bo'lmay, uning qonida mavjudligini tasvirlaydi. Qasidaning ayrim o'rinnari tarixiy vogelikni aks ettirish, o'z davridagi hodisalar yuzasidan qimmatga ega ma'lumotlar berishi hamda hukmdorlarning o'zaro munosabatlarini aks ettirishi jihatidan ham ahamiyatlidir:

Suyunsun xisravi oliv guhar sulton Ulug'bekkim,

Shahanshoh Shohruhbektek shohi xisrav nishon keldi

baytida yosh shohning taxtga o'tirishi marosimiga shahanshoh Shohruh kelganligi ko'rini turadi.

Sakkokiy shunchaki madhiyabozlik qilmaydi, Ulug'bekni shoh bo'lgani uchungina ulug'lash, uning shaxsiga xos bo'limgan sifatlarni ko'pirtish yo'lidan bormaydi. Aksincha, qasida qahramoni shaxsiga doir fazilatlarni g'oyat sinchkovlik bilan ko'radi va uni xotirada qoladigan tarzda aks ettiradi. Eng muhimmi, qasidaga odil shoh haqidagi orzularini o'ta samimiyo yo'sinda singdira olgan. Shoir Ulug'bek Mirzo shaxsiyatidagi asosiy fazilat - adolatparvarlikni bo'rttirib ko'rsatishga harakat qiladi:

Salotin dunyoga ko'p keldi-yu kechti, seningtek bir,

Falakning gar tili bo'lsa ayitsunkim, qachon keldi?

Sakkokiy yangi shohningadolatpeshaligiga nafaqat odamlar, balki falakni guvoh qiladi. Zero, falak yolg'on gapirmaydi. Shoir ko'pchilik temuriylar singari Mirzo Ulugbekning ham jangchilik, lashkarboshilik salohiyatiga egaligini, savash paytida sherdil bo'ftb ketishini mahorat bilan ko'rsatadi. Bunda u mubolag'adan ustalik bilan foydalanadi:

Qilich yashnatsang urushta, aning qay shu'lasin dushman,

Ko'rub aytur qamug': „Hay-hay,,qoching, barqi yomon keldi".

Qasidada Sakkokiy o'zining Mirzo Ulugbekdan lutf kutayotga-nini ham nazokat bilan, ham juda o'ziga xos yo'sinda ifoda etadi:

Shaho, luttingni topqom deb duochi banda Sakkokiy,

Belin joni bilan bogiab, bu xizmatg'a ravon keldi.

Shoirning mahorati shundaki, u she'rdagi ifodani kuchaytirish uchun xalq iboralaridan foydalanibgina qolmay, ularga o'zgartirishlar kiritib, boyitadi. Odatda, xizmatga shaylik belga belbog', oshib borsa, qamish bog'lash orqali ifodalanardi. Sakkokiyning yangi shohga xizmat qilish istagi shunchalar kuchlikki, uni yuqoridagi timsollar yetarlicha ifodalay olmaydi. Shuning uchun ham shoir belini jon bilan bog'laganligini tasvirlaydi. Bunday tasvir, albatta, o'quvchilar yodida qoladi.

Inson tuyg'ularining nozik jihatlarini payqash va aks ettirishga mohir Sakkokiy o'z davrida Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqalgan qasida janrini mumtoz adabiyotimizda samarali qo'llab, uning ajoyib namunalarini yaratdi. Bir qator tarixiy shaxslarga doir hayotiy va badiiy ma'lumotlar qoldirdi.

Nazorat uchun savollar:

1. Sakkokiyning hozirgi o'zbek tili va dabiyotiga qo'shgan hissasini tushuntirib bering.
2. Tamsil qanday san'at?
3. She'riy asarlar jozibadorligini oshiruvchi vositalarni aytинг.
4. Qasida nima?
5. Sakkokiy ijodidagi xalqchillik xususiyatining sababi nima deb o'ylaysiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqulov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o'quvchilari uchun darslik). – Т.,2000.
7. Ҳасанова М. XV аср биринчи ярмида қасидачилик анъанаси // ЎТА, №1,2013. – 59-61-бетлар.

GADOIY HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Gadoiy hayoti va ijodining o`rganilish tarixi.
2. Gadoiyning ijodiy merosi.
3. Gadoiy she`riyatining mavzulari, mundarijasi
4. Gadoiy she`riyati janr xususiyatlari.

Tayanch so`z va iboralar: *zullisonayn, tamsil, irsoli masal, tanosib, tuyuq, radif, g`azal*

«Huloguxon zamonidin, sultoni sohibqiron Temur Ko`ragon zamonidin farzandi xalafsi Shohruh Sultanning zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo`ldilar. Va ul hazraining avlod va ahfodidan ham xush tab’ salotine zuhurga keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar».

Alisher Navoiy

Gadoiy hayoti va ijodining o`rganilish tarixi.

XV asr arafasida o`zbek tilida asar yozishga bo`lgan ishtiyoq yanada kuchaydi. Alisher Navoiyning yuqoridagi fikrlari buning yorqin dalilidir. o`zbek adabiy tilining taraqqiyotiga o`z ijodi bilan katta hissa qo`shgan adiblar orasida Gadoiy ham bor.

Gadoiyning haqiqiy nomi hozircha ma`lum emas. Bu adib hayotiga oid tarixiy-adabiy ma`lumotlar ham juda kam. Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» hamda «Mahbub ul-qulub» asarlarida Gadoiy haqida ayrim qaydlar uchraydi, xolos.

Faxri Hirotiyning «Radoyif ul-ash’or» nomli tazkirasida Gadoiyning fors-tojik tilida yaratilgan g`azali uchraydi. Bu adibning ikki tilda ijod etgani zullisonayn shoir bo`lganligidan dalolatdir.

Alisher Navoiy Gadoiy ijodiga yuqori baho beradi. Uni turkiygo`y adiblar orasida alohida hurmat va e’tiborga sazovorligini uqtiradi.

«Majolis un-nafois» tazkirasida shunday yozadi:

«Maylono Gadoiy turkiygo`ydur, balki mashohirdindur. Bobur Mirzo zamonida she’ri shuhrat tutti, bir navi aytur va uning mashhur matla’laridin biri budurkim:

Ohkim, devona ko`nglum mubtalo bo`ldi yana, Bu ko`ngulning ilgidin jonga balo bo`ldi yana.

Maylononing yoshi to`qsondin o`tibdur. Bu matla’ 3.ningdurkim:

Dilbaro, sensiz tiriklik bir baloyi jon emish, Kim aning dardi qoshida yuz o`lum hayron emish».

Ushbu parchadagi ikki holat alohida e’tiborga molik:

1) Gadoiyning yashagan davri haqidagi maiumot. Demak, Gadoiy Abulqosim Bobir Mirzo zamonida yashagan, ijod qilgan. U 1452–1457-yillarda hukmronlik qilgan;

2) adibning yoshi haqidagi ma'lumot.

Ma'lumki, «Majolis un-nafois» hijriy 807- (milodiy 1491 – 1492) yilda tuzilgan. Agar shu paytda Mavlono Gadoiyning to'qson yoshlarda ekanligini nazarda tutsak, adib taxminan XV asr boshlarida tug'ilgan bo'ladi.

Gadoiyning ijodiy merosi. Gadoiy she'riyatining mavzulari, mundarijasi

Gadoiy devon tuzgan shoir. Uning devonida g'azallar asosiy o'rinni tutadi.

Shuningdek, unda mustahzod, qit'a janrlarining namunalari mavjud. G'azallar 4, 5, 6, 7, 8, 9 baytlardan iborat bo'lib, eng ko'p uchraydigan turi 7 (131 ta) hamda 5 (74 ta) baytli g'azallardir.

XV asr adabiyotida tasavvufona g'oyalarning kuchayib borayotganligi sezildi. Bu hol adibning taxallus tanlashiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan bo'lsa ajab emas.

Tasavvufdagagi naqshbandiylik oqimi kamtarona, ammo faol hayotni targ'ib etadi. Faqirlik va fano bu oqimning aqidasi edi. Adib ana shu nuqtayni nazardan kelib chiqib, o'z taxallusini tanlagan. Devonda bu taxallus ikki xil shaklda qo'Uanadi:

Holi zorimga nazar qilgin zakoti husn uchun,

Lutf-u ehson ko`rsa sultondin ne bo'lg'ay bir Gado?

Dastgir o'lgung yo'q, ey sulton, Gadoiy xastag'a,

Har necha qilsa qaro yerdek oni g'am poymol.

Gadoiy g'azallarida dunyoviy mavzular bilan bir qatorda, ishq-muhabbat tarannumi, inson ruhiy kechinmalari tasviri asosiy o'rinda turadi:

Qosh-u ko'zingdin shikoyat qilsam, aytur kirpuzung:

«Ayb emastur bir-bir ustinda kelur, kelsa balo».

Yor go'zalligi ta'rifi bag'ishlangan ushbu baytda zamonaning o'ziga xos tavsifi ham berilmogda. «Baloning ustiga balo kelishi» Gadoiy yashagan zamon uchun odatdagi hol edi. Nozik qochirim shaklidagi bu ifoda g'azalning ijtimoiy-estetik ahamiyatini juda oshirib yuborgan.

Boshqa bir baytdagi adibning «Falakka yetdi ohimning tutuni» satri «Mohi paykar»ga oshiq aytayotgan so'zgina emas, balki XV asr kishisining o'z zamoniga bergen bahosi hamdir.

Gadoiy she'riyati janr xususiyatlari.

Gadoiy lirik tasvirning benazir ustasi bo'lgan. Shoir tomonidan chizilgan lirik lavhalar mo'jaz va ixchamligi, ta'sirchan va betakrorligi bilan ajralib turadi.

Bahor ta'rifi Yusuf Xos Hojib va Rabg'uziylardan boshlab yozma adabiyotimizda mustahkam o'rinni oldi. Gadoiy_ ham bu an'anani ijodiy davom ettirdi:

Yoz fasli el bori bu lazzat-u ishrat bila, Yolg'uzun men mubtalo dard-u g'am-u mehnat bila.

Lirik qahramon uchun bahor (yoz) o'z ruhiy holatini ifodalash uchun bir vosita. Bahor har bir kishi uchun ham, hamma (el) uchun ham «lazzat-u ishrat» qiladigan payt. Yolg'iz lirik qahramon bundan benasib. Bu ko'tarinki kayfiyat unga yot. Chunki u «dard-u g'am-u mehnatga mubtalo».

Ana shunday qiyos keyingi baytlarda ham davom ettiriladi:

Xalq xush gulgasht etarlar g'unchateg o'yiab-qulub,

Kunji mehnatdур dag'i men yigia-yu hasrat bila.

Yoki:

Yana yoz bo'ldi-yu topti bo'ston nash'-u namo,

Ey nasimi ruhparvar, xayra maqdam, marhabo.

Bahorning kelishi har qanday ko'ngilga ham huzur, qu-vonch va shodlik baxsh etadi. Ayniqsa, hassos ko'ngil egalari bundan ayricha bir lazzat tuyadilar. Ayni shu paytda ko'ngilga yaqin odam bilan yonma-yon bo'lish yanada yoqimlidir:

Emdi xushtur mohpaykarlar bila gulgashtkim,

Bog'i rizvonteg chaman bo'ldi latif-u jonfizo.

Gulgasht – gul sayli. Gul saylining o'zi ko'ngilga rohat bag'ishlaydi. Ammo ilk bahordagi gul sayri mutlaqo o'zgacha. Adib shuning uchun ham «Emdi xushtur» demoqda. Bu ayni paytda mohi paykarlar bilan yonma-yon bo'lishni anglatadi.

Ammo lirik qahramon gulgashtda ham «vasli dilbardan yiroq»:

Ush munungek faslda men vasli dilbardin yiroq,

Asr-u zulm o'lgay, ilohiy, tutmasun tengri ravo.

Qish bilan bog'liq xotira «g'ubori xotirim» tashbehi bilan ifodalanmoqda. Shunga ko'ra, bahorga yetishmoq shukr boisidir:

Garchi bor erdi burun andak g'ubori xotirim,

Shukrilillahkim, muyassar bo'ldi anvoyi safo.

Ana shu kayfiyat oshiq ixtiyorini mahbub – yor «ilgiga – qo'liga topshirishga» imkon beradi. Mumtoz adabiyotimizdagи barcha oshiqlarga xos bo'lgan fidoyilik bu yerda ham namoyon bo'ladi:

Xoh o'ltur, xoh turguz, ixtiyor ilgingdadur,

Ul sening noz-u itobingga mening jonim fido.

Gadoiy she'riyatida ishq, oshiqlik tavsifi asosiy o'rinn tutadi. Quyidagi g'azal ham shu mavzuda:

Ohkim, devona ko'nglum mubtalo bo'ldi yana,

Bu ko'ngulning ilkidin jong'a balo bo'ldi yana.

Ko'ngil «devona», u mubtalolik bilan mashhur. Mubtalo-likning tagida esa dard bor. Dardga mubtalolik haqiqiy qalb-ning, haqqa tashna qalbning xislati.

Gadoiyning mahorati shundaki, u oshiqona she'r misralari orasiga ijtimoiy hayot haqidagi qarashlarini g'oyat ustalik bilan singdirib yubora oladi:

Do'stin oyirdi bu charxi jafogustar yana,

Ey darig'o, hojati dushman ravo bo'ldi yana.

Ha, bu charx – jafogustar. Chunki u do`stdan ayiradi. Ayni shu hol dushmanning hojati ravo bo`lganini ham anglatadi. Shuning uchun ham lirik qahramon «Ey darig`o» deb oh urishga mahkum.

Bahor chog`idagi eng muattar epkin – abir ham yor` zulfı oldida ip esholmaydi. Ungataassub qilish xatolik, xolos:

Chini zulfindin dam urmoqlik ne nisbat, ey abir,

Bu kinoyat bori sendin, bas, xato bo`ldi yana.

Bularning barchasi bahor faslida – Navro`z ayyomida sodir bo`lmoqda. Bahor yaxshi kayfiyat, ko`tarinki ruh, ayni paytda ertangi kunga nisbatan beg`ubor umid uyg`otadi. Gadoiy ; ham ana shu ruhni ta`kidlaydi:

Shod bo`lg`il, ey Gadokim, maysumi navro`zcfе, –

Gulbuni ummed bobargu navo bo`ldi yana.

Gadoiy she`riyatida inson qalbidagi nozik kechinmalar juda ustalik bilan tasvirlanadi. Bu tasvirlar to hanuz ko`ngillarimizni hayratga solaveradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Gadoiy nima uchun shu taxallusni tanlagan deb o`ylaysiz?
2. Gadoiy qaysi adiblar bilan zamondosh bo`lgan?
3. Alisher Navoiyning Gadoiyiga munosabati haqida gapirib bering.
4. Gadoiy she`rlaridagi asosiy mavzular haqida gapirib bering.
5. Adibning badiiy mahorati haqida nimalar deya olasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqukulov N. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o`quvchilari uchun darslik). – Т., 2000.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Асланова X. Гадоийнинг форсий ғазали//Шарқ ўлдузи, 2013, №1. – 154-157-б.

LUTFIY IJODI

Reja:

1. Lutfiyning ijodiy faoliyati.
2. Lutfiy va Navoiy munosabatlari.
3. Lutfiy lirikasi, janr xususiyatlari. Turkiy she'riyatda tuyuq janrinining takomili.
4. Lutfiy she'riyatida badiiy mahorat. Lutfiyga nisbat berilgan asarlar.

Tayanch so`z va iboralar: *zullisonayn, tamsil, irsoli masal, tanosib, tuyuq, radif, g'azal, tuyuq, "Yusuf va Zulayho", Ami Temur, "Zafarnoma"*

Lutfiyning ijodiy faoliyati.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixining Alisher Navoiygacha bo'lgan davridagi eng yirik siymolaridan biri Mavlono Lutfiydir.

U haqida "Majolis un-nafois", "Xutbayi davovin", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Badoyi' ul-bidoya" asarlarida, shuningdek, D.Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Xondamirning "Habib us-siyar", "Makorim ul-axloq", Abdulla Kobuliyning "Tazkirat ut-tavorix", Shamsiddin Somiyning "Qomus ul-a'lom", Vosihning "Majmuay manzum va mansur", Shayx Ahmad Taroziyining "Funun al-balogs'a" kabi manbalarda ma'lumotlar uchraydi.

Lutfiyning asl nomi Lutfulladir. U 1366-yilda dunyoga kelgan. Taroziy Lutfiyni «Shoshiy» degan. Bu ishoradan adibning Toshkentda tug'ilgani ma'lum bo'ladi. U uzoq yashagan tabarruk siymolardan biridir. Bu haqda Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida shunday yozgan: «To'qson to'qquz yoshida olamdin o'tdi, qabri Dehikanordadur. o'z maskani erdi». Dehikanor Hirot yaqinida bo'lgan.

Sulton Ibrohim Mirzo zamonidagi (hijriy 860) voqealarni eslab, Alisher Navoiy o'sha davrlarda ayniqsa, Lutfiy she'rlarining shuhrat topganini qayd etadi va eng mashhur g'azallarining matla'larini keltiradi. Navoiy Lutfiyning o'ziga nisbatan katta muhabbatli borligini eslatadi: «Bu faqir borasisig'a ko'p iltifoti bor erdi va fotihalar o'qur erdi». "Majolis un-nafois"da shoir 99 yil umr ko'rgani, hayoti so'ngida forsiyda "Oftob" radifli g'azal yozgani, Mavlono Shahobiddin Xiyoboniq qoshida so'fiylik tariqatidan tahsil olgani haqida ma'lumotlar berilgan

Lutfiy va Navoiy munosabatlari.

Kondamir «Makorim ul-axloq» asarida Lutfiyni Navoiygacha turkiy tilda ijod qilgan eng yirik shoir sifatida ta'riflaydi. Uning hassos qalbi va o'ta kamtarinligini ta'kidlab, bir voqeani eslatadi.

Yosh Alisher Lutfiy huzurida ushbu matla' bilan boshlanadigan g'azalni o'qiydi:

Orazin yopqach, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,

Bo`ylakim paydo bo`lur yulduz, nihon o`lg`och quyosh.

«Mavlaviy janoblari, – deb yozadi Xondamir, – bu ravshan va yorqin g`azalni eshitib, hayronlik dengiziga tushdi va shunday dedi: «Qasam tangrigaki, agar mumkin bo`lsa edi, men o`zimning fors va turk tillarida aytgan o`n ikki ming baytimni shu g`azalga almashar edim. Va shunday bo`lgan taqdirda men o`zimni katta maqsadga erishgan hisoblar edim».

Bu yerda shoir ijodining hajmi 12 ming bayt, demak 24 ming misra ekanligi haqida ham eslatma mavjud. Demak, shoirning bundan ham ko`proq ijod qilganini taxmin etish mumkin. Chunki bu voqeа Navoiyning juda yosh paytiga to`g`ri keladi. Vaholanki, Lutfiy olamdan o`tganida Navoiy 24 yoshda edi.

Lutfiy iste`dodli shoir va nozik didli tarjimon ham bo`lgan. U Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asari tarjimasini boshlab qo`yan edi.

Lutfiy lirikasi, janr xususiyatlari. Turkiy she`riyatda tuyuq janrinining takomili.

Adibning ikkita devoni bizga qadar yetib kelgan. Devon muayyan tartibga, asosan, radif va qofiyalarga rioxan etgan holda alifbo sirasi bilan tuzilgan to`liq she`rlar to`plamidir. Bizga qadar yetib kelgan devonlarda 372 g`azal, 3 qasida, 115 to`rtlik, 60 fard va ruboiy, tuyuq, qit'a kabi janrlar uchraydi.

Lutfiy g`azaliyotidagi asosiy mavzu – ishq. Adib tasvi-ridagi oshiq – saodat timsoli. U o`z ishqiga mahbubining ham to`la ishonishini istaydi:

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Ayriliqdagi oshiq uyqu, orom nimaligini bilmaydi. U tunlarni tonglarga ulaydi:

Ya`qub bikin ko`p yig`idin qolmadi sensiz,

Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.

«Yusuf va Zulayho» dostonidan ma`lumki, Ya`qubning ko`r bo`lib qolishiga o`z farzandi go`zal Yusufni sog`inib, qo`msab yig`lashlari sabab bo`lgan. Adib shu voqeani eslatib turib, yor sog`inchida haddan tashqari ko`p yig`lash oqibatida «nuri basarim» – ko`zlarimning nuri qolmadi, demoqda.

Yorning oydek yuzi bor. Ammo unga faqat oshiq nazar solishi mumkin. o`zga kishining ko`z tashlashi oshiq qalbini o`rtaydi:

Oy yuzungga ko`z solg`ali o`zga kishi birla,

Yo`qtur nazarim, xoh inon, xoh inonma.

Oxirgi baytda yana tanosib san `ati kuzatiladi. Shoir o `t, yuz, oltun, siymbar singari ranglarni anglatuvchi o`zaro yaqin hodisalarini ifodalovchi so`zlar orqali nihoyatda go`zal misralarni yaratadi:

Ishq o`tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,

Ey siymbaram, xoh inon, xoh inonma.

Oshiq ko`nglidagi ishq uni yor tomon undab turadi. Ammo yorning ma`shuqani ko`rishining har doim ham imkoni yo`q. Ayriliq bu o`tni yanada avj oldiradi. «Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi» degan jumlalar hijrondagi kishi

rangiga ishora. Ya’ni sariq rang oltin rangi bo`ladi. Ayni paytda yorga nisbatan, siymbar, ya’ni kumush tanli deb murojaat qilishi ham ushbu ma’noni yanada kuchaytiradi.

«Yoz bo`ldi, kerak ul buti ayyor topilsa» g’azalida mana shu ikki yo`nalish uyg’unlashgan:

Yoz bo`ldi, kerak ul buti ayyor topilsa,

Barcha topilur, bizga kerak yor topilsa.

Lirik qahramon «gul davrida hushyor yurgan odam oqil emas» deb hukm chiqaradi. Buni bahor go`zalligidan bebahra qolgan odam oqil bo`lolmaydi, deb tushunish mumkin.

Lutfiy g’azallarida xalq og’zaki ijodi an’analari ochiq ko`rinadi. So`zlashuv uslubiga xos bo`lgan ohanglar, xalqona ta’bir va qochirimlar fikrimizning dalili bo`la oladi. Uning «Ayoqingg’ a tushar har lahza gesu...» g’azali besh baytdan iborat. Uning har bir baytida bittadan maqol uchraydi. Bu hol g’azaining nihoyatda o’qimishli, dilga yaqin, sershira bo`lishini ta’milagan. Xalq og’zaki ijodiga yaqinlik «Senga ne?» g’azalida ham juda ochiq ko`rinadi:

Dudog’ing ma’dani jondur, dedim, aytur: «Senga ne?»

Qomating sarvi ravondur, dedim, aytur: «Senga ne?»

Lutfiy g’azalchilik an’anasiga ko’plab yangiliklar kirit-gan adibdir. U ilk marta suhbat — dialog usulini bu g’azalning boshidan oxirigacha davom ettirgan. An’anaga ko’ra, g’azalda go`zalning tashqi qiyofasi, husni, latofati madh etiladi. Ammo lirik qahramon qalbidan kechayotgan nozik tuyg’ular ham o’z ifodasini topgan.

Dudog’ (lab)ni ma’dani jonga, qomatni sarvga o’xshatish g’azalchilikda ancha oldindan kelayotgan an’ana. Ammo bevosita dialog orqali ma’shuqa xatti-harakatlariga, uning ko’ri-nishi va ma’naviy olamiga doir maiumotlarning berilishi Lutfiygacha deyarli uchramaydi. Ma’shuqa munosabatining savol tarzdagi ifodasi («Senga ne?») birinchi marotaba uchrayotgan hodisa:

Qamar otlig’ yuzung olidadur oy bir habashiy,

Dag’i yuzungda nishondur, dedim, aytur: «Senga ne?»

Shoir so’z o`ymlaridan juda mahorat bilan foydalana olgan. Inchunin qamar va oy aslida bir xil tushuncha ifodasi. Yuz qamarga ham, oyga ham o’xshatiladi. Ma’shuqaning javobi esa yana xalqona ohangni esga soladi: Senga ne? — senga nima? demakdir. Bunda o’ziga xos dashnom va tanbeh ham, nozu istig’no ham, bolalarcha xatti-harakat belgilari ham namoyon:

Tafating husni jahoni-yu oning ustidagi

Soching oshubi jahondur, dedim, aytur: «Senga ne?»

Bularning hammasi Lutfiy g’azallarining yuksak badi-iyatini ta’minlovchi turfa omillarni ko`rsatib turibdi.

Garchi bu g’azal 9 baytdan iborat bo`lsa-da, Lutfiy g’azallarining aksariyat qismi 7 baytdan oshmaydi. 5, 6 baytli g’azallar ham anchagina.

Lutfiy tuyuqlari ham nihoyatda yuksak mahorat bilan yozilgan. So’z o`yinlari ularda yorqin ko`rinadi:

Ey ko`ngul, yorsiz senga ne bor, bor,
 Qaydakim ul zulfi anbarbor bor.
 Chek jafo-yu javr-u nozi borini,
 Bir kun o`lg`aykim, degaylar: «Bor, bor».
 Birinchi misrada ne bor – nima bor ma`nosida. «Bor»ning yuk, ish
 ma`nolari ham mayjud.

Keyingi misrada u «mayjud» ma`nosida ishlatilmoqda.

Ko`ngluma har yonki boqsam, dog`i bor, Har necha dardimni desam,
 dog`i bor, Qilcha tanga bori ishqing yor edi, Bir sori bo`ldi firoqing dog`i bor.

Bu tuyuqda so`z o`yinida «dog`i bor» so`zlari turli holatlarda boshqa-boshqa ma`nolarni ifodalab kelmoqda.

Dastlab, ko`ngilning har yonida alam va qyinoq dog`larining mavjudligi,
 so`ng bu dardni qancha aytgan bilan yana topilaverishi ta`kidlanmoqda. Oxirgi
 misrada firoq dog`i (ta`sir)ning o`rni haqida fikr yuritilmoxda.

Tuyuqning asosiy xususiyati bir xil shakldagi so`zni turli ma`nolarda
 qo`llashdir. Ammo bu so`zning qat`iy o`rni bor: u har doim qofiyada kelishi
 shart. Buning ustiga tuyuqning o`ziga xos vazni ham mayjud. U, asosan, a-a-b-a
 a shaklida qofiyalanadi. Vazn ohangi foilotun foilotun foilundir:

Char-xi kaj-raf-	tor e-lin-din	yo-za-men
Fo-i-lo-tun	fo-i- lo-tun	fo-i-lun
Chiq-ma-dim hij-	ron qi-shin-din	yo-za-men
Fo-i-lo-tun	fo-i-lo-tun	fo-i-lun
Bir me-ni yor-	liq bi-la yod	et-ma-ul
Fo-i-lo-tun	fo-i-lo-tun	fo-i-lun
Har ne-cha ul	shah-ga qul-luq	yo-za-men
Fo-i-lo-tun	fo-i-lo-tun	fo-i-lun

Lutfiy shaklan ixcham qifalarida ham nihoyatda teran mazmunni qisqa
 va lo`nda ifodalash mahoratiga ega. Qit`a shaklan g`azalga o`xshasa-da, uning
 dastlabki ikki misrasi o`zaro qofiyadosh bo`lmaydi. Tuyuq va ruboilylarga xos
 bo`lgan a-a-b-a qofiyalanish tartibi ham bujannda uchramaydi. Qit`ada faqat
 juft misralargina o`zaro qofiyadosh bo`la oladi.

To`ng`a sig`masmen farahdin gul kabi, Kelsa ul sarvi ravon bir-bir
 mang`a. Muncha yil ketgan bu baxt-u davlatim, Shukrlillahkim, kelur bir-bir
 manga.

Ushbu qifa ikki bayt, to`rt misradan iborat. Lirik qahramon – oshiq o`z
 ma`shuqasiga intiladi. Uning bir qadam bosib kelishini orzu qiladi. Shunday
 hodisa bo`lsa, u bunday baxt-u iqbol, xursandchilik (farah)dan ichiga sig`may
 ketadi. Bu go`yo o`z to`niga sig`masdan ochilib ketgan gulga qiyoslanmoqda.
 Lirik qahramon bu o`xshatish bilan kifoyalamanmoqchi emas. Unga bu hali
 kamlik qiladi. Shunga ko`ra u o`xshatishni yana bir pog`ona yuqoriga ko`taradi:
 Yorning kelishi go`yo ketgan davlatning qaytishiga nisbat beriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Lutfiy nima uchun shu taxallusni tanlagan deb o`ylaysiz?
2. Lutfiy qaysi adiblar bilan zamondosh bo`lgan?
3. Alisher Navoiyning Lutfiyiga munosabati haqida gapirib bering.
4. Lutfiy, Sakkociy, Gadoiy, Atoiy ijodining o`xhash jihatlarini kuzatdingizmi?
5. Lutfiy tuyuqlaridan birini izohlang.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqulov N. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o`quvchilari uchun darslik). – Т., 2000.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Содиков К. Мавлоно Лутфийнинг уйгур ёзувида битилган шеърлари//ЎТА, 2010, №1. – 101-111-б.
2. Qurbanova G. Lutfiyning “Xoh inon, xoh inonma” g’azali tahlili xususida // TAT, №6, 2010. 10-14-b.
3. Nazarova E. Lutfiy ijodini o’rganish tajribasidan // TAT, №6, 2010. 15-21-b.
4. Йўлдошев Б. Лутфий лирикасида “кўнгил” компонентли ибораларнинг қўлланиши хакида // TAT, №5, 2010. 37-41-b.

HUSAYN BOYQARO (HUSAYNIY)

Reja:

1. Husayniy lirkasining manbalari. Husayniy va Alisher Navoiy munosabatlariga doir.
2. “Risola” asari va uning mundarijasi.
3. Husayniy lirkasining badiiy xususiyatlari.

Tayanch so`z va iboralar: *Husayniy, nasr, g’azal, “Risola”, “karim uttarafayn”, qazoglik, Shoh G’oziy, ramali musaddasi maqsur*

Husayniy lirkasining manbalari. Husayniy va Alisher Navoiy munosabatlariga doir.

Husayn Boyqaro, Husayniy (to`liq nomi Husayn ibn Mirzo Mansur binni Mirzo Boyqaro) (1438 – Hirot – 1506) – Xuroson hukmdori (1469–1506), shoir. 15-asr o’zbek mumtoz adabiyotining namoyandalaridan. Temuriylardan Umarshayx mirzoning evarasi. Onasi Feruzabegim temuriylardan Mironshohning nabirasi. Husayn Boyqaro, Bobur ta’riflaganidek, ikki tomonlama ulug’ («karim ut-tarafayn») bo’lgan.

14 yoshda Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kirgan. 1454 yili Abulqosim Boburning Samarcandga – Abu Said Mirzoga qarshi yurishida qatnashgan. Abulqosim Bobur yengilgach, sulk tuzib, Hirotga qaytgan. Husayn Boyqaro esa onasining tavsiyasi bilan Abu Said Mirzo saroyida qolgan. Ko’p o’tmay, qamoqqa olingen. Feruzabegim uni qutqarib, Hirotga olib kelgan.

Shoh vafot etgach, Husayn Boyqaro Marv hukmdori Sulton Sanjar xizmatiga kirgan va uning qizi Beka Sultonbegimga uylangan. Sulton Sanjar Husayn Boyqaroni o’z o’rniga qo’yib, Mashhadga yurish qilgan. Bu orada Marvda Husayn Boyqaroga qarshi fitna uyuşhtirilib, u ovga chiqqanda, shahar darvozalari berkitib olingen. Husayn Boyqaro 1457 yili qishni Marv bilan Xiva oralig’idagi biyobonda o’tkazgan. 1458 yilda 300 kishilik qo’shin bilan Sulton Sanjarning yaqinlaridan Bobo Hasan qo’shinini yengib, Niso viloyati, so’ng Astrolobodni egallagan.

1459 yilda Husayn Boyqaro huzuriga Abdurazzoq Samarcandiy elchi bo’lib kelgan. 1460 yilda vaziyat taqozosi bilan Husayn Boyqaro Astrolobodni tashlab chiqishga majbur bo’lgan. Ammo 1461 yil shaharni qaytarib olgan. Shu yil yoz oxirlarida Hirotga yurish qilgan. Biroq Abu Said Mirzoga bas kelolmay, orqaga chekingan, buning ustiga, Astroloboddan ham mahrum bo’lgan. Amudaryo orqali Xorazmga o’tib, Vazir shahriga – Mustafoxon huzuriga elchi yuborib, Abu Saidga qarshi birgalikda kurashishga da’vat etgan. Lekin elchi kelguncha, uning og’asi Pir Budog’ bilan kelishib, Mustafoxonga qarshi yurish qilishgan, lekin Vazir shahrini ololmay, bitim tuzganlar.

Husayn Boyqaro Adoqqa borib, 1461 yil oxirlarigacha o’sha yerda qolgan. Adoqda turib, Astrolobod, Gurgon va Eronning boshqa tumanlariga

hujumlar uyuştirgan, mag'lubiyatga uchraganida, shu yerdan panoh topgan. Mustafo zulmiga qarshi ko'tarilgan isyondan foydalanib, avval Vazirni, 1462 yilda Urganch va Xivani qo'lga kiritgan. Oradan 1 yil o'tmay, Abu Said uni Xorazmdan surib chiqgargan. 1463–64 yillarda Urganch, Xiva, Hazorasp, Tirsakni qo'lga kiritgan. Shu yerda kuch to'plab, yana Xurosonga hujum qilgan. Ammo Abu Said qo'shinlari Xivani egallaydi. Husayn Boyqaro uni qaytarib oladi. 1467 yilda yana Urganchni egallaydi. Shu yili u o'zbeklar xoni Abulkayrxondan yordam so'rabi, Dashti Qipchoqqa boradi. Xon yordam va'da qiladi, lekin betob bo'lib qolganligi tufayli, bu va'da amalga oshmaydi. 1469 yil martigacha Xorazm va Buxoro o'rtasida sarson-sargardon yurgan Husayn Boyqaro, Abu Said vafot etgach, Hiroti egallab, Samarqanddan do'sti Alisher Navoiyini maxsus yorliq bilan chaqirib oladi va muhr dorlik vazifasiga tayinlaydi. Navoiy do'stini taxtga chiqishi bilan qutlab, unga «Hiloliya» qasidasini taqdim etgan.

1469–70 yillar Shohrux mirzoning avlodlaridan Yodgor Muhammad Mirzo va Abu Said Mirzoning o'g'li Sulton Mahmud Mirzo taxt da'vogarlari sifatida maydonga chiqadilar. Yodgor Mirzoning tarafdarlari, xususan, onasi Poyanda Sultonbegim Hirot ichkarisida zimdan ish olib borgan. 1470 yilning iyulida Husayn Boyqaro qo'shin bilan dushmanga qarshi jangga ketganda, poytaxtda sotqin bek va amaldorlar Yodgor Mirzo nomiga xutba o'qitganlar. Husayn Boyqaro 1 oydan so'ng Navoiyning tadbirkorligi bilan Yodgor Mirzoni qo'lga olib, taxtni qayta egallagan va umrining oxirigacha hukmdorlik qilgan. Saltanatiga Xorazm, Seyiston, Qandahor, Balx, G'aznadan Domg'ongacha bo'lgan yerlar kirgan. Yurak xastaligidan vafot etgan Husayn Boyqaro o'zi qurdirgan madrasa ichidagi maqbaraga dafn etilgan. Hozir maqbara vayron bo'lgan, qabr va uning ustiga o'rnatilgan «Sangi haft qalam» saqlanib qolgan.

Husayn Boyqaro temuriylar orasida ancha shijoatli va ma'rifikatli, shariatga qat'iy amal qilgan hukmdor bo'lgan. Husayn Boyqaro Xurosonda hokimiyatni egallagach, asosiy e'tiborni mamlakatda tinchlik, osoyishtalikni qaror toptirish, ichki hududiy nizolar, ziddiyatlarni bartaraf etish va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga qaratgan. U o'lkada madaniy-ma'rifiy va obodonchilik ishlarini rivojlantirishga alohida rag'bat ko'rsatgan: iqtisodiy hayot yuksalib, savdo-sotiq rivojlangan, yuzlab karvonsaroylar, rabot, ko'pri, maktab, madrasa, masjid, xonaqoh, hammom, tabobatxona, yetimxona, suv havzalari qurilgan, kanallar qazilgan, bog'lar barpo etilgan.

Husayn Boyqaro davrida Hirot Sharqning fan, madaniyat, hunarmandchilik rivojlangan yirik markaziga aylangan: turli mamlakatlardan iste'dod sohiblari Hirotga panoh axtarib kelganlar. Til, adabiyot, tarix, tasviriy san'at, xattotlik, kitobat san'ati, tabobat, handasa, musiqa, qog'oz tayyorlash, tomosha san'ati va boshqa sohalar rivojlangan. Hirot, Mashhad, Marv, Nishapur singari shaharlarda ko'plab noyob obidalar barpo etilgan. Mahalliy hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar Xurosondon tashqarida ham mashhur bo'lgan. Husayn Boyqaro, Navoiy va Jomiy ko'plab iste'dodlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlaganlar; o'z davrining zabardast

shoir, olim, muarrix, musiqachi, xattot, naqqoshlari xuddi shu zamonda yetishib chiqqanlar va faol ijod qilganlar. Zahiriddin Muhammad Bobur Husayn Boyqaro zamonidagi olimlar, fozil va shoirlar haqida gapirib, ularning hammasini saromadi Mavlono Abdurahmon Jomiy, shuningdek, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfi Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy, Mullo Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy, Shoh Husayn Koshiy, Hiloliy Ahliy, Muhammad Solih va boshqalar haqida qisqacha to`xtalib o`tadi. Alisher Navoiyning ta`kidlashicha esa Husayn Boyqaro qadimgi turk tilining taqdiriga befarq bo`lmay, uning rivoji uchun qator chora tadbirlarni amalga oshirgan. O`sha davr adapib muhitining ba`zi bir “mo`tabar” namoyandalari nazarida turk tili tahqirlanib, mazkur tilda ijod etish, ijodkorning iste`dod sizligini bildiruvchi nuqsonlardan biri deb hisoblangan. Binobarin, arab va fors tillariga e`tibor berilib, turk tili kansitilgan. Ana shunday sharoitda Husayn Boyqaro yozuvda turk tilini iste`molga kiritish borasida maxsus farmon bergen. Bu dadil qadam mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida katta voqeа bo`lgани shubhasiz.

Sulton Husayn Boyqaro Xurosон muzofotida, ayniqla, Hirotda diniy va madaniy-maishiy binolarni ko`gshab qurdirdi. Bu qurilishlarning asosiy mutasaddiysi sifatida Alisher Navoiyni ko`rsatish joizdir. Shuningdek, shahanshohning yaqin kishilari hamda bek va amirlari o`z nomlarini abadiylashtirish maqsadida masjid, madrasa, rabot, ko`prik, hammom va shunga o`xshash qurilishlar bilan shahar ko`rkini yanada jilolantirganlar. Chunonchi, Sulton Husayn Boyqaro Gozurgoh yaqinida o`z nomiga madrasa, Hirot tashqarisida “Bog`i bayt ul-imon” va “Bog`i xamsa oroyi” bog`larini barpo etgan. Sulton Badiuzzamon Mirzo nomi bilan ataluvchi “Madrasayı Badi'a” ham Sulton Husayn Boyqaro davrining ulkan obidalaridan biridir. Bu davrda ta`mirlangan Jome masjidi ulkan binolardan bo`lib, 403 gumbazi, 130 ravoqi va 44 ustuni bo`lgan. Shuningdek, Alisher Navoiy ham o`z hisobidan bir necha madaniy-maishiy binolar, chunonchi “Safoiya” nomli hammom va “Shifoiya” nomli kasalxonalar qurdirgan.

Tarixchi Xondamirning yozishicha, Xurosonda qirqa yaqin yirik inshootlar Sulton Husayn Boyqaro davrida vujudga kelgan va Hirotda atrof tevarakdan olimlar, shoirlar, adiblar, rassomlar, xattotlar, musiqachilar va boshqa har xil hunar ahllari kirib kelaboshlagan. Jumladan, o`sha davrda tabib Husayn Jarroh ichakni kesib davolashda chumolidan foydalanish usulini ixtiro qilgan. Ustod Sayyid Ahmad g`ijjak, Ustod Shohquli g`ijjak, Ustod Qul Muhammad udiy, Ustod Husayn udiy, Ustod Shayx Foniy noilar Xurosonda nom chiqqargan yetuk musiqashunos allomalardan bo`lgan. Naqqoshlik va xattotlik sohasida Xoja Mirak naqqosh, Mavlono Xoja Muhammad naqqosh va buyuk iste`dod sohibi Ustod Kamoliddin Behzodlar o`z mahoratlari bilan Xurosonda faxri hisoblangan.

“Risola” asari va uning mundarijasi.

Husayn Boyqaro turkiy tilda yozishni rag`batlantirgan va shunga da`vat qilgan. O`zi ham badiiy ijod bilan shug`ullanib, «Husayniy» taxallusi bilan

she'rlar yozgan, she'riyat majlislari tashkil etib, shoirlarga rahnamolik qilgan. Undan bizga qadar she'rlar devoni va Navoiyga bag'ishlangan «Risola» asari yetib kelgan. «Risola» asari 1945 yilda turk olimi Ismoil Hikmat tomonidan topilib, ilmiy muomalaga kiritilgan. Shoh shoirning hozirgacha 202 g'azal, Navoiy gazaliga bog'langan 3 muxammas, 6 ruboiy, shuningdek, fors-tojikcha 2 g'azal, 1 ruboiy va bir necha baytlari ma'lum. G'azallarining barchasi ramal bahrida. Lekin ular Husayn Boyqaroning tab'i baland, didi nozik shoir bo'lganligini ko'rsatadi. Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasining 8-majlisini to'liq H.B. ijodida bag'ishlab, uning devonidagi 164 g'azalning matla'ini keltiradi va u qo'llagan badiiy timsollar, she'riy san'atlar, nozik ma'no va ohorli tashbehlar xususida fikr yuritadi. Husayn Boyqaro g'azallari tilining musiqiyligi va jarangdorligi bilan ajralib turadi.

Husayn Boyqaro fors va turkiy tillarida g'azal bitish iqtidoriga ega bo`lsa-da, asosan turk tilida "Husayniy" taxallusi bilan ijod etgan. Uning ta'bi nazmi haqida Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida shunday yozadi: "Ul hazratning xo'b ash'ori va marg'ub abyoti bag'oyat ko'pdur va devon ham murattab bo'lubtur".

Sulton Husayn Boyqaro Xuroson hududini ichki va tashqi dushmandan tozalagach, beg'amlikka, ayshu-ishratga beriladi. Hukmdorning so'ngti yillari mamlakat ichida vujudga kelgan isyonlarni bostirish bilan o'tadi. Bu isyonlar o'z o'g'illari tarafidan mulk talashib, ko'tarilgan nizo va mojarolardan iborat edi. Ammo shunga qaramay, u qo'lidan kelganicha mamlakatdaadolat va osoyishtalikni, ilm-ma'rifat va madaniyatni ravnaq toptirishga harakat qilgan. 1506-yil bahorida Sulton Husayn Boyqaro xastaligiga qaramay Xuroson qo'shinini yig'ib, Muhammad Shayboniyxonga qarshi Movarounnahr hududiga qarab yo'l oladi. Shahanshoh Bobo Ilohiy mavzeiga yetganda, ahvoli og'irlashib, qo'shinni to`xtatishga qaror qiladi. 1506-yil 5-may, dushmanba kuni kechqurun saltanat sohibi Abulg'oziy Sulton Husayn Mirzo Boyqaro saktayi qalb (apopleksiya) kasali bilan 69 yoshida olamdan o'tadi.

Husayn Boyqarodan 14 o'g'il, 11 qiz qolgan. Badiuzzamon Mirzo, Shohg'arib Mirzo, Muhammad Husayn, Ibrohim Husayn kabi o'g'illari badiiy ijod bilan ham shug'ullanishgan. Uning vafotidan so'ng Hirot shayboniyalar tomonidan zabitilgan (1507).

"Risola" nasriy asari Navoiyga bag'ishlangan bo'lib, 2 ta qo'lyozma nusxasi mavjud. Biri turk olimi Ko'pruluzodaning shaxsiy kutubxonasida, ikkinchisi Turkiyaning Omasyo shahrida Boyazid kutubxonasida saqlanadi. Turk olimi Hikmat Ertaylon, afg'on olimi Muhammad Ya'qub Vohidiy Jurjoniy (1968), ozarbayjon olimi Hamid Orasli (1966) tomonidan asar tadqiqi qilingan. 1993-yil prof. Ergash Umarov AQShning Indiana universitetida dars berib qaytarkan, "Risola"ning fotokopiyasi va u haqida Gurxon Ganjaviyining maqolasini olib keladi va Til va adabiyot institutiga topshiradi. Yana bir fotokopiya 1945-yil Turkiyada Ismoil Hikmat Ertaylon tomonidan nashrga

tayyorlangan nusxa bo'lib, asl nusxa Turkiyaning Amaliya shahridagi Boyazid kutubxonasida saqlanadi⁶².

Asarda Husayn Boyqaro hamd va na't o'qigach, saltanatining tayanchlaridan biri sifatida Alisher Navoiyni tilga olib, unga yuksak baho beradi, o'zining ilm va ijod ahliga rahnamoligi haqida eslatib, Hirot va uning atrofida 1000 dan ortiq ijodkor borligini yozadi. Husayniy Navoiyning "Xamsa" yozish haqidagi fikrlarini (Sayyid Hasan Ardasherga yozilgan maktubda) "xomayi gazof" deb o'ylaganidan afsuslanadi.

Husayniy Navoiyning quyidagi masnaviyisini keltirib unga ta'rif beradi:

Men ulmenki, to turki bedodidur,

Bu til bila to nazm bunyodidur.

Falak ko'rmadi men kibi nodire,

Nizomiy kibi nazm aro qodire...

Xudo yetkirir oncha sur'at manga,

Ki, bo'lmas bitiriga fursat manga.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro haqida.

Alisher Navoiy ham "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida Husayn Boyqaro turkigo'y laqabi bilan mashhur bo'lgan "ramali musammani maqsur" vazning g'oyat ravonlig' va latofatidin ruhparavarlig' va salosatidin o'z devonlarin ... boshtin oyoq iltizom qilib, bu vaznida tartib beribdurlar erdi", - deb yozadi.

"Majolis un-nafois" asarida esa Alisher Navoiy maxsus majlis – 8-bobda Husayn Boyqaro she'riyatini tadvin qoidasiga binoan alifbo tartibida tahlil qilib beradi. Bunda shoир g'azallaridagi mavzu-rang-barangligi, badiiyatidagi kashfiyotlar, noyob tashbihlar, dirlabot adolar haqida atroflicha so'z yuritadi: *Ul hazratning xub ash'ori va marg'ub abyoti bag'oyat ko'ptur va devon ham murattab bo'lubtur. Devon ibtidosidin bunyod qilildi va har g'azaldin bir matla' yozildi.*

Navoiy "Xamsa"ning har bir dostonida, "Mahbub ul-qulub"da Husayniyga alohida to'xtalib o'tadi.

Ma'lumki, Navoiy Abusaid Mirzo buyrug'i bilan Hirotni tark etar ekan, Sayyid Hasan Ardasherga masnaviy – maktub yozadi. Unda Navoiy e'tiborsizlik, iste'dodi qadrlanmayotgaligidan achinadi⁶³. 1469-yilda Husayn Boyqaro Samarqandga Navoiy uchun farmon – yorliq yuboradi:

K-ey, fazl jahonining sipehri,

Yoq-yo'qli, o'shul sipehr mehri!

Tab'ingga dami bo'ldi ne vorid,

Yuz yil bita olmayin Atorid.

Sen garchi guhar do'konin ochding,

⁶² Мирзаев Т., Ҳайитметов А. Олимнинг ноёб тухфалари//ЎТА, 1993, №5 – 72-74-б.

⁶³ Бу хакида яна каранг: Ҳаккул И. Алишер Навоий ва Султон Абусайд //ЎТА, №1, 2015. – 3-19-бетлар.

Lekin bu guharni elga sochding.
Fikring chamanida ko'p rayohin,
Lekin xalq bo'lub anda gulchin.
Nazming gulidinki, dahr to'ldi,
Degilki, senga ne bahra bo'ldi?
Ko'rinaridi, shu vaqtdayoq Boyqaro Navoiy ijodidan bahramand
bo'lgan, yuqoridagi maktubdan ham xabardor bo'lgan.

Husayniy lirkasining badiiy xususiyatlari.

Vahki, ko'nglum nolasi hardam buzulg'on jon aro,
Go'yo bir cho'g'z erur faryod etar vayron aro.

Shoir bu baytda nola qilayotgan ko'nglini vayronada faryod qilayotgan
boyqushta o'xshatadi. Navoiy bu yerdagi g'aroyib badiiy topilmadan
hayratlanganini yashirmaydi.

Shoir g'azallari yorga samimiy muhabbat ruh bilan yog'rilgan.

*Bo'ldi gul vaqt-yu men dard-u g'amida mubtalo,
Ishq o'tidin loladek bag'rimda yuz dog'i balo.*

Baytda shoир gul – lola – dog' hamda dard – g'am – mubtalo – ishq o'ti
– bag'ir so'zлari bilan tanosub san'atini qo'llagan. Shu bilan birga gul vaqt
deganda yashirin tarzda Yorga ishora qilib, tashbehi muzmar (yashirin
tashbeh)ni qo'llagan

*Holi zorin, men kibi sultondin ayru tushgali,
Yaproq ermas, guldakim yuz til bila aylar ado.*

Oshiq elning sultoni bo'lса-da, Yor undan ayro bo'lishni
xohlayotganligini, bundan istihola qilib, barg kabi yuz turli tilda, ya'ni har xil
bahonalar to'qiyotganligidan qayg'uda.

*Loladek may jomini tutgil g'animat, gul chog'i.
Xosaikim, ishrat urdi bulbuli bedil sado.*

Birinchi misra ikki xil mazmun ifodalaydi 1.Ey Yor! Ishqing
to'ldirilgan qalbni g'animat bil. Hozir gul, ya'ni yoshlik chog'ingdir. 2. Ey
Yor! Gul chog'i ga'nimatdir. May to'ldirilgan loladek jomni menga tutgil.

Boshqa g'azalda oshiq ko'zning uxlamaslik sababini ko'ngilda Yor
xayoli bir kecha mehmon bo'lGANI bilan izohlaydi.

*Ko'z qilur bu vajhdin tunlar duri ashkin nisor –
Kim, xayoling jon uyida bir kecha mehmon erur.*

Bu bilan Husayniy Navoiyning "Ishq o'ti – azal qismati" mazmunli
g'azaliga hamohang fikrlarni bayon etadi. Go'yo ixtiyor oshiqning o'zida emas,
jon uyida Yor bo'lGANligi uchun ko'z qayg'uda, uyqu bilmaydi. Mumtoz
adabiyotda ko'z dunyoga muhabbatning bir ramzi bo'lGANligini hisobga olsak,
ko'z jonning tandan chiqib ketishidan qattiq xavotirga tushgan. Chunki jon –
tanning tirikligidir.

*Xanjari javring durur o'tlug' ko'ngul osoyishi,
Suv nechukkim, tashna lablar dardig'a darmon erur.*

Oshiqning qalbi ishq o'tidan alangalangan. Yorni ko'rsa, olov yanada
kuchayishi tayin. Shu tufayli oshiq ishq olovidan Yor jabri xanjarini ustun

qo'yadi. O't azobidan tig' azobi afzal ko'rindi. Ikkinci misra orqali tamsil san'atiga murojjat etilngan. Bunda Yor jabri suvgi, oshiq qalbi esa tashna labga o'xshatiladi. Zero, o't – issiqlik. Oshiq qalbi sho'r bo'lsa-da suv istaydi.

Oshiq xayoli o'zidamasligi uchun go'yo yana o'zidan uzr so'raydi. Yorga oshiq bo'Imagan inson yo'qligini ro'kach qiladi.

Ey Husayniy, hajr aro bexudlug'um ayb etmagay,

Har kishikim bir pari ishqida sargardon erur.

Ruboiysidan:

Yo rab, qayu shukrimni ado qilg'aymen,

Ne til bila ani ibtido qilg'aymen?

Yuz jonim agar bo`lsa fido qilg'aymen,

Desamki, ado bo`ldi – xato qilg'aymen.

Husayniy ijodi ilmiy-badiiy tahlili bilan O.Sharafiddinov, E.Rustamov, S.G'aniyeva, E.Ahmadxo'jayev, A.Erkinov v.b. shug'ullanganlar.

Nazorat uchun savollar:

1. Husayn Boyqaroning boshqa temuriy shahzodalarga umumiyligi va mushtarak jihatlarini aytинг.
2. Husayniy ijodiga baho bering.
3. "Risola" asarida Navoiy ijodiga qanday baho beradi?
4. Navoiy qaysi asarlarida Boyqaro haqida to'xtalib o'tadi?
5. Navoiy va Husayniy munosabatlari haqida so'zlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т., 1981.
3. Муаллифлар. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик.. – Т.: Fan, 2001.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006.
5. Orziqulov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2007.
6. Adabiyot. (Akademik litsey 1-kurs o'quvchilar uchun darslik). – Т., 2000.
7. <http://oriftolib.uz>
8. Ma'naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999.
9. <http://www.ziyouz.com/>
10. <http://literature.uz/>
11. Бойқаро Ҳусайн. Рисола. – Тошкент: Шарқ, 1991. 24 bet.
12. Devon. – Т., 1995.
13. Абдугафуров А. Навоий ва Ҳусайн // ЎТА, №3, 1993. – 12-17-бетлар.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Жалилов Б. Навоий ва Ҳусайн Бойқаро муносабатлари//Илмий хабарнома, 2009.
2. Жўраева Ҳ. Восифийда шоирлар васфи [Навоий асарларида Ҳусайн Мирзонинг хаёт ва фаолияти ҳақида маълумотлар]//Қишлоқ ҳаёти, 2012, 26-январь

MUNDARIJA

Adabiy tasavvur va badiiy tafakkurning shakllanish davri. Islomga qadar yaratilgan adabiyot (Eng qadimgi davrlardan X asrgacha).....	3
Qadimgi turkiylar va yunon adabiyoti.....	11
Yozma yodgorliklar. “Avesto” kitobi	20
O’rxun-Enasoy obidaları.....	29
Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renessansi). Arab va fors tillaridagi adabiyot	38
Mumtoz didaktik badiiy ijod, dostonchilik va qissachilikning vujudga kelish davri (XI-XIII asrlar). XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot .	53
Mahmud Koshg’ariy va uning «Devonu lug’atit-turk» asari	62
Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari	72
Adib Ahmad Yugnakiy ijodi.....	86
Xoja Ahmad Yassaviy ijodi.....	94
Tasavvufiy talqinlar va badiiy tafakkurning yuksalish davri.	
Madaniy hayot	108
Nosiriddin Rabg’uziy ijodi	121
Sayfi Saroyi ijodi	128
Haydar Xorazmiy ijodi	133
Xorazmiy va uning “Muhabbatnoma” asari.....	140
Durbek ijodi	146
Qutb ijodi.....	151
Atoiy ijodi.....	159
Sakkokiy ijodi	165
Gadoiy hayoti va ijodi.....	171
Lutfiy ijodi	175
Husayn Boyqaro (husayniy)	180
Mundarija.....	187

Qo`ziyev Umidjon

O`ZBEK ADABIYOTI TARIXI

(uslubiy qo`llanma)

O`zbek adabiyoti tarixi
(uslubiy qo`llanma). – Namangan, 2016. – 190 b.

Наманган давлат университети

Бичими 60×80, 1/16. Ҳажми 10 б.т. Офсет усулида босилди.
Times New Roman гарнитураси. Адади: 100 нусха.